

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarлари

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali

Jurnal bir yilda to'rt marta nashr etiladi

Bosh muharrir –

Yo'ldoshev Ibrohim Jo'rayevich

filologiya fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari –

Jumayev Sobir Saidovich

professor

Tahrir hay'ati

Tulyaxodjayeva Muhabbat Turobovna – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Qodirova Sarvinoz Muhsinovna – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Ibrohimov Oqilxon Akbarovich – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Muxtarov Ildar Asxadovich – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Ismoilov Abdurahim Isroilovich – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor

Umarov Absalom Adilovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor

Mavrulov Abduxalil Abduxayevich – tarix fanlari doktori, professor

Yo'ldoshev Ma'rufjon Muxammadjonovich – filologiya fanlari doktori, dotsent

Xalikulova Go'zal Erkinovna – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Ismoilov Hamdam – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Kosheleva Antonina Fedorovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rashidov Temur Maxmudovich – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Shermanov Eldor Uralovich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Tursunov Farrux G'ulomovich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Abdujabbarova Musallam Lafasovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Jamoatchilik kengashi

Sayfullayev Baxtiyor Sayfullayevich – Senatning yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi, pedagogika fanlari nomzodi, professor

Nazarbekov Ozodbek Ahmadovich – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

Hakimov Akbar Abdullayevich – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi

Akilova Kamola Baltabayevna – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Mahmudov Jasur Xusanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.

Karimova Nigora G'aniyevna – san'atshunoslik fanlari doktori

Qosimov Nozim Kozimovich – filologiya fanlari nomzodi, professor

Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi
245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN 2181-8932

2021/3(19)

MUNDARIJA

1. **I.Yoʻldoshev.** Millat tili – millat madaniyatining koʻzgusi.....3
2. **D. Mamajonov.** Mustaqillik arafasida Oʻzbekistonda til siyosati.....7

I. TEATR VA KINO

1. **I.Meliqoʻziev.** Zamonaviy oʻzbek kino sanʼatining rivojlanish masalalari12
2. **E.Yorbekov.** Radiorejissor va boshlovchi hamkorligining baʼzi qirralari.....17
3. **G.Mufti-zade.** Mahoratli aktyor, lirik shoir – yetuk dramaturg20

II. MUSIQA SANʼATI

1. **O.Ibrohimov.** Maqomlar tadrijida saroy udumlari25
2. **J.Shukurov.** Xalq ashula va raqs ansambllari janrining tarixi va taraqqiyoti yoʻliga bir nazar.....28
3. **D.Islomov.** Oʻzbek doira ijrochiligi rivojida Usta Olim Komilovning oʻrni.....32
4. **T.Седых.** Муртазаев Баходир Мухтарович — новатор джаза Узбекистана.....36
5. **A.Ahmedov.** Abdurauf Fitrat ijodiy merosi.....42

III. SANʼAT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

3. **F.Tursunov.** Soʻgʻd madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasiga taʼsiri.....48
4. **G.Jamalxodjayeva.** Muhammad Yusuf dostonlarida toponimlarning funksional-semantik xususiyatlari...51

IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. **V.Alimasov.** Madaniyat va demokratiya55
2. **I. Ostonaqulov.** Huvaydoning “Na qildim sanga man, yorim...” gʻazali matni va ijrosi xususida ayrim qaydlar.....59
3. **V.Rustamov.** Madaniy-maʼrifiy faoliyatni optimallashtirishda sanʼatning oʻrni62
4. **M.Mirabdullayev.** Hofizlik sanʼatida ohanglar va bezovchi soʻz birikmalarining muhim ahamiyati.....65
5. **Yu.Vohidov.** Nay cholgʻusini oʻrgatish uslubi69
6. **S.Ermatova.** Sahna sanʼatida ibrat namunasi va uning talabalar kasbiy tarbiyasiga maʼnaviy taʼsiri..... 71

V. YOSH TADQIQOTCHI

1. **B.Umarxodjayev.** Madaniyat ravnaqi – yurt taraqqiyoti.....74
2. **Z.Hikmatillayeva.** Musiqaning bolalar tarbiyasidagi psixologik taʼsiri natijalari.....77
3. **K.Umarov.** Madaniyatshunoslik ilm sohasi sifatida.....80

VI. KOʻNGIL SOʻZLARI

1. **N.Kasimova.** Buyuk rejissor Shuhrat Abbosov (xotirasiga bagʻishlanadi)83
2. **A.Qobilov.** Said Ahmad ijodida hajv sanʼatining tutgan ahamiyati va oʻziga xos xususiyatlari.....86
3. **N.Arzimurodova.** Sanʼatga baxshida umr.....89
4. **S.Hamidova.** Tanqidchi, dramaturg, pedagog...95

MILLAT TILI – MILLAT MADANIYATINING KO'ZGUSI

Til va madaniyat masalasi juda qadimdan o'ta dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Chunki til orqali har bir millatning xulqi, odobi, ma'naviyati, madaniyati, qolaversa, millat sifatida nechog'lik o'rin egallaganligi ma'lum bo'lgan. Shu bois, ulug' ajdodimiz Yusuf Xos Hojib "Odobning boshi tildir" deb bejiz aytmagan. Buyuk Alisher Navoiy "Xamsa" asarini bitib, bu tilning o'rnini bejiz yuksaklikka ko'tarmagan. Ulug' Navoiy aytganidek, "Tilga e'tibor – elga e'tibor"dir.

Ma'lumki, yaqinda O'zbekistonda **"Davlat tili to'g'risida"**gi qonunning **30 yilligi** keng nishonladi. 1989-yil 21-oktyabrdan keyingi o'tgan davr tarix sahnasida juda qisqa bir vaqtni tashkil etsa-da, yurtimizda bu sohada olamshumul ishlar amalga oshirildi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qaror ona tilimiz rivojiga berilgan katta e'tibor namunasidir. Qarorda shunday deyiladi: **"Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir"**¹. Shuningdek, ayni shu yili 21-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonning ilk satrlarida barchamizni ruhlantiruvchi quyidagi so'zlarni o'qiyimiz: "Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir"².

Ushbu Farmonda 21-oktyabr sanasi yurtimizda "O'zbek tili bayrami kuni" deb belgilandi. 2019-yil 21-oktyabrda "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilganining o'ttiz yilligi bilan butun xalqimizni muborakbod etdi. Prezident o'z tabrigida

quyidagilarni bildirdi: "Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim"³.

Demak, har birimiz o'z ona tilimizga e'tiborli bo'lishimiz, uni ardoqlashimiz, kelajak avlodga nafosat va nazokatli tilimizni butun go'zalliklari bilan yetkazishimiz lozim. Bu ish bugungi avlodning kelajak avlod oldidagi eng muqaddas burchlaridan biridir. 2020-yil 20-oktyabrda "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolandi. Bu tarixiy Farmonda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Bugun yurtimizda har bir sohada buyuk o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning bevosita tashabbuslari bilan buyuk O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlash borasida katta marralar sari intilmoqdamiz. Dunyo miqyosida o'ta murakkab bir vaziyat bo'lib turgan zamonda har birimiz bo'layotgan islohotlar borasida o'z ulushimizni qo'shish sari shijoat qilishimizni davrning o'zi talab etmoqda. Bu yurt, bu o'lka, uning yetuk farzandlari qadimdan jahon madaniyati rivojiga katta ulush qo'shib kelgan.

Manbalarda aytilganidek, "Sivilizatsiya, jumladan, Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupada moddiy-texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq shaklida vujudga kelgan... Qadimiy Turonda axloqqa katta e'tibor bilan qarashgan. Yuksak insoniy fazilat, insonning millatidan qat'iy nazar, barcha mavjudodlarning sarvari sifatida qadrlash, ma'naviy kamolot va yetuklik, adolat, insof, diyonat va imon kabi xususiyatlar tiriklikning bosh mazmuni sifatida tushunilgan"⁴.

Biz yaxshi bilamizki, yurtimizda axloq masalasi benihoya serqamrov, mag'zi to'q, qiyosi yo'q tushuncha sifatida ardoqlab kelinadi. **"Ma'nili va bejirim gapira bilish, nutq daryosidagi maqbul va nomaqbul to'lqinlarni ilg'ay olish, so'zning orqa-o'ngini, munosib o'rnini farqlay bilish, nutqiy fahmu farosat, tarhli nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan"**⁵. Demak, til va nutq masalasi qadimdan millat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019, 5 oktabr.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019, 22 oktabr.

³ Mirziyoyev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2019 yil, 22 oktabr.

⁴ Jo'raev N. Agar ogoh sen ... – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B.106-107.

⁵ Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – B.43.

ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh omillaridan biri bo'lib kelgan. Ona tilimiz kelajagini ta'minlash – xalqimiz madaniyatini asrashdir, uning boqiyilgini ta'minlash bugun uchun, ayniqsa, muhimdir. Bugungi davr shuni taqozo etmoqda.

Til xususida bildirilgan fikrlar turlicha, lekin haqiqat shuki, til benihoya muqaddas va mo'`tabardir. U insonni shakllantirgan, taraqqiyot sari yetaklagan, uning aql ne'matlarini ifoda etib, tafakkur gulshani darvozalarini ochgan tengsiz bir robitadir. Shunday bir buyuk ehtirom va e'zozga sazovor bo'lgan tillarning kechmishi bir xil emas, albatta. Tarix sahnasida o'zbek tili ne mashaqqatlar bilan omon qoldi. Axir, til – millatning ruhi, deyiladi, til o'lsa, millat ham tamom bo'ladi. Bunga misollar kammi? Sibir xalqlarini o'ylab ko'ring, ularning tillari yo'q bo'lishi bilan birga ismlari ham o'zgarib ketdi. Butun Yevropa tillarining shakllanishida yetakchi til vazifasini bajargan buyuk *lotin tili*, Sharq tillarining bobosi deb ataganimiz *sanskritcha* tamoman tugab bitdi. Yoki yaqin hududlarimizda keng quloq yoyib taraqqiy etgan *so'g'd tili*, *pahlaviy*, *parfiyon* tillarining kechmishini eslaylik. Yoki Shimoliy Amerikadagi *algonkin tillari* mikrooilasiga kiruvchi *massachus* hamda *mogikan* tillarining taqdiri ham yo'qlik bilan yakunlandi. Yoki qadimgi Vaviloniyada keng tarqalgan *akkad tili*, eramizdan oldingi III asrdan eramizning IV asriga qadar G'arbiy Osiyoda yashagan oromiyning *oromiy tili*, shuningdek, qadimgi Finikiyadagi *finikiy tili*, qadimgi misr tili negizida paydo bo'lgan *kopt tili* kabi tillarning taqdiri ham yo'qlik bilan yakun topib, tarix sahnasidan tushib qoldi. Shuning uchun ham tilimizning bugungi rivoji va jahon tillari orasidagi munosib o'rni uchun beaded shukurlar qilishimiz kerak. To'g'ri, tilimiz ham o'z tarixiy taraqqiyoti davomida ko'p sinoatlardan muvaffaqiyatli o'ta oldi. U dunyo tillari ummoniga kelib quyilgunga qadar qayerdadir shovullab shiddat bilan oqdi, qayerdadir tarix yo'lidagi dambaga duch kelib, shiddatini sekinlatdi, yana dambani oshib o'tib, o'z o'zanida til ummoni sari intildi. **Tilimizning bugunga qadar omon-esson kelishining asosiy boisi xalqimizning o'z ona tilini jonidan sevishi, ardoqlashidadir.** Zero, bu haqda bundan ming yil avval buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariy aytgan edilar: “Xudo davlat quyoshini turklar (o'zbeklar – I.Y.) burjida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk (o'zbek) deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning hoqonlari qilib ko'tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo'liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, bularni to'g'ri yo'lda yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g'olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning o'qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo'lish uchun eng asosiy yo'l – ularning tillarida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular til tufayli o'z panohida turgan boshqalarning gunohini ham

kechib yuboradilar”⁶. Mahmud Koshg'ariy tomonidan bundan ming yil avval aytilgan mazkur fikrlardan ko'rinib turibdiki, xalqimiz azal-azaldan ona tilimizning muhibi, uni muqaddas bilib, ardoqlab kelgan. Xalqimizning ana shu xususiyatlari tufayli tilimiz tarixning barcha sinovlaridan omon-esson o'tib, bugungi yorug' kunlarga yetib keldi. Millatimiz tabiatidagi ko'p ming yillik til sevgisi, til e'zozini bugun ham to'liq kuzatishimiz mumkin.

E'tibor bering: agar Siz biron-bir xorijiy tilda ular mamlakatida ular tilida chiroyli qilib ma'ruza o'qisangiz, suhbatlashsangiz ular taajjubga tushishmaydi, go'yoki, Siz ularning tilini bilishingiz shartdek. Magarki, bir xorijlik mehmon bizning yurtimizdagi har qanday tadbirda tilimizda qo'pol qilib bo'lsa ham ikki og'iz so'z bilan “Assalomu alaykum, aziz do'stlar”, desa bo'ldi, biz o'rnimizdan turib uni olqishlaymiz. Ma'ruzadan keyin u bilan yuz yillik do'stdek iliq munosabatda bo'lamiz. Chunki bu xislat bizga ming yillar avvaldan nasib etgan.

Ikkinchi holat: 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qildi. Aslida mustaqillikning ma'naviy poydevoriga 1989- yil 21-oktabrda asos solingan edi. Shu kuni O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Bu Qonun uzoq yillik tanaffusdan so'ng o'zbek tiliga rasmiy maqom berdi va u davlatning asosiy ish yuritish tiliga aylandi. Mustaqillik o'zbek xalqi, uning tilshunoslari va tilshunosligi zimmasiga ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni o'rganish, uni bugungi va kelajak avlodlarga yetkazish, o'zbek tili taraqqiyotining zamon bilan hamnafas borishini ilmiy kuzatish, bu yo'nalishda zaruriy tadqiqot ishlarini olib borish, o'zbek terminologiyasini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ilmiy xulosalarga asoslangan holda uyg'unlashtirish, tartibga solish kabi dolzarb vazifalarni yukladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi ikki mingdan ortiq tilning oltinshiga yaqinida ilmiy terminologiya masalalari tadqiq etiladi va u uch yuz atrofidagi kasb-hunar doirasini qamragan, xolos. Shunga ko'ra, har bir tilda ishlangan sohalar terminologiyasi u qadar ko'p miqdorni tashkil etmaydi. Terminologik faollik har bir sohaning samaradorligi, taraqqiy etganligi kabi holatlar bilan ham belgilanadi⁷.

Uchinchi holat: XX asr o'zbek xalqi madaniy hayotida Davlat tili haqidagi Qonunning qabul qilinishi qanchalik muhim bo'lgan bo'lsa, 2016-yil 13-mayda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan imzolangan “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida”gi Farmon ham XXI asr o'zbek xalqi madaniy hayotida olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Demakki, biz tarixan ona tilimiz shaydosimiz. Shunday bo'lishi ham kerak. O'zbek tilining yurti, Vatani – O'zbekiston, davlat sifatida uni himoya qiladigan, taraqqiyotini, qonuniy asoslarini to'liq ta'minlaydigan ham shu yurtidir. Endigi vazifamiz, asrlar davomida xalqimiz tomonidan ko'z qorachig'idek asrab kelingan, Koshg'ariy, Navoiy kabi bobolarimizdek buyuk insonlarimiz bu til yashab ketishi, taraqqiy etishi uchun butun hayotlarini baxshida etgan **tilimizning butun borlig'i bilan kelajak avlodga yetkazishdir.** Chunki til – millatning ruhi, til yashasa, millat ham yashaydi. Demak, bugun ham ona tilimiz oldidagi mas'uliyatimiz ortsa ortganki, kamaymagan.

⁶ Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I jild. – Toshkent: Mumtoz-so'z, 2016. – B.21.

⁷ Qarang: Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – С. 4.

Til hodisasi – ajoyib hodisa. Har qanday til uning soʻzlari bilan goʻzal. Buni biz baʼzida sezamiz, baʼzan esa sezmaymiz. Bu holatni buyuk shoirimiz Erkin Vohidov quyidagicha taʼriflaydi: “Dunyoning eng ajib, eng sirli va sehrli sayohatlaridan biri Soʻz olamiga sayohatdir. Negaki, Soʻz yaratilishdan moʻjiza. Avval Soʻz boʻlgan, deyiladi muqaddas kitoblarda. ...Soʻzning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetgandek bahra topadi. Insoniyat tarixi soʻzlar qismatida yashirinib yotar ekan”⁸.

Men koʻp manbalarni koʻrdim, ammo **qoʻgʻirchoq** soʻzining yasaliş ildizini topish amri mahol boʻldi. Shu soha mutaxassislari ham bu soʻzning kelib chiqish tarixi haqida joʻyali fikr ayta olmadilar. Bugungi manbalardan bu soʻz haqida – uning etimologik tahlili xususida fikr topib boʻlmadi. Koʻp oʻyladim, izlandim. Baribir javobni Mahmud Koshgʻariy bobomizdan topgandek boʻldim. Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida “*qizigan qozonda (kaftgir bilan aylantirib) pishirib ol*” maʼnosini anglatgan **qogʻur** feʼli haqida bahs yuritiladi⁹. Agar mazkur taʼrifga chuqurroq kirib borsak, **qoʻgʻirchoq** soʻzining aynan shu qadimgi oʻzbek tilidagi **qoʻgʻir** soʻzi bilan bogʻliqligini koʻrishimiz mumkin. Tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Shavkat Rahmatullaevning bergan maʼlumotlarida ham buning isbotini koʻramiz. Faqat muhtaram ustozimiz qoʻgʻirmoch soʻziga toʻxtalib, **qoʻgʻirmoch** “qovurilgan bugʻdoy” ekanligini izohlash jarayonida qogʻur soʻziga alohida toʻxtalib oʻtadilar¹⁰.

Biz ham ushbu fikrlarga qoʻshilgan holda **qoʻgʻirchoq** soʻzi tarkibidagi **qoʻgʻir** soʻzining ayni shu irmoqdan kelishini eʼtirof etamiz va bu soʻzga **-chaq** qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan, degan xulosani beramiz. Ushbu soʻz tarkibidagi **-chaq** qoʻshimchasi “*oʻlchami meʼyordan kichik*” maʼnosini anglatuvchi **chaq** soʻzi asosida yuzaga kelgan, shunga koʻra **qoʻgʻirchoq** soʻzi asli “*kichik oʻyinchoq*” maʼnosini anglatgan. Masalan, ayiqni ifodalovchi qoʻgʻirchoqqa nisbatan uning prototipi boʻlmish haqiqiy ayiqning jussasi benihoya yirik. Shuning uchun ham qoʻgʻirchoq ayiqning oʻlchami jonli ayiqning meʼyordagi oʻlchamidan ancha kichikligi bois **-choq** qoʻshimchasi qoʻshilmoqda. Xuddi shu singari, barcha qoʻgʻirchoqlarda ham ayni shu nisbatni kuzatish mumkin.

Ikkinchi tarafdin, qadimdan maʼlumki, qoʻgʻirchoqlar asosan loydan yasalgan va kulolchilikda qoʻllanadigan maxsus tandirda pishirib olingan. Shuning uchun ham “*qizigan qozonda yoki tandirda pishirib ol*” maʼnosidagi qoʻgʻir soʻzining oʻzak soʻz sifatida qoʻllanishida maʼno bor.

Xuddi shu singari, **oʻyinchoq** soʻzi ham “eski oʻzbek tilida **oyun** otidan **-chaq** qoʻshimchasi bilan yasalgan; keyinchalik bu soʻzning ikkinchi boʻgʻinidagi **u** unlisi **i** unlisiga, **q** undoshi oldidagi **a** unlisi **â** unlisiga almashgan: **oyun + chaq = oyunchaq > oyinchâq**. Bu soʻz tarkibidagi **-chaq** qoʻshimchasi “*oʻlchami meʼyordan kichik*” maʼnosini anglatuvchi **chaq** soʻzi asosida yuzaga kelgan, shunga koʻra **oyinchâq** soʻzi asli “*kichik oʻyin*” maʼnosini anglatgan”¹¹.

Endi ikki ogʻiz qoʻshiq soʻzi haqida bahs yuritimiz. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da bu soʻzga quyidagicha izoh berilgan: QOʻSHIQ 1 Keng maʼnoda sheʼriy-musiqiy janr; ashula. Lirik qoʻshiq. Hajviy qoʻshiq. Xalq qoʻshiq. 2 Lapar, terma.

Mazkur soʻzning paydo boʻlish ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. “Qadimgi turkiy tilda “*birlashtir*” maʼnosini anglatuvchi **-qoʻsh** feʼlidin **-(u)gʻ** qoʻshimchasi bilan yasalgan bu ot asli “sheʼr”, “qasida” maʼnosini anglatgan, maʼno taraqqiyoti natijasida “ashula qilib aytilgan sheʼr”, umuman “ashula” maʼnosi yuzaga kelgan; eski oʻzbek tilida bu soʻz oxiridagi **gʻ** undoshi **q** undoshiga almashgan; keyinchalik ikkinchi boʻgʻindagi **u** unlisi **i** unlisiga almashgan: **qoʻsh- + ugʻ = qoʻshugʻ > qoʻshuq > qoʻshiq**”¹². Qoʻshiq soʻzining kelib chiqishi bilan bogʻliq shu kabi fikrlar “Turk tilining etimologik lugʻati”da ham aytilgan¹³.

QOʻSHIQ soʻzining etimologik tarixini XI asrga oid Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asaridan ham izlaymiz. Buyuk mutafakkir yozadi: “qoʻshugʻ – sheʼr, qasida, qoʻshiq. Sheʼrda shunday kelgan:

Tÿrkân qatun qutîna
Tÿgÿr mÿndîn qoʻshîgʻ,
Ajgʻil sîzîñ tabugʻchî,
Otnur jâuñ tabugʻ.

Malika (shoh) xotiga mendan maqtoʻv, qasida (qoʻshiq) yetkur va xodimingiz yangi xizmat bilan yoʻllanadi, deb ayt”¹⁴.

Tarixiy dalillardan koʻrinib turibdiki, qoʻshiq soʻzi bundan ming yillar avval ham tilimizda mavjud boʻlgan ekan.

Qoʻshiq, qoʻshin, qoʻshoq, qoʻshimcha kabi soʻzlar negizida kelgan **qoʻsh** soʻzi haqida ham aytib oʻtishni lozim topdik. Bu soʻz xususida ustozimiz Sh.Rahmatullaev yozadilar: “QOʻSH “bir-biriga birikkan ikki (narsa)”, “juft”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday maʼnoni anglatgan bu soʻz asli maʼno taraqqiyoti natijasida “*birlashtir*–” maʼnosini anglatuvchi **qosh-** feʼlidin oʻsib chiqqan; bu soʻz dastlab **qo:sh** tarzida talaffuz qilingan boʻlib, qadimgi turkiy tildayoq o: unlisining choʻziqlik belgisi yoʻqolgan”¹⁵. “Turk tilining etimologik lugʻati”da ham **qoʻsh** soʻzi etimologiyasi haqida quyidagilar yozilgan: “**KOŞ**, asli turkiy soʻz, (tartibga keltirish (solish), tartib, yonma-yon joylashtirish, muayyan bir tizimga uygʻunlashtirish. Qoidaga keltirish (solish). Yoʻnaltirish. Hajman moslashtirish. Muvozanatni saqlash, Tizimga solish. Otni aravaga, hoʻkizni omochna bogʻlab ishlatish. Hoʻkiz bilan yer haydash va h.k.). Qoʻsh soʻzi barcha turkiy tillarda mavjud boʻlib, **orqadosh (arkadaş), juft, yoʻldosh, sevinmoq, hayqiriq, ikki qavatli, baxt** kabi maʼnolarda qoʻllanadi”¹⁶.

Shu oʻrinda Samarqandda boʻlib oʻtgan bir voqea yodimga tushdi. 2021 yilning yanvar oyida xizmat safari

⁸ Vohidov E. Soʻz latofati. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2014. –B.5.

⁹ Qarang: Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. II jild. – Toshkent: Fan, 1971. –B.85.

¹⁰ Qarang: Rahmatullaev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati (turkiy soʻzlar). –Toshkent: Universitet, 2000. –B. 592.

¹¹ Rahmatullaev Sh. Koʻrsatilgan asar, 475-b.

¹² Rahmatullaev Sh. Koʻrsatilgan asar.

¹³ Ismet Zeki Eyuboğlu. Türk Dilinin Etimoloji Sözlüğü. – Istanbul: Sosyal Yayınlar, 1995. –S.431.

¹⁴ Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1971. –B.357.

¹⁵ Раҳматуллаев Ш. Кўрсатилган асар, 590-6.

¹⁶ Ismet Zeki Eyuboğlu. Türk Dilinin Etimoloji Sözlüğü. – Istanbul: Sosyal Yayınlar, 1995. –S.429.

bilan Samarqandga borganimdagi bir tadbirda yosh xonanda Mashrab g'azali bilan **“O'rtar”** qo'shig'ini aytib bermoqchi bo'ldi. Qo'shiq maromiga yetkazib kuylandi. Hammamiz olqishladik. Shunda men hofizdan **“o'rtar”** so'zining ma'nosini so'radim. Hofiz esa biroz noqulaylik bilan bilmasligini aytdi. Shunda men buyuk o'zbek hofizlari Jo'raxon Sultonov hamda Rasulqori Mamadalievlar bilan bo'lib o'tgan voqeani so'zlab berdim. Kunlarning birida Jo'raxon Sultonov Alisher Navoiy g'azallaridan biriga kuy bastalayotgan vaqtida g'azaldagi so'zlardan birining ma'nosini tushunmaydi va atrofidagi o'zi tanigan insonlardan ham so'rab bila olmaydi. Shunda Toshkentga kelib, Navoiyshunos olim Hamid Sulaymonovdan bu so'zning ma'nosini o'rganadi. So'ngra Marg'ilonga qaytib, boshqa kuy bastalaydi. Xuddi shunga o'xshash holat Xalq hofizi Rasulqori Mamadaliev bilan ham sodir bo'lgan ekan. Bu haqda O'zbekiston xalq artisti, dotsent O'lmas Rasulov (Olloh rahmatiga olsin! Juda bilimdon inson edi) yozgandi: “Qo'qon urfiy ijrochiligining eng yetuk vakillaridan biri sifatida Rasulqori Mamadalievning xonandalikda qo'l urmagan usulini topish qiyin. U maqom va maqom yo'lidagi qo'shiqlarni bir zaylda mahorat bilan ijro eta olardi. Hofizning ishq o'sha davrda endi paydo bo'lgan Ma'rufxo'ja Bahodirov bastalagan **“Na qildim”** ashulasiga tushadiyu, tinchini yo'qotadi. Biroq ijro etishga jur'ati yetmaydi. G'azaldagi bir so'z ma'nosini qishlog'idagi, hatto qo'shni qishloqlardagi ziyolilardan so'raydi, surishtiradi. Biroq jo'yali javob ololmaydi. Axiyri, o'sha paytlarda (70-yillar) Qo'qondagi Muqimiy muzeyida ishlab yurgan aruz bilimdoni, g'azalnavis shoir Charxiy domlaning huzuriga borib, ustozga o'z maqsadini aytdi.

– **“Na qildim sango man yorim, jamolingdin judo qilding, Boshimda gardu g'amni chun charog'i osiyo qilding”** bayti bilan boshlanuvchi ashulani rosa aytgim boru aytolmayapman, domla, – deydi hofiz.

– Shoir sababini so'rganida g'azaldagi **“charog'i osiyo”** so'ziga tushunmayotganini aytdi.

– **“Charog'i osiyo” tegirmonning chirog'i** degani, – javob beradi Charxiy. – Unga ko'p chang, g'ubor qo'nadi, oqibatda nuri xiralashib boradi. Gard, changning ko'pligidan mening boshim ham tegirmon chirog'iga aylanib qoldi, ya'ni men senga nima qildimki, meni jamolingdan judo qilding, boshimda gardu g'amni charog'i osiyo qilding, demoqda ustoz Huvaydo. Buni to'la tushuntirishimga bir kun ham kamlilik qiladi, hofiz. G'azalni ko'p o'qing, ashulasini ko'p ayting. Shunda bir-biridan go'zal ta'sirchan ma'nolarni, ishtibohlarni topasiz, insho'lloh.

Shu muloqotdan so'ng **“Na qildim”** ashulasi hofiz ijro dasturlarining ko'rkiga aylanadi. Rasulqori

Mamadaliev ko'zi ojiz bo'lsa-da, “yiqilmagan” edi o'shanda.

Bu ibratli muloqotni bekorga keltirmadik. Zero, g'azal kuy ipiga terilgan dur bo'lsa, kuy g'azal rishtasini bezab turuvchi marvarid. Har ikki rishtaga tizilgan duru marvaridlar mo'tabar. O'z talqinida ohang va so'z mohiyatini to'la-to'kis yetkaza olmaydigan xonanda esa hali barkamollikdan yiroqda, ko'p izlanishi lozim. Achinarli tomoni shundaki, hozir unvonlarga sazovor ijrochilarda ham so'zni buzib aytish hollari uchrab turadi. So'z, ohang uyg'unligini yetarlicha his qilishga intilishni istamagan xonandalarning befarqligi oqibatida **“Munojot”**, **“Soqiynomai savti kalon”**, **“So'lim”** kabi ko'plab nodir ashulalarning ijrosi sayozlashib boryapti. Boz ustiga ularni “zamonaviylik” niqobi ostida qayta ishlayotganlar ham urchib ketyapti¹⁷.

Ko'rinib turibdiki, she'riy matnni quruq yodlagan holda ma'nosini to'liq anglamay yoki tushunmay kuylayverish ma'qul emas ekan.

Endi **“o'rtar”** so'zining ma'nosiga kelsak, bu so'zga izohni Mahmud Koshg'ariy bobomizdan topamiz: **“o'rtandi – kuydi, yondi**. Kun botgandan so'ng bulut qizarsa bulut o'rtandi deyiladi. Turklar buni yaxshilikka yo'yadilar¹⁸”.

Alisher Navoiy asarlarida ham ayni shu ma'nolarda qo'llanganligini kuzatish mumkin: “o'rt 1. Kuyish, yonish, o'rtanish; 2. O't, alanga. 3. Tutun; O'rt solmoq – O't solmoq; o'rtamoq, yondirmoq;

**Barqi ishqing solibon jonimg'a o'rt,
Shu'lasi obodu vayronlarga o'rt.** (L.T.)

O'rtanmak 1. Kuymoq; 2. Maj. Azobda ezilmoq;

**Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringg'a parvo aylasa,
Har ko'ngul ham kim, sening shavqingni paydo aylasa.** (G'.S.)¹⁹

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da ham mazkur so'z quyidagicha izohlangan: “O'rtamoq 1-O't olmoq; yonmoq, yondirmoq. 2-ko'chma Nihoyat darajada qizdirmoq; kuydirmoq. 3-ko'chma Ruhiiy alam – izzitirobga solmoq; kuydirmoq. Yurakni o'rtamoq. Jonni o'rtamoq²⁰”.

“O'rtamoq” so'zining ham tarixiy, ham zamonaviy lug'atlardagi sharhlari orqali uning ma'no ko'lamida deyarli o'zgarish bo'lmaganini ko'rishimiz mumkin. Faqat bu so'z bugungi tilimizda o'z faolligini yo'qotgan.

Aytilganlardan ko'rinadiki, til tarixi, qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar, millat tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, madaniyat va san'at sohasi mutaxassislar uchun o'z ona tilidagi so'zlarning tarixini, ma'no anglatish ko'lamini teran bilishlari o'ta muhimdir. Shuning uchun ham har birimiz o'z ona tilimizning haqiqiy muhibi bo'lmog'imiz zarurdir.

¹⁷ Rasulov O'. “So'zi rostu, ammo...” // “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 2018, - 12 oktabr.

¹⁸ Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1971. –B.252.

¹⁹ Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. –B. 721

²⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 5-j. – Toshkent: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. –B. 171

Dilshod MAMAJONOV,
O‘zDSMI Ilmiy-tadqiqot bo‘limi boshlig‘i, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**MUSTAQILLIK ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDA
TIL SIYOSATI**

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish va respublikada istiqomat qilayotgan barcha millat, elatlarning milliy tillarini rivojlantirish muammolari O‘zbekiston matbuotida bu borada olib borilgan qizg‘in muhokamalar aniq faktlar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, davlat tili, milliy madaniyat, milliy til, milliy rivojlanish.

Дильшод МАМАЖОНОВ,
Начальник научно-исследовательского отдела ГИИКУЗ, доктор философии исторических наук,
доцент

**ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА В УЗБЕКИСТАНЕ
НАКАНУНЕ НЕЗАВИСИМОСТИ**

Аннотация. В данной статье на основе конкретных фактов анализируются проблемы и дебаты, связанные с предоставлением статуса государственного языка узбекскому языку и развитием национальных языков других национальностей республики в прессе Узбекистана.

Ключевые слова: узбекский язык, государственный язык, национальная культура, национальный язык, национальное развитие.

Dilshod MAMAJONOV,
Head of research Department UzSIAC, Doctor of Philosophy in History (PhD),
Associated Professor

**LANGUAGE POLICY IN UZBEKISTAN ON THE EVE OF
INDEPENDENCE**

Abstract. In this article, on the basis of concrete facts are analyzed problems and debates related to granting the status of the state language to the Uzbek language and the development of national languages of other nationalities of the republic in the press of Uzbekistan.

Keywords: Uzbek language, state language, national culture, national language, national development.

Millat to‘g‘risida so‘z borganda, biz uning hududi, iqtisodiy hayot birligi, madaniyati, milliy psixologiyasi va jahonda yagona bo‘lgan til birligini tushunamiz. Milliy madaniyatlar bir-biriga yaqindir, ular doimo bir-birlarini boyitadi, ya‘ni umumiy tomonlarga ega. Lekin, shu bilan birga, hech vaqt ikki o‘zaro farqsiz, bir xil milliy madaniyatni topib bo‘lmaydi. Har bir milliy madaniyat shuning uchun ham millat uchun bebaho, sevimli va jonajonki, u millatning didini, yaratuvchilik dahosini, insonning eng nozik hislarini va tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qiladi. Milliy madaniyat deganda, biz shu millatning tarixi, adabiyoti, tasviriy san‘ati, xalq og‘zaki ijodi, fani, axloqi, falsafasi, maorifi, sahna san‘ati an‘analarini, eng muhimi, milliy tilini tushunamiz. Milliy madaniyat va milliy til bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Demak, milliy madaniyat milliy til orqaligina o‘z ifodasini topa oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali

marosimdagi nutqida ta‘kidlab o‘tilganidek, hozirgi paytda yer yuzida 7 mingdan ziyod til mavjud bo‘lib ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga egadir¹. Shuningdek, ayni paytda jahonda 6 ta rivojlangan mustaqil turkiy tilli davlatlar mavjud bo‘lib, ularda 240 mln.ga yaqin kishi yashaydi. Turk, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, oltoy, yoqut, uyg‘ur, tatar, boshqirdlar shular jumlasidandir².

O‘zbek tilining ham davlat tili darajasiga ko‘tarilganligi va jahondagi tillar orasida munosib o‘rin olganligi diqqatga sazovordir. Zero, til bilan tafakkurning bog‘liqligi, birinchisining ikkinchisiz mavjud bo‘la olmasligi milliy tiklanish davrida ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy jarayonlarning roli oshganligini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligini qayd etish mumkin.

Umuman olganda, milliy madaniyatlar va milliy tillar jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridandir. Qayerdagi, milliy madaniyat va milliy til kamsitilsa, xo‘rlansa, o‘sha yerda milliy nizolar hamda milliy norozilik va to‘qnashuvlar paydo bo‘lishi ehtimoli yuqoridir. Qayerdagi, milliy madaniyat va milliy til toptalsa, o‘sha yerda har qanaqa baynalmilal tarbiya samarasiz, chunki madaniyati, tili kamsitilgan xalq har qanday hamkorlik to‘g‘risidagi fikrlarni o‘ziga singdira olmaydi.

O‘zbekiston Sobiq ittifoq tarkibida bo‘lgan yillarda kommunizm g‘oyasi – “rivojlangan sotsializm” orqali

¹ Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligini o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. “Xalq so‘zi”, 2019-yil 22-oktabr.

² Boboev X., Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. T.: 1999. 21-b.

ifoda qilingan. Kommunizmda hammaga ma'lumki: "sinfiy va milliy farqlar bo'lmaydi". 1930-yilda bo'lib o'tgan bolsheviklar partiyasining XVI s'ezdida millatlar va milliy tillarning qo'shilib ketishi nazariyasini amalga oshirish rejasi "nazariy" qoidaga aylantirilib, rus tilini o'qitishni kuchaytirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Unga ko'ra o'rta maktablarda rus tilini o'rgatish uchun ajratilgan soatlar miqdori 450 soatdan 1600–1800 soatgacha olib chiqildi. Bu esa o'rta maktabdagi o'quv programmasining o'rta hisobi bilan 14,8 %ini tashkil qilgan edi³.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti byurosi 1987-yil sentabrda "Rus tili" maqsadli kompleks dasturi ishlab chiqilganligini e'lon qildi. Dasturda rus tilini o'rganish va takomillashtirish yuzasidan amaliy tadbirlar taklif etildi. Unda rus tilining respublikadagi rus bo'lmagan aholining turli kategoriyalari tomonidan maktabgacha bolalar muassasalarining tarbiyalanuvchilaridan tortib mehnat jamoalarining a'zolariga qadar o'rganishi nazarda tutilgan edi. Shuningdek, qishloq kutubxonalarida rus yozuvchilarining kitoblari yuzasidan munozaralar, konferentsiyalar o'tkazilishi, maktablarda payshanba kuni rus tili kuni, deb e'lon qilinishi, klublarda rus tilini o'rganish bo'yicha to'garaklar tashkil etish, rus tilini o'rganishga yordam beradigan ko'pgina tadbirlarni yotoqxonalarda, dala shiyponlarida, korxonalarining hordiq xonalarida uyushtirish talab etildi⁴. Vaholanki, O'zbekistonda o'zbeklar va o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni muttasil ortib borgan. 1989 yilda O'zbekistonda til muammolari juda kuchli tarzda namoyon bo'lib, ziyolilarning bir qismi ikki tillilik uchun kurash olib borishgan. Bunday jarayonlarda o'zbek ziyolilari ham "g'ayrat" ko'rsatgan.

Vaholanki, XX asrning 70-yillari oxirida O'zbekistonda aholining 68,7 foizi o'zbeklar, 10,8 foizi ruslar, 4,2 foizi tatarlar, 3,9 foizi tojiklar, 1,9 foizi qoraqalpoqlar, 0,9 foizi koreyslar, 0,6 foizi qirg'izlar, 0,6 foizi turkmanlardan iborat edi. Tatar, qozoq, turkman, qirg'iz, uyg'ur tilida gaplashuvchilar bilan qo'shib hisoblaganda, aholining 85 foizi o'zbek tilini yaxshi bilishar edi⁵. "Sharq yulduzi", "Inson va jamiyat" jurnallari hamda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Sovet O'zbekistoni", "Toshkent oqshomi", "Pravda Vostoka", "Qishloq haqiqati", "Selskaya pravda" kabi gazetalarda o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi juda kuchli bahs-munozaralarga sabab bo'lgan edi. Chunonchi, E.Yusupov va M.Iskandarovlarning ta'kidlashicha, Qonun loyihasining birinchi nusxasi 1989

³ Millatlararo munosabatlar madaniyati va baynalmilal dunyoqarash. O'quv qo'llanmasi. T.: O'zbekiston. 1993. 82-b.

⁴ Rahmatullaeva G., "Partiya turmushi". 1988-yil № 6. 65-b.

⁵ Qosimov S., "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1989-yil 8-sentyabr.

⁶ Yusupov E. Iskandarov M., "Sovet O'zbekistoni". 1989-yil 15-oktabr.

⁷ William Fierman. Policy toward Islam in Uzbekistan in the Gorbachev era//Nationalities Papers, Vol. 22.1, 1994. pp. 225-246; Ўша муаллиф: Political development in Uzbekistan: democratization? // Conflict? Cleavage, and change in Central Asia and the Caucasus. Edited by K. Dawisha, B. Parrot. Cambridge University Press, 1997. 360-408 pp.

⁸ Gregory Gleason. The Central Asian States: discovering independence. Westview Press. Boulder, USA. 1997. p. 45.

⁹ Gregory Gleason. The Central Asian States: discovering independence... 69 - 70 pp.

¹⁰ Mahmudov N. Ona tilimiz kamoli. -Xalq so'zi, 2015-yil 21-oktabr.

-yil 18-iyunda qabul qilinib, keng muhokama etilgani, birgina O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining o'zi muhokama davomida 14 mingdan ortiq maktub olgani, ularga 800 ming kishi imzo chekkani, mazkur xat-xabarlarida qariyb 3 mingdan ortiq fikr-mulohazalar bildirilgani qayd etilgan⁶.

Mamalakatda o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish jarayonlari juda ham ziddiyatli xarakterga ega bo'lgan. Bu masala G'arb olimlari tomonidan ham e'tirof qilingan. Jumladan, amerikalik olim U.Fierman o'zining maqolalarida XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmida O'zbekistondagi ijtimoiy va diniy siyosat muammosini tahlilidan avval, madaniy masalalarga ham alohida e'tibor qaratgan. U o'z tadqiqotida O'zbekistonda kechgan jarayonlarga Markazning siyosati katta ta'sir ko'rsatganini e'tirof qilgan. Shuningdek M. Fierman respublika rahbarlari B. Usmonxo'jaev, R. Nishonovlar Moskvaning siyosatini, jumladan, madaniy sohadagi siyosatini og'ishmay amalga oshirishganligini ta'kidlab o'tgan. Ayniqsa, milliy ziyolilar orasida R. Nishonovga nisbatan ishonmaslik kayfiyati bor edi. Ularda respublika rahbari o'zbek madaniyatiga yot qarab, nazar-pisand qilmaslik siyosatini zimdan olib borayapti, shuningdek u o'zbek xalqining, O'zbekiston manfaatlarining himoyachisi emas, degan shubha bor edi⁷.

Boshqa bir amerikalik tadqiqotchi G.Glison o'zining Markaziy Osiyodagi sovet respublikalarining mustaqillikka erishishi muammosiga bag'ishlangan "The Central Asian States: Discovering independence" ("Markaziy Osiyo davlatlari: mustaqillikning kashf qilinishi") kitobida 1980-yillarning ikkinchi yarmidagi madaniy, jumladan til muammolarini o'rganishga ham e'tiborini qaratdi. Kitobning til va identiklikka bag'ishlangan qismida esa muallif Markaziy Osiyodagi, jumladan O'zbekistondagi til guruhlari va shevalarini tahlil qilib, rus tili mintaqadagi asosiy til ekanligini ko'rsatib, mazkur til mahalliy siyosiy elitaning tili bo'lganligini, shuningdek katta shaharlarning aholisi orasida rus tili keng qo'llanganligini ta'kidlagan⁸.

G.Glison O'zbekistonda 1980-yillarning ikkinchi yarmidagi madaniy jarayonlarni, jumladan til masalasiga bog'liq bo'lgan voqealarni ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bog'lab ko'rsatadi. Muallifning fikriga ko'ra, milliy ziyolilarning talabi va bosimi ostida O'z SSR Oliy Soveti 1989 yil oktyabrda o'zbek tiliga "Davlat tili" maqomi berish haqida qonun qabul qilgan⁹.

Ta'kidlash joizki, "Davlat tili" to'g'risidagi qonun loyihasida ko'tarilgan ikki tillilik g'oyasi o'sha paytdagi vaziyat qanchalik murakkab, qaltis, nechog'lik tahlikali bo'lmasin, nafaqat Markaz, shuningdek o'zimizdagi ikki tillilikning tarafdorlari qanchalik qarshilik qilishmasin, Birinchi Prezident I.Karimovning tashabbusi va ko'rsatmasi bilan yangi qonun loyihasi tayyorlandi, unda ikki tillilik g'oyasi bartaraf etildi. O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish qoidalashtirildi, shuning uchun qonun loyihasi ham to'g'ridan-to'g'ri "Davlat tili haqida" deb nomlandi¹⁰.

O'zbekiston Oliy Sovetining 1989-yil 21-oktyabrda XI sessiyasida "O'zbekiston SSR ning davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilindi va 24-oktyabrda Respublika ro'znomalarida bu qonun e'lon qilindi. Bu qonun o'zbek millatining milliy ongi o'sishida, uning o'zligini anglashida katta ijobiy rol o'ynadi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o'z navbatida, ayrim qiyinchiliklarni ham tug'dirgan. Chet ellik tadqiqotchi M. Lenker "The Politics of Language Policy. A case study of Uzbekistan" ("Til siyosati. O'zbekiston misolida o'rganish") nomli maqolasida Sovet Ittifoqidagi til siyosati muammosining tahliliga alohida e'tibor qaratgan holda, O'zbekistonda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berishga bo'lgan harakat 1989-yilda boshlanganini e'tirof qiladi¹¹. Shu bilan birga, tadqiqotchi mazkur davrdagi ijtimoiy vaziyatga baho bera turib, shuningdek o'zbek tilini o'rganish, uni o'rgatish masalasidagi muammolar, ya'ni o'zbek tili o'qituvchilarining (ayniqsa qishloq joylardagi) saviyasi, lug'atlarning va o'zbek, rus tillarini o'rgatish zamonaviy metodikasining yo'qligi kabi kamchiliklarni keltirgan. Muallif, shuningdek, respublikada 1980-yillarning ikkinchi yarmida o'zbek, rus va boshqa tillarning qo'llanilishini tartibga solish uchun bo'lgan harakatlarni mavjud bo'lganligini ko'rsatib o'tgan¹².

Mustaqillik arafasida o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida juda qizg'in, ba'zida keskin va murosasiz bahs va tortishuvlar bo'lib o'tgani barchamizga ma'lum. O'shanda ayrim siyosiy guruhlar O'zbekiston sharoitiga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan, bir-biriga butunlay zid va qarama-qarshi fikrlarni olg'a surib, shuning hisobidan o'ziga obro' topish, odamlarni ortidan ergashtirishga uringan edi. Nega deganda, til bilan bog'liq muammolar orqali milliy tuyg'ularni ro'kach qilib, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanish mumkin edi¹³. Buning isboti sifatida quyidagi misollarni keltirish mumkin: 1990-yilda O'zbekistonda jami 2169 nomdagi kitob, risolalar nashr etilgan bo'lsa, ularning 973 tasi (45%)gina o'zbek tilida edi, xolos¹⁴. Shu yilda chop etilgan 83 ta jurnal va boshqa davriy nashrlarning 35 tasi (42,2%)gina o'zbek tilida edi. 1991 yilga qadar respublika nashriyotlari tomonidan chop etilgan adabiyotlarning 70 foiziga yaqini rus tilida nashr qilingan¹⁵. 1991 йилга қадар республика нашриётлари томонидан чоп этилган адабиётларнинг 70 фоизига яқини рус тилида нашр қилинган¹⁶.

¹¹ Michael Lenker. The Politics of Language Policy. A case study of Uzbekistan//Perestroika at the Crossroads. Edited by A.J. Rieber & A. Z. Rubinstein. M.E. Sharpe, Inc. Armonk, NY. USA. 1991. 268-269 pp.

¹² Michael Lenker. The Politics of Language Policy. A case study of Uzbekistan 268-269 pp.

¹³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., 2008. 83-b.

¹⁴ Народное образование и культура в СССР. Стат. сбор. М., 1989. 371-б.

¹⁵ O'sha joyda, 380-b.

¹⁶ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. A.Azizxujayev, B.Alimov. T.: 2006. 239-b.

¹⁷ Шерматова Г., "Коммунист Узбекистана". 1990. № 2. 64-б.

¹⁸ Основные показатели работы и анализ развития сети и деятельности КПУ за 1988–1989 гг. Т.: 1990. 27-29-бб.

¹⁹ Социально-культурный облик советских наций. М., 1986. 337-б.

²⁰ Юсупов Э., Туленов А., Фофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий суҳбатлар. Т.: 1990. 118-б.

²¹ Anvar Obidjon., "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1986. 10-yanvar.

²² Mamajonov S., "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1986. 21-fevral.

²³ Sharofiddinov O., "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1986. 17-yanvar.

²⁴ Asomidinov A., "Toshkent haqiqati". 1985. 30-iyun.

²⁵ Nosir Fozilov., "Sharq yulduzi". 1986. № 2. 16-b.

²⁶ Said Ahmad., "Sharq yulduzi". 1985-yil № 1. 173-b.

²⁷ Hamid G'ulom., "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1987-yil 25-dekabr.

²⁸ "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1991-yil 8-fevral.

²⁹ "Xalq so'zi". 1991-yil 28-iyun.

Ushbu masala yuzasidan tadqiqotchi G.Shermatovanning ta'kidlashicha, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 1980-yillar birinchi yarmida o'zbek tilini bilgan rusiyzabon aholi miqdori 6-7 foizdan oshmagan¹⁷. Respublika kutubxonalaridagi o'zbek tilidagi adabiyotlar miqdori ham yildan-yilga kamayib bordi va 1989 yilda u 42,5 foizni tashkil qildi¹⁸. Bu davrga kelib O'zbekistonda chop etilgan barcha adabiyotlarning 74,2 foizini rus tilidagi, 18,8 foizini o'zbek tilidagi nashrlar tashkil etdi¹⁹. Shuningdek, rus tilida o'qitiladigan maktablarda o'zbek tilini o'rganishga ajratilgan soatlar 560 soatni, o'zbek maktablarida rus tili va adabiyotini o'rganishga ajratilgan soatlar xajmi 3390 soatni tashkil etgan²⁰.

Shoir Anvar Obidjon o'zbek bolalarini rus tilini o'rganishdagi sustkashligidan, bu borada jamoatchilikning "havfsalasizligi"dan tashvishga tushadi²¹. S.Mamajonov esa rus tili tufayli millatlar va elatlar taboro bir-biriga yaqinlashib borayotganligini qayd etadi²². Aytish joizki, o'sha davrning mafkuraviy tazyiqlariga qaramasdan, o'zbek tilining sofligini saqlab qolishga urinayotgan olimlarning harakati o'z ifodasini topdi. Masalan, O.Sharafiddinov til, xususan o'zbek tili madaniyat va millatning asosiy quroli ekanligini ta'kidlab, uning unutilayotganligi afsuslanarli holdir. Buning uchun bir tomondan o'zbek ziyolilarining o'zi aybdor ekanligi hamda o'zbek tilida savodsizlik "gullab-yashnamoqda", degan fikrni bildiradi.

Shuningdek, maktablarda o'zbek tili va adabiyoti darslarini o'qitishning kamayib borishi milliy-madaniy tushkunlik sifatida baholandi²³. Xuddi shunday fikrlar sirasiga A.Asomiddinov²⁴, Nosir Fozilovlarning qarashlarini ham kiritish mumkin²⁵. O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad shunday yozgan edi: "men buncha umrim davomida biron o'zbek olimining adabiy til yoki biror asarning tili to'g'risida yozgan maqola yohud biron kichkinagina kitobchasiga ko'zim tushmadi. Aksincha, ularning o'zlari yozgan adabiyotning boshqa masalalariga bag'ishlangan maqolalari tilining g'aribligi bilan, oddiy jummalarni keltirib yozolmaganliklari bilan ajralib turishlari meni ajablantiradi"²⁶. O'zbekiston xalq yozuvchisi Hamid G'ulom O'zbekistonda o'nlab yosh rus adib va shoirlari yetishib chiqqanligini, ammo ular o'zbek tilini bilmasliklarini, shuning oqibatida o'zbek tilidan rus tiliga o'girilayotgan tarjimalar satrma-satr amalga oshirilayotganligini, buning oqibatida asarning originalligi yo'qolib borayotganligini qayd etgan edi²⁷.

O'zbekistonda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so'ng boshqa millat tillari rivojlanishiga ham e'tibor kamaymadi. 1991-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 3457 ta maktabda ingliz, 2886 ta maktabda nemis, 1515 ta maktabda frantsuz, 68 ta maktabda ispan, 3 ta maktabda urdu, 13 ta maktabda hind, 10 ta maktabda arab, 13 ta maktabda fors, 3 tasida xitoy tili o'rgatilgan²⁸. Bir qancha o'quv yurtlarida darslar milliy guruxlar tillarida o'qitiladigan maktablar uchun kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Chunonchi, Toshkent va Sirdaryo pedagogika institutlarida darslar qozoq tilida o'qitiladigan umumta'lim maktablari uchun mutaxassislar, Samarqand, Buxoro, Termiz pedagogika institutlari va Kosonsoy, Chust pedagogika bilim yurtlarida fanlarni tojik tilida o'qitiladigan mutaxassislar tayyorlash ishlari boshlandi²⁹.

Ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitishda soatlar hajmini ko'paytirish bilan bog'liq masalalar 1990-yildan ko'tarila boshlandi. 1991-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, o'zbek maktablarida ona tili va adabiyotini o'rganishga hammasi bo'lib 2720 soat ajratilgan. Bu Markaziy Osiyoning boshqa respublikalariga nisbatan ancha ko'p edi. Darslar rus tilida o'qitiladigan maktablarda o'zbek tilini o'rganish dasturlari va o'quv rejasi qayta qo'rib chiqilgan. 1990-yilgacha ushbu maktablar uchun o'zbek tilini o'rganishga 544 soat ajratilgan bo'lsa, 1991-yilda bu raqam ikki barobar ortib, 1020 soatni tashkil etgan. Demak, til masalasi o'sha yillarda O'zbekistonda eng dolzarb muammolardan biriga aylangan edi. 1989-yil yanvardan 1990-yil dekabrgacha "Pravda Vostoka" gazetasida jami 58 ta, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida 39 ta maqola bevosita til masalalari, xususan o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalalariga bag'ishlangan edi.

Oliy ma'naviy ne'matlardan biri o'zbek tili mustaqillik arafasidan boshlab, o'zining qadr-qimmatini topa boshladi. O'zbek xalqi ham til masalasida o'z obro'-e'tiborini tikladi. Demak, respublikada istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning milliy tillarini rivojlantirish muammolariga ham alohida huquqiy asoslangan tarzda e'tibor berildi.

Mustaqillik xalqimizga ma'naviy huquqiy va siyosiy jihatdan katta ozodlik berdi. Buni bugungi kunda butun jahon ahli ko'rib turibdi. Mustamlaka yillarida o'tmishda 98 foiz aholisi savodsiz bo'lgan deb kamsitilgan, maktabda davlatchilik tarixi Kiev Rusidan boshlangan deb o'rganishga mahkum etilgan o'zbek xalqi yana qaddini tiklab oldi. Milliy tilga bo'lgan asosiy e'tibor - unga davlat tili maqomining berilishi milliy tiklanish yillari o'z ifodasini topdi.

Boy tariximiz va qadimiy tilimiz haqida to'g'ri yozish, to'g'ri fikrlashga bosqichma-bosqich erishmoqdamiz. Ming shukurki, soxta mafkura zug'umi tufayli noto'g'ri baholangan yoki ochiqdan-ochiq teskari yoritilgan til borasidagi ko'p masalalar haqqoniy yechimini topa boshladi.

Ayni paytda davlat tilining taraqqiyoti, uning nufuzini oshirish, unga nisbatan hurmat va ehtiromni shakllantirish borasida mutloq yangi bosqich boshlanmoqda. Chunki mamlakatimizning milliy tiklanishidan milliy yuksalish sari taraqqiyotida o'zbek tili davlat tili benazir tayanchdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida keng jamoatchilikni tashvishlantirib kelayotgan ko'plab holatlarga barham beradigan ko'rsatmalar o'z ifodasini topdi.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tuzilib, uning asosiy vazifalari belgilab berildi. Farmonga ko'ra atamalar komissiyasini tashkil etish, 2020-2030-yillarga mo'ljallangan o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihasini ishlab chiqish ham ko'zda tutilgan.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularni bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi. Bu dolzarb vazifalarni bajarish bir guruh mutaxassislarining emas, barcha fuqarolarning vatanparvarlik va millatparvarlik burchidir.

Адабиётлар рўйхати

1. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. Prezident Shavkat Mirziyoevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligini o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Xalq so'zi"
2. Millatlararo munosabatlar madaniyati va baynalmilal dunyoqarash. O'quv qo'llanmasi. T.: O'zbekiston. 1993. B. 82.
3. Rahmatullaeva G., "Partiya turmushi". 1988-yil № 6. B. 65.
4. Qosimov S., "O'zbekiston adabiyoti va san'ti". 1989-yil 8-sentyabr.
5. Yusupov E. Iskandarov M., "Sovet O'zbekistoni". 1989-yil 15-oktyabr.
6. William Fierman. Policy toward Islam in Uzbekistan in the Gorbachev era//Nationalities Papers, Vol. 22.1, 1994. pp. 225-246;
7. Ўша муаллиф: Political development in Uzbekistan: democratization? //Conflict? Cleavage, and change in Central Asia and the Caucasus. Edited by K. Dawisha, B. Parrot. Cambridge University Press, 1997. 360-408 pp.
8. Gregory Gleason. The Central Asian States: discovering independence. Westview Press. Boulder, USA. 1997. p. 45.
9. Gregory Gleason. The Central Asian States: discovering independence... 69-70 pp.
10. Махмудов Н. Она тилимиз камоли. -Халқ сўзи, 2015-йил 21-октябрь.
11. Michael Lenker. The Politics of Language Policy. A case study of Uzbekistan//Perestroika at the Crossroads. Edited by A.J. Rieber & A. Z. Rubinstein. M.E. Sharpe, Inc. Armonk, NY. USA. 1991. 268-269 pp.
12. Michael Lenker. The Politics of Language Policy. A case study of Uzbekistan 268-269 pp.
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., 2008. B. 83.
14. Народное образование и культура в СССР. Стат. сбор. М., 1989. 371-б.
15. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. A.Azizxujayev, B.Alimov. T., 2006. B. 239.
16. Шерматова Г., "Коммунист Узбекистана". 1990. № 2. 64-б.
17. Основные показатели работы и анализ развития сети и деятельности КПУ за 1988-1989 гг. Т., 1990. 27-29-66.
18. Социально-культурный облик советских наций. М., 1986. 337-б.
19. Юсупов Э., Туленов А., Ғофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий суҳбатлар. Т., 1990. 118-б.
20. Anvar Obidjon., "O'zbekiston adabiyoti va san'ti". 1986. 10-yanvar.
21. Mamajonov S., "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1986. 21-fevral.
22. Sharofiddinov O., "O'zbekiston adabiyoti va san'ti". 1986. 17-yanvar.
23. Asomidinov A., "Toshkent haqiqati". 1985. 30-iyun.
24. Nosir Fozilov., "Sharq yulduzi". 1986. № 2. B. 16.
25. Said Ahmad., "Sharq yulduzi". 1985-yil № 1. B. 173.

³⁰ O'sha joyda.

³¹ Muallif hisob-kitoblari asosida. Shaxsiy arxiv.



I BO'LIM

TEATR

VA KINO

ZAMONAVIY O'ZBEK KINO SAN'ATINING RIVOJLANISH MASALALARI

(“IPAK YO‘LI DURDONASI” TOSHKENT HALQARO KINOFESTIVALI MISOLIDASI)

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada bugungi kun zamonaviy o'zbek kino san'atining rivojlanish masalalari tahlil qilish jarayonida ularning yutuq va muammolarini o'rganilgan, zarur taklif-mulohazalar bildirilgan. O'zbek badiiy kinosida yoshlar ijodining bugungi kundagi holatiga nazar tashlash asnosida, mavjud muammolarni bartaraf etishga oid taklif va mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: O'zbek kinosi, kinematografiya, tarixiy janr, kompozitsiya, tasviriy yechim, ifodalilik.

Икбол МЕЛИКУЗИЕВ,

и.о.профессор, заведующий кафедры “Звукорежиссуры и операторского мастерства” ГИИКУз

СОВРЕМЕННАЯ УЗБЕКСКАЯ КИНЕМАТОГРАФИЯ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ

(НА ПРИМЕРЕ ТАШКЕНТСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО КИНОФЕСТИВАЛЯ
«ЖЕМЧУЖИНА ШЕЛКОВОГО ПУТИ»)

Аннотация. В данной научной статье анализируются вопросы развития современного узбекского киноискусства, изучаются их достижения и проблемы, высказываются необходимые предложения и замечания. В узбекском художественном кино, в свете сегодняшнего состояния творчества молодежи, будут высказаны предложения и замечания по устранению существующих проблем.

Ключевые слова: Узбекское кино, кинематография, исторический жанр, композиция, образное решение, выразительность.

Iqbal MELIKUZIEV,

Acting professor, Chief of department “Sound direction and cameraman skill”
of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

MODERN UZBEK CINEMATOGRAPHY DEVELOPMENT ISSUES

(ON THE EXAMPLE OF THE TASHKENT INTERNATIONAL FILM FESTIVAL "PEARL OF THE SILK ROAD")

Abstract. This scientific article analyzes the issues of the development of modern Uzbek cinema, studies their achievements and problems, makes the necessary suggestions and comments. In Uzbek art cinema, in the light of the current state of youth creativity, suggestions and comments will be made to eliminate existing problems.

Keywords: Uzbek cinema, cinematography, historical genre, composition, image decision, expressiveness.

Kinofestivallar kino san'ati rivojida juda muhim o'rin egallaydi. Chunki aynan kinofestivallar orqali ijodkorlar eng avvalo, o'zaro tajriba almashadi. Qolaversa, dunyoqarashlarini kengaytiradilar, bo'lg'usi ijodiy hamkorlari bilan tanishadilar. Kinofestivallarda ko'plab filmlarning ommaviy namoyishi va ushbu filmlarni yaratgan yetuk, iste'dodli ijodkorlarning, mualliflarining tashrifi, ular tomonidan o'tkaziladigan turli ijodiy uchrashuvlar esa o'z navbatida, yosh ijodkorlar uchun o'ziga xos tajriba maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda qayd etish lozimi, maqolamizda tavsifiy, tasnifiy, tarixiy-qiyosiy, kontekstual va kompleks yondashuv tahlil usullari qo'llanildi.

Ta'kidlash kerakki, ekran madaniyati hodisasining murakkab mazmunini hisobga olgan holda, ishda gumanitar fanlar – san'atshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, aloqa nazariyasi, madaniyatshunoslik metodologik vositalaridan foydalanadi. Tadqiqotda ko'rib chiqilayotgan muammolarni nazariy va tarixiy-badiiy tushunishga qaratilgan zamonaviy san'atshunoslik usullari, shu jumladan, operatorlik tasviriy vositalari yordamida

yaratilgan o'ziga xos badiiy-ifodali vositalarni badiiy-uslubiy tahlil qilish usuli, texnik va texnologik vositalar yordamida ekran tasvirini yaratishning asosiy noan'anaviy shakllarini aniqlash va tahlil qilish uchun tipologik usuli kabi metodlardan foydalanilgan.

Umuman olganda, ish qiyosiy tahlil va tipologik umumlashirishdan foydalanishga imkon beruvchi ekranning o'ziga xos ifoda vositalarini yaratish va his qilish muammosiga integratsiyalashgan yondashuvdan foydalangan. Qiyosiy tahlil usuli ekran san'atining rivojlanishining turli bosqichlarida badiiy filmlarda tasviriy yechimning o'zaro ta'siri va uni amalga oshirishning texnologik imkoniyatlarini o'rganishda ishlatilgan.

Kino san'ati tarixida ilk kinofestival Benito Mussolinining shaxsiy tashabbusi bilan Venetsiyada bo'lib o'tgan. Bir qarashda umuminsoniy qadriyatlarini, yaxshilik va tinchlik g'oyalari ilgari suruvchi kino san'ati tarixida ilk kinofestivalning fashizm tuzumining eng ayovsiz vakilining nomi bilan bog'liqligi mantiqsizlikday tuyuladi. Lekin bu tarixiy faktni tan olmay ilojimiz yo'q. Bu festivalda birinchi namoyish etilgan film “Doktor Jekil va

janob Xayd" (1931-yil, rejissor Ruben Mamulyan) filmi edi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi "tiklanish" davrlari kino san'atiga ham ayrim o'zgarishlarni kiritdi – festivallar bir muddatga unutildi. San'atda ham turg'unlik davri boshlandi.

Ko'pchilik Kann va Venetsiya kinofestivallarini kino "Uyg'onish davri"ning boshlanishi sifatida baholaydilar. 1951-yilda Akira Kurosavaning "Rasyomon" (yapon. 羅生門) filmi Venetsiyada bo'lib o'tgan kinofestivalda g'olib chiqdi. Bu urushdan keyingi davr kino san'ati uchun muhim bosqich edi. Film festivalning yangi "Oltin arslon" mukofotini qo'lga kiritdi. Xuddi shu yillarda AQShda Vudstok shahrida birinchi Amerika kinofestivali bo'lib o'tdi. Frantsiyada – Kann kinofestivali, Germaniyada esa Berlin festivali, Chexiyada Karlovi Vari xalqaro kinofestivali ish boshladi va ko'p o'tmay ular dunyoga mashhur bo'lib ketdi.

Shu o'rinda tabiiy ravishda "Kinofestivallar ijodkorlarga nima beradi?" degan o'rinli savol tug'iladi. Festivallar rejissor, umuman ijodkorlarga obro', mashhurlik, hech bo'lmaganda tajriba, yangicha fikrlash, yangicha dunyoqarash, yangi g'oyalarni taqdim etadi. Agar biror ijodkorning filmi festivalda muvaffaqiyat qozonsa tabiiyki ushbu filmni yaratishda ishtirok etgan ijodiy guruhning har bir vakili ijodida yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi, yangi loyihalarga takliflar boshlanadi. Festivallar ijodkorlar uchun, ayniqsa, shakllanib kelayotgan yosh ijodkorlar avlodi uchun kino san'atidagi eng zamonaviy tendentsiyalardan xabardor bo'lib turish uchun zo'r imkoniyatdir.

O'zbek kinosi faoliyatida ham turli darajadagi hamda turli yo'nalishdagi kinofestivallar o'tkazilgan. Bularga, avvalo, 1968 – 1997 yillar davomida O'zbekistonda tashkil etilgan "Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Toshkent xalqaro kinofestivali"ni misol tariqasida keltirish mumkin. Bundan tashqari, "Sport kino va televideniya" Toshkent Xalqaro sport filmlari kinofestivali, Markaziy Osiyo mamlakatlari yoshlarining "Ijodiy parvoz" kinofestivali, bir muddat faoliyat yuritgan "M&TVA award" festivali, "Oltin gepard" kinofestivali, "PROlogue" yosh ijodkorlarning qisqa metrajli filmlari festivali, "Debyut" qisqa metrajli filmlar festivali ham shular jumlasidandir.

Yuqorida nomlari keltirilgan festivallar mamlakat madaniy hayotida, kino san'ati, umuman media sohasida sezilarli rivojlanishlarga turtki bergan tadbirlar hisoblanadi. Ularning orasida ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari yoshlarining "Ijodiy parvoz" kinofestivali yosh ijodkorlarning har tomonlama yetuk ijodkorlar sifatida shakllanishlarida muhim ahamiyat kasb etgan. 2000-yillarning boshida M.Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at institutida tashkil etilgan ushbu kinofestival avvaliga institut tomonidan o'tkazib kelingan bo'lib, unda O'zbekistondan tashqari, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston mamlakatlarining yosh ijodkorlari ishtirok etar edi. 2006-yildan boshlab ushbu festivalni Xalqaro miqyosda tashkil etish boshlandi va unda MDH davlatlarining deyarli barchasidan yosh ijodkorlar va talaba yoshlarning ishtiroki ta'minlanishiga jiddiy ahamiyat qaratildi.

Ushbu kinofestivalning bevosita Toshkent davlat

san'at institutida tashkil etilganligi, unga Hakamlar hay'ati a'zolari sifatida MDH davlatlaridan, Fransiya, Germaniya, Polsha, Chexiya kabi Yevropa mamlakatlaridan eng mashhur va iste'dodli rejissorlarning, ssenariynavislar, kinooperatorlar, kinotanqidchilarning taklif qilinishi, ular tomonidan tashkil etilgan mahorat darslari institutda tahsil olayotgan talabalar uchun katta maktab va tajriba almashinish maydoniga aylangan.

"Ijodiy parvoz" kinofestivali doirasida atoqli Rossiyalik kinorejissor va ssenariynavis, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan artist Valeriy Rubinchik, Fransiyalik kinorejissor, prodyuser, aktyor va ssenariynavis Iv Komon, Germaniyalik ijodkorlar, kinorejissor, ssenariynavis, prodyuser Til Xastrayter hamda dokumentalist kinorejissor, prodyuser va ssenariynavis Gereon Vetsel va boshqa atoqli ijodkorlar tomonidan o'tkazilgan mahorat darslari albatta, o'z samarasini ko'rsatdi. Ana shu o'zlashtirilgan tajriba, dunyo kinosi namoyondalaridan olingan bilim natijasi o'laroq institutdan bugungi kunda o'zbek kinosida o'zining mustahkam o'rini topgan yosh va iqtidorli rejissorlar, kinooperatorlar, kinoshunoslar yetishib chiqdilar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining 2018-yil 12-apreldagi 14/1-1851-son topshirig'iga binoan 2018-yil 18-aprel kuni S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'rtasida tuzilgan keng qamrovli hamkorlik haqidagi kelishuv shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomaga asosan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalariga S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya institutida o'z malakalarini oshirish hamda Rossiya federatsiyasi hududida o'tkaziladigan ko'plab kinofestivallarda ishtirok etish imkoniyati paydo bo'ldi.

2019-yil 1-12-iyul kunlari S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti taklifnomasigaga asosan "Ovoz rejissorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida "Kinoteleoperatorlik" bo'limi 4-bosqich talabasi Risqibek Shermuxamedov Svetlogorsk shahrining (Kalelingrad tumanida) 11-Xalqaro yozgi oromgohining Kino maktabida "Hujjatli film" yo'nalishi bo'yicha malaka oshirib qaytdi. Ushbu yozgi ijodiy oromgohda Italiya, Meksika, O'zbekiston, Xitoy xalq Respublikasi, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi kabi 6 ta davlat kinematografiya oliygohlarining iqtidorli talabalari qatnashdi. Kinematografiya sohasi ustalari Igor Klebanov, Fladimir Fokin (Rossiya Federatsiyasi), Kshishtof Zanussi (Polsha), operator Xannu-Pekka Vitikaynenlar (Chexiya) tomonidan mahorat darslari o'tildi.

Bundan tashqari, Risqibek Shermuxammedov malaka oshirish davrida Meksikalik talaba Luis Reyes (rejissor), VGIK talabasi Dariya Dikarkina (prodyuser), VGIK talabasi Yuriy Kozinlar (ovoz rejissori) bilan "MAD TWINZ" deb nomlangan hujjatli filmni tasvirga oldi. Tasvirga olish jarayonida R.Shermuxammedov eng zamonaviy texnikalardan foydalanib amaliy ko'nikmaga ega bo'ldi. Risqibek Shermuxammedov "Baltiyskie debyut" 16-kinofestivalida ishtirok etib, festival diplomiga ega bo'ldi.

"San'atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash" ta'lim yo'nalishi talabalariga Alijon Abdullaev, Dilmurod Tillamurodxo'jaev, "Televidenie va rejissorligi" ta'lim

yo'nalishi talabasi Mahliyo Asqaraliev kabi iste'dodli talabalar "Kino, televidenie va radio rejissorligi" kafedrasini mudiri, s.f.n. F.Fayzieva boshchiligida Moskva shahrida 2018-yilning 12-16-noyabr kunlari bo'lib o'tgan VGIK 38-Xalqaro talabalar festivalida ishtirok etib qaytdilar.

S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'rtasida 2018-yil 18-aprel kuni tuzilgan keng qamrovli hamkorlik haqidagi kelishuv shartnomasiga asosan "VGIKning 100 yilligi" tadbirlari doirasida Rossiyadan tashrif buyurgan delegatsiya a'zolari, xususan rossiyalik tajribali mutaxassislar tomonidan o'zbekistonlik talabalar hamda qiziquvchilar uchun mahorat darslari bo'lib o'tdi. Ularda, BKDI "Aktyorlik mahorati" kafedrasini dotsenti A.Z.Zakirov, "Kino" kafedrasini mudiri, Rossiya Federatsiyasi xalq artisti rejissor V.I. Xotinenko, "Animatsiya va multimedia" fakulteti dekani Ye.G.Yaremenko, Ilmiy ishlar prorektori, "Ovoz rejissorligi" kafedrasini mudiri Ye.A.Rusinovalar ishtirok etdi. Tadbirning ikkinchi kunida mahorat darslari davom etib, BKDI "Kinooperatorlik mahorati" kafedrasini professori, RFda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, RF xalq artisti, Rossiya Federatsiyasi Kinematografiya Ittifoqi Kinooperatorlar Gildiyasi prezidenti I.S.Klebanov, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Rossiya Federatsiyasi xalq artisti, rejissor va ssenarist V.P.Fokin ishtirok etishdi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yilning 19-iyunida PQ-5151-son "Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash va o'tkazish to'g'risida"gi Qarori o'zbek kinosi nufuzini oshirishda, uni shonli tarixini qayta tiklash, o'zbek kinoijodkorlarining filmlarini dunyoga tanitish yo'lida bosilgan muhim qadam bo'ldi. Ushbu hujjatlarning imzolaniishi shubhasiz milliy kino san'atimizning yanada rivojlanishi uchun, uning tubdan yangilanib jahonga yuz tutishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Iste'dodli aktyor Jerar Depardiyening ta'biri bilan aytganda: "O'zbekiston hukumatining milliy kinematografiyani rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari tahsinga loyiq"¹.

Qarorga asosan 1968 – 1997 yillar davomida O'zbekistonda o'tkazilgan "Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Toshkent xalqaro kinofestivali", "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali nomi bilan qayta tiklanib, har yili sentabr-oktabr oylarida Toshkent shahrida o'tkaziladigan bo'ldi. Qariyb chorak asrlik tanaffusdan so'ng qayta tiklangan "Ipak yo'li durdonasi" kinofestivali joriy yilning 28-sentabrdan boshlanib 3-oktabrda yakunlandi.

XIII xalqaro kinofestival ellikka yaqin mamlakat kinoijodkorlarini jamladi. Hafta davomida O'zbekiston ekranlarida jahon kinematografiyasining so'nggi yillarda suratga olingan eng sara asarlari namoyish etildi, sohadagi o'zgarishlar haqida fikr almashildi, yoshlar uchun mahorat darslari tashkil etildi.

Umuman olganda, mahorat darslari pedagogik tajribaning eng samarali shakllaridan biridir. Shu tufayli ijodiy yo'nalishlardagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy imkoniyatlarini mukammal darajada

ochib berilishiga va ularning ilmiy-ijodiy ishlarini rag'batlantirish borasida keng imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Master-slasse inglizcha master – o'z sohasida yuqori ijodiy darajaga erishgan mutaxassis; slasse – bu mashg'ulot, dars. Aslida buni muayyan ijodiy fan bo'yicha o'zining amaliy yutuqlarini yaxshilashni istaganlar uchun muayyan yetuk mutaxassis tomonidan o'tkaziladigan seminar, desak ham bo'ladi.

Mahorat darslari ochiq va erkin pedagogik tizim bo'lib, u pedagoglar va talabalar o'rtasidagi konservativ chegarani yumshatishga, ularning o'rtasida do'stona ijodiy aloqani o'rnatishga va muayyan muammo bo'yicha hamkorlikda faoliyat yuritishga imkoniyatlar beradi. Bunda ustoz va shogird o'rtasidagi munosabatlar mukammal darajada hamohanglashadi. Mahorat darslarida faqat amaliy maqsaddan tashqari, yana bir muhim maqsad – talabaning intellektual va estetik tarbiyasi ham ko'zda tutilgan bo'ladi. Bu konsepsiya mahorat darsida talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Afsuski ko'pgina universitetlarda mahorat darslari ta'lim shakli sifatida kamdan-kam qo'llaniladi, chunki ular rejalashtirish va hisobot tizimida ko'zda tutilmagan. Iqtidorli, o'z ishining ustasi bo'lgan ijodkorlar faoliyat yurituvchi ijodiy ta'lim muassasalarida mahorat darslari doimiy ravishda o'tkaziladi. Bir so'z bilan aytganda, mahorat darslari ishtirokchi talabalarning ijodiy potentsialini oshirish uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning ustozga bo'lgan hurmatini, unga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ustozlar ham talabalarga o'z amaliyotida foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ko'nikmalarni beradi.

"Ipak yo'li durdonasi" XIII Toshkent Xalqaro kinofestivalida ham an'analarga hamohang tarzda yosh ijodkorlar uchun mahorat darslari, ijodiy uchrashuvlar va turli loyihalar tashkil etildi. Kinofestivalga Lyuk Besson, Stiven Sigal, Franko Nero, Nikita Mixalkov, Mithun Chakraborti, Jerar Depardye, Volter Afanasev, Rob Minkoff, Timur Bekmambetov, Pavel Priluchniy, Ravshana Kurkova, Aleksey Chadov, Igor Jijikin, Farxad Maxmudov, Yevgeniy Kulik, Oliver Gay-Uotkins, Valeriy Ruzin, Pavel Selin, Yelena Kojevnikova, Aleksey Komenskiy, Arsen Arakelyan, Xuseyn O'zden, Fariz Axmedov, Orman Aliev, Alyuk Viktor, Olga Dashuk, Alesandro Rosselini, Arno Frile va boshqa taniqli mehmonlar tashrif buyurishdi va yosh ijodkorlar va talabalar uchun mahorat darslarini tashkil qildilar, talabalar bilan o'z bilim va malakalarini o'rtoqlashdilar.

Mahorat darslarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ssenaristlik, rejissorlik, operatorlik, ovoz rejissorlik, animatorlik kabi ta'lim yo'nalish talabalari qatnashib, malakalarini oshirishdi.

Albatta, nazariy bilimlar bilan birga festival doirasida amaliy ijodiy faoliyatga ham alohida o'rin ajratildi. Kinofestival doirasida "Kino 5 kunda" tanlovi ham bo'lib o'tdi. Tanlovda 25 ta qisqa metrajli filmlar suratga olindi. Unda Germaniya, Ispaniya, Tojikiston, Armaniston, Rossiya va boshqa mamlakatlardan kelgan yosh rejissorlar ishtirok etishdi. "Yoshlik" kinostudiyasida o'zbek va xorijlik yosh rejissyorlar tomonidan suratga olingan qisqa metrajli filmlarning namoyishlari "O'zbekfilm" kinokontsern DUKda bo'lib o'tdi.

² <https://t.me/uzbekkinopress>



“Qirg‘oq” (“Coast”) hujjatli filmini suratga olish jarayoni

Mazkur tanlovda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining “Kinoteleoperatorlik” ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabalasi Sadriddin Shahobiddinov ham ishtirok etdi. U Germaniyalik yosh rejissyor Daniel Asadi Fayazi (Daniel Asadi Faezi) bilan “Qirg‘oq” (“Coast”) hujjatli filmini suratga olishga muvaffaq bo‘ldi. Filmini suratga olish ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanida bo‘lib o‘tdi.



“Qirg‘oq” (“Coast”) hujjatli filmini suratga olish jarayoni

Talabalar uchun tashkil qilingan mahorat darslari orasida Jahonga mashhur Fransiyalik kinorejissor, prodyuser, dramaturg Lyuk Besson bilan o‘tkazilgan talabalarda juda ajoyib taassurot qoldirdi. Yoshlarning intilishini ko‘rib kinorejissor Lyuk Besson “Yoshlarga maslahatim, doimo samimiy bo‘ling, o‘zingizni aldamang!”



² <https://t.me/uzbekkinopress>

Kinoda haqiqatni ko‘rsatishga harakat qiling. Buyuk asarlar eng katta haqiqatlar ustiga quriladi. Tomoshabinni ishonitirish uchun samimiyatdan kuchliroq qurol yo‘q. Ijodkor o‘ziga tanqidiy nazar bilan qarashi kerak. Hikoyangiz o‘zingizga qanchalik yaxshi tuyulmasin, uni yaxshilash ustida izlaning”². kabi maslahatlarini berdi.



Kinorejissor Lyuk Besson bilan ijodiy uchrashuv jarayoni.

Talabalarda Gollivudlik mashhur animator, rejissor, prodyuser, dramaturg, “Styuart Littl”, “Styuart Littl – 2”, “Janob Pibodi va Shermann” kabi animatsion filmlarning muallifi Rob Minkoff bilan o‘tkazilgan ijodiy-uchrashuv va mahorat darslari ham juda katta qiziqish uyg‘otdi. U o‘z tajribalarini yoshlar bilan o‘rtoqlashdi.



Rob Minkoff bilan mahorat darslari jarayoni

Shu bilan birga festival doirasida “Oskar” mukofoti sohibi, rejissor, kinoaktyor Nikita Mixalkov, fransiyalik aktyor Jerar Depardye hamda italiyalik iste‘dodli aktyor Franko Nero bilan ham ijodiy uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi.



Operator Sergey Machilskiy ham kino-teleoperatorlik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'zining mahorat maktabi haqida gapirib berdi.

Kinofestival doirasida ijodiy oliy o'quv yurtlari rektorlarining "Kino ta'limi sohasida tendensiyalar va istiqbollar" mavzusida birinchi xalqaro anjumani bo'lib o'tdi. Unda xorijiy oliy o'quv yurtlarining rektorlari: Georgiy Shalutashvili, Chotonov Mamasharip Mamitovich, Hazbulatov Andrey Ravilevich, Nilay Ulusoy va Ibrohim

Yo'ldoshev ishtirok etdi. Anjumanining asosiy voqeasi esa memorandumlarni imzolash marosimi bo'ldi. Ushbu imzolangan memorandumga asosan hamkor Oliy o'quv yurtlari bilan keng qamrovli va mustahkam aloqalarni o'rnatish, talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida akademik almashinuv dasturlarining yo'lga qo'yilishi, ilmiy va ijodiy sohalarda olib boriladigan hamkorlik institutimizga katta muvaffaqiyatlar olib keligi, o'zbek kino san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shishi shubhasiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бондаренко В.А. «Современный отечественный кинематограф и теоретические принципы ОПОЯЗа», кандидатская диссертация. 1-боб.
2. Казакова Р. Все должно быть по-человечески // Экран. 1969-1970.
3. Хлопьянкина Т. «Советский экран» № 19, 1966 йил.
4. Dr. Tadjibayeva O.K.; Melikuziev I.M.; Khusanov Sh.T., Issues of the using the Special Effects as means of Visual expression in the Cinema art. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7, 2, 2020, 2204-2215.
5. Ikbal Melikuziev. (2020). Cinematographer's ability in the creation of graphic image in uzbek historical films. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554 - 1567. Retrieved from <http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>
6. Ikboljon, M., & Tirkashaliyevich, K. S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5230-5236. doi:10.35940/ijeat. A2948.109119
7. Ikboljon Melikuziev. (2016). Duties of a Cinematographer in Creating a Film. Journal of Literature and Art Studies, 6(7). <https://doi.org/10.17265/2159-5836/2016.07.013>
8. Khusanov, S. (2018). Poetic methodology in Uzbek cinema 60-70 s. Culture and Arts of Central Asia, 7(1), 6.
9. Khusanov, S., Bazarbayev, B., & Xidirova, K. (2020). Lacking professional personnels as the major issue in the "karakalpakfilm" cinema studio. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(Special Issue 1), 766-773. <https://doi.org/10.37200/IJPR/ V24SP1/PR201216>
10. Marizaeva, N. (2017). THE BASIC CONCEPTS ABOUT LIGHT AND ITS PRACTICAL APPLICATION IN FILMING. ISJ Theoretical & Applied Science, 6(50), 63-69.
11. Sherzod, K., & Robiya, T. (2019). "New wave" in uzbek cinema art: Expressiveness in social realism. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5237-5246. doi:10.35940/ijeat. A2949.109119
12. Umarova, D. B. (2017). TRADITIONAL HERITAGE IN MODERN ART OF UZBEKISTAN. Modern Science, (5-2), 99-102.

RADIO REJISSORI VA BOSHLOVCHISI HAMKORLIGINING BA'ZI QIRRALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kechinma san'atini egallagan ijodkordan yaxshi radioboshlovchi chiqishi ko'p bora isbotlangan, bu jarayonda radiorejissor va boshlovchining ijodiy hamkorligi alohida ahamiyatga egaligi xususida so'z boradi. Ana shu ijodiy hamkorlik o'rnatilgan sharoitda sintez san'at sifatida shakllangan radioning san'atdagi o'rni mustahkam saqlanib qoladi va millionlab tinglovchilarni o'z ortidan ergashtirishda davom etaveradi. Mavzu radioboshlovchilikda radiorejissor va boshlovchi hamkorligining ba'zi qirralari haqida.

Kalit so'zlar: radio rejissori, boshlovchisi, radiopriyomnik, effekt, musiqiy bezak, rolik, jingil, tinglovchi, mablag', kompyuter, internet, tasavvur, teatr, efir, reportaj, sintez, eshittirish, dastur, setka, muharrir, pult, ovoz.

Эрназар ЯРБЕКОВ,

доцент кафедры «Искусство музыкального, драматического театра и кино» ГИИКУз

НЕКОТОРЫЕ ГРАНИ СОТРУДНИЧЕСТВА РАДИО РЕЖИССЁРА И ДИКТОРА

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о значении творческого сотрудничества радиорежиссёра и диктора и это сотрудничество означает, что получится хороший радиодиктор от творческого человека, усвоившего искусства переживания. В случае установления подобного сотрудничества сохранится место искусства радио как синтез искусств и ведёт за собой миллионов радиослушателей. Данной темой раскрывается грани сотрудничества радиорежиссёра и диктора в области радиоведущего.

Ключевые слова: радио режиссёр, диктор, радиоприемник, эффект, музыкальное оформление, ролик, джингл, слушатель, компьютер, интернет, воображение, театр, трансляция, репортаж, синтез, трансляция, программа, сетка, редактор, пульт, звук.

Ernazar YARBEKOV,

docent of the chair of "Art of Musical, Drama Theater and Cinema" of the UzSIAC

SOME EDGES OF COOPERATION BETWEEN A RADIO DIRECTOR AND AN ANNOUNCER

Abstract. This article discusses the importance of creative cooperation between a radio director and an announcer, and this cooperation means that you will get a good radio announcer from a creative person who has mastered the art of experience. If such cooperation is established, the place of radio art will remain as a synthesis of arts and will lead millions of radio listeners to failure. This topic reveals the facets of cooperation between a radio director and an announcer in the field of a radio presenter.

Keywords: radio director, announcer, radio receiver, effect, musical arrangement, video, jingle, listener, computer, internet, imagination, theater, broadcast, reportage, synthesis, broadcast, program, grid, editor, console, sound.

Komil inson, yetuk shaxs tarbiyasi eng muhim va hamisha dolzarb bo'lib kelayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu yo'lda ko'plab bitiklar, maqolalar, risolalar yozilgan va bundan keyin ham yoziladi. Ammo teatr san'ati maktabining bilimlarini chuqur egallagan va shu bilimni radioboshlovchilikda ham qo'llay oladigan bilimli, kundalik voqea-hodisalardan, dunyodagi o'zgarishlardan xabardor, bir vaqtning o'zida millionlab tinglovchilar oldida so'z aytishga qodir, gapga chechan, sof talaffuz madaniyatiga ega, turli mavzudagi matnlarni san'at darajasida tinglovchiga yetkazadigan oluvchi diktör, radioboshlovchi tarbiyasi haqidachi? Teatr atalmish san'atning ilk pillapoyasi – aktyor tarbiyalash jarayoni xususida tabiiy ketma-ketlikni saqlagan holda biror qo'llanma yoki kitob yozish, uslubiyatini dars jarayonidagidek qog'ozga tushirish qiyin va og'ir mas'uliyatli. Aytish joizki, diktörlik, radioboshlovchilik sohasida ham xuddi shunday. Chunki bu yorug' olamda qancha odam bo'lsa, hammasining fe'l-atvori o'zgacha, bir-biriga o'xshamaydi. Kelajakda diktör, radio boshlovchi bo'lishni orzu qiladigan

talabalar ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Demak, inson xarakterini yaratuvchi, ruhiyatini kashf qiluvchi aktyorning tug'ilishida barchaga bir xil uslubni qo'llab bo'lmagani kabi radioboshlovchini shakllantirish ham har bir talabani o'ziga xos tabiatidan kelib chiqib yondashishni talab etadi. Shunday ekan, radioboshlovchilik mahorati haqida hamma zamonga va hamma talabaga birdek qo'llanilishi mumkin bo'lgan uslubiy ko'rsatmani yozish o'ta mashaqqatli vazifa. Yozganda ham ijodiy jarayondagi muhim lavhalarni xotirlash, ijodiy topilmalarni muhrlash, ba'zi bir yondashuvlarni misol tariqasida qog'ozga tushirish, iloji boricha yaxlit bir tizimga solish mumkin. Biroq bu juda kam foyda keltiradi. Bizning nazarimizda, bu yo'lda avvalo, tajribaga, talabani o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ijodiy muloqot qilishga, uning o'zligini kashf etishiga ko'maklashish prinsipiga tayanish ma'qulroqdir.

“Aslida ijod – ko'ngil xohishi, irodaning g'alabasi, lahzaviy jarayon. U har kuni yangilanib turadi. Faqat unga kerakli oziqa berib turilsa, kifoya. Ana shunda

haqiqiy ijod namunasi lahzalarda “yarq” etib lahzalarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun uning qanday paydo bo‘lganini va bo‘y ko‘rsatganini muhrlab qolish juda qiyin. Ko‘p hollarda biz pedagoglar bunday lahzalarda ko‘ngilda qandaydir xushnudlik sezamiz, xolos. Xuddi ilk qadamini qo‘ygan bolaning harakatidan zavqlangan ota-ona kabi. Aslida, faqat xushnudlik bilan chegaralanib qolmasligimiz, bo‘lajak ijodkorga dalda bo‘lishimiz, uni yangi marralarga ruhlantira olishimiz va shu yo‘l bilan notiqlik, boshlovchilik sirlarini egallash ustida mustaqil ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirishimiz lozim. Shundagina ilg‘or fikrlaydigan, ruhiy ter to‘kadigan, zamon va makondagi har bir o‘zgarishni his qila oladigan ijodkor shaxsni tarbiyalay olamiz. Ijodkor shaxs, avvalo, tafakkur elchisi. Tafakkuri sayoz bo‘lgan kishidan tom ma‘nodagi ijodkor chiqmaydi. Ijodiy tafakkur insonning so‘z boyligiga, bilimi va dunyoqarashiga, intellektual salohiyatiga ko‘ra shakllanadi. Tafakkur umumlashma bilim, intellektual iqtidor, salohiyatni rivojlantiruvchi omil ekanligini unutmasligimiz lozim. Radioboshlovchilikning sir-sinoatlarini egallashda tafakkurning o‘rni beqiyos. Chunki tafakkur tasavvurning asosi. Tasavvur bo‘lmasa ijodiy erkinlik ham bo‘lmaydi. Ijodiy erkinlik bo‘lmagan joyda kechinma san‘at ham tug‘ilmaydi. Kechinma san‘ati yo‘q joyda hayotiy haqiqat ham tug‘ilmaydi.

Inson bolasi dastlab oddiy xohish tufayli harakat qila boshlaydi. Masalan, yonib turgan shamni ushlab ko‘rish istagi uni qo‘llari bilan shamni ushlab ko‘rishga undaydi. Bu jarayonda bola o‘ziga hech qanday shikast yetmasligiga ishonadi va dadil harakat qiladi. Qachonki, qo‘li shamga tegib kuygandan so‘ng, unda shamga nisbatan munosabat paydo bo‘ladi va yangi tushuncha shakllanadi. Ya‘ni tashqi fizik harakat ichki psixik harakatning shakllanishiga turtki beradi. Shu tariqa bola endi shamni yoki unga o‘xshash narsani ko‘rganda psixofizik xatti-harakatni amalga oshiradi, o‘z tanasiga og‘riq yetkazmaslikka harakat qiladi va ma‘lum bir maqsad yo‘lida urinishlarni amalga oshiradi. Bu hayotiy haqiqat ekanligini hech kim inkor eta olmaydi. Ya‘ni bolalarga xos ishonuvchanlik va natijani baholash. Hayotiy haqiqatning sahnaviy haqiqatga aylanish mezonini shu bo‘lsa kerak” [3.B. 36-37]. Bugungi kunning radio boshlovchisiga yuklanadigan mas‘uliyat ularga aynan aktyorlik mahorati va sahna nutqi talablaridan kelib chiqib saboq berishni taqozo etadi.

Tinglovchilar auditoriyasiga kelsak, ularni o‘z ortidan ergashtirish uchun kurashda radioning olti imkoniyati mavjud:

Birinchidan, radioeshittirishlar tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlar tinglovchilar soniga bog‘liq emas. Radiodasturlarni bir paytning o‘zida yuz kishi tinglaydimi, besh-o‘n million odam tinglayotgan bo‘ladimi, eshittirishga sarflanayotgan mablag‘ga buning daxli yo‘q.

Ikkinchidan, radiopriyomniklar narxi kompyuter yoki televizorga solishtirganda turlariga qarab hammaning sotib olishga qurbi yetadigan darajada arzon. Bundan tashqari, radiopriyomniklar qo‘shimcha xizmat turi sifatida boshqa vositalar (masalan, uyali telefon) dan joy olayapti.

Uchinchidan, tinglovchilar bilan hamnafas ekanligi. Efir studiyasida yangragan yoki voqea joyidan olib borilayotgan reportaj chog‘ida aytilgan har bir so‘z, har

qanday tovush o‘sha soniyalarning o‘zidayoq tinglovchi qulog‘iga yetib boradi.

To‘rtinchidan, tanlash imkoniyati keng. Har bir tinglovchi, xoh u yirik shaharda bo‘lsin, xoh qishloq joyda, to‘rt-beshadan tortib, o‘nlab radiostansiyalarning dasturlarini tinglay oladi. Bunga qo‘shimcha sifatida sun‘iy yo‘ldosh va internet butun dunyo bo‘ylab ko‘p sonli radiostansiyalarni eshitish imkonini beradi.

Beshinchidan, radio eshitish ikkinchi darajali yoki parallel mashg‘ulot bo‘lib, tinglovchining asosiy vaqtini olmaydi. Sodaroq qilib aytganda, radio bir paytning o‘zida tinglovchining bir necha sezgi organlarini band etmaydi. U faqat tinglovchining qulog‘ini jalb etadi. Shu tufayli radio eshitish boshqa ishlarni qilishga xalaqit bermaydi.

Oltinchidan, radioda tasvirning yo‘qligi tinglovchining vaqtini egallashda uning asosiy afzalligi bo‘lib hisoblanadi. Odatda ko‘pchilik qilayotgan ishi televizor ko‘rish imkonini bermagan paytda, masalan, avtomobilni boshqarayotganda radio eshitadi. Bu reklama beruvchilarga hatto, televideniye uchun noqulay bo‘lgan joyda ham reklama qilinayotgan mahsulot haqidagi kerakli ma‘lumotlarni iste‘molchilarga yetkazish imkonini beradi. Shuningdek, radio aholining gazeta yoki jurnal o‘qimaydigan, televizorni kam ko‘radigan qatlamlari e‘tiborini jalb etib, ularning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Ana shu jarayonda radiorejissor va boshlovchining ijodiy hamkorligi asosiy omil hisoblanadi.

Aynan, radio rejissori ijodiy guruh bilan hamkorlikda rejalashtirilgan matn bo‘yicha radiodasturni tinglovchiga manzur va ma‘qul bo‘ladigan darajada tayyorlashga mas‘uldir. U radiomahsulotning g‘oyaviy – siyosiy va badiiy jihatdan yuksak saviyada bo‘lishi hamda muallif fikrining to‘g‘ri talqin qilinishini ta‘minlaydi. Radiomahsulotning ovoz effektlari, musiqiy bezagi, matnning ravon o‘qilishi yo‘lida mahorati va malakasini namoyish qiladi. Muallif hamda muharrir bilan maslahatlashgan holda lavha yoki matnga o‘zgartishlar kiritish huquqiga ega. Rejissorlik pultida ishlayotganda musiqa muharriri, ovoz operatorlaridan o‘z xizmat vazifalarini bekamu-ko‘st bajarishini talab qilishi mumkin. Radiomahsulotni bezaydigan ovozi effektlarni tanlashi, radiodastur oldidan, u xoh yozuvda shaklida, xoh to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatilishidan qat‘i nazar, diktir yoki boshlovchi bilan ish jarayonini kelishib olishi darkor. Ular bir-biriga partnyor. Radiorejissor zamonaviy axborot texnologiyalari (kompyuter, faks, kserokopiya va Internet xizmati)dan foydalanishni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi shart. Eng zamonaviy radioeshittirish rejissurasi uslublarini o‘zlashtirib borishi, jahon radioeshittirishi yangiliklarining maqbullarini radiomahsulotlar tayyorlash jarayonida samarali qo‘llay olishi darkor. Radioeshittirishda ishlatilayotgan zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

Boshlovchi qanday sifatlarga ega bo‘lishi lozim? Bu borada ko‘p yillik tajribadan kelib chiqib shakllangan qarashlarimiz quyidagicha:

1. *Talab darajasidagi boshlovchi eng avvalo, bilim, tafakkur, intellekt jihatdan muxbir, muharrir va rejissordan ustun bo‘lsa, nur ustiga nur, lekin kam bo‘lmasligi lozim, xususan, davlat radiokanallarida. Shunday ekan, u albatta, oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim.*

2. Yoqimli, yaxshi tembrli ovoz imkoniga ega bo'lishi shart. Inchunun, radioning birlamchi ifoda va ta'sir vositasi – ovoz. Kishi diqqatini o'ziga torta olmaydigan ovoz radioefirning eshitimlilik darajasini, reytingini pastlatib yuboradi, chunki insonlarning eshitish va psixik qabul qilish tizimlari o'ta nozik ta'bga ega. Ovoz texnikasini har bir inson shakllantirishi va mukammallashtirishi mumkin, lekin yoqimli, jozibali ovoz tabiatan berilgan bo'ladi. Boshlovchining radio-kanalning norasmiy “tashrif qog'ozi” ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, bu o'ta muhim.

3. Yaxshi aktyorlik (ijro) mahorati boshlovchilarga juda asqatadi, chunki hajmi va ko'lamidan qat'i nazar boshlovchining har bir chiqishi o'ziga xos ijroni talab etadi. Ovozda plastika boshlovchining juda qisqa fursatlarda holatdan holatga (janrdan janrga) o'tishida yordam beradi.

4. Yana bir xususiyat, bu – sof va aniq diksiya, talaffuzning tozaligi (ko'pincha bu xususiyat ham tabiatan berilgan bo'ladi). Til, lab, jag', artikulyatsiya mashqlari yordamida ham ma'lum darajada ravon diksiyaga erishish mumkin.

5. O'zbek adabiy tili me'yorlari va maromlarini puxta bilgan holda o'zbek adabiy tilida gapira olishi shart, ya'ni adabiy tilda gapirish madaniyatini o'zlashtirgan bo'lishi va albatta notiqlik san'atidan ham xabardor bo'lmog'i lozim.

Bunday mahoratga mikrofon oldidagi erkinlik, yuksak tajriba orqali erishish mumkin. Erkinlik va tajriba aktyorlik mahoratining barcha elementlarini mukammal o'qish va o'rganish tufayli keladi. K.S.Stanislavskiy aytganidek: “Qiyinchilikni odatiylikka, odatiylikni yengillikka, yengillikni go'zallikka” aylantirish lozim.

Bu talablar aynan sahnada rol ijro etuvchi, yagona maqsad yo'lida faol psixofizik xatti-harakatni amalga oshira oluvchi, “kechinma san'ati” sirlarini puxta egallagan, aktyorlik mahorati elementlaridan xabardor, so'z xatti-harakati sinoatlarini o'zlashtirgan, badihago'ylik qobiliyatiga ega aktyorga qo'yiladigan talablar bilan uyg'un.

Ana shu talablarga javob bera oladigan tom ma'nodagi professional diktor, boshlovchi, suxandonlarni tayyorlash uchun ko'plab o'quv qo'llanmalari, adabiyotlar va darsliklar chop etilishi lozim. Bu masalaning eng muhim jihatlardan biridir.

Rejissor va boshlovchi juftligining maqsadi yaxshi radiomahsulotni muvaffaqiyatli taqdim etish va e'tibor qozonishdir. Muallif tomonidan tayyorlangan eshittirishni tinglovchiga taqdim etayotgan rejissor va boshlovchini mana shu istak-xohish bir butunlikda, hamfikrlilikda, uyg'un tarzda faoliyat yuritishga majbur qiladi. Nodavlat radiostansiyalardagi boshlovchilar

(Ar-Jeylar) faoliyati uchun albatta bu narsalar begona. Chunki ularda Ar-Jey bir vaqtning o'zida boshlovchilik qilish bilan birga pult boshqaruvini ham zimmasiga oladi, ya'ni miksher orqali efirga uzatiladigan jingil, rolik, pozivnoy, otbivka, perebivka, reklama bloki, musiqa, qo'shiq, sahifalar – audiomahsulotlarning efir setkasi bo'yicha to'g'ri, ketma-ketlikda va lozim vaqtida uzatilishini ta'minlaydi. Shunday ekan, rejissor va radioboshlovchi hamkorligi borasida faqat “ko'p tarmoqli” davlat radiokanali faoliyati doirasidagina fikr yurita olamiz.

Boshlovchining ham kundalik o'y-tashvishlari bor. Lekin u mikrafon oldida juda katta auditoriya va o'z jamoasi oldidagi burchi va mas'uliyatini bir lahza bo'lsin unutishga haqqi yo'q. Har qanday kayfiyatda ham efir studiyasi eshigidan kirishi bilan vazifasiga, ijod olamiga sho'ng'ib keta olishi shart. Mana shunday vaziyatda boshlovchi u bilan eng yaqin ijodiy hamkor rejissordan juda katta xayrixohlik kutadi. Masalan, boshlovchi odatdagidek efir soatlarini ochib tinglovchilar bilan salomlashayapti. Mana shu vaziyatda rejissor fonga har kuni ishlatadigan musiqaning o'rniga boshqacharoq, kamroq ishlatilgan musiqani uzatsa, ko'zlangan natijaga erishish mumkin. Har kungidan boshqacharoq musiqa ketishi boshlovchiga albatta, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. Jonli efirda kayfiyat deyarli hal qiluvchi omil sanaladi. Eshittirishning ko'ngildagidek ketmasligining sabablaridan biri aynan rejissorning bamaylixotirligidan kelib chiqadi. Rejissor faqat o'ziga birlashtirilgan navbatchilik efir soatlarini qo'pol xatolar va juz'iy kamchiliklarsiz o'tkazish g'amini yeyishi kerak emas. Eshittirish matni bilan tanishib chiqishga vaqt yoki istak topolmaydigan rejissorlarning beparvoligi ham eshittirish sifatiga salbiy ta'sir etadi. Ana shu kamchilik ham boshlovchi zimmasiga tushadi.

Rejissor efir jarayonida boshlovchining faqat adashishlarini sanab o'tirmasligi kerak, u uning tilida, talaffuzida, intonatsiyasida, so'z qo'llash va qurishidagi grammatik, leksik, stilistik xatolarini aniqlagan holda boshlovchiga to'g'ri ko'rsatma bera oladigan salohiyatga ega bo'lishi va shu mas'uliyatni doimo his qilib ishlash lozim. Qisqacha aytganda, rejissor boshlovchini qo'llab-quvvatlab, o'zaro hamfikrlilikda ishlab, kezi kelganda uni yo'rig'idan yurgiza olishi kerak. Aks holda uning ovoz operatoridan farqi qolmaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, radio ommaviy axborot vositalari orasida nisbatan yangirog'i bo'lgani bois u matbuot, teatr, kino, notiqlik san'ati, xalq og'zaki ijodi, musiqa, estrada san'ati ta'sirida shakllandi. O'ziga xos sintetik san'at darajasiga ko'tarilib, kechagi kuni, o'tmishi, tarixini unutmagan holda bugungi kunda ham rivojlanishda davom etmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi //Xalq so'zi. -2017. –16-yanv.
2. Smirnov V. V. Eshittirish uzatish shakllari. – Moskva: Aspekt press nashriyoti, 2002. – B. 167.
3. Yorbekov E, Muxammadiyev Sh. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2019. – B. 137.
4. Abdullayeva M. Istaklar kundaligi. – Toshkent: Lesson press nashriyoti, 2020. – B. 172.
5. Nosirova A. San'at mening taqdirimda. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 269.

MAHORATLI AKTYOR, LIRIK SHOIR – YETUK DRAMATURG

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola mohir ijodkor, fidokor inson, mahoratli aktyor, lirik shoir, taniqli dramaturg, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Hayitmat Rasulning ijodiy faoliyati haqidadir. Maqolada ushbu ijodkorning hayot yo'li, dramaturgiya olamiga kirib kelishi, yozgan pyesalari va ular asosida sahnalashtirilgan spektakllar tahlil etilgan. Shuningdek, dramaturgning serqirra ijodkor ekanligi, u dastlab aktyor sifatida faoliyat olib borgani, lirik shoir sifatida she'riy dramalar yaratgani va ko'p yillar O'zbekiston davlat san'at instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)da "Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi" ta'lim yo'nalishi talabalariga "Dramaturg mahorati" fanidan saboq berib, ko'plab shogirdlarga ustozlik qilib kelgani tahliliy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: dramaturg, pyesa, drama, lirika, aktyor, san'at...

Гулчехра МУФТИ-ЗАДЕ,

преподаватель кафедры «Искусствоведение и культурология» ГИИКУз

ТАЛАНТЛИВЫЙ АКТЕР, ЛИРИЧЕСКИЙ ПОЭТ – ИСТИННЫЙ ДРАМАТУРГ

Аннотация. В данной научной статье освещается творческий путь известного драматурга, награждённого Орденом "Мехнат шухрати" Хайтмата Расула. В статье анализируется жизненный путь драматурга, как он вошёл мир искусства, широко раскрыта творческая деятельность, анализированы написанные им пьесы и постановочные спектакли на его пьесы. Задачей статьи является близкое ознакомление драматургом, представляется информация о драматурге, как драматург долгие годы преподавал студентам предмет "Драматургия" в Государственном институте искусства и культуры Узбекистана (бывший Государственный институт искусств Узбекистана). Отмечается, что творчество Хайтмата Расула является своеобразным феноменом, выявлена оригинальная черта драматурга.

Ключевые слова: драматург, спектакль, драма, лирика, актер, искусство ...

Gulchera MUFTI-ZADE

Lecturer of the chair of Art and Cultural Studies of the UzSIAC

TALENTED ACTOR, LYRICAL POET – TRUE DRAMATURG

Abstract. This scientific article is dedicated to the famous playwright, awarded with the Order of "Mehnat Shukhrati" Haitmat Rasul. The article analyzes the life of the playwright, how he entered the world of art. The relevance of the article is widely disclosed creative activities, written plays and staged performances on his plays. The objectives of the article are to better familiarize the playwright, you can take information about the playwright, how the playwright taught students on the subject "Dramaturgy" for many years at the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan (formerly the State Institute of Arts of Uzbekistan). The article consists of the approach to the study of the work of Haitmat Rasul from the point of view of its genre originality, the original trait of the playwright is revealed.

Keywords: playwright, play, drama, lyrics, actor, art ...

Teatr tomoshabin uchun nafaqat tarbiya maskani, balki estetik zavq ulashuvchi tomoshaxonadir. Unda bugungi insoniyat hayotidagi milliy va umuminsoniy g'oyalar, kundalik turmushimizning dolzarb muammo va haqiqatlari aks etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari forumida yoshlar uchun muhim bo'lgan shunday bir gapni aytadi:

– Ulug' allomalarimiz, o'zlarining olamshumul kashfiyot va ixtirolarini sizning yoshingizda – ayni kuchga to'lgan navqiron chog'larida amalga oshirganlar. Siz ham, buyuk ajdodlardan ibrat olib, hayotda mo'jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak. – Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir hikmati bor: "So'z – gul, ish – meva". O'ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalaringsiz qanchalik pishiq-puxta bo'lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi. Sizlar ko'p kitob

o'qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o'tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg'oniyalar, Beruniy va Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va Mirzo Bobur, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda[1].

Darhaqiqat, inson hayotida bir ishga qo'l urar ekan, eng avvalo, u teran tafakkuri va hayotiy tajribasiga tayanadi. Qo'l urgan ishining adog'i ko'zni quvontirib, ko'ngillarni xushnud eta olsa, u shu ishning ustasi. Bu ehtiyotkorona yondashuv, san'atda juda muhim. Ijodkor ijod pallasida san'atga xiyonat qila olmaganidek, dramaturg ham yaratish chog'ida zamon bilan hisoblashadi, qahramonlari bilan kurashadi, tomoshabin bilan o'rtoqlashadi. Ichki kechinmalar, hayotiy kuzatuvlar, orttirilgan bilim va



Hayitmat Rasul

ko'nikmalar, professional maktablar, tarixiy faktlar ijodkor tafakkurida yetilishi asosida voqealar gavdalanadi. O'zgacha aytganda, ana shunday majoziy to'lg'oqlar yangi va yaxshi asarlarning dunyoga kelishida muhim rol o'ynaydi.

Go'daklik chog'larini Ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri kelgan, bolaligi yo'qchilik kezarida o'tgan bo'lsada, ilm olishdan bir zum to'xtamagan yosh Hayitmat yillar o'tib, navqiron aktyor, shoir va dramaturg sifatida tanildi. Ijodkorning teatr sahnasi uchun yozgan pyesalari va ular asosida sahnalashtirilgan spektakllar minglab tomoshabinlarning ko'nglidan joy egallab, sanoqsiz olqishlarga sazovor bo'lib kelmoqda. Mohir ijodkor, fidokor inson, mahoratli aktyor, lirik shoir, taniqli dramaturg, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi ustoz Hayitmat Rasul shu yilning 23-mart sanasida muborak 84 yoshni qarshilaydi.

Hayitmat Rasul (Abdurasulov) 1937-yili Turkmanistonning Toshhovuz tumanidagi "Oltmish" qishlog'ida tavallud topgan. O'rta maktabda o'qib yurgan paytlaridayoq badiiy ijodga ixlosi borligi sezila boshlagan. Maktabni tamomlab harbiy xizmatni o'tagach, teatr san'atiga muhabbati, shirali ovozga egaligi, adabiyotga qiziquvchanligi tufayli Hayitmat Rasul 1961-1966-yillarda A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr va rassomchilik (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)ning musiqali drama aktyorligi bo'limida tahsil oladi. U talabalik yillarida nafaqat aktyorlik san'ati, balki dramaturgiya sohasini ham qunt bilan o'rganadi. Milliy va jahon dramaturgiyasining yetuk namoyandalari asarlarini zo'r qiziqish bilan o'qiydi va o'zicha tahlil qila boshlaydi. Dramaturgiyaning o'ziga xos jihatlari o'rganadi. Yosh aktyor 1966-yilda Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri)ga ishga taklif etiladi. Teatrda o'sha davrning dong'i ketgan mashhur aktyorlari Olim Xo'jayev, Shukur Burxon,

Sora Eshonto'rayeva va yana bir qancha iste'dod sohibi va sohibalari bilan sahnada turli tuman rollarni ijro etish baxtiga muayassar bo'ladi. Jumladan, R.Eshmurodovning "Bo'ron qushi" pyesasida zodagon Kekkin, H.Niyoziyning "Boy ila xizmatchi" asarida Xolmat, F.Musajonning "Oq kabutar"ida yosh jurnalist, V.Shekspirning "Romeo va Julyetta" tragediyasida Tibalt va boshqa ko'plab rollarni mahorat bilan ijro etadi. Shuningdek, yosh iste'dod sohibi aktyorlik ilmi bilan birga dramaturgiyada ham o'zini sinab ko'radi. Uning ilk urinishlariyoq kutilmaganda o'z samarasini beradi. Shu yillarda u o'zi orzu qilgan mavzularda "Peshonasi chandiqli baxshi", "Qaysar qaynona", "Kuyov omonati" nomli musiqali dramalarini yozadi. Ushbu asarlar mamlakatimizning yetakchi teatrlaridan biri Muqimiy nomidagi O'zbekiston musiqali teatrda taniqli rejissor Razzoq Hamroyev tomonidan sahnalashtirilib, tomoshabinlar va mutaxassislar olqishiga sazovor bo'ladi.

Hayitmat Rasul she'riyat va dramaturgiyaga bo'lgan benihoya mehri sabab 1970-yildan boshlab, hayotini butunlay dramaturgiyaga bag'ishlaydi va tez orada katta yutuqlarga erishadi. Uning drama, musiqali drama janrlaridagi qirqa yaqin pyesalari poytaxt va viloyat teatrlarida sahnalashtiriladi.

Hayitmat Rasul ijodi, ayniqsa, Mustaqillik yillarida yuksalib bordi. Dramaturgning yetuk asarlari O'zbek milliy akademik drama teatri va Respublika qo'g'irchoq teatri sahnalaridan tushmay kelmoqda. Hayitmat Rasul iqtidorli aktyor, yaxshi xonanda bo'libgina qolmay, uning serqirra ijodida she'riyatga bo'lgan mehru-muhabbati ham yaqqol seziladi. Uning she'riy asarlari samimiy, chuqur lirizm bilan sug'orilgan bo'lib, yoshlikning beg'ubor tuyg'ularini tarannum etgan. Serqirra dramaturgning keyingi ijod namunalari aynan she'riy dramalardan iborat bo'lib, o'tgan asrning 70-yillarida "Shoir xayoli", "Muqaddas diyor", "Suyunchi bering, odamlar", "Temir qafas", "Uzoq qishloq", "Orzu", "Nilufar", "Qiyomat qo'ng'irog'i", "To'rt xabash va bir Zebo", "Vahima", "Qizi borning nozi bor", "Baxtiyorlar" kabi qator pyesalari nafaqat respublikamiz, balki qo'shni Turkmanistonning Toshhovuz, Mari, Bayramali teatrlarida ham sahnalashtirilib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi. Shu yillarda yaratilgan "Muqaddas diyor" asarini 1975-yilda taniqli rejissor, O'zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti sovrindori Razzoq Hamroyev Muqimiy nomidagi musiqali teatr sahnasiga olib chiqadi. Spektakl davomida Vatan ishq g'oyasi muhim rol o'ynagan. Rejissor dramaturg ana shu g'oyadan kelib chiqib, qahramonlar siymosini gavdalandirishda ularning xarakteriga mos aktyorlar tanlay olgan. Shoir Javhariy obrazi O'zbekiston xalq artisti Mahmudjon G'ofurov talqinida aqlli, mulohazali, Vatani va xalqini jonidan ortiq sevuvchi shoir, xalqi uchun, uning osoyishtaligi uchun har qanday kurashga tayyor inson sifatida ijro etilgan bo'lsa, shoir Qurboniy – O'zbekiston xalq artisti Hamza Umarov ijrosida esa hammadan o'zini ustun qo'yadigan, soxta, mug'ombir, ikki yuzlamachi, xudbin sifatida ifodalangan. O'zbekiston xalq artistlari F.Rahmatova, N.Po'latova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist S.Rahimjonovlar ijro etgan obrazlar ham spektaklni yaxlitligini ta'minlagan.

Hayitmat Rasul asarlari O'zbek milliy akademik drama teatri, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri, Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama teatri, Hamza nomidagi Qo'qon shahar drama teatri hamda Olim Xo'jayev nomidagi Sirdaryo viloyat musiqali drama teatrlari va boshqa ko'plab teatrlarda bir qancha asarlari sahnalashtirilgan.

“Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyan-gandagina qudratli kuchga aylandi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutish kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi”[2, 71]. XX asrning 90-yillariga kelib yirik mavzularga qo‘l ura boshlaydi va asarlari ketma-ket O‘zbek milliy akademik drama teatrida sahnalashtiriladi. “Layli va Majnun” afsonasi asosida “Muhabbat sultoni” nomli ikki parda olti ko‘rinishli dramasi o‘zbek xalqi qalbiga singib ketgan an’anaviy syujet sifatida O‘zbek milliy akademik teatri va Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri sahnalarida ko‘p yillar namoyish etildi[3, 297].

1998-yilga kelib, O‘zbek milliy akademik drama teatrida Hayitmat Rasulning Ahmad al-Farg‘oniyning Bog‘dodda kechgan ziddiyatli hayoti va ilm yo‘lida chekkan zahmatlarini ifodalovchi “Piri Koinot” nomli asarining sahnalashtirilishi madaniy hayotimizda katta voqea bo‘ldi. Iqtidorli rejissor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Valijon Umarov, taniqli teatr rassomi, O‘zbekiston san‘at arbobi Baxtiyor To‘rayev hamkorligida yuzaga kelgan ushbu asar mutaxassis va tomoshabinlarga manzur bo‘lib, yosh avlod tafakkurini shakllantirishga munosib hissa qo‘sha oldi. Bu sahna asarida teatr jamoasining romantik ruhdagi spektakl an‘analarini tiklashga bo‘lgan intilishi ko‘zga tashlandi. Spektaklga XIX asrda yashab o‘tgan Sharqning buyuk astronom olimi al-Farg‘oniy taqdiri, uning Bog‘dodda o‘tkazgan yillari asos qilib olingan. Spektaklda buyuk olimning shaxsiy intilishlari mutaassiblar qarshiligiga uchrashi natijasida yuzaga kelgan kurash sahnaviy harakatga izchillik bag‘ishlaydi. Tomoshabin ko‘z o‘ngida maqsad sari intiluvchi, chuqur kechinmalar va o‘tli ehtirolarga boy inson qiyofasi namoyon bo‘ladi. Al-Farg‘oniy obrazida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist G‘aybullah Hojiyev ilm izlab Bag‘dodga borib qolgan, biroq ona Vatani Farg‘onani, uning go‘zal tabiatini sog‘inib yashovchi o‘zbekning tashqi jihatidan oddiy, boshqalardan ko‘pam ajralib turmaydigan, biroq qilayotgan mehnati, ilmiy izlanishlari bilan o‘z davridan ancha ilgari ketgan inson sifatida gavdalanadi.

Astronomik olim hayotiga bag‘ishlangan tarixiy asarning sahnada jarang topishi teatr jamoasining katta yutuqlaridan biri bo‘ldi. Hayitmat Rasul asarda butun e‘tiborini allomaning olimlik sifatlarini ochishga qaratadi. Spektakl rejissor Valijon Umarov, rassom Baxtiyor To‘rayev, musiqa muallifi Anvar Ergashev hamkorligida sahnalashtirildi.

“Piri koinot” asarida rejissor, avvalo, ota-bobolarimiz ruhidagi ulug‘vorlikni, qolaversa, ularga bo‘lgan hurmat va ehtiromni ifodalashga intiladi. Yangrayotgan musiqa, taralayotgan nur va boshqa tasviriy omillar qandaydir katta hodisadan darak beradi. Darhaqiqat, shu sahnaning

o‘zidayoq osmon jismlarini o‘rganayotgan olimlar va ularni mazax qilib kuzatib turgan mutaassib guruh namoyon bo‘ladi. Ya‘ni to‘qnashuv ikki toifa odamlar o‘rtasida kechishi aks ettiriladi. Taraflarning kuch va salohiyat jihatdan bir-biridan qolishmasligi asar voqealariga shiddat bag‘ishlaydi. Al-Zokir aqlan Farg‘oniydan ustun kela olmasligini dildan his qilgach, hiyla yo‘liga o‘tadi. Ana shu to‘qnashuvlarda asar qahramonlarining o‘ziga xos xarakterlari ochiladi.

Asarda dramaturg al-Farg‘oniy obrazini ideal qahramon emas, balki oddiy insoniy xususiyatlardan holi bo‘lmagan xokisor inson qiyofasida gavdalandiradi. Dramaturg asarda ikki yoshning muhabbatini go‘zal tarzda ifoda etadi. Farg‘oniy o‘z sevgilisi Firdavsdan salom qilishni so‘raydi. Bu esa olimning ona yurt oldidagi farzandlik burchining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Kelinlarga xos harir ko‘ylak va ro‘molda tomosha zaliga qarata Firdavs (aktrisa S. Yunusova) qayta-qayta engashib, “kelin salom” qiladiki, buni tomoshabin go‘zal Farg‘onaga ta‘zimday qabul qiladi. Osmondan ukpar tashlangandek, yulduzlarning shu‘lari to‘kiladi. Go‘yo butun borliq sevishtganlarni olqishlayotgandek tuyuladi.

Spektakl finalida o‘zbek o‘g‘lonining ulkan yer timsolini aylantirishi yerning dumaloqligini birinchilardan bo‘lib bashorat qilgan xalqning buyukligidan, doimo aylanib, harakatda bo‘lgan zaminda o‘ziga xos o‘rni borligidan hikoya qilganday jaranglaydi.

“Piri-koinot” tarixiy dramasi sahnalashtirilishini tarixiy siymolarimizga va o‘tmishimizga bo‘lgan hurmat ramzi mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir spektaklning o‘z tomoshabin bo‘lganidek, tarixiy sahna asarlarining ham o‘z auditoriyasi bor. Tarixiy shaxslar qiyofasini sahnada qay tarzda namoyon bo‘lishini tasavvurida gavdalandirgan ijodkorlar tomoshabinni o‘sha davr voqealari bilan birga ilm-ma‘rifat ahlining falsafiy qarashlaridan ham bahramand qilishga intiladilar. Bu spektakl ham xalqni ilm va ma‘rifatga chaqirishga ko‘maklashadigan asarlardan biridir.

Mazkur asar 1998-yilda “Eng yaxshi spektakl” sifatida e‘tirof etildi va “O‘zbekteatr” ijodiy ishlab-chiqarish birlashmasi va Teatr ijodkorlari uyushmasi ta‘sis etgan bosh mukofotga loyiq ko‘rildi. Spektakl ancha vaqt teatr repertuaridan mustahkam o‘rin olib keldi.

Dramaturg xalqimizning ozodligi yo‘lida tengsiz bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib borgan xalq qahramoni Spitamen obrazini yaratish ustida tinimsiz izlanishlar olib borib, taniqli jurnalist, tariximizning bilimdonlaridan biri Yo‘ldosh Muqimov bilan hamkorlikda “Muqaddas Taxtizar” (Spitamen) tarixiy dramasi yaratdi. Ushbu asar O‘zbek milliy akademik drama teatrida O‘zbekiston davlat san‘at instituti (hozirgi O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti) professori Arsen Ismoilov tomonidan muvaffaqiyatli sahnalashtirildi. Bosh qahramon Spitamen obrazini iqtidorli yosh aktyor Uchqun Tillayev, Iskandar Zulqarnayn obrazini O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Muhammadali Abdugunduzov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Qahramon Abdurahimovlar o‘z mahoratlarini ishga solib ijro etishga harakat qilgan. O‘zbekiston xalq artistlari Tolib Karimov, Rihsiboy Avazov, Rihsi Ibrohimova, Shirin Azizova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar

Po'lat Nosirov, Hojiakbar Komilov, Rustam Karimovlar ham o'zlariga berilgan murakkab, turli xarakterga ega obrazlarni to'laqonli yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Teatrlarda borgan sari zamonaviy mavzulardagi sahna asarlariga ehtiyoj sezila bordi. Shu zaylda Hayitmat Rasulning "Qora vabo" asari Abdulhamid Majidiy nomidagi Kattaqo'rg'on shahar drama teatrida sahna yuzini ko'rdi. Mazkur pyesada asosiy mavzu asr vabosi – giyohvandlik balosi va unga muhtalo bo'lganlarning qismati haqida. Ushbu spektaklda o'zining fojiali ta'sirini ko'rsatayotgan giyohvandlik va uning dahshatli oqibatlari ko'rsatilgan. Agar bu ofatga qarshi beayov kurash olib borilmasa, "davo" choralari ko'rilmasa, kasallikka qarshi "vaksina" topilmasa bunday "vabo" oxir-oqibat kelajak avlodning yostig'ini quritishi hayotiy voqealar orqali ko'rsatib berilgan. Nazarimizda, bu vaksinaning nomini avvalo, "iroda", keyin esa "ma'rifat" deb nomlash to'g'ri bo'lardi. "Giyohvandlik shunday baloyi azimki, bu illat butun-butun qishloq, shaharlarni o'z domiga tortib, inson zurriyodini bedavo xastaliklar qa'riga ulotirib tashlamoqda. Pyesa "bu illatlar kengayib boraversa, hech kim u tufayli insoniyat boshiga yog'ilajak ko'rgiliklardan chetda qolmaydi, ogoh bo'l, ey hazrati inson!?", – degan da'vat uchun yozilgan"[4, 8]. Sahna asarining yoshlarga ta'sirchanligini oshirish maqsadida majoziy-allegorik ifoda vositalaridan keng foydalanilgan. Spektaklda Farishta va Kasofat ramziy obrazlari va ularning maslakdoshlari oq va qora liboslarda harakat qiladi. Shuningdek, Ota, Ona, O'g'il, Kelin va Tabib kabi besh nafar inson alohida ism qo'yilmagan personajlar ham sahnada qatnashadi. Sababi, ular umumlashma obrazlar sifatida talqin etilgan. Hayotga yengil qaragan yoshlardan tug'ilgan farzand OITS

kasalligi bilan og'rigani ma'lum bo'ladi. Ota-onaning faryodi, tabibning insonlarni ogohlikka, sog'lom turmush tarzi kechirishga chorlaydigan chaqirig'i ta'sirli aktyorlik topilmalari, sahnaviy effektlar orqali beriladi. Spektaklda Davron Qodirov (Ota), Dilorom Egamova (Ona), Anvar Qarshiboyev (O'g'il), Gulnora Rizayeva (Kelin), Ibrohim Jiyanov (Tabib) kabi aktyorlar personajlarning ichki olami, dardi, fojiasini raqsnamo plastik xatti-harakatlar orqali yetkazib beradilar. Asar 2004-yilda o'tkazilgan "37+1" "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi loyihalari asosida zamonaviy mavzularda sahnalashtirilgan spektakllarning 1-Respublika ko'rik festivalida muvaffaqiyatli namoyish etildi. Natijada asarning sahnalashtiruvchi rejissori Ahmatullo Niyozov, rassom Noila Qorayeva va ijodiy jamoa festivalning uchta mukofotiga sazovor bo'lishdi. Keyinchalik "Boshi qotgan oshiqlar", "Oltin qiz", "Tili asalim" kabi bir qator komediyalari O'zbek milliy akademik drama teatrida sahnalashtirildi.

Hayitmat Rasul serqirra ijodkor sifatida ko'p yillar O'zbekiston davlat san'at instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)da "Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi" ta'lim yo'nalishi talabalalariga "Dramaturg mahorati" fanidan saboq berib, ko'plab shogirdlarga ustozlik qilib keldi.

Bugungi kunda Hayitmat Rasul "O'zbekteatr" IChB qoshidagi repertuar bo'limiga rahbarlik qilib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Teatr arboblari uyushmasi azosi sifatida mamlakatimiz ijodiy jarayonida faol ishtirok etmoqda. Hukumatimiz tomonidan dramaturgning Mustaqillik yillaridagi mehnati munosib baholanib, "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlangan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston yoshlari forumidagi nutqi //Xalq so'zi. – 2020. 25-dek.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. –Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B.71.
3. O'rinov E. Serqirra ijodkor – dramaturg: yilnoma. –Toshkent: O'zDSI. – 2007. – B. 364.
4. Tursunboyev S. Hayqiriq // Teatr. -2004. -№ 2. -B. 8.
5. Islomov T. Tarix va sahna. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – B. 134.
6. Ikromov H. Davr va teatr. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat milliy nashriyoti, 2009. –B.165.
7. O'zbekiston teatr ijodkorlari uyushmasi. Istiqloq va milliy teatr: to'plam. –Toshkent; 2002. – B.183
8. Rizayev Sh. Jadid dramasi. –Toshkent: 1997. – B. 316.
9. Tursunov T. Sahna va zamon. –Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2007. –B.146.



II BO' LIM

MUSIQA SAN'ATI

MAQOMLAR TADRIJIDA SAROY UDUMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maqomlarning salobatli turkum sifatida uzil-kesil shakllanishi va rivojida saroy madaniyatida qaror topgan hamda asrlar mobaynida hukmdor sulolalarga meros bo‘lib o‘tib kelgan ustuvor mafkura, badiiy an‘ana va udumlar ma‘lum qadar ahamiyatli bo‘lganligi haqida so‘yuritiladi. Shuningdek, bu omillarning samarali ta‘sirini o‘laroq maqom, aytim namunalarini turkiy, o‘zbek va fors-tojik tillarida bitilgan mumtoz she‘riyat asosida ijro etish an‘anasi ham yuzaga kelganligi ta‘kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: saroy, mafkura, maqom, she‘riyat, aruz, tasavvuf, san‘at, musiqa, ud, risola.

Оқилхон ИБРАГИМОВ,

профессор кафедры “Музыкально-теоретических дисциплин” ГИИКУз., доктор искусствоведения

ДВОРЦОВЫЕ ТРАДИЦИИ В РАЗВИТИИ МАКОМОВ

Аннотация. *В данной статье речь ведется о доминирующей идеологии, художественных традициях и обычаях, укоренившихся в дворцовой культуре и унаследованные правящими династиями на протяжении веков, в определенной степени повлияли на окончательное формирование и развитие крупных макомных циклов. Также в результате эффективного воздействия этих факторов сложилась традиция исполнения вокальных образцов макома на основе классической поэзии, написанной на тюркско-узбекском и персидско-таджикском языках.*

Ключевые слова: дворец, идеология, маком, поэзия, аруз, суфизм, искусство, музыка, уд, трактат.

Okilkhon IBRAGIMOV,

Professor of the chair «Music and Theoretical Disciplines» of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

PALACE TRADITIONS IN THE DEVELOPMENT OF MAQOMS

Abstract. *The dominant ideology, artistic traditions and customs, rooted in the palace culture and inherited by the ruling dynasties over the centuries, to a certain extent influenced the final formation and development of large maqom cycles. Also, as a result of the effective influence of these factors, a tradition of performing vocal samples of maqom based on classical poetry written in the Turkic-Uzbek and Persian-Tajik languages has developed.*

Keywords: palace, ideology, maqom, poetry, aruz, Sufism, art, music, oud, treatise.

Maqomlarning asrlar mobaynidagi uzluksiz tadrijida bir necha obyektiv omillar ham muhim o‘rin tutgan edi. Shulardan ustuvori bu – san‘atning rasmiy mafkuraga muvofiqligi, yana bir qancha xususiyatlari esa hukmdorlarning saviyasi asosida saroyda qaror topgan mumtoz estetik mezonlardir. Tarixiy ildizlari teran qadimiy bu omillarning maqom tizimiga oid asosiy mezonlari, nazarimizda, Sohibqiron Amir Temur saroyida uzil-kesil shakllangan.

Tarixdan ma‘lumki, ulug‘ bobomiz va uning vorislari bo‘lgan Temuriylar davrida so‘fiylik tariqatlari va ularning yo‘lboshchilari hukmdor mardum orasida mo‘tabar zotlar o‘laroq e‘zozlangan. Ayni vaqtda suluk asoschilari, piru mashoyixlarining faoliyati ila shakllangan tasavvuf ta‘limoti va unda ilgari surilgan insonparvarlik, bag‘rikenglik, komillik sari ma‘naviy yuksalish g‘oyalari aksariyat olimu fuzalo, hunarmandu ijodkorlarning dasturilamali bo‘lgan.

Hukmdorlar saroyida qariyb rasmiy mafkura nufuziga ega bo‘lgan bu ta‘limot negizida mumtoz she‘riyat, me‘morlik, amaliy va tasviriy san‘at turlari qatorida mumtoz musiqa ham yangi sifat bosqichiga yuksaldi. Zero, benazir Abdulqodir Marog‘iy boshchiligidagi olim va musiqa ustozlarining samarali ilmiy-ijodiy izlanishlari pirovardida komil inson g‘oyalarini yaxlit ta‘limot tarzida musiqada ifodalash vazifasi “O‘n ikki maqom” timsolida muvaffaqiyatli yechimini topgan. Shu asnodan

maqom san‘ati Sohibqiron Amir Temur asos solgan buyuk saltanatning ustuvor ma‘naviy-mafkuraviy tizimlari qatorida saroy madaniyatidan munosib o‘rin olgan edi [1].

Ayni vaqtda, saroy mumtoz musiqasining yuksak namunasi bo‘lgan maqomlar hukmdorlarning musiqiy didi, saviyasi, “samoni” idroklash qobiliyati, ijodkorlik salohiyati kabi fazilatlarining ham o‘ziga xos “ko‘rsatgichi” (ifodasi) bo‘lgan. Shu bois, bejiz emaski, Temuriy shahzodalar bolaligidan musiqa ustozlaridan alohida saboq olganlar, Sharq mumtoz she‘riyati va uning poydevori bo‘lgan aruz ilmini o‘rganish asnosida fors tilini ham puxta o‘zlashtirgan. Zero, avvaldan kelayotgan saroy madaniy udumiga ko‘ra turkiy hukmdorlardan ona tili bilan birga fors tilini ham mukammal bilishlari talab etilgan. Bunga Amir Temur va uning vorislari bo‘lgan Temuriy shahzodalarning lison boyligi hamda ularning aksariyati aruz vazni bilan forsiyda, goho esa arabiyda ham she‘rlar bitgani yorqin misoldir [2].

Shuningdek, ko‘plab tarixiy, ilmiy, adabiy va boshqa yozma asarlar ham hukmdorlarning topshirig‘i bilan forsiyda yozilgan. Tabiiyki, saroy udumlari bu dargohda shakllangan mumtoz san‘atning estetik mezonlarida ham o‘z aksini topgan edi. Inchinun, saroy musiqachilari ishq falsafasi ila yo‘g‘rilgan turkiy va forsiyda bitilgan ko‘plab she‘rlarni yod bilishlari va yana ham muhimi, vaziyat taqozosi bilan u yoki bu g‘azalni maqom yo‘llariga uyg‘un bog‘lagan holda san‘atlarini namoyish eta olishlari lozim

bo'lgan. Qolaversa, aksariyat musiqachilar forsiy va turkiy nazmda ijod qilganlar.

Bu kabi mumtoz talablar XVI–XVII asrlar davomida birin-ketin almashgan yangi hukmdor sulolalar davrida ham davom etgan. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, dastlab shayboniylar, keyin esa ashtarxoniy sulola hukmdorlari uchun buyuk Amir Temur va Temuriylar saroyi badiiy an'analari begona bo'lmagan, aksincha, azaliy va qadrdon san'atlar o'laroq e'zozlangan. Har holda ularning har biri munosib avlod bo'lish ishtiyoqida ulug' ajdodning shaharsozlik, me'moriy bunyodkorlik, ilm-ma'rifat va san'at jabhalarida ko'rsatgan namunali faoliyatini davom ettirishga astoydil intilgan.

Bu o'rinda ayniqsa, shayboniylardan Ubaydullaxon va Abdullaxon II, ashtarxoniydan esa Imomqulixon Buxoro xoni bo'lgan davrlarda ko'plab diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilgan edi. Shu jumladan, mahalliy aholi orasida ham katta obro'-e'tibor qozongan bu xalqparvar va san'atsevar hukmdorlar homiyligida zamonasining ilg'or olimu adiblari, me'moru naqqoshlari, musavviru musiqachilari barakali mehnat qilganlar.

Saroy musiq madaniyatida esa ustuvor ahamiyati va nufuzi tushmagan maqomlarni forsiy va turkiy g'azallari bilan "o'qish" an'anasi ham izchil davom etgan. Bu o'rinda turli sulola hukmdorlarining ikki tillilik ijodi ham bunga "izn" bergan. Alalxusus, Shayboniyxon, Abdullaxon va Imomqulixonlar o'zbek va fors tillarida she'rilar bitgan bo'lsa, Ubaydullaxon o'zbek, fors va arab tillarida ruboiylar, g'azallar va masnaviylar ijod qilgan.

Buxoro xonligiga xos ikki tillilik an'anasi shu sarhadda yashab faoliyat ko'rsatgan ko'plab shoirlar – Mujrim Obid, Abdullo Mulxam Buxoriy, Fitratiy Zardo'zi Samarqandiy, Muznib Shavkatiy Kattaqo'rg'oniy va boshqalar ijodida ham yorqin ifodasini topgan edi. Shunga oid ko'plab misollarni forsiyda yozilgan Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'" (Nodir voqealar), Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" (Sharafnomayi shohiy), Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" (Do'stlar yodnomasi), Mutribiyning "Tazkirat ush-shuaro" kabi qimmatli tarixiy va adabiy tazkira asarlarida ko'ramiz [3; 4; 5].

Shuningdek, demokratik tamoyillarning bir ko'rinishi tarzida turli kasb egalari ham musiq bilan shug'ullanib kelganlari ma'lum bo'ladi. Masalan, manbalarda XVI–XVII asrlarda faoliyat ko'rsatgan san'atkorlar orasida tikuvchi Boqi Darziy, Boqi jarroh, Poyonda tabib, Abdulkarim qozi, Boqi munajjim Shohidiy, Pir Muhammad kulol kabilar o'z kasblari qatorida musiq bilan shug'ullanganlari haqida ma'lumotlarni uchratamiz [6, 11 b].

Xullas, yuqorida nomlari zikr etilgan Buxoro xonlari-ning musiq ustozlariga ko'rsatgan g'amxo'rliqi va ayni paytda, aruz vaznida zullisonayn qalam tebratgani ham ularning Amir Temur va Temuriylar davri maqom san'atini ruhan qabul qilish madaniyatidan begona emasligini, binobarin, bu san'at bilan bog'liq saroy udumlarining haqqoniy merosxo'ri va davomchilari ekanligini ko'rsatish uchun kifoyadir.

Ularning davrasida zamonasining nomdor va yuksak iste'dodli musiqachi va musiqashunoslarining faoliyat ko'rsatgani ham bu fikrni bir qadar tasdiqlaydi.

Yana shunisi e'tiborliki, tarix sahnasida hukmdorlar sulolasi tez-tez o'zgarib turgan hamda siyosiy-ijtimoiy hayotda tanazzul holatlari kuzatilgan bo'lsa-da, bu hol saroy mumtoz an'analari salbiy ta'sir ko'rsatmagan, inchunin, maqom ilmiy-ijodiy an'analari rivojlanishda izchil davom etgan. Saroy musiqachisi, changchi-sozanda, hofiz, bastakor, musiqashunos olim va shoir Darvish Ali Changiy (XVI asr, Hirot – XVII asrning 20-yillari, Buxoro) faoliyati fikrimizga yaqqol misoldir.

O'z davrida shayboniy hukmdorlardan Abdullaxondan ko'p ehtiromlar ko'rgan Darvish Ali ashtarxoniydan Imomqulixon saroyida musiqachi maqomida xizmat qilgan va "Hoqon changchisi" (Changiy hoqoniy) degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan. Uning shu xonga bag'ishlangan "Risolai musiqiy"si (ikkinchi nusxasining nomi "Tuhfat us-surur" – "Shodlik armug'oni") nafaqat maqomlar tarixi va nazariyasi, balki Sohirqiron va Temuriylar davridan boshlab XVII asr birinchi choragiga qadar davr musiq madaniyatini o'rganishda ham qimmatli manba hisoblanadi [6; 7].

Zero, bu ilmiy asar risola janridan ancha keng bo'lib, ma'lum darajada tarix va tazkira xususiyatlarini o'zida mujassam etgan. Shu jihatlari bilan salafining risolalaridan farq qiladi. Ayni paytda asarning umumiy tarhini 12 bob tarzida tuzishda Abdulqodir Marog'iy va Najmiddin Kavkabiylar risolalarida qayd etilgan namunaga ergashadi.

Asar mazmunida musiqaning nazariyasi va amaliyoti, maqom, usul va musiq cholg'ulariga oid masalalar muhohasa qilinadi. Shuningdek, musiqaga layoqatli hukmdorlar, mashhur musiqachilar – sozanda, xonanda va bastakorlar ijodi tilga olinadi. Bu qadar ko'p ma'lumotni yig'ishda muallif Mavlono Husayn Oxun, Imom Quliy Udiy, Zaytun G'ijjakiy, Xoja Abdulla Marvorid, Zaynulobiddin Changiy, Abdulqodir Marog'iy, Safiuddin Urmaviy kabi musiq ustozlarining asarlari hamda "ustozdan shogirdga" og'zaki ravishda o'tib kelgan ma'lumotlarga tayanganini ma'lum qiladi.

Risolaning 3-bobida "O'n ikki maqom" va uning kelib chiqishi xususida so'z yuritiladi. Bunda muallif dastlab, "Yetti maqom" bo'lgani va ular yetti payg'ambardan meros qolganini rivoyatlar asosida bayon qiladi. Qolgan maqomlar esa ustoz san'atkorlarning ijodi ekani ko'rsatib o'tiladi. Muallif o'sha davr cholg'ulari, jumladan, bizning davrimizgacha yetib kelmagan cholg'ularning ham nomlarini (masalan, barbat, shammoma, rud, ruhafzo, changarfa va boshqa) qayd etib, ularning amaliy iste'molda tutgan o'rni va mavqiyini ustozlar orasida mashhur iboralar asosida tavsiflaydi (5-6-boblar).

Masalan, Darvish Ali ud cholg'usini "sozlar sultoni", chang(arfa)ni esa "sozlar kelinchagi", deya ta'riflaydi. O'tmishdagi podshohlar xususida qisqa va lo'nda ta'riflarni keltirarkan, Amir Sohirqironning musiq idrokiga yuqori baho beradi va bu borada rivoyat ham keltirib o'tadi.

Muallif XV–XVII asrlarda yashab faoliyat ko'rsatgan mashhur musiqachi ustozlarni nomma-nom ta'kidlash bilan cheklanmasdan, ularning har biri qalamiga mansub muhim asarlarini qayd etadi. Masalan, shoir, nazariyotchi va buyuk musiqachi Mavlono Najmiddin Kavkabiylar Buxoriyning musiq ilmi va amaliyotidagi samarali faoliyatini har jihatdan e'tirof qiladi, uning "Iroq" maqomi

va “chorzarb” usulidagi kuyi hamda “Rost” maqomida ijod qilgan “Kulliyot” asarlari, ayniqsa, badiiy yuksakligini ta’kidlaydi.

Aslida maqomlarni ilmiy tasnif etishda Darvish Ali Changiy Najmiddin Kavkabiyning eng yaqin izdoshi bo’lgan. Bu hol shayboniy va ashtarxoniy hukmdorlarning maqom san’atiga merosxo’rlarcha munosabatini ham ko’rsatadi. Shu bilan birga, bu har ikki ulug’ zotning musiqaga oid ilmiy asarlari hozirga qadar maqom san’atining XVI–XVII asrlardagi tadrijini o’rganishda eng ishonchli va qimmatli manbalardir.

Xususan, O’zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan Najmiddin Kavkabiyning “Risolai musiqiy” (inv. № 468/IV) va Darvish Ali Changiyning ham shu nomli ilmiy asari (inv. № 449; № 468/1; № 7005) asosida tadqiqotchilar bir qator ishlarni amalga oshirishdi.

Jumladan, 1946-yili professor A.A.Semenov tomonidan yozilgan “Sredneaziatskiy traktat po muzike Dervisha Ali (XVII v.)” nomli nashrda Darvish Ali risolasining mazmuni rus tilida muxtasar bayon etilgan [7].

Atoqli maqomshunos olim I.R.Rajabov o’zining “Traktati srednevekovix uchenix o muzike v fondax instituta Vostokovedeniya AN Uzbekistana” (1955) nomli yirik tadqiqoti doirasida Najmiddin Kavkabi va Darvish Ali Changiy risolalarini atroflicha tavsiflab, ularning tarkibidagi har bir bob mazmunini qisqacha bayon etgan hamda zamonaviy musiqashunoslik kesimida sharhlab bergan edi [8].

San’atshunos Dilbar Rashidova Darvish Ali Changiyning musiqa risolasini 70-yillari to’liq holda rus tiliga tarjima qilishga va shu asosda maxsus tadqiqot ishini bajarishga muvaffaq bo’lgan [6]. Mavlono Najmiddin Kavkabiyning musiqa risolasi esa Asqarali Rajabov tadqiqoti va sharhlari bilan 1985-yili Tojikistonda chop etildi [9].



O’zbekistonlik musiqashunos Aleksandr Jumayev 2016-yili Najmiddin Kavkabiyni hayoti va ijodiga oid yirik tadqiqotini rus tilida e’lon qildi [10]. Yosh tadqiqotchilarimizdan Baxtiyor Ashurov Najmiddin Kavkabi va Darvish Ali Changiy risolalari asosidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi [11]. Kelgusida bu kabi ilmiy izlanishlar davom etadi, degan umiddamiz.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Ibrohimov O. Sohibqiron Amir Temur va maqom. // “Maqom san’ati va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o’rni” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Shahrisabz, 2018. – B. 48-53.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. 12 t. Majolis un-nafois.(Nashrga tayyorlovchi va so’ng so’z muallifi Suyima G’aniyeva. Muharrir Porso Shamsiyev).12 t., – T.: G’.G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 169 – B. 210.
3. Vosify, Zayniddin. Badoye ul-vaqoye’. Fors tilidan Naim Norqulov tarjimasi. – T.: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 288 b.
4. Nisoriy, Hasanxoja. Muzakkiri ahhob (tazkira). Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi.– T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 341 b.
5. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma («Sharafnomayi shohiy»). Birinchi kitob. Fors tilidan Sodiq Mirzayev tarjimasi.– T.: Sharq, 1999. – 416 b.
6. Changi, Darvish Ali. Traktat o muzike. (per. s pers-tadj. D.Rashidovoy). Rukopis, bib. Instituta iskusstvoznaniya An RUz., inv. № 879. – 216 s.
7. Semenov A.A. Sredneaziatskiy traktat po muzike Dervisha Ali (XVII veka).– T.: 1946. – 55 s.
8. Radjabov I.R. Traktati o muzike. Iz Sobraniya Vostochnix rukopisey AN RUz. – T.: 2020. – 416 s.
9. Kavkabi, Najmiddin. Risolai musiqiy. Risola dar bayoni Duvozdah maqom. Dushanbe, 1985.
10. Djumayev A. Nadjm ad-Din Kavkabi Buxari: poet, muzikant, ucheniy XV–XVI vv. Jizn i tvorchestvo (issledovaniya i perevodi). Tashkent: – 2016. – 250 s.
11. Ashurov B. Sh. XVI–XVII asrlarda milliy musiqiy tafakkur rivojining zamonaviy talqini (Najmiddin Kavkabi va Darvish Ali Changiy “Risolai musiqiy”lari asosida). Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.– T.: 2019. – B. 38.

Jo'ra SHUKUROV,

O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası v.b.professori, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi,

XALQ ASHULA VA RAQS ANSAMBLARI JANRINING TARIXI VA TARAQQIYOTI YO'LIGA BIR NAZAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizdagi professional va havaskorlik ashula va raqs ansambllarining tashkil topishi va ularning taraqqiyot yo'llari borasida hamda mutaxassislarning hukumatimiz tomonidan yaratilib berilgan imkoniyat va sharoitlarga nisbatan o'z sohasiga bo'lgan munosabati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ansambl, ashula, raqs, sozanda, Xalq ansambli, namunaviy ansambl.

Джура ШУКУРОВ,

Заслуженный деятель искусств Республики Узбекистан,
и.о. профессор кафедры "Национальное пение" ГИИКУз

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ И ЖАНР АНСАМБЛЕЙ НАРОДНОЙ ПЕСНИ И ТАНЦА

Аннотация. В данной статье ведётся речь о создании в стране первых профессиональных и само-деятельных ансамблей песни и танца и об их развитии, а также созданной условий и возможности для них Правительством и отношение специалистов данной отрасли.

Ключевые слова: ансамбль, песня, танец, инструменталист, народный ансамбль, показательный ансамбль

Zhura SHUKUROV,

Honored Artist of the Republic of Uzbekistan,

Acting Professor of the Department "National Song" of UzSIAC

A LOOK AT THE HISTORY AND GENRE OF FOLK SONG AND DANCE ENSEMBLES

Abstract. This article deals with the creation of the first professional and amateur song and dance ensembles in the country and their development, as well as the creation of conditions and opportunities on the part of the Government and the attitude of special specialists in this industry.

Keywords: ensemble, song, dance, instrumentalist, folk ensemble, demonstration ensemble.

O'zbek milliy musiqa san'atining professional ashula va raqs ansambli yo'nalishi xalq musiqa merosi va raqslari asosida o'tgan XX asrning 30-yillarida shakllana boshlangan.

Bir jamoa bo'lib ishlash xalqimizning urf-odatlarini va an'alariga zid, degan mulohazalar bilan ashula va raqs ansambllarida xotin-qizlar alohida, er-yigitlar esa alohida shug'ullanishgani tarixdan bizlarga ma'lum. 1918-yildan mamlakatimizda katta siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lgandan so'ng ham xalq cholg'u orkestrlari, xor jamoalari, damli pufllab chalinadigan cholg'u va simfonik orkestrlar, trio, kvartet, kvintet kabi turli shakldagi cholg'u jamoalar va shunga o'xshash san'at turlari o'z faoliyatini boshlagan bo'lsada, ashula va raqs ansambllari ma'lum muddatgacha tashkil etilmagan. Bunga ham albatta, yuqorida aytib o'tilgan urf-odatlarining ta'siri bo'lib, milliy musiqa merosi ijrochiligi – bu xonlar, shohlar, boy va beklardan qolgan illat deb qaralib, shu davrning siyosati yo'l qo'ymagan. Hamza Hakimzoda Niyoziyning bir qator san'atkorlar ishtirokida konsertlar uyushtirgani istisno, albatta.

O'zbek milliy ashula va raqs san'atini o'rganish va xalqqa yetkazish maqsadida ilk marta 1930-yilda Samarqand shahrida, "Musiq va xoreografiya" instituti qoshida ustoz Muhiddin Qori Yoqubov boshchiligida ustoz va talabalardan iborat studiya tashkil etilgan. Ushbu studiyada mashhur san'atkor va soha mutaxassislari: Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Gavhar Rahimova, Komil Yashin, Mutavakkil Burxonov,

Aleksandr Beklar san'at sirlaridan talabalarga saboq berishar edi. Studiyaning dastlabki talabalari safida Yahyoxon Mamatxonov, Suydi Sotvoldiyeva, Morduxay Davidov, Tamara Ibrohimova, Isaxor Oqilov, Qumri Qodirova, Vallomatzoda, Sarvarxon, Jo'ra Alimov va men ulardan ko'p narsalarni o'rganganmiz. Mazkur guruhning konsert dasturlari turli sahnalarda namoyish etilardi, – deb yozadi o'sha ashula va raqs ansambllarining ishtirokchisi bo'lgan raqs san'atining bilimdoni Roziya Karimova o'zining "O'zbek raqsi" o'quv qo'llanmasida.

Davlat tomonidan esa rasman 1936-yilda hukumat tomonidan chiqarilgan qarorga asosan O'zbek davlat filarmoniyasi tashkil etilgandan keyin (direktori Muhiddin Qori-Yoqubov), shu yilning o'zidayoq mazkur tashkilot qoshida 110 kishidan iborat "Katta Ansambl" tuzilgan va bu ansambлга taniqli bastakor va sozanda, O'zbekiston xalq artisti To'xtasin Jalilov badiiy rahbar etib tayinlangan. Mazkur ansambl tarkibida xonandalar ansambli, sozandalar ansambli va raqqosalar guruhlari faoliyat ko'rsata boshlagan. Bunda xormeyster Mutal Burhonov, musiqa rahbari etib Nikolay Nazarovich Mironovlar tayinlangan. Demak, mamlakatimizda professional ashula va raqs ansambli janriga rasman 1936-yili asos solingan, desak to'g'ri bo'ladi.

Bir necha yillar davomida ijodiy faoliyat ko'rsatib kelgan ayni shu katta ansambлга keyinchalik "Shodlik" ashula va raqs ansambli nomi faoliyat olib borgan bo'lsa, mustaqillik yillardan boshlab, bu jamoa "O'zbekiston" nomli ashula va raqs ansambli sifatida hozirgi kungacha

o'zining ijodiy faoliyatini davom ettirib kelmoqda (Badiiy rahbari O'zbekiston Respublikasi xalq artisti Qodir Mo'minov).

1991-yilgacha O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida "Shodlik", "Lazgi", "Go'zal", "Uyg'ur" va "Chen-Chun" (koreys) ashula va raqs ansambllari, bulardan tashqari Xalqlar artisti, davlat mukofotining laureati, milliy raqs san'ati rivojiga benazir hissa qo'shgan ustoz Mukarrama Turg'unboyeva rahbarligidagi "Bahor" raqs ansambli faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, mustaqillik yillari bu jamoalarga e'tibor kuchaygani bois, bularning soni yanada ko'payib bordi. Bugungi kunda "Navbahor", Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar Vazirligi tasarrufidagi ashula va raqs ansambllari, barcha viloyatlar markazlarida shular kabi bir qator ijodiy jamoalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Badiiy havaskorlikda esa 1991-yilgacha Toshkent samolyotsozlar madaniyat saroyi qoshida "Parvoz" (rahbari Sharip Janaydarov), "Bayot" (rahbari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Azim Azizov), to'qimachilik saroyi qoshidagi rus, ukrain, tatar, koreys, uyg'ur kabi turli millatlarning bir qator ashula va raqs ansambllari, Toshkent viloyatida "O'zbekiston" jamoa xo'jaligining "Do'stlik taronalari" (rahbari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Hakim Nishonov), Qibray tuman "Hilola" (rahbari Islom Yortiyev), "Zangiota" tuman markazlashgan madaniyat uyi qoshidagi "Hosil" (rahbari Saidazim Qudratullayev), Buxoro viloyati Buxoro tuman markazlashgan madaniyat uyi qoshidagi "Lola" (rahbari Aslon Istamov), Jondor tumanida "Gulruh" (Rahbari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Orif Atoyev), Farg'ona viloyati Quva tuman markazlashgan madaniyat uyi qoshidagi "Anor", Xorazm viloyatidagi "Qaldirg'och" (rahbari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Shermat Fayzullayev), Namangan viloyati "Namangan gullari" (rahbari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Akbarali Asqarov), Namangan tumanining "Olvolizor gullari" (rahbari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Vahobjon Abdullayev), To'raqo'rg'on tumanida "Dilshod" ansambli (rahbari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Ma'ruf Oripov), Chust tumani markazlashgan madaniyat uyi qoshidagi "Chust taronalari" va "Gulruh", Surxondaryo viloyatining Boysun tumani markazlashgan madaniyat uyi qoshidagi "Shalola", Sirdaryo tumanidagi "Yoshlik" kabi ko'plab boshqa jamoalar o'z ijodiy faoliyatini nafaqat mamlakatimiz sahnalarida, balki chet ellarda ham namoyish etib, milliy musiqa san'atimizni targ'ibot qilishda o'zlarining benazir hissalarini qo'shishga muvaffaq bo'lganlar.

XX asrning 70-80-yillariga kelib, mamlakatimiz bo'ylab, nafaqat har bir viloyat va tuman markazlarida, balki ko'plab jamoa xo'jaliklarning ham o'z ashula va raqs ansambllari faoliyat ko'rsatgan. Bulardan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida, bolalar ijodiy uylari va saroylari qoshida bolalar ashula va raqs ansambllari ham faoliyat olib borganligi ham barchamizga ayondir. Bugungi kundagi musiqa madaniyatimiz taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shgan va qo'shib kelayotgan ko'plab san'atkorlar mana shunday jamoalar tarkibida tarbiyalanib, o'z yo'llarini topishga muvaffaq bo'lgan. Endi biz mazkur janrlarning nomiga

keladigan bo'lsak, bularga quyidagicha javob berish mumkin.

Xalq ansambli – bu iboraning o'ziga xos tushunchasi mavjud. Xalq tomonidan yaratilgan va bevosita uning og'zaki ijodiyoti bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan cholg'uchilar ansambli adabiyotlarda "Sozandalar xalq ansambli", – deb yuritilgan.

Ashula, musiqa, raqs – o'zbek milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan biridir. O'zbek xalqining musiqaga ixlosmandligi, kuy, ashula va raqs shaydosi ekanligi barchamizga ma'lum. O'zlikni anglash, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat, uzviy, tabiiy jarayondir.

Xalq ansambli iborasi badiiy shakl va an'analarga ega bo'lgan, xalq musiqasi va san'ati beqiyos rivojlangan tur va janrlar maydonga kelganligi natijasida o'zining dastlabki ko'rinishidan katta farq qiluvchi mukammal san'at darajasiga ko'tarilgan sozandalik, xonandalik, raqs san'atini o'ziga kasb qilib olgan mutaxassislar, xalq sozandalari, xalq hofizlari, xalq raqqosalaridan tashkil topgan va xalq ansambli unvoniga ega bo'lgan, umumxalq e'tirofiga sazovor bo'lgan ansambllarga qo'llaniladi.

Havaskorlik ashula va raqs xalq ansambllari mamlakatimizda 1960-yildan maydonga kela boshladi. Bu ansambllarning bunyodga kelishi uchun badiiy havaskorlik san'ati katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. 1985-1990-yillarga kelib nafaqat har bir tumanda, balki har bir jamoa xo'jaliklarining o'zida ham alohida ashula va raqs ansambllari, folklor-ansambllari, xor jamoalari, xalq cholg'ulari orkestrlari kabi turli toifadagi, turli millatlardan tashkil topgan jamoalar bo'lgan. Chunki 1972-yilning "Marhabo talantlar" televizion ko'rik-tanlovi talablari shuni taqozo qilar edi. Bir so'z bilan aytganda, o'sha davrning talabi bo'yicha bunday jamoalarni tuzish majburiyati bor edi. Bu jamoalar "Marhabo talantlar", "Zehn" kabi turli Respublika televizion festivallarda ishtirok etishar edi. To'g'ri, inkor etish kerak emas, mustaqilligimizning birinchi yillarida ko'plab ashula va raqs ansambllari o'zining ijodiy faoliyatini bir muddat to'xtatib turishga majbur bo'ldi. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan bir qator millatlarning ashula va raqs ansambllari a'zolarining ko'chib ketishi, bir qator mutaxassislarning chet ellarga borib ishlashlari kabi ko'plab turli tarzda sabablarning bunga ta'siri ham bo'ldi. O'sha davrdagi jamoalarning dasturi asosan kommunistik g'oyani, buyuk rus og'amizni targ'ib etishga qaratilgan edi, chunki mustaqilligimizgacha bo'lgan siyosat shuni talab qilar edi va hayot tarzi ham shunga moslashgan.

Mustaqillik yillarida milliy g'oya, milliy mafkura va milliy madaniyatimizni targ'ib qilishda havaskorlik ashula va raqs xalq ansambllari ham o'z hissasini qo'shib keldi, – desak mubolag'a bo'lmaydi.

Vatanimizning poytaxti va viloyat markazlarida bir qator professional va mamlakatimiz bo'yicha yuzlab o'zgacha havaskorlik ashula va raqs ansambllari, to'garaklari tashkil topib, ijtimoiy hayotda juda muhim rol o'ynadi. Bu davrda milliy musiqa an'analari yo'llari o'zlashtirilib, ularni xalq ommasi orasida targ'ib etuvchi o'ziga xos havaskorlik ashula va raqs ansambllari maydonga keldi va ularning soni yildan yilga o'sib bordi. Ular orasida bir qanchalari "Xalq ansambli" va "Namunali bolalar ansambli" faxrli yuksak unvonlarga sazovor bo'lishgan.

“Xalq ansambli” unvoniga sazovor bo‘lgan jamoalarning aksariyati xalq san’ati an’analarini rivojlantirish hamda professional musiqa tajribalarini o‘zlashtirishda muhim yutuqlarni qo‘lga kiritdi, ijodiy tajriba ortirdi va jamoatchilik e’tiborini qozondi. Farg‘ona viloyati Quva tumanining “Anor”, Buxoro tuman madaniyat uyi qoshida tashkil etilgan “Lola”, Surxondaryo viloyati Boysun tumanining “Shalola”, Samarqand viloyati Urgut tumanining “Beshqarsak”, Namangan viloyati “Namangan gullari”, Namangan tumani “Olvolizor gullari”, To‘raqo‘rgon tumanining “Dilshod” va Andijon viloyatining “Chashma” ansambllarining so‘nggi yillardagi erishgan yutuqlari fikrimizning dalilidir.

Ashula va raqs jamoalarining repertuari yildan-yilga ham janr, ham mazmun jihati bilan boyib bormoqda. Dasturlar g‘oyaviy va badiiy yaxlitlik kasb etib, asarlar o‘rtasidagi uzviylikka e’tibor qaratilmoqda. Ijro madaniyati ortib, ijrochi-havaskorlarning mahorati va badiiy estetik saviyasi o‘shib, xalq orasida obro‘-e’tibori ortmoqda. Bu ishda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan uyushtirib kelinayotgan “Diyor ohanglari” ashula va raqs jamoalarining Respublika ko‘rik-tanlovi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Havaskorlik san’ati milliy mafkura g‘oyalaridan nur emgan milliy san’atimizning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Yosh iste’dodlarning kuylagan ashulalari, ijro etgan kuy va raqslari talabchan tomoshabinlarga manzur bo‘lmoqda. Ayniqsa, havaskorlik ashula va raqs jamoalarining miqdor va mahorat jihatdan o‘shib borishi, ularning boy tajriba to‘plashga muvaffaq bo‘lganligi davlatimizning ashula va raqs ansambllari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi qarorlarining ifodasi, deyish mumkin.

2001-yildan boshlab to shu kungacha madaniyat va san’at sohasining rivjlanishiga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 ta farmon va 25 ta qarorlari, Vazirlar mahkamasining esa 41 ta qarorlari e‘lon qilindi. Bu albatta barcha madaniyat va san’at sohasidagi mutaxassislar uchun quvonarli hol bo‘lishi bilan bir qatorda birinchi navbatda imkoniyat bo‘lsa, ikkinchidan bu farmon va qarorlar mutaxassislar zimmasiga yuklanilayotgan o‘ta mas’uliyatli vazifa ekanligini hamdir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning musiqa san’ati borasidagi imzolangan farmon va qarorlari mazkur sohaning rivoji uchun nur ustiga a‘lo nur bo‘ldi desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan 2020-yil 26-mayda imzolangan “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmonlari, 2018 yil 28-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori, 2020-yil 4-fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4584-son, 2020-yil 4-fevraldagi “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4585-son qarorlari, mamlakatimiz yoshlarini kelajagi uchun ilgari surilgan besh muhim tashabbuslari aynan biz mutaxassislar javob berishimiz lozim bo‘lgan farmon va qarorlar ekanligiga shubha bo‘lmasa kerak?!

Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy metodik hamda axborot markazining 2018-yil yakunlari hisobotiga ko‘ra Madaniyat Vazirligi tizimidagi

muassasalarning o‘zida 138 ta “Xalq ansambli” va 9 ta “Namunali bolalar ansambli” unvoniga sazovor bo‘lgan ashula va raqs ansambllari o‘zining ijodiy faoliyatini namoyon qilib kelayotganligi haqida ma’lumot bor. Biroq kuzatuvlarimiz bo‘yicha nima uchundir bir necha yildan buyon O‘zbekiston televideniya sohasining kanallarida bironta ham ashula va raqs ansambllarining konsertini namoyish qilinganini bilmaymiz. To‘g‘ri hisobot, hisobot bilan, amaldachi? – degan savol biz mutaxassislarni o‘ylantirib qo‘ymayaptimi? Shu o‘rinda bir tabiiy savol tug‘iladi. Nima uchun biz mutaxassis sifatida sohamiz taraqqiyoti uchun tashabbuskorlik qilmayapmiz? Xo‘sh, bizlardan-ku tashabbus chiqmayotgan ekan, hech bo‘lmasa nima uchun mamlakatimiz rahbariyati tomonidan chiqarilgan farmonu-qarorlar va besh muhim tashabbusni qo‘llab-quvvatlashimiz borasida qilib kelinayotgan ishlarimiz ko‘zga ko‘rinarli emas? Bu bizning vijdoniy burchimiz emasmi? Ta’lim sohasidagi o‘qituvchilarning aksariyati, san’at turining yo‘nalishidan qat’i nazar, – men o‘qituvchiman va o‘z vazifamni dars berish orqali bajarayapman, – deyishdan nariga o‘tmayapmiz. Keling, ochiqroq aytaylik, biz professor-o‘qituvchilar tomonidan faqat dars berishning o‘zi bilan ustozshogirdlik an’anasi amalga oshmasini barchamiz yaxshi bilamiz va bilmaganlar ham bilishi kerak. Masalan, biz havaskorlik ashula va raqs ansambliga tashkilotchi, rahbar tayyorlayapmiz, demak, ustoz shogirdiga ibrat sifatida o‘zining ham rahbarlik qilib turgan havaskorlik ashula va raqs ansambli bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shogird, ya’ni talabalar o‘shandagina havaskorlik to‘garaklarida qanday toifadagi havaskor ishtirokchilar qatnashish uchun kelishadi, qanday maqsadlar ularni bu ansambлга yetaklagan, ular bilan qanday muomolada bo‘lib ishlash kerak, to‘garak ishtirokchilarining imkoniyati va bo‘lajak tadbirlarni inobatga olib holda qanday repertuar tanlash zarur kabi turli tashkiliy va ijodiy masalalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib-turib ustozidan o‘rganishi talaba uchun dars va saboq vazifasini o‘taydi. Chunki biz bir qator fanlarni auditoriya jarayonida o‘rgatib turib, keyinchalik ulardan amaliy ishni talab qilishimiz noo‘rindir. Xalqimiz bejir ham – ming eshitgandan bir ko‘rgan afzal, deb aytmagan. Madomiki shunday ekan, san’at sohasida dars berayotgan har bir mutaxassis o‘zining sohasi bo‘yicha(hozirgi kunda vaqtincha bo‘lsa ham) to‘garagi bo‘lishi maqsadga muvofiq, deb bilaman. Shunda biz Prezidentimizning farmonu-qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari va muhim besh tashabbusning birinchisiga labbay deb javob bera olgan bo‘lamiz. Bu aytilgan fikrlar faqat xalq ijodiyotiga taalluqli bo‘lgan yo‘nalishlariga emas, balki institutimizning barcha mutaxassislik kafedralariga, san’atning barcha turlariga saboq berayotgan ustozlarga taalluqlidir.

Bu masalalarni ijobiy tarzda hal bo‘lishi uchun ustozlar mas’ul bo‘lishimiz zarur. To‘g‘ri, ba’zan bir mutaxassislarimiz – u joy menga oylik beradimi?, degan savolni ham o‘rtaga tashlashlari mumkin. Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida, avvalo, biz bilan siz sohamizning jonkuyari va tashabbuskor mutaxassisi sifatida joylarga borib ishimizning natijasini ko‘rsataylik, qolaversa, shu sohaning rivoji uchun haftada ikki marotaba 1,5–2 soatdan vaqtimizni bolalarimizning kelajagi uchun sarflasak, sohamiz rivojiga qo‘shayotgan hissamiz uchun vijdonimiz ham pok bo‘ladi, degan fikrdaman. Bunday to‘garaklarni biz o‘zimiz

yashab turgan mahallamizda, atrofimizdagi madaniyat va aholini dam olish maskanlari, umumta'lim maktablari, hech bo'lmaganda mahallalar qoshida ham tashkil qila olishimiz mumkin. Vaholanki, biz tashabbus bilan borsak hech qaysi bir rahbar rad javobini bermasa kerak.

Madomiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, yosh ijodkorlarga ta'lim-tarbiya berish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmaganligi borasida aytib o'tilgan ekan, ta'lim jarayonidagi ba'zi bir o'zgartirilishi lozim bo'lgan ishlar borasida, ya'ni ashula va raqs bo'limining ta'lim jarayonidagi mutaxassislik fanlari xususida ham mulohaza qilishimizga to'g'ri keladi.

Biz ashula va raqs bo'limi talabalaridan havaskorlik ashula va raqs ansamblining tashkilotchisi, rahbari kabi mutaxassislarni tayyorlab chiqaramiz. Yakkaxon xonanda, raqqos yoxud raqqosa, yakka cholg'uchi sozandalar chiqarishga bizning yo'nalishimiz qaratilmaganligi fanlarimizning "o'quv dastur"ida yozib qo'yilganligi barchamizga ma'lum. Biz ashulachilar ansambli fanidan havaskor xonanda, sozandalar ansambli fanidan havaskor sozandalar ansambli bilan cholg'u ijrochiligi fanidan havaskorlarga cholg'uni, yakkaxon qo'shiqchilik fanidan esa ishtirokchilarni ovozi yo'lga qo'yib, ularga xalq musiqa merosi va bastakorlar qalamiga mansub asarlardan xonish qilishni o'rgatamiz. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubi fanidan esa jamoani qanday boshqarishni nazariy tomonlama o'rgatib boramiz. Ba'zi bir mutasaddilar orasida, sohani tom ma'nodagi xususiyatini unchalik anglay olmagan holda havaskorona qarashlar bilan – ashula va raqs bo'limi talabalar uchun dirijyorlik yoxud notalashtirish fanlari nima keragi bor – degan gaplar ham yo'q emas. Tarixga bir nazar soladigan bo'lsak, VIII–IX asrda yashab ijod qilgan bobokalonimiz, ensiklopedik olim al Farobiy o'zining "Musiqqa haqida katta kitob" asarida xalq musiqa merosini keyingi avlodga bekamu ko'st yetkazish uchun bularni oqqa qora bilan ko'chirish yo'lini topishimiz shartligini alohida ta'kidlab o'tgan. Qolaversa, XVIII asrda bobokalonimiz Komil Xorazmiy o'zining tanbur chizig'ini ham shu maqsadda ixtiro qilgan. Ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy xalq musiqa merosi va bastakorlar qalamiga mansub asarlarni notaga olib keyingi avlodga qoldirish yo'lida 1955-1960-yillarda fidokorona mehnat qilgan va notaga olib ulguragan asarlarini "O'zbek xalq muzikasi" nomi bilan besh tomlik yaratgan. Madomiki, biz xalq musiqa merosi bilan mukammal shug'ullanar ekanmiz, avvalo, o'zimiz, shuningdek, ta'lim berayotgan shogirdlarimiz

ham qo'liga olgan notalarni bemalol kitob o'qiganday o'qib ketishi vaqti kelmadimikin? Bunday yo'l tutmasak, shogirdlarimiz chala savod bo'lib yetishmaydimi? Xalq musiqa merosimizni milliy bezaklarini to'la-to'kis, ya'ni yuz foizgacha notaga olish imkoniyati yo'qlini barchamiz bilamiz. Nota yozuvidagi asarlar ijrochi uchun aslida yo'l ko'rsatuvchi, ijro etilayotgan asar pardalarining davomiyligi va undan keyingi pardalar bilan bog'likliklar kabilar bilan afzalliklarga egadir. Demak, talabalarimiz nota yozuvidagi asarlarni imkoni boricha, kitob o'qiganday qarab idro etishlari kerak bo'ladi. Aks holda yoshlarimiz kitoblarga muhrlanib, xalqimiz dilidan chuqur joy olgan musiqiy asarlardan bahramand bo'lishidan mahrum bo'ladi va kelajak avlodga yetkazib bera olmaydi.

Для изучения музыкального материала произведения были впервые опубликованы: «Любимая» (тенор), «Весёлый дождик» (альт/фортепиано) Аваза Мансурова, «Караванщик» (тенор/фортепиано), фантазия на народную песню «Тановар» Надима Нарходжаева, саксофон настроен в тональности В, «Встреча» (тенор/фортепиано) и «Вечерний Ташкент» трумбер в В написаны Мухаммадом Атаджановым. Для (сопрано/фортепиано) представлены «Золотая осень» Акромом Хашимовым и Экспромт Валерия Сапарова. В некоторых произведениях отдельно выписана партия саксофона для большего удобства при изучении. Так, например, Серенада Хушнуда Назарова (сопрано/фортепиано), Рапсодия Баходира Муртазаева саксофон в тональности В.

Такие содержательные и поучительные учебные пособия важны, актуальны и своевременны. Они

насыщены глубокими историческими и теоретическими материалами, представляющими огромный интерес для студенческой молодёжи. Их музыкальная часть позволяет расширить исполнительский репертуар, а также познакомить студентов с разными джазовыми стилями. Особенно важным моментом является то, что в группе рецензентов учебного пособия есть Заслуженный деятель искусств Узбекистана, композитор Энмарк Салихов, который является одним из первых основоположников джаза Узбекистана.

Весьма ответственно относится Б.Муртазаев к благотворительным концертам-лекциям со студентами, которые проводит в своей махалле на протяжении уже более двух десятков лет. Звучат джазовые композиции разных стилей и композиторов. Музыкант-исполнитель знает, как важно в момент концертного выступления «выстроить» контакт со зрительным залом, со слушателями.

Хотелось бы отметить, что всегда на концертах Биг-бэнда Б.Муртазаева зал обычно переполнен слушателями разной возрастной категории. Аплодисменты восторженной публики поддерживают эмоциональный настрой музыкантов. Так создаётся атмосфера единения с музыкой джаза. Баходир Муртазаев, как никто другой очень ощущает эмоционально-духовную линию музыки и искусства.

Б.Муртазаев понимает важную роль литературы и спорта в жизни каждого человека. Чтение научных книг по медицине и литературе являются одним из главных увлечений профессора. Среди досконально изученных: книги Авиценны (Абу Али ибн Сино), Кайковус «Кобуснома», серия книг из 11 авторов «Дары природы», поэмы А.Навои, произведения З.Бабура, басни А.Крылова.

До 80-летнего возраста Баходир Мухтарович два раза в неделю ходил по 7-10 километров и ежедневно выполнял оздоровительные гимнастические упражнения. Сегодня в домашних условиях и на даче проводит физические занятия различной сложности, говоря: «спорт – это моё любимое занятие».

Результатом плодотворной педагогической работы и творческой деятельности Б.Муртазаева было утверждение его в должности доцента (диплом 03 № 001009 – май 1993 года), а затем и профессора (диплом 05 № 001142 – декабрь 2006 года).

Свыше пятидесяти лет своей жизни Б.Муртазаев посвятил профессии музыканта, воспитанию гармонично всесторонне развитой личности студента, работе в Государственной консерватории Узбекистана. Подрастающему поколению и студенческой молодёжи необходимо брать пример с таких замечательных людей творческой природы, как Баходир Муртазаев.

За многолетний добросовестный труд он был награжден Почётными грамотами Министерства просвещения Узбекистана, Министерства культуры Республики Узбекистан, Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан и т.д.

В 2011 году Б.Муртазаеву Международным неправительственным благотворительным фондом «Соғлом авлод учун» была выражена благодарность за вклад в воспитание культурного и духовного развития подрастающего поколения [2].

Сегодня маэстро как всегда вдохновлён новым днём и в прекрасном настроении готовится к новым концертным выступлениям и новым встречам со слушателями в ритме Джаза.

Литература:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису // Народное слово. –2020. –30 дек.
2. Амануллаева Д. Особенности преподавания эстрадного пения в Государственной консерватории Узбекистана: Материалы XXI международной конференции. –Ташкент; 2014. –94 с.
3. Саймон Дж. Большие оркестры эпохи свинга. –Санкт-Петербург: Скифия, 2008. –616 с.
4. Абидова Л. История джаза и современных эстрадных музыкальных стилей (краткие очерки): учебное пособие. –Ташкент: Ўқитувчи, 2007. –128 с.
5. Муртазоев Б. Саксофония билмаган борми // Гулистон. –2003. № 3. –С. 24.
6. Murtazayev B. Saks ovozi: oliy va o'rtta maxsus bilim yurtlari, kollej hamda akademik litseylarga mo'ljallangan saks fon sinfi uchun o'quv qo'llanma. –Тошкент: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2003. –176 b.
7. Murtazayev B. Saks fon sinfinda pedagogik va ijro amaliyoti: o'quv qo'llanma. –Тошкент: 2005. –94 b.
8. Морозова Ю. Праздник саксофоновой музыки //Учитель Узбекистана. – 1998. 6-мая.
9. Морозова Ю. В стране Саксофонии //Вечерний Ташкент. –1998. 25-март.
10. Сабилова Н. Звуки джаза в вечерней столице//Даракчи плюс. –2008. 3-январь
11. Ахаджанова Е. Музыкант и ... часовых дел мастер// Вечерний Ташкент. – Т., 1996. – 3 августа.
12. Амануллаева Д. Юлдузлар чамани (2002-2012 йй.).Ижодий чўккилар сари интилиб = Стремясь к творческим вершинам. –Тошкент:Музыка, 2014.–73 б.
13. Турсунова Г. Замонавий ўзбек эстрада кўшиқчилигида аранжировкачилар фаолияти. Ижодий чўккилар сари интилиб = Стремясь к творческим вершинам. –Тошкент: Музыка, 2014. –195 б.
14. Солиев Н. Баходир Муртазаев и его биг-бэнд. Ижодий чўккилар сари интилиб. = Стремясь к творческим вершинам. –Тошкент: Музыка, 2014. –191 б.
15. Открытие эстрадного факультета в Государственной консерватории Узбекистана // Ведомости. –1996. №12. –С.15.
16. Норхужаев Н., Курбонов Д. Ижодий чўккилар сари интилиб=Стремясь к творческим вершинам. – Тошкент: Музыка, 2014. –5 б.
17. Словарь музыкальных терминов: dshil8usk.ru/для-учащихся/полезные-ссылки-для-учащихся/словарь-музыкальных-терминов.
18. Муртазаев Б. Личный архив.

ABDURAUUF FITRAT IJODIY MEROSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mutafakkir Fitratning so'zga munosabati, ayniqsa, qisqa va dalilli fikr yuritishi xususida to'xtalib o'tiladi. Garchi alloma musiqashunos bo'lmasa-da, uning musiqa sohasidagi teran qarashlari ko'pchilikka namuna bo'ladi. Zero, O'zbekistonda birinchilardan bo'lib, milliy musiqamizning nazariy, tarixiy asoslarini taqdim etgan olim o'zbek musiqasini sharqona, xususan, turkiy xalqlar musiqiy merosi kesimida o'rganib, Sharq va G'arb musiqiy munosabatlari haqida qimmatli fikrlarni bildiradi.

Kalit so'zlar: mutafakkir, olim, milliy, musiqa, meros, talqin.

Алишер АХМЕДОВ,

Государственная консерватория Узбекистана, заместитель декана факультета
"Академическое исполнение"

ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АБДУРАУФА ФИТРАТА

Аннотация. В данной статье речь ведется об отношении просветителя Фитрата к слову, особенно его кратких и аргументированных высказываниях. Хотя ученый не является музыковедом, его углубленные взгляды в сфере музыки является образцом для многих. Он одним из первых представил творческие и исторические основы нашей национальной музыки, изучая узбекскую музыку в отрезке музыкального наследия тюркских народов, высказал свое мнение о музыкальных связях Востока и Запада.

Ключевые слова: просветитель, ученый, национальный, музыка, наследие, анализ.

Alisher AKHMEDOV,

State Conservatory of Uzbekistan Dean of the faculty "Academic performance"

ABDURAUUF FITRAT CREATIVE HERITAGE

Abstract. We would like to emphasize the fact that Great thinker Fitrat's relationship with word admires us, especially, with his concise and factual reflections. Although the Scholar is not a musician, his delicate approach to the domain of music can serve as a role model for many. Moreover he was one of the first in Uzbekistan, the scientist, who presented the theoretical and historical foundations of our national music, also gave his priceless prepositions about the musical relations between East and West, having learnt Uzbek music from the point of Turkic nations musical heritage foundation.

Keywords: Great thinker, Scholar, national, music, heritage, analysis.

Abdurauf Fitrat adabiyot, ilm-fan va ma'rifat peshvosi o'rnida o'zining serqirra ijodi orqali tariximizda chuqur iz qoldirgan ulkan shaxs.

Fitrat timsolida yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos va siyosatshunos olimlik qirralari mujassam. Fitrat faoliyatining har bir qirrasini o'zbek ma'naviyatida yangi sahifalarning ochilishiga sabab bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda Fitrat – vatanparvardir.

Uning "Munozara", "Sayyohi Xindi", "Qiyomat", "Me'roj", "Oq mozor", "Zayd va Zaynab", "Zahroning iymoni" kabi adabiy asarlari, "Begijon", "Qon", "Abu Muslim", "Temur sag'anasi", "O'g'izxon", "To'lqin" kabi dramaturgik asarlari "Chin sevgi", "Hind ixtilochilari", "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni", "Aruz haqida" singari badiiy va falsafiy ta'limotlari ulkan ma'naviy meros bo'lib xizmat qiladi.

Fitrat 1928-yilda shu davrda O'zbekistonning poytaxti bo'lib turgan Samarqand shahrida nafaqat musiqa va raqs institutini oyoqqa qo'yishda faol ishtirok etdi, balki g'oyaviy emakdosh o'rnida ulkan jonbozlik ko'rsatganligini alohida qayd etish joiz.

Endi uning musiqa madaniyatimizga qo'shgan ulkan hissasi, xususan, "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasi yuzasidan mulohaza yuritamiz. Eng avvalo, shuni ta'kidlash joizki, Fitrat o'zining o'zbek musiqasi to'g'risidagi maqolalari hamda "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasi bilan XX asr o'zbek musiqashunosligining tamal toshini qaytadan tiklashga intildi.

Ma'lumki, bizda o'zbek adabiyot va musiqiy merosiga nisbatan ilk marotaba "klassik" tushunchasini A.Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" va keyin musiqa misolida "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarlarida kiritdi, ilmiy asosladi. Uning keng mafkurasi, jumladan, evropacha bilimlari bu umumiy universal atamaning joriy qilganligini asosiy sababi, deyish mumkin. Zero, ko'p o'rinlarda "klassik" so'zi o'zbek tilidagi "mumtoz" so'zi bilan ma'nodosh o'rnida qo'llanilganligini eslatib o'tib, professor Fitratning aynan "klassik" atamasida to'xtalganligi va butun boshli tadqiqotni "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deb nomlanganida ham o'ziga xos ma'no borligini ta'kidlash zarur.



Abdurauuf Fitrat

Ma'lumki, "klassik" tushunchasi insoniyat badiiy merosining oltin nuqtasi sifatida tan olingan eng puxta, mukammal va olamshumul ahamiyatga molik ijod namunalarga nisbatan ishlatiladi. Bu o'rinda bizning klassik musiqamiz "Shashmaqom" ismi bilan yurgizilgan olti qator kuylardan iboratdir" deyilishi va Fitratning ko'p hollarda musiqiy va adabiy taraqqiyotini bevosita islom mafkuralari bilan chambarchas bog'liq ekanligiga asoslanadi. "Bizning adabiyotimiz sharq islom adabiyotiga qanday bog'langan, qanday munosabatli esa, musiqamiz ham sharq islom musiqasi bilan shunday bog'langan, shunday munosabatlidir", deya teran fikr bildiradi.

"Klassik" darajasini ta'kidlash uchun Fitrat, avvalo, "Adabiyot qoidalari" risolasida "san'at" tushunchasiga umumiy ta'rif beradi: "San'at lug'atda hunar demakdirkim, bir narsani yoxshi (yaxshi) ishlab chiqarishdan iboratdir". Fitrat nazdida san'at deyilganda, avvalo, biror bir ezgu maqsadga xizmat qiladigan hunar (ish)dir. Ammo tanbur yoki dutor cholg'usini yasash san'ati bilan tanburda muayyan bir kuyni, masalan, "Iroq"ni ijro etish san'ati orasida o'ziga xos farq borligini ham ta'kidlaydi. Binobarin, tanbur cholg'usining san'at sifatidagi yaxshiligi biror ishga yaranligi bo'lsa, Iroq kuyining yaxshiligi uning insonga ma'naviy ta'sir etishi hamda inson ongini to'liqlantirishidir, deb xulosa qiladi.

Shunga ko'ra, uning yaxshiligini, afzalligini go'zallik deb ataydi va bu kabi san'atlarni, umuman, "go'zal san'at"lar deyilishini ta'kidlaydi: – "yurak, tuyg'u, fikr to'liqlarini so'z, bo'yov (rang-bo'yoq) shakl, harf, harakat kabi tovar (material)lar yordami bilan jonlantira chiqarib, boshqalar(qabul qiluvchilar)

da ham shu to'liq ta'sirini yaratmoq hunariga – go'zal san'atlar deyiladi" deb ta'rif beradi. Ular jami oltita: 1.musiqiy 2.rasm 3.haykalchilik 4.me'morchilik 5.o'yun (tans) 6. adabiyot.

Fitratning ushbu ta'rifida ko'rib turganingizdek, musiqi san'atini birinchi o'rinda keltirib, go'zal san'atlardan tovar (vosita-manba) tovush, ohang bo'lsa, go'zal san'at musiqiy bo'lishini va ushbu olti san'at o'zaro yaqinligi jihatdan ham ikkiga ajralishini ko'rsatadi. Ya'ni musiqi va raqs bir turkum. Rasm-tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'morchilik bir turkumdir.

"O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi"da "go'zal san'atlar"dan klassik musiqi xususida fikr yuritilganda bugungi kunda ushbu tushunchaning ma'nodoshi sifatida biz qo'llayotgan "mumtoz" yoki "mumtozona" so'zlariga nazarimiz tushmadi. Zero, Fitrat o'z davrida asosiy (diniy va dunyoviy) bilimlarni xorijda olgan va u haqli ravishda chilim, nosqovoq darajasida jo'nashib, uyaladigan ahvolga kelib qolgan musiqamizni umuminsoniy qadriyatlar darajasida natijasida tiklash lozimligini ta'kidlab, musiqiy amaliyotimiz jonli urf-odatlariga nisbatan yangi tushuncha hamda atamalarning joriy etilishi tarafdori bo'lib maydonga chiqadi.

Binobarin, A.Fitrat o'z risolasida bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etadigan turli ta'riflardagi "el kuylari," "el ashulalari", "olti qator kuylar" yoki etnograf, kompozitor V.Uspenskiyga nisbatan "ozod san'atkor" kabi iboralarni qo'llaganligi ham qiziqarlidir.

Fitrat musiqi ilmiga, eng avvalo, nazariy tomondan yondashgan. Bu o'rinda Farobiy, Ibn Sino, Marog'iy, Jomiy kabi hurfikr allomalarga payravlik qilib, ularning ilmiy-musiqiy qarashlarini chuqur o'rganish yo'li bilan tegishli xulosalar chiqarishga intilgan tadqiqotchi sifatida maydonga chiqadi

Fitrat asari quyidagi tarkibiy qismlardan: 1-qism – "Sharq musiqasi" 2-bo'lim va besh faslga hamda "Musiqamizning tarixiga bir qarash" qismi esa o'z navbatida, yana ikki faslga bo'linadi. Umuman olganda, o'zbek musiqasiga nisbatan bu juda keng ilmiy-nazariy hamda tarixiy ko'lam.

Asarning muqaddima qismida o'zbek adabiyoti va tarixiga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni to'plagan bo'lsada, o'zbek musiqasida soha mutaxassislari, musiqashunoslarning yo'qligi tufayli jiddiy izlanishlar olib borilmaganligi ta'kidlanadi.

Risolaning "Sharq musiqasi" nomli bo'limi umumiy debocha o'rnida bo'lib, unda Sharq xalqlari musiqasi uslub jihatdan o'zaro farq qilsada, nazariy tarafdin mushtarak asosida birlashganligini e'tirof etiladi. Ushbu ilmiy-nazariy asos (poydevor) bevosita arab istilosidan keyin musulmon sharqida hukm surgan "madrasa birligi" ya'ni, umumiy ta'lim tizimi tufayli vujudga kelganligi ta'kidlanadi. Muallif eski kuylarimiz nafaqat arab-eron balki, avvallari hind va xitoy musiqalari bilan bo'lgan tarixiy aloqalar ta'sirida

shakllanganligini ham aytib o'tadi. Xususan, Buzruk maqomining sho'bachalarini sanab o'tar ekan, "rok" va "rok tushurmasi" nomlariga izoh berib, Amir Umarxonning quyidagi misralarini keltiradi:

Amir ash'orini har xushnavo mutrib-ki, yod etdi,
Kamoli shavqidin savtini rang-i "rok"ka do'ndiri.

Ushbu davr e'tiborga olinib, "rok" kuyi ancha qadimiyligini, ammo, "rok tushurmasi" 1900-yilda Buxoroda vafot etgan Shohimardonquli ismli musiqiyshunosning asari ekanligini uqtiradi.

Keyingi "Usul" bo'limida "nag'ma"ning tarkibiy unsuri – "niqra" va ulardan musiqiy usullarning vujudga kelishi borasida mulohaza yuritadi. Bunda usul va kuy-ohang juda muhim musiqiy asos ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga asardagi vazn-usul doiralarning 15, 17, 24 va 27 taga bo'lishini zikr qilib, ulardan eng mashhur, bizning klassik musiqada keng o'rin olgan 12 tasining nomlarini keltiradi: hazaj, ramal, vofir, du-yak, foxtazarb, turkiy, muxammas, saqil, chanbar, zarbi-qadim, zarbul-fatx.

Olim yuqorida keltirilgan usul tizimini bevosita arab she'riyatidagi aruz bahrlari bilan muvofiq ko'rishni nojoiz deb topadi. Xususan, hazaj va ramal bahrlari bilan usul nomlarining shunchaki ismdosh tushunchalar ekanligini ta'kidlaydi. Aytish joizki, aruz vazni va sharq musiqiy usullari o'rtasida aynan o'xshashliklar bo'lmasa-da, qaysidir ma'noda she'riyat va musiqada muvoziy uyg'un jihatlar ham ko'p. Ya'ni o'sha ismdoshlikdan o'zga narsa bo'lmagan umumiy nomlar ham o'z-o'zidan musiqada qaror topmagan, deyish mumkin. Demak, she'r va musiqa doimo yonma-yon yurib, eng yaqin san'atlar sifatida bir-birini to'ldirib turishi tabiiydir.

Shunga ko'ra, navbatdagi bo'lim bevosita "o'zbek musiqasi"ga bag'ishlanib, she'riyatdagi aruz va barmoq vaznlari singari musiqada ham klassik (usulli) va usulsiz hamda ilmiy-nazariy asoslardan tashqaridagi – ma'muliy (amaldagi) el kuylari, el ashulalari ham mavjudligi xususida fikr yuritiladi. Ya'ni el kuy va ashulalari deyilganda yevropachadan farqli milliy xalq musiqasi ijodiyoti nazarda tutiladi.

Olim klassik olti qator kuylar – Shashmaqom (olti maqom) nomlarini sanab o'tganda, ularning har biri uch butoqqa bo'linishni ta'kidlaydi. 1-butoq – faqat cholg'u kuyidan iborat bugungi istilohdagi mushkilot (cholg'u-instrumental) bo'limi, 2-butoq: cholg'u va aytim-(vokal) bo'limi; 3-butoq: cholg'u, aytim va o'yin (raqs) yoki cholg'u va raqs qismlaridan iborat (ufar-raqs) bo'toqlaridir.

Olti qator kuylar deyilgan ibora zamirida esa bevosita har bir uch butoqdagi maqomlar birgina kuydan emas bir "qator kuy"lardan, ya'ni bir necha kuylar turkumi (qatori)dan iboratligi nazarda tutiladi. Ammo bugungi iste'molda Fitrat taklif qilgan ushbu atamalar, afsuski amaliyotda o'z aksini topib ulgurmad. Xususan, el kuylari – xalq musiqasi, butoq – bo'lim, qator kuy – maqom tushunchalari tarzida qo'llanilmoqda. Binobarin, keyingi yillarda

bajarilgan ko'plab tadqiqotlarda Fitrat aytib o'tgan Shashmaqomning ufar-raqs qismi umuman tilga olinmay qoldi yoki biroz unutildi.

Risolada "Usul" deb nomlangan yana bir alohida fasl bo'lib, avvalgi umumiy ma'nodagi "Usul" bo'limdan farqli ravishda unda bevosita amaliyot bilan bog'langan maqomlarda kuyga jo'r bo'ladigan doira usullarni qo'llanilishi tartiblari tavsiflanadi. Jomiyning "Risolayi musiqiy"si va ungacha bo'lgan davrlarda usul ruknlari tan-tana-tananlar, bizning davrga kelib bum-bak, Xorazmda esa gul-taq yoki gup-taq tarzida yuritilayotganligi ma'lum qilinadi. Usullar tasnifotida to'xtash (ist) o'rinlarida "*" belgisi qo'yilib, jimlik-sukun-pauza sifatida ishlatilishiga e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasi professori O.Nazarov o'z maqolalarida shunday deydi:

"O'zbek musiqasi" bobida Fitrat Shashmaqom va Xorazm maqomlarini o'zaro qiyoslab, ularning o'xshash va farqli jihatlar haqida ham o'z qarashlarini bayon qiladi. Bu bobning muhimligi shundaki, unda shashmaqomning barcha qismlari tuzulishi aniq va mufassal ta'riflanib, tarkibidagi jamiki asarlar nomi keltirilgan. Shashmaqom oltita, Xorazm maqomlari esa olti yarim maqomdan iborat ekanligi, doyra usullarining o'ziga hosligi hamda Dugoh maqomining mushkilot qismidagi "peshrav", "zarb ul fath", "saqiyli feruzshoh", "foxtozarb" kabi kuylar Shashmaqomda uchramasligi kabi jihatlar asosida ularning o'xshash va farqli jihatlar batafsil yoritib berilgan.

Shashmaqomdan so'ng xalq kuylarida to'xtalib, bu sohada ma'lumotlar va izlanishlarning yetarli emasligini ta'kidlab shunday deydi: "Bulardan boshqa "el kuylari" yoxud "termalar" unvoni bilan sonsiz, so'ngsiz kuylar bor. Bular shashmaqom ostig'a kirmaylar.

...El kuylarimizning esa qanday bir yo'l bilan bas-talangani to'g'risida hanuz tekshirishlar bo'lmagan, bu to'g'rida ma'lumotlarimiz yo'qdir".

Keyingi eng muhim nuqtalardan biri Fitrat tomonidan bot-bot takrorlangan shashmaqom bayrog'i ostiga kirmagan, el kuylari xususida bo'lib, xalq og'zaki ijodi namunalari "yopiq tizim"i o'lchovida bo'lgan holda "el kuylari" yoki "termalari" ekanligi va bu xususda tegishli nazariy ma'lumotlar yo'qligini o'rinli ta'kidlaydi.

1925-yilda G'.Zafariy va M.Yunus (Elbek)larining "El ashulalari" to'plam nashrida o'z aksini topgan "Yallama-yorim", "Dodimg'a et", "Gulyor", "Alla", "Aliyor, alla", "Omon-omon", "Yor-yor" kabi namunalarni sanab o'tadi va ularning misralaridagi eng jonli, ko'p qo'llanadigan so'zlaridan asarning nomi kelib chiqishini ta'kidlash bilan chegaralanadi.

Fitratning o'zbek klassik musiqasiga oid risolasi nashridan bir yil avval chop etilgan "Adabiyot qoidalari" qo'llanmasida el adabiyotiga shunday ta'rif beradi: "Shaharlarda, saroy, madrasa tegralarida yig'ilib, e'tiqod, tuyg'u zavq ham(da) tushunchada

tubanda qolgan ko'pchilikni ko'rishingiz aniqdir. Mana shu chetda qolgan ko'pchilikning tushunishiga, zavqiga, tuyg'usiga ruhiga qaratib yaratilgan ko'p badiiy asarlar bor. Mana shu asarlarga biz el adabiyoti deymiz¹. Ushbu el adabiyotining badiiy adabiyotdan farqini uning yozma yoki muallifining noma'lumligi bilan emas, balki ruhiy salohiyati, uslub va vositalarning soddaligi bilan ajratish lozimligi ta'kidlanadi. Mazkur fikrlarni bevosita el ashulalariga nisbatan ham talqin qilish mumkin. Eng muhim jihati Fitrat mazkur el kuylarimizni tekshirish, ohanglarini buzmasdan notaga olish lozimligini hayajon bilan ta'kidlaydi.

Mazkur qo'llanmada bevosita musiqaga tegishli bir qator tushuncha va atamalar ham tilga olingan. Xususan, ashulaga ta'rif berar ekan "Kuy-ohang bilan o'qiladigan she'rlar, tizmalarga ashula deyiladi. Ashula ko'proq milliy (barmoq) vaznda bo'ladi" deyilgan ta'rif fikrimizcha bugungi kun musiqashunosligi uchun juda ahamiyatli.

Fitrat musiqiy cholg'ular haqida so'z yuritganda fikrlar ichida tanburning musiqa risolalarida "tanbura" tarzida yozilganligini, lekin u aslida "do'n'bira"- "tanbura"-tanbur" negizlarida yuzaga kelganligini ta'kidlaganligi ham e'tiborga loyiq. Mizrob (tanbur simlarining sozlanishi) deb nomlangan qismda tanburni amaldagi uch turli sozlanishi tahlil etiladi.

1. Rost mizrobida – o'rta torning 3 pardasi bosilishi bilan ikki chetki (ozod holda) torlarga teng bo'ladi.

2. Navo mizrobida – Navo maqomiga oid kuylar chalinib, ikki yon simlar teng bo'lib, o'rta torning 6-pardasi bosilganda ular bilan teng eshitaladi.

3. Segoh mizrobida – Segoh, Iroq, Buzruk va Dugoh maqomlari chalinib, ikki yon simlar teng bo'lib, o'rta torning 4-pardasi bosilganda ular bilan hamohang eshitaladi. Bu jihat ham musiqiy mafkuraning tub negizlari bilan bog'liq tamoyil ekanligi, olimning tom ma'nodagi nazariyotchi ekanligini amalda ko'rsatib beradi.

"Musiqamizning tarixiga bir qarash" bobi Turk musiqasining tarixiga oid tub ma'lumotlarga asoslanadi. Olim istilohida keng ma'noda turk musiqasi deyilganda, o'z taraqqiyotida katta yutuqlarga erishgan bizning o'zbek musiqa merosimiz nazarda tutiladi. Fitrat ijodini kuzatar ekanmiz, unda juda ko'p o'rinlarda aynan shu ma'nodagi turk tili, turk adabiyoti hamda turk musiqasiga alohida e'tibor qaratganligini ko'ramiz. Fitratning 1909-1913-yillarda Istambuldagi "Dorulmuallimin"dagi tahsili, 1921-yilda Fitrat tashabbusi bilan turk (o'zbek) tili davlat tili deb e'lon qilinishi, risolada Qontemir o'g'li, professor Ko'pruliyzoda, Rauf Yaktobek kabi turk musiqa nazariyotchilarning tadqiqotlariga suyanishi so'zimizning isbotidir. Qolaversa, Fitrat juda ko'p o'rinlarda o'z ijodida sof turkiy (o'zbekcha) atamalarni

qo'llashni joiz topishiga intilishlari ham shundandir.

Siyosiy-g'oyaviy kurashlar natijasida Turkiya, Qozon va Turkistonda mumtoz an'analarni saqlab qolish uchun madaniy birlik g'oyasiga ya'ni, yagona millat, yagona turkiy madaniyat g'oyasiga ehtiyoj sezildi. Milliy matbuotda barcha turkiy xalqlar uchun tushunarli bo'lgan umumturk adabiy tili qaror topa boshlaydi. Xususan, bunda tilning o'z imkoniyatlari asosida rivojlantirishga harakat qilish, xorijiy so'zlarni imkon qadar kamroq qo'llash yoxud unga mos milliy tushunchalarni joriy qilishga harakatlar yaqqol sezilib turadi.

Umuman olganda, shu davrda Fitrat ko'plab qarashlarda madaniy ahvoli bizga yaqin bo'lgan Turkiyadan o'rnak olishga intiladi. Zero, Turkiyadagi ijtimoiy ahvol Turkistonda ham aks-sado berar edi. Ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda Fitrat tor doirada o'z maslakdoshlari bilan faqat turkiy, ya'ni o'zbek tilida gaplashishga harakat qilgan. 1930-yillar qatag'onida olim mazkur qarashlari tufayli, g'anamlar tomonidan panturkizm, millatchilik ham ayblanadi.

Aytish kerakki, 1920-yillarda Turkiston aholisini ro'yxatga olishganda Farg'ona vodiysi, Toshkent va Samarqandlik ko'pchilik yurtdoshlarimiz millating kim? degan savolga "turk" deb javob berishgan. Shuningdek, ushbu savolga "o'zbek", "sort" deb javob berganlar ham bo'lgan. 1920-yilda Usmonlilar imperiyasi bekor qilinib, yangi davlatga nom qo'yish masalasi munozaralarga sabab bo'ldi. Bir guruh arboblardan "Turkiston Jumhuriyati" deb nomlashni taklif qilishdi. Shunda davlat arbobi Kamol Ota Turk: "Turkiston bizning ota yurtimiz, Turkistonning o'z vorislari bor Turkistonlik qardoshlarimiz bir kun kelib hurriyatga chiqajaklar, o'z mamlakatlarini yana Turkiston deb atayajaklar. Bu tarixiy va shukuhli nom ularning o'zlariga buyursin"² deb ta'kidlagan. Shu tariqa jumhuriyat Turkiya jumhuriyati deb nomlanadi.

Demak, turk xalqi, turk adabiyoti deyilganda Turkiyaning xalqi va adabiyoti tushunildi. Turkiy xalq, turkiy madaniyat deyilganda esa o'zbek xalqi nazarda tutilib, 1924-yilda rasman tasdiqlandi. Fitratning risolasidagi "Turk musiqasi" nomi ostidagi bo'limda aynan XX asrgacha bo'lgan tarixiy voqe'liklar tilga olinadi. Yo'qolib ketgan musiqamizning tub asoslarni qidirar ekan, "Katta bir yo'ldan o'tgan ulug' bir karvonning izi" qolgani kabi arab istilosidan oldingi turk musiqiyosining izlarini tadqiq qilish naqadar muhim va ma'suliyatli ekanligi uqtiriladi. Shu munosabat bilan Fitrat Hazrat Navoiyning ijodida turk musiqasiga oid qarashlarni kuzatar ekan, "turk xalqi orasida mashhur bo'lgan" mustazod hamda "qiz ko'chirish to'ylarida" aytilgan juda ta'sirli "Yor-yor" nav'lari xususida ma'lumotlar beradi. Olim shundan so'ng, "... yuqoridagi qiymatli ma'lumotni o'qug'ondan keyin koshki shul arab aruzini yozg'aningiz joyida turk vazni, turk musiqiyosi to'g'risida kitoblar yozsa edingiz" deb, ulug' shoirga o'z dil havaslarini izhor qiladi.

1. Fitrat A. Adabiyot qoidalari /Nashrga tayyorlovchi: H.Boltaboev. –Toshkent; 1995. –B.82.

2. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. –Toshkent; 1996. –B. 196.

Keyingi o'rinlarda, Navoiy ijodi haqida fikr yuritar ekan, Hazratning devonlari, dostonlari, butun adabiy asarlarini bu kungacha yaxshi saqlab qolgan bizlar, uning musiqiy asarlaridan hech birini saqlay olmadikmi, ular yo'qolib bitganmi? degan haqli savollarga javob izlashga urinadi va shu fikrga ishonchli dalil sifatida O'zbekistonning ko'p hududlarida ijro etilib kelinayotgan "Qari Navoiy" ("Kori Navoiy") kuyini nota matnini keltiradi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk", Abdulqodir Marog'iyning "Zubdat ul-advor", "Maqosid-ul alhon", Safiuddin Urmaviyning "Sharafiya", Muhammad ibn Mahmud Omuliyning "Nafois un-funun", Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy", Alisher Navoiyning "Hamsat-ul mutahayyiriy", "Mezon-ul avzon", Najmiddin Kavkabiyning "Risolai musiqiy", Darvish Ali Cangiyning "Risolai musiqiy", "Tuhfat-us surur", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kabi ko'plab risolalar bilan yaqindan tanish bo'lgan Fitrat o'zbek musiqasining o'tmishiga oid yorqin sahifalarni birma-bir ochib berishga harakat qiladi. Bobir Mirzo Hindistonga safar qilgandan so'ng, O'zbekistonning rassom, shoir va musiqashunoslari uning saroyiga xizmatga borganliklari uchun O'zbekistonda – Qo'qon, Xorazm va Buxoroda go'zal san'atlar eski holiga qayta olmaganligini nadomat bilan ta'kidlaydi.

Shundan so'ng, Xorazmda musiqa yashnagan davrlardan xabar beruvchi Bekjon Rahmon Matyusuf Xarratovlarning "Xorazm musiqiy tarixchasi" xususida to'xtalib, uning qiymatli ma'lumotlarga to'la ekanligini ta'kidlaydi. "So'nggi so'z"ni yozganda esa Fitrat kamtarlik bilan "Mana shu uzun gaplar bilan

musiqiyimizning tarixiy boylig'ini oz-moz ko'rsatgan kabi bo'ldik"– deydi.

Ayni shu orzu-havaslar komida G.Zafariyning "Halima"si namoyishi, M.Qoriyoqubov va N.Mironovlar hamkorligida ashularimizning notaga olinishi va musiqiy to'garaklar hamda "Sharq musiqa maktabi" xususida qisqacha ma'lumotlar keltiriladi. Muhimi shu munosabat bilan Maorif Komissarligiga kichkina arizamiz bor deb quyidagi murojaatni izhor qiladi:

Milliy musiqa maktablari sonini ko'paytirish, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish lozim;

Mazkur maktab bitiruvchilari Rossiyadagi musiqa texnikumlarida tahsilni davom ettirishlari kerak. Buning uchun milliy musiqa maktablarida rus tili va nota savodi darslari o'tilishi darkor;

Ham milliy ham Yevropacha musiqiy tafakkurga ega bo'lgan kadrlar etishib chiqqunga qadar Evropa (rus) musiqa olimlari yordami bilan milliy kuylarimizni notaga olishda Evropa musiqa ohanglariga ergashmaylik. Toki, ular etnografik nuqtai nazardan ham milliylik tarafdin ham o'z ahamiyatini yo'qotmasin, degan jiddiy fikrlarni dadillik bilan ko'tarib chiqadi.

Darhaqiqat, keskin siyosiy o'zgarishlar davrida vujudga kelgan Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasi mintaqamiz musiqiy udumlari asosida bitilgan, milliy merosning qonuniyatlari jo bo'lgan, o'tmish va yangicha zamon mafkuralari mujassamlashgan ulkan tadqiqot namunasi. U o'zbek musiqasining yorqin shakli – Shashmaqom timsolida mintaqamiz musiqiy salohiyatini o'rganish borasidagi yangi o'zbek musiqashunosligining debochasi sifatida benazir ma'naviy boyluk hamdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Fitrat A. Ajoyib o'rtalik // O'rta Osiyo adabiyoti. – 1933. –21 noya.
2. Fitrat A. Arslon. Burung'i Buxoro xonligida yashag'an dehqonlar hayotidan oling'an besh pardalik drama: tanlangan asarlar. 3-chi jild. –Samarqand–Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1926. – B. 164.
3. Fitrat A. Bedil (Bir majlisda). –Moskva; 1923. – B.42
4. Bedil. /Nashrga tayyorlovchi: H.Boltaev. –Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1996. – B. 41.
5. Boltaev H. Bedil //Guliston. –1996. -№3. –B.5.
6. Boltaev H. Bedil //Guliston. –1995. -№1. –B.12
7. Fitrat A. Buxoro ulamosi // Hurriyat. –1917. –4 noyabr.
8. Nazarov O. Fitratning musiqiy qarashlariga bir nazar //Moziydan sado. –2017. №4. – B.38.
9. Rajabov I. Maqomlar. –Toshkent; 2006. – B. 395.
10. Shashmaqom an'analari va zamonaviylik: Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari: Samarqand, 2005-yil 27-29-avgust. –Toshkent: Musiqa, –2005. –B. 12.

1. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammadyusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Moskva: Nashriyoti yozilmagan., 1925. –B. 42.



III BO' LIM

**SAN'AT TARIXI,
FALSAFA VA
NOMODDIY
MADANIY MEROS**

Farrux TURSUNOV,
O'zDSMI "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti v.b, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Olimjon DADAMIRZAEV,
O'zDSMI "Musiqali, dramatik teatr va kino san'ati" kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi.
Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i

SO'G'D MADANIYATINING INSONIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Maqolada qadimgi So'g'diyona va sog'diylarning Markaziy Osiyo va insoniyat taraqqiyotidagi o'rni ko'rsatilgan bo'lib, ular haqidagi mahalliy aholi rivoyatlari va ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: So'g'diyona, sog'diylar, Buyuk Ipak yo'li, Langar, madaniyat, ipak mato, sog'd yozuvi, xalqlar, rivoyat.

Фаррух ТУРСУНОВ,
Доктор философии по педагогике (PhD), и.о. доцента кафедры
"Социально-гуманитарные науки" ГИИКУз.
Олимжон ДАДАМИРЗАЕВ,

И.О. доцента кафедры "Музыкальное, драматическое театральное и киноискусство" ГИИКУз, Начальник
отдела контроля качества образования

ВЛИЯНИЕ КУЛЬТУРЫ СОГДА НА ЦИВИЛИЗАЦИЮ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА

Аннотация. В статье показана роль древней Согдианы и согдийцев в цивилизации Центральной Азии и развитии человечества, дан сравнительный анализ местных легенд и научных источников.

Ключевые слова: Согдиана, согдийцы, Великий шелковый путь, якорь, культура, шелковая ткань, согдийская письменность, народы, легенда.

Farrukh TURSUNOV,
the chair of "Social Sciences and Humanities" Acting Associate Professor of Pedagogy Doctor of Philosophy (PhD)
UzSIAC.
Olimjon DADAMIRZAEV,
I.O. Associate professor of the Department of "Musical, dramatic theater and cinema" UzSIAC,
Head of education quality control department

THE IMPACT OF SOGDIAN CULTURE ON HUMAN CIVILIZATION

Abstract. The article shows the role of ancient Sogdiana and the Sogdians in Central Asia and human civilization, and provides a comparative analysis of local legends and scientific sources.

Keywords: sogdiana, Sogdians, Great Silk Road, Anchor, culture, silk cloth, Sogdian writing, peoples, legend.

So'g'diyona O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlardan biridir. Markaziy Osiyoda antik va o'rta asrlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari ancha o'zgardi. Buyuk ipak yo'lida savdo-iqtisodiy ahamiyati ham ortdi. So'g'dning tarkibiy qismlari: Shimoliy So'g'd-Yuqori Zarafshon, Janubiy So'g'd-Qashqadaryo vohasi (Kesh va Nasaf) va Shimoli-g'arbiy So'g'd-Buxoro vohasida noyob shaharozlik an'analari shakllanib bordi. So'g'd shaharlari Afrosiyob, Panjikent, Yerqo'rg'on, Buxoro, Poykent, Varaxsha va boshqalar insoniyat tamaddunida sezilarli iz qoldirgan. Buyuk Ipak yo'li bir necha asrlar mobaynida So'g'd madaniyati rivojida muhim o'rin tutgan.

Sog'diylarning qadimiyligi borasida asosli ma'lumotlar bor. Biroq, tadqiqot jarayonida ayrim manbalar va rivoyatlarga ahamiyat qaratdik. Qashqadaryo vohasi aholisi orasida "Nuh kemasi", "Gava So'g'da", "Ajdah" kabi afsona va rivoyatlar bizni mushohadaga chorladi. Jumladan, Qamashi tumaniga borganimizda mahalliy aholi tomonidan aytilgan "Nuh kemasi" rivoyati e'tiborimizni tortdi. Ma'lum bo'lishicha, Langar ota nomli ziyoratgohlar vohaning Qamashi va Chiroqchi tumanlarida mavjud.

Manbalarda turlicha yoziladigan langar atamasi ko'proq muvozanatni saqlash, harakatni bir maromda

tutib turish ma'nosida qo'llaniladi. Ba'zi rivoyatlarda islom dinida so'fi va darveshlar "langar tashlash" orqali joylashadigan yerlarini aniqlashgani, shuningdek, bu atama mo'g'ulcha lango'r – qabr, ya'ni eng katta avliyoning qabri yoki boshqacha ta'rifda musofirxona, xayr-ehson tarqatiladigan joy, aziz-avliyolar langar tashlagan makon ma'nolarini berishi aytiladi.

Biz mahalliy aholidan eshitgan rivoyatlarga ko'ra, Langar so'zi tarixiy shaxs emas, joy nomi bilan bog'liq bo'lib, markaz, qal'a, qo'rg'on, bandargoh so'zlari bilan izohlanadi. Aytishlaricha, ilgari har ikkala joydagi (ya'ni Qamashi va Chiroqchi tumanlaridagi) daryolar nihoyatda sersuv bo'lib, hatto, kemalar qatnagan ekan. Langar qishloqlari esa kemalar to'xtaydigan, aniqrog'i, langar tashlanadigan joy bo'lgan.

Fikrimizcha, Qamashi va Chiroqchi tumanlaridagi hamda qo'shni Tojikiston Respublikasidagi Langar ziyoratgohlarida qo'llanilgan Langar so'zi bir asosga ega. Qolavesa, boshqa bir dalilni ham keltirib o'tamiz.

Qur'oni Karimda nomlari ko'p zikr qilingan payg'ambarlardan biri Nuh alayhissalom bo'lib, alohida "Nuh" surasi nomi bilan ataladi. Quyida keltirilgan fikrlar bizni mushohadaga chorladi.

Vaqt-soati yetib, to'fon tinchidi. Dunyoni sukunat bosdi.

“Ey yer, suvingni yutgin, ey osmon, o‘zingni tutgin”, deyildi. Suv quridi. Farmon bajarildi va (kema) Judiy (tog‘i)ga joylashdi. Hamda “Zolim qavmlar yo‘qolsin!” deyildi” (Hud surasi 44-oyat).

Hammasi Allohning amri ila bo‘ldi.

To‘fon vaqtida o‘ziga zarracha suv singdirmagan zamin, “Ey yer, suvingni yutgin” xitobiga binoan hamma suvni yutdi.

To‘fon vaqtida tinmay jala quydirib turgan samo

“ey osmon, o‘zingni tutgin” amriga binoan o‘zini tutdi.

Undan bir tomchi ham suv tushmay qoldi.

“Suv quridi. Farmon bajarildi va (kema) Judiy(tog‘i)ga joylashdi”.

Eski tafsir kitoblarimizda Judiy tog‘i qayerda ekanligi haqida turli rivoyatlar keltirilgan. Lekin avval aytilganidek, ilmiy asosda isbot etilmaganidir.

“Judiy” tog‘i to‘g‘risida bahsli fikrlar mavjud. Fikrimizcha bu tog‘ So‘g‘d tog‘i bo‘lib hisoblanadi. Birinchi asos: “Judiy” va “Sog‘diy” so‘zlari orasidagi o‘xshashlik bo‘lib, bu hali ilmiy jihatdan tadqiq qilinmagan. Ikkinchi asos: Langar qishloqlari kemalar to‘xtaydigan, langar tashlanadigan joy sifatida e‘tirof etiladi. Uchinchi asos: olimlar o‘rtasida So‘g‘d atamasining kelib chiqishi to‘g‘risida turli bahsli fikrlar mavjud, ammo bizning fikrimizcha, So‘g‘d atamasining kelib chiqishi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Mazkur asoslarimiz mahalliy aholi rivoyatlarini haqiqatga aylantiradi.

A.Otaxo‘jayev tomonidan qayd etilishicha, Sog‘d konfederatsiyasi hududida yashagan o‘troq madaniyat vakillari mintaqada yashagan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi bilan bevosita yoki bilvosita aloqalarga kirishib kelganlar. Bevosita aloqa – mintaqada yashagan prototurk va sharqiy eroniy tilli aholi bilan xo‘jalik, madaniy aloqalarda bo‘lgan. Bilvosita – ayrim sug‘diylar faoliyati, xususan, Buyuk ipak yo‘lida joylashgan sug‘d koloniyalari orqali o‘troq va ko‘chmanchi xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yaqinlashtirishga, ularning integratsiyasiga xizmat qilgan.

Sog‘diylar ular atrofidagi aholi o‘rtasida o‘ziga xos madaniyat tashuvchi bo‘g‘in vazifasini o‘tagan. Ular egalik qilgan oromiy yozuvi asosida vujudga kelgan sog‘diy yozuv madaniyati qadimgi turkiy, uyg‘ur, mo‘g‘ul va manjur yozuvlarining shakllanishida zamin vazifasini bajarishgan. Sog‘diylar dunyo dinlari: buddaviylik, xristianlik, moniylikning Markaziy Osiyo xalqlari orasida tarqalishida faol ishtirok etgan. Buyuk ipak yo‘lida sog‘diylarning mavqeyi baland bo‘lgan.



O‘rta Osiyo savdo yo‘llari

Buyuk ipak yo‘li xaritasi

1-Xarita



Moniylarning sug‘diy tilli diniy kitobati namunasi

So‘g‘diyona – qadimgi So‘g‘d mamlakati janubidagi Baqtriya bilan shimoldagi skiflar o‘rtasida joylashgan bo‘lib, Markaziy Osiyo taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan va mintaqaning markazida joylashgan. Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari So‘g‘dionaning tub hududlarini tashkil etgan. Tarixdan ma‘lumki, Arablar bosqiniga qadar va islom dini yoyilgan davrlarda ham bu joyda yashab kelgan xalq o‘zini sug‘dlar deb atagan. So‘g‘dlar – o‘zbeklar va tojiklarning qadimiy ajdodlari hisoblanib, erksevar, yuksak madaniyat namunalari yaratganligi va boshqa xalqlar hamda insoniyat tamaddunida sezilarli iz qoldirganligi to‘g‘risida yetarli asoslarimiz bor.

Taniqli olim R.H.Suleymanovning qayd etishicha, So‘g‘d va so‘g‘diylar haqidagi ilk eslatmalar zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da uchraydi. Saltanatlar tarixidagi eng qadimiy shohlardan bo‘lmish shoh Doro bitiklarida ham So‘g‘d haqida eslab o‘tiladi.

Aleksandr Makedonskiyning So‘g‘dionadagi O‘ksus – Amudaryodan Tanais – Sirdaryogacha cho‘zilgan harbiy yurishlarini madh etgan tarixchilar So‘g‘diyona haqida ancha keng ma‘lumot berishadi.

Aleksandr Makedonskiy qo‘shinlariga qarshi so‘g‘diylar olib borgan qahramonona kurash guvohlarining yozma ma‘lumotlariga qaraganda, Yaqin Sharq Shimoliy Afrika va Eronni zabt etgan yunon shohi So‘g‘dda Spitamen boshchiligida qattiq qarshilikka duch kelgan. Qaqshatqich janrlar davom etishiga qaramasdan, kuchlar o‘rtasidagi farq ancha katta edi va bunday vaziyatlarda hamisha bo‘lib kelgani kabi sotqinlik o‘z mashum rolini o‘ynadi. Rivoyatlarning biriga ko‘ra, yo‘l va jang azoblaridan qiynalib ketgan Spitamenning xotini o‘zi va bolalarining xavfsizligini ta‘minlash uchun erining boshini olib Makedonskiyga jo‘natadi. Boshqa bir rivoyatga ko‘ra, Spitamenni sobiq ittifoqchilari – skiflar sotib qo‘yishadi. Ko‘plab tarixiy ma‘lumotlarda So‘g‘d o‘lkasi va sog‘diylar to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. Biroq o‘zbek va tojik xalqlarining bobolari hisoblangan sog‘diylarning madaniy jarayonlardagi faolligi va insoniyat tamadduniga qo‘shgan hissasi to‘g‘risida yoshlarning aksariyati xabardor emas.



1-rasm. Qadimgi So'g'd libosi, VII asr. Marvaridlar shodasi tizilgan doira ichida o'rdaklar va xoch shaklida nilufar gullari tasvirlangan. Obyektni to'liq ta'mirlashdan keyingi holati.

Bu libos (1-rasm), ya'ni bolalar choponi So'g'd tarixiy-madaniy hududiga mansub. U VII–VIII asrlarda Xitoydagi Tan sulolasi hukmronligi davrida imperator oilasining vakiliga tegishli bo'lgan. Libosning balandligi 48 sm, kengligi esa 82,5 sm bo'lgan. Ipak matodan to'qilgan So'g'd (yoki Sosoniylar) liboslari Xitoy, Tibet, Vizantiya, Eron kabi mamlakatlar va hududlardagi madaniy aloqalarni mustahkamlagan.

Kenglik elkalari bo'ylab: 84,5 sm; bo'yinning orqa tomonigacha uzunligi: 51,4 sm (1-rasm).

O'rdaklar tasviri ifodalangan choponchanning tashqi tarafi beshta ajoyib rangda Qadimgi So'g'dning qimmatbaho ipagidan to'qilgan. Choponchanning ichki tarafi Xitoyda ishlab chiqarilgan guldastali dumaloq naqshdan iborat bo'lib, bu Buyuk Ipak yo'li savdo yo'llari bo'ylab yashovchi xalqlar o'rtasida hayotiy almashinuv va madaniy o'zaro aloqalarning isbotidir.



Taxminan Tibet shahzodasi uchun tikilgan ushbu qimmatbaho chopon bu yerda namoyish etilgan eng qadimgi to'qimachilik namunasi hisoblanadi. Choponchanning asl holatini inobatga olgan holda, aytilish mumkinki, kiyim hech qachon kiyilmaganmi yoki diplomatik sovg'a sifatida ishlatilganmi, ehtimol valyuta sifatida ishlatilgandir, aniq emas (2-rasm).



IX–X asrlarda Uelsning Llan-gors shahrida O'rta Osiyo ipaklarining naqshlari ifodalangan kiyimning ikkita bo'laki topilgan: bitta qismi oq rangda tasvirlangan, ikkinchisi qayta tiklangan. To'qimachilikda saqlanib qolgan bezakning bir qismida uzumzorlar bilan o'ralgan joydagi qushlar guruhi tasvirlangan. Afsuski, to'qimachilikda asl ranglarning birortasi ham saqlanib qolmagan, chunki dizaynning yordamsiz uni ko'rish juda qiyin. U bu yerda ustma-ust oq chiziqlar bilan o'ralgan. Ko'rsatilgan matoning balandligi taxminan 9 sm, eni 7 sm (3-rasm).

Yuqoridagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkinki, So'g'd ipak matolarining xorijdagi qimmatini ancha yuqori bo'lgan. Ta'kidlash mumkinki, qadimgi So'g'diyona hududi va sug'diylarning madaniyatini chuqurroq o'rganish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Otaxo'jayev A. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari: monografiya. –Toshkent: ART-FLEX, 2010. – B. 218.
2. Suleymanov R.H. So'g'd madaniyati tarixidan lavhalar: Naxshab yoki Qarshi vohasi arxeologiyasi asosida; uslubiy qo'llanma. –Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasi, 2017. – B.60.
3. Heleanor B. Feltham, "Lions, Silks and Silver: The Influence of Sasanian Persia" Sino-Platonic Papers, 206 (August 2010). – P. 51.
4. <https://www.clevelandart.org/art/1996.2.1>
5. <https://islom.uz/maqola/4508>

MUHAMMAD YUSUF DOSTONLARIDA TOPONIMLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad Yusuf dostonlaridagi toponimlarni qo‘llanilishi, til leksikasida boshqa so‘zlar singari til qonuniyatlariga qanchalik darajada bog‘liqligi, o‘zining paydo bo‘lishi va ba‘zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma‘naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqadorligi, ma‘lum darajada boshqa guruh so‘zlaridan farq qilishi, shu bilan bir qatorda, toponimlarda milliy tilimizga xos bo‘lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko‘proq saqlanganligi, yozuvchi ulardan qaysi usullarda foydalanilganligi, asar xarakterini, mazmun-mohiyatini ochib berishida muhim ahamiyat kasb etganligi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: toponim, onomastika, toponimiya, etimologik, mikrotoponim, doston.

Гульхумор ДЖАМАЛХОДЖАЕВА,
преподаватель кафедры “Фольклора и этнографии” UzSIAC

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТОПОНИМОВ В ПОЭМАХ МУХАММАДА ЮСУФА

Аннотация. В данной статье рассматривается использование топонимов в произведениях Мухаммада Юсуфа, степень употребления которых как и другие слова в языковой лексике, зависит от законов языка, их возникновения и некоторых внутренних особенностей повседневного материального и духовного состояния общества, экономической жизни, связанные с мечтами и стремлениями, отмечается отличие их от других групп слов, а также топонимы содержат более древние фонетические, лексические и морфологические элементы, характерные для нашего национального языка, использование их автором в произведении сыграло важную роль в раскрытии сущности топонимов.

Ключевые слова: топоним, ономастика, топонимия, этимология, микротопоним, эпос.

Gulxumor DJAMALKHODJAYEVA,
Lecturer at the chair of “Folklore and Ethnography” UzSIAC

FUNCTIONAL AND SEMANTIC PROPERTIES OF TOPONYMS IN THE EPIC OF MUHAMMAD YUSUF

Abstract. This state describes the use of toponyms in the epics of Muhammad Yusuf, the degree to which, like other words in the language lexicon, depends on the laws of language, its emergence and some internal features of the daily material and spiritual condition of society, economic life, related to dreams and aspirations, differs to some extent from other group words, as well as the fact that toponyms contain more ancient phonetic, lexical and morphological elements specific to our national language, how the author used them, the nature of the work, has played an important role in revealing its essence.

Keywords: toponym, onomastics, toponymy, etymology, microtoponym, epic

Badiiy asar tilida geografik joy nomlarini o‘rganish, toponimika ilmini rivojlantirish uchun muhim bo‘lsa, yozuvchi uslubi manerasini belgilash uchun ham ahamiyatlidir.

Joy nomlari ilmiy-siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib jamiyat tarixida bo‘lib o‘tgan voqea va hodisalar joy nomlarida muhirlanib qolgan. Toponim so‘zi yunoncha “topos – joy, “onoma” – nom so‘zlaridan olingan bo‘lib joy nomi degan ma‘noni bildiradi. Toponimika – tilshunoslikning nomlarini vujudga kelishi, uning qonuniyatlari, rivojlanishi va amal qilishni o‘rganuvchi bo‘limdir. Shu bilan toponimlarda milliy tilimizga xos bo‘lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko‘proq saqlangan bo‘ladi.

Ularni o‘rganishga o‘zbek tilshunosligida

yaqindagina kirishildi. O‘zbekiston toponimiyasining turli sohalariga oid maxsus monografik ishlar, dissertatsiya va maqolalar yozildi. Biroq yozuvchi hamda shoirlarimizning badiiy asarlarida uchraydigan ko‘p sonli toponimlar, ularning ma‘nosi, qo‘llanish sababi va stilistik xususiyatlari bu kungacha o‘rganilmay kelmoqda. Badiiy asar tilidagi geografik joy nomlarini o‘rganish birinchi navbatda, toponimika ilmini rivojlantirish uchun muhim bo‘lsa, keyingi navbatda esa albatta, yozuvchi uslubini belgilab beradi. Shu o‘rinda aytish joizki, M.Yusuf asarlarini leksik tarkibining bir qismi toponimlar bilan xarakterlidir.

Adibimiz ma‘lum voqealarni dostonlarida tasvirlar ekan, hodisalar yuzaga kelgan joy, sharoit bilan o‘quvchini to‘laqonli tanishtirishga harakat qiladi.

Binobarin, "Qo'hna quduq" dostoni XX asr Buxoro tarixiga bag'ishlangan:

Meni uyg'otgan odam buyuk hofiz edi.

Mening borar joyim esa Buyuk Buxoro edi.

Buxoro mendan xafa edi... (Qo'hna quduq) [1,178]. Muhammad Yusuf Buxoroni ko'hna quduqqa qiyoslagani bir afsonani yodga soladi, Iskandarning so'zini olgan satarosh dardini hech kimga hattoki, tog'-toshlarga ham aytmasdan, quduq yoniga borib, "Iskandarning shoxi bor", – deydi afsonasini.

Haqiqatdan ham, istiqbolimiz arafasidagi Buxoro ne-ne g'am anduhlarini bag'riga ko'mgan, obidalar yanglig' nurab borayotgan va ayni damda hazin sadolar taratib, ko'kka unsiz nola qilayotgan quduqqa o'xshaydi. Shoir Buxoroga safari natijasida qalbida paydo bo'lgan titroqlarni, his-hayajonlarini ba'zan publitsistika ohangida, ba'zan oddiy so'zlashuv uslubida, goh liro-romantik gohida esa liro-dramatik tasvirlarda mujassamlashganini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi ma'lum davr voqealarini o'z satrlariga tushirar ekan, tasvirlanayotgan hodisalar joy, sharoit bilan kitobxonni to'liq tanishtirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham bu asarda Buxoroning turli xil joy nomlarini ifodalovchi so'zlar uchraydi:

Buxoro lol, Buxoro hayron,

Arki vayron, mehrobi vayron,

Labi Hovuz qirg'og'i vayron,

Ibn Sino arvohi sarson (Qo'hna quduq)

Otdim vaqt yukini yelkadan osha,

Yo'ldan surdim temir panjarasini.

Ko'zimga yosh olib qildim tomosha,

Hazrat Bahovuddin maqbarasini. (Qo'hna quduq).

Chunonchi, **Ark**, **Labi Hovuz**, **Hazrat Bahovuddin**

kabi qator toponimik nomlar tasvirning jonli va badiiy chiqishini ta'minlash uchun xizmat qilgan.

Yana yozuvchi toponimlardan foydalanilishda Buxoroni Orolga qiyoslaganini ko'rishimiz hamda Orol fojiasi oqibatlarini o'z misralarda aks ettirganiga guvoh bo'lamiz:

"Men ham **Orolman**. Buxoro ham **Orol**. Men **Orol** haqida yangi qo'shiq qildim. Uni Buxoroga bag'ishlayman, dedi hofiz. Agar **Orolni** qo'shiq bilan tiriltirib bo'lsaydi. Agar Buxoroni qo'shiq bilan asrab qolish mumkin bo'lsaydi. Hofiz joni chiqquncha qo'shiq aytgan bo'lardi! Buxoroning qo'hna quduq'idan suv ichgan hofiz... Biz barimiz **Orol** va orolchamiz. Toki bir-birimizni asrashni bilmas ekanmiz, bitta-bitta quriyveramiz." [1,193-194].

OROL dengizi – O'rta Osiyodagi eng katta berks sho'r ko'lning nomi. O'zbekiston (Qoraqalpog'iston) va Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarida sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida Orolga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv hajmi keskin kamayib ketdi. Natijada mazkur hududda ekologik muommolar yuzaga keldi. Asarda Orol nomi metaforik ma'noda qo'llanilib,

uning ma'nosi "mehruga tashna odam" birikmasi orqali ifodalangan ma'noga yaqinlashgan. Mazkur matnda Orol hosil bo'luvchi assotsiyatsiya orqali insonlar o'rtasida munosabatlarga ishora qilingan[3,78].

M.Yusuf o'z dostonlarida vatanparvarlik, millatparvarlik mavzusida yurt madhini baland pardalarda o'ta samimiy, to'lqinlanib yonib ayta oldi. Tarixiy shaxslarga, ona tiliga, vatanga, millatga mansub har bir narsaga e'tibori va ehtiromi baland badiiy saviyada ifodalay olgani "Ey dil" dostonida aks etgan. Bu yerda shoir mikrotoponimlardan mohirona foydalanganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin:

Qarang, qadim

Samarqandning

Yo'llari qon, sirg'alar

Moziydan bir

Padarkushning

Qo'llari qon, sirg'alar.

Tig' yaltirar, Ulug'bekning

Bo'g'ziga jon sirg'alar... [1,139].

SAMARQAND Samarqand viloyatidagi shahar, viloyat markaz. 1970-yilda shaharning 2500 yillik yubileyi nishonlangan. Tarixda Amir Temur saltanati poytaxti sifatida jahonga mashhur bo'lgan. Shaharning me'moriy-tarixiy yodgorliklari YUNESKO tomonidan Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Samarqand toponimi misrlarda shaharning uzoq kechmishga ega ekanligini obrazli ifodalashga xizmat qilgan [3,87].

...Ana, Tohir

Suvga cho'kdi,

Zuhro yutdi zahri qon,

Sayxundaryo,

Jayxundaryo

Oqdi bo'lib nahri qon.

Zaynablarning

Zardobidan

Kumushlarning bag'ri qon

Oftoboyim

Ruhi bo'lib,

Chirqiraydi Marg'ilon![1,141]

SAYXUNDARYO, **JAYXUNDARYO** – Sirdaryo va Amudaryo gidronimlarining arxaik shakli bo'lgan Sarxundaryo va Jayxundaryo so'zlarini qo'llash, asosan, she'riy matnlarga xos bo'lib, yuqori poetik uslubni yaratishda lingvopoetik vosita bo'lgan. O'zbek she'riyatida tinimsiz yosh to'kayotgan oshiqning ikki ko'zini, shuningdek, yorning ikki o'rim sochini Sayxun va Jayxunga o'xshatish an'nanaga aylangan. Bunda mazkur poetonimlar ham, yashirin o'xshatish ham mubolag'a san'ati yuzaga kelishida lingvopoetik vosita bo'lgan [3, 85-86].

...Tirik jonning

Dushmani bor,

Tirik jonning do'sti bor,

Toshkentda bir temirchiga

Haykal qo'yidik ustivor... [1, 143].

TOSHKENT – shahar. O'zbekiston Respublikasining poytaxti, Toshkent viloyatining markazi. O'rta Osiyo-

ning ulkan sanoat-transport chorrahasi va madaniyat markazlaridan biri. [2, 118]. Misrlarda Toshkent toponimidan M.Yusuf Ikkinchi jahon urushida 15 nafar yetimni asrab olgan temirchi Shoahmad Shomahmudov oilasining sharafiga o'rnatilgan haykalning tarixini ifodalashi uchun xizmat qilgan.

...Bilib, qachon

Darmon bo'ldim,

Bilmay qachon qildim qon,

Yurakdan bir

Qo'shiq kelar,

Yurakdan bir so'z nihon:

O'zbekiston –

Ota makon,

O'zbekiston –

Onajon!..

Ey dil, sen ayt! [1, 146]

O'ZBEKISTON – O'zbekiston Respublikasi. Shoir yuqoridagi doston misralarida O'zbekiston nomini murojaat birligi sifatida qo'llab, lingvopoetik vosita hosil qilgan. Mazkur toponimdan lirik qahramon ona yurtiga o'zining eng yaqin, ya'ni o'tanasiga so'zlagani kabi O'zbekiston – ota makon, O'zbekiston – onajon, deb murojaat qilishi asardagi samimiyatni yuzaga keltirishda, vatanga bo'lgan chuqur muhabbat tuyg'ularini ifodalashda lingvopoetik vosita bo'lib kelgan [3, 115]. Adib asarlarida ba'zi

toponimlar talaffuzini eski o'zbek tili talaffuzi va orfografiyasidagidek beradi:

...Yer aylanar ko'ksiga

Sig'may jarohatlari,

Ayting, menga nima ayb,

Dunyo qoraxatlari?...

Ey, **Maskov** soldatlari,

Ey, **Brest** soldatlari,

Temirni ham yig'latgan

Insonlarning mardlari!

(Temir nidosi) [1, 198]

Har bir joy nomi orqali ma'lum bir xalqning tarixi, urf-odati, madaniyati aks etgan bo'ladi, shu jumladan, M.Yusuf dostonlarida qo'llanilgan joy nomlarida ham yuqorida ta'kidlangan barcha xususiyatlar o'z aksini topgan. Tasvirda ketirilgan toponimlarni yozuvchi asarda izohlab berishga harakat qilgan. Bunday real toponimik nomlar tasvirning jonli va badiiy chiqishini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Ba'zan yozuvchi turli harakat va voqea-hodisalar bo'lib o'tgan joy nomlarini xalq tilida qanday atalishi haqida ham ma'lumot berib o'tadi.

Shunday qilib, toponimik leksikasi M.Yusuf asarlarida o'z mazmun boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi asarlardagi toponimlar badiiy tasvirning real chiqishi, davr koloritini berish uchun xizmat qilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusuf M. Xalq bo'l elim: she'rlar. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 204.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. J. 1. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. –B.520
3. Xudoyberganova D., Andaniyazova D. O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. –B.458.



IV BO' LIM

**PEDAGOGIKA,
PSIXOLOGIYA**

MADANIYAT VA DEMOKRATIYA

Annotatsiya. Maqolada demokratiya sharoitida madaniyat va madaniyat muassalarining rivojlanish xususiyatlari haqida soʻz yuritiladi. Madaniyat va demokratiya dialektik tarzda bir-biriga bogʻliq. Xalq madaniyati va ijodi, uning madaniyat infratuzilmasini shakllantirishdagi ishtiroki masalalari dolzarb ilmiy va ijtimoiy amaliy muammoga aylangan.

Kalit soʻzlar: madaniyat, ijod, demokratiya, madaniyat infra tuzilmasi, menejer, bozor iqtisodiyoti, oʻzini-oʻzi mablagʻ bilan taʼminlash, madaniy markazlar, kommertsiya, davlat.

Виктор АЛИМАСОВ,
доктор философских наук, профессор

КУЛЬТУРА И ДЕМОКРАТИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются особенности развития культуры и культурных институтов в условиях демократии. Культура и демократия диалектически взаимосвязаны. Вопросы народной культуры и народного творчества, участия народа в формировании инфраструктуры культуры стали актуальной научной и социальной проблемой.

Ключевые слова: культура, творчество, демократия, культурная инфраструктура, менеджер, рынок, экономика, самодостаточность, культурные центры, коммерция, государство.

Victor ALIMASOV,
Doctor of Philosophy, Professor

CULTURE AND DEMOCRACY

Abstract. The article examines the features of the development of culture and cultural institutions in a democracy. We dialectically linked culture and democracy. The issues of culture and creativity, its participation in the formation of the cultural infrastructure have become an urgent scientific and social problem.

Keywords: Culture, creativity, democracy, cultural infrastructure, manager, market, economy, self-sufficiency, cultural centers, commerce, state.

Olimlarning taʼkidlashicha, “madaniyat” tushunchasining ilm-fanda kengroq eʼtirof etiladigan 500dan ziyod taʼrifi mavjud (1, S.14). Umumfalsafiy nuqtai nazardan qaraganda, madaniyat – insonning oʻzi, inson, xalq yaratgan sunʼiy borliq, moddiy va maʼnaviy boyliklar, artefaktlar jamuljamidir (2. S.115). Madaniyat bormagan, taalluqli boʻlmagan soha, faoliyat turi yoʻq (3. S.23-26). Siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat, iqtisodiy madaniyat, mehnat madaniyati, axloqiy madaniyat, oilaviy munosabatlar madaniyati, etnomadaniyat... Ijtimoiy hayotning qaysi tomonini olmag, madaniyatning universal voqelik sifatida kelishini kuzatasiz. Bizda esa oʻtgan oʻn yilliklarda asosiy urgʻu maʼnaviyatga berildi, moddiy boyliklarni madaniyatga kiritish dahriylarning materialistik yondashuvi, degan qarash shakllandi. Maʼnaviyatni esa “ilohiy nur” atab, ilm-fanga, madaniyatni talqin qilishga diniy yondashuvlarni olib kirganlar ham boʻldi. Yaxshiyamki davr, ijtimoiy hayot bu yondashuvning tor, hatto nooʻrin ekanini koʻrsatdi, jamiyatning taraqqiyoti ilm-fanga, intellektual izlanishlarga, ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlar va pragmatizmga bogʻliqligi endi aksiomadir.

Madaniyatning fundamental qonunlari mavjud. Ularga: 1) madaniyatni inson, xalq yaratadi, moddiy va maʼnaviy boyliklar, artefaktlar ular faoliyatining, ijodiy izlanishlarining mahsuli. 2) madaniyat ham oʻz navbatida, insonni, xalqni “yaratadi”, yaʼni ularning ijtimoiy-maʼnaviy, intellektual, ilmiy va texnikaviy takomiliga xizmat qiladi. 3) madaniyat ochiq, demokratik institut, tizim, shu bois u turli qarashlar, guruhviy manfaatlar va hattoki, destruktiv kuchlar bilan ham muloqot vositasi boʻla oladi. 4) madaniyat mohiyatan ijobiy voqelik, u oʻzida gumanistik va kreativ anʼanalarni mujassamlashtirgani uchun qadri, eʼzozlanadi. 5) insoniyat ulugʻlaydigan falsafiy meros, gʻoyaviy ideallar va taraqqiyot modellari, demokratik qadriyatlar madaniyat qoʻynida tugʻilgan, sayqal topgan va shakllangan, degan ilmiy-tafakkuriy xulosalar kiradi. Xullas, insonlarning, xalqlarning

qanday siyosiy, axloqiy ideallar bilan yashayotgani, jamiyat, sotsium taraqqiyotining darajasi madaniyatda aks etadi. “Madaniyat bizning ekzistensial borligʻimiz, – degan rus faylasufi N.A.Berdyayev. – Biz unga qanday xizmat qilsak, u ham bizga aynan shunday xizmat qiladi, tarbiyalaydi va ruhiyatimizni shakllantiradi” (4, S.328).

Madaniyatning rivojlanishi xalqning, sotsiumning qiziqishi, ehtiyoji va ijodiy faolligi natijasi boʻlganida kutilgan natijalar beradi. Madaniyatning umummilliy va umuminsoniy voqelik ekanligi uning xalqlar, sotsiumlar tomonidan qoʻllab-quvvatlangani va eʼzozlanganidir. “Madaniyat va sanʼat xalqnikidir”, iborasi ham bejizga aytilmagan. Ming afsuski, biz bu ibora tagidagi mohiyatni unutib qoʻymoqdamiz. Qaysi bir madaniyat xodimi bilan suhbatlashmaylik, davlat, vazirlik uni qilib bermayapti, binolarimiz tashlandiq holga kelib qolgan, liboslar, jihozlar va kadrlar yetishmaydi, maoshimiz juda kam, degan arzlarni eshitamiz. Nimagadir mutaxassislarimiz ongida hamma narsani davlat qilib, qurib, yaratib berishi kerak, degan fikr shakllangan. AQShda mamlakatimizdagi kabi davlat qaramogʻidagi Madaniyat markazlari, Maʼnaviyat saroylari, ommaviy kutubxonalar, muzeylar, madaniyat va istirohat bogʻlari yoʻq. Bu esa AQShda madaniyat muassasalari, oʻchoqlari yoʻq ekan, degan fikrga olib kelmasin. U yerda har bir aholi istiqomat joylarida, dam olish zonalarini, hatto har bir uy oldida yoki bekatda madaniy va maishiy xizmatlar koʻrsatishga shay turgan servis maskanlarini koʻrasiz. Usbu mussasalar davlat byudjetidan mablagʻ talab qilmaydi, ularni aholining oʻzi tashkil etadi, quradi, boshqaradi. Atigi 5 foizga yaqin madaniyat muassasalari, unda ham prezident kutubxonasi, yirik davlat muzeylari, Kongress koʻrgazma zali byudjetdan mablagʻ oladi. Qolgan 95 foiz madaniyat oʻchoqlari aholiga xizmat koʻrsatib, oʻzini-oʻzi mablagʻ bilan taʼminlaydi. Fransiya, Germaniya, Avstriya kabi davlatlardagi madaniyat muassalarining 75-80 foizi oʻzini-

o'zi mablag' bilan ta'minlash, kommersiya asosida faoliyat yuritadi. Xitoyda hatto to'qqiz qavatli Madaniyat uylari va saroylari mavjud, ulardagi 150-200 uyushmalar, firmalar, kichik korxonalar va maishiy xizmat ko'rsatish o'choqlarini atigi uch to'rt menejer va bir hisobchi boshqaradi. Bizda esa barcha madaniyat maskanlari davlat in'omini kutib yashaydi. Shunday madaniyat maskanlarimiz borki, oylab, yillab deyarli hech bir vazifani bajarmaydi. Ammo bu yerda ishlayotgan xodimlar maosh pastligidan noliydi. Masalan, Qibray madaniyat bo'limi va Madaniyat markazini olaylik. Ko'rinishi nochor, yon-atrofi qarovsiz, biror kishi tashrif buyurmeydigan bu binoda nima bilan shug'ullanishadi o'zi, degan savol xayolingizdan kechadi. Tumandagi yoshlarning 60-70 foizi ishsiz, oilaviy ajralishlar, nizolar oshib-toshib yotibdi, duch kelgan ariqda pivo, spirtli ichimliklar idishlarini ko'rib, ko'nglingiz hijil bo'ladi, ko'pqavatli xonadonlarning atrofi shox-shabbalarga, chiqindilarga to'la. Axir madaniyat xodimi axloqiy, ekologik tarbiya, yoshlar muammosi bilan shug'ullanishga da'vat etilmaganmi? Ular ijtimoiy funksiyalariga ko'ra ushbu muammolarga tegishli tashkilot va idoralarga fuqarolar yig'inlari va keng jamoatchilik diqqatini qaratishi kerak emasmi? Hayratli tomoni shundaki, bu Madaniyat uyi mutaxassislariga auditoriya izlash shart emas, yonidagi "Boli Hovuz" kafesiga har kuni iste'molchilar keladi, goho unda bo'sh o'rinlar topilmaydi. Nima uchun madaniyat xodimlari ushbu auditoriyaga xizmat ko'rsatib, o'ziga qo'shimcha daromad ishlab topmaydi? Bunaqa misollarni har bir tumandan, qishloqdan keltirish mumkin. Qarang, diniy muassasalar aholi ko'p joylarga ehson qutilari o'rnatib, yangi masjidlar qurishga mablag' topayapti, kishilarni Alloh yo'lida ehson qilishga undayapti. Nima uchun madaniyat bo'limlari shunday aksiyani uyushtirmaydi?

O'z-o'zidan savol uyg'onadi: ishlaymaydigan, nomigagina kelib-ketib, elga, kishilarga biror xizmat ko'rsatmaydigan, umuman, hududi hayoti va muammolari bilan qiziqmaydigan madaniyat o'choqlari nimaga kerak? Nima uchun ular bozor iqtisodiyoti, marketing talablariga muvofiq o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashga o'tkazilmayapti? Nega ularni davlatga qo'l cho'zib yashashdek, boqimandalikdan xalos qilgimiz kelmayapti? Axir, yuqorida aytganimizdek, ilg'or davlatlarda ular o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlovchi kommersiya maskanlari-ku? Agar ular tomonidan aholiga, kishilarga kerakli madaniy xizmatlar ko'rsatilsa, iqtidori va mehnatiga yarasha mablag'ini topadi. O'zbek xalqi madaniyatni, san'atni sevadi, qobiliyatli xodimlarni munosib taqdirlashda ziqnalik qilmaydi.

Ammo madaniyat infrastrukturasi, boshqarish tizimi, mutaxassislar tayyorlash ham ana shu iste'molchilarning buyurtmalariga muvofiq shakllantirilishi lozim. Bu vazifani bajarishda aholi, madaniy xizmatlardan manfaatdor kishilar, korxonalar, uyushmalar qatnashishi shart. Davlat ixtiyorida faqat milliy ahamiyatga ega bo'lgan, masalan, O'zbekiston davlat san'at muzeyi, O'zbek milliy akademik drama teatri kabi yirik maskanlar qolishi, qolgan muassasalar o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashga o'tkazilishi o'rinlidir. Axir "Ilhom" yoshlar teatri qirq yildan buyon xo'jalik hisobida, muvaffaqiyatli ishlab kelayapti-ku? Chet tillariga, fan asoslariga va kompyuter texnologiyasiga o'rgatadigan kurslar ham bozor iqtisodiyoti qoidalariga muvofiq faoliyat yuritaydiku? Ana shunda madaniyat, haqiqatan ham, xalqniki, aholiga madaniy xizmatlar ko'rsatish maskani bo'ladi. Xalqaro tajribalar meni shunday xulosa chiqarishga undamoqda.

Yana bir taklifimiz shundaki, madaniyat markazlarini sohaga xizmat qilishga shay kishilarga, uyushmalarga ijaraga berish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish orqali davlatning qo'llab-

quvvatlashini amalga oshirish mumkin. Aholiga, kishilarga qanday madaniy xizmatlar ko'rsatishni ularning o'zlari hal qilsin. Demokratiya qo'ldan ushlab yetaklashni emas, mustaqil ishlash, izlanish va iqtidoriga muvofiq taqdirlashni anglatadi. Bu iqtidorni kishilar, aholi baholaydi. Agar xizmat turlari ularga ma'qul kelsa haq to'laydi, maskanni ta'mirlash, yangi binolar qurish, kadrlarni jalb etish, yangi tadbirlar uyushtirishga mablag' ajratadi.

Madaniyat sohasini rivojlantirishda davlatning o'rmini inkor qilib bo'lmaydi. Masalan, xalqaro miqyosdagi festivallar, ko'rik-tanlovlar tashkil etishni ayrim madaniyat maskanlari bajarolmaydi. Davlat shunday yirik dasturlarni bundan keyin ham qo'llab-quvvatlashi kerak. Ammo uning joylardagi madaniyat markazlari, istirohat bog'lari, ommaviy kutubxonalar, muzeylar tizimini markazlashgan boshqarishdan voz kechgani ma'qul. Xalq tashabbusiga, ijodkorligiga va yaratuvchanligiga ishonmay madaniyatni direktiv ko'rsatmalar bilan rivojlantirish mushkul.

Madaniyat xodimlari tayyorlashni ham optimallashtirish dardkor. AQSH va Xitoyda madaniyat menejerlari uzog'i bilan olti oylik kurslarda, unda ham kommersiya, muassasalar buyurtmalari asosida tayyorlanadi. Oliy ta'limimizdagi fanlar va mavzularning takrorlanishi mana qayerdan kelib chiqmoqda.

Vahti-vaqti bilan bir kunimni kitob do'konlariga borishga sarflaydigan odatim bor, chunki yangi chop etilgan kitoblardan xabardor bo'lish va ularni varaqlashning o'z zavqi bor. O'tgan yili Markaziy univernag yonidagi "Knijniy mir" do'koniga kirgandim. Madaniyat va san'at marketingi bo'yicha o'quv qo'llanma kerak edi. Do'kon xodimi bunday qo'llanma yo'qligi uchun mashhur yapon-amerikalik tadbirkor Robert Kiyosakining o'zbek tiliga o'girilgan "Boy ota, kambag'al ota" jahon bestsellerini tavsiya etdi. "O'qib ko'ring, agar yoqmasa obib keling, pulingizni qaytib beramiz", dedi u. "Biznes", "menejment", "boy bo'lish", "pul ishlash", "broker", "makler" kabi so'zlar, ochig'ini aytsam, g'ashimga tegadi, ular menga g'irromona yo'llar bilan boylik orttirishni ko'zlovchi burjuylar makrlari sifatida ko'rinadi. Uyg'a qaytayotib, avtobusda kitobni varaqlay boshladim. "Mening ikki otam bo'lgan, – boy va kambag'al, – deb yozadi R.Kiyosaki. – Biri juda o'qimishli, ilmiy unvonlarga ega aqlli inson edi. U to'rt yillik bakalavr kursini ikki yilda tamomlagan, so'ngra Stenford, Chikago va Shimoliy-G'arbiy universitetlarda tahsil olgan, ilmiy ishlar qilgan. Ikkinchisi hatto sakkizinchi sinfni ham tamomlamagan. Ikkisi ham karyera borasida cho'qqilarga erishgan va butun umr mehnat qilishgan. Ikkisi ham ko'p pul topgan. Biroq biri doim moliyaviy qiyinchiliklar bilan kurashgan, ikkinchisi esa Gavay orollarida eng badavlat kishiga aylangan. Biri oilasiga o'n million dollar meros qoldirgan bo'lsa, ikkinchisidan faqat qarz qolgan". Gapga qarang, boy otadan o'n million dollar, o'qimishli, ilmiy unvonli otadan hech vaqo qolmagan emish?! Burjuylardan boshqa nima to'g'risida yozardi, degan o'y bilan kitobni otib yubordim. Chunki meni "yuksak materiya", ya'ni ma'naviyat, gumanizm, fidoyilik, ma'rifat tarqatish ruhida tarbiyalashgan edi-da! Pul orttirish haqida o'ylash yot qarashni o'zlashtirish, mehnat ahli, omma manfaatlariga sotqinlik edi, go'yo. Bir talabamning darsda, domla, siz eski targ'ibot usullarini zamonaviy marketing talablariga sun'iy tadbir etayotgandaysiz, degan savoli meni marketing mohiyatini jiddiroq bilishga undadi. Marketing mohiyatini, bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq pul ishlab topish tashkil etishini anglagach, R.Kiyosaki kitobi esimga tushdi. Uni yoqar-yoqmas o'qiy boshladim. "Afsuski, – deb yozadi tadbirkor. – Maktab bolalarga pul haqida bilim bermaydi. O'qituvchilar ilmiy va kasbiy bilimlarni berishadi, biroq moliyaviy emas."

Mulohazaga berildim. Biz bozor iqtisodiyoti, xo'jalik hisobi, o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash haqida gapiramiz, iqtisodiy demokratiya tilimizdan tushmaydi, "o'zbek modeli"ni taraqqiyotning yagona to'g'ri yo'li deb maqtandik, ammo kishilarimiz, hatto oliy ma'lumotli mutaxassislarimiz ham moliyaviy savodsiz. Qashshoqlik to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Chunki bizni ishlab pul topishga o'rgatishgan, shuning uchun biz ko'p ishlasak, ko'p pul topamiz, deb o'ylaymiz. Ming afsuski, hayotda, o'z mehnati bilan boy-badavlat bo'lgan kishi deyarli uchramaydi. R.Kiyosaki konsepsiyasiga ko'ra, pul uchun ishlagan birov uchun ishlagan, boshqa uchun ishlagan hech qachon boy-badavlat bo'lolmaydi. Pulni o'ziga xizmat qildirolgan, ya'ni daromad keltiradigan aktivga aylantirish usullarini bilgan boy-badavlat bo'lishi mumkin. Pul ham xuddi odam kabi, mehnat qilishi, iqtisod tili bilan aytganda, daromad keltirishi kerak. Mazkur konsepsiya borasida men ko'p o'yladim, axir ishlamasdan qanday qilib daromad, ayniqsa, millionlab dollar topish mumkin? Qanday qilib pulni xizmat qilishga, daromad keltirishga majbur etish mumkin? Tasavvurimga sig'irolmay, kitobni yopib qo'ydim.

Kitob ustidagi "Jahon bestselleri" degan yozuv goho yodimga tushib turdi. Bestseller so'zi millionlab nusxalarda chop etiladigan, eng ko'p o'qiladigan, eng ko'p sotiladigan kitob, degan ma'noni anglatadi. Agar R.Kiyosaki va boshqa bestsellerlar eng ko'p o'qilayotgan bo'lsa, ularda nimadir bordir axir, degan o'y bilan kitobni, bir necha kun o'tgach, qayta qo'limga oldim: "Pul – bu kuchning bir ko'rinishi. Biroq moliyaviy ta'lim yanada kuchliroq. Pullar keladi va ketadi, biroq ularni boshqarishni o'rganib olsangiz, siz badavlat bo'lasiz". Fikrlay boshladim: biz davlatimiz boy, badavlat bo'lsin, degan aqida bilan yashaymiz. Nazarimizda davlat boy, badavlat bo'lsa, u barqaror turadi, fuqarolari ham badavlat yashaydi. Ammo Qadimgi Rim eng badavlat imperiya edi. SSSR ham eng qudratli davlat edi, bo'lmasa, nega ularning, shu jumladan, fuqarolarining ham taqdiri ayanchli tugadi? Demak, davlatning boyligi, qudratligi uning barqarorligini ham, fuqarolari badavlat yashashining ham kafolati bo'lolmaydi. Bestseller muallifi esa fuqarolarning kuchliroq, badavlat bo'lishi haqida fikr yuritayapti. Buning kafolati, uning fikricha, kishilarning moliyaviy savodxonligida.

Bizda moliyaviy savodxonlik yetarlimi? Avvalo, tadbirkorlarimiz, ishbilarmonlarimiz, xususiy mulk egalari va savdosiqlik bilan shug'ullanuvchi brokerlar, dilerlar, maklerlar, davlat xizmatchilarimiz moliyaviy savodxon bo'lishi kerak emasmi? Umuman, bozor iqtisodiyoti sharoitida, barcha munosabatlar oldi-sottiga qurilgan hozirgi davrda har bir kishidan moliyaviy savodxon bo'lish talab etilmaydimi? To'g'ri, R.Kiyosaki moliyaviy savodxonlikning bir tomoniga urg'u beradi, ya'ni "puldani pul tug'dirish"ga. Bozor iqtisodiyoti va kapital hukmron davlatlarda bu uyat sanalmaydi. O'zimizda ham qo'chmas mulk, avtotexnika, ulgurji savdo, import va eksport bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, firmalar yetarlicha topiladi. Ular pul tikib foyda, daromad ko'radilar. Agar ular samarali ishlayotgan, daromad orttirayotgan bo'lsa, ularning moliyaviy bilimlari ommanikidan yuqoriroq. Bu borada men hamkasblarimga, menejment va marketing bo'yicha dars beradigan o'qituvchilarga og'iz ochdim, lekin pul ishlash, daromad orttirish texnologiyasidan ularning ham xabardor ekanini sezmadim. Ular marketingni xizmat ko'rsatish, xizmatga yarasha haq olish tarzida tushunadilar. Kitob muallifi esa puldan pul, daromad topish xususida so'z yuritadi, bu moliyaviy savodxonlikning biz uchun mutlaq yangi, sirli tomonidir.

R.Kiyosaki pul, millionlab dollar ishlash yo'llari borligini yashirmaydi. Buning uchun pulning daromad keltirish

yo'larini kashf etish hayotiy maqsad bo'lishi zarur. Puldor, moliyaviy bilimli odamlar mablag'larini aktivlarga, kambag'al va o'rta hollar, moliyaviy bilimsizliklari tufayli passivlarga sarflaydilar. Aktivlar pul, daromad keltiradi, passivlar pulni, daromadni yeydi. Moliyaviy bilimli odamlar avval aktivlar (aksiyalar, daromad keltiradigan va yuqori narxda sotib olinadigan narsalarni xarid qilish, talab katta narsalarga investitsiya kiritish) sotib oladilar, keyin esa ushbu aktivlar keltirgan mablag'lardan ijtimoiy to'lovlarni amalga oshiradi va ko'nglidagidek yashaydilar. Ularning aksi esa topgan mablag'larini (ular asosan mulk egalari ajratadigan maoshlar bo'ladi) passiv (kreditlar, ijtimoiy to'lovlar, kiyim-kechak, mashina sotib olish kabilar)ga yo'naltiradi. Shu bilan ular kelgusi maoshni kutib, kredit va qarzlarini to'lab, tag'in kreditlar va qarzlar olib yashashga majbur. Mana, moliyaviy savodxon bilan moliyaviy savodsiz o'rtasidagi farq. Boy-badavlatlik siri aktivlarga ega bo'lishda. Bu moliyaviy savodxonlikning negizi va ifodasidir.

Dunyoda mulk egasiga ishlash keng tarqalgan. Ishchi-xizmatchilar oladigan maoshni, mulk egasi belgilaydi. Mehnat kodeksi har oyda maosh olishni kafolatlasada, u qancha olishni, ayniqsa, ehtiyojga muvofiq olishni kafolatlamaydi. Maoshga qarab yashash kishini mulk egasiga qaram qilib qo'yadi. Ishchi-xizmatchilar orasida o'z iqtidorini, tashabbusini va aqlu zakovatini umumiy ishga sarflashga tayyor shaxslar mudom topiladi, ammo ularning bu sa'y-harakatlari ko'pi bilan yarim maosh atrofida taqdirlanishi mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, "dunyoda ko'plab iste'dodli odamlar nochor yashaydilar. Ular iste'dodli yoki bilimli bo'lganliklari uchun emas, balki nimadir haqida bilmaganliklari uchun kambag'al. Bular gamburger tayyorlashning yangi usullarini ixtiro qiladilar, biroq uni qanday sotaman, deb o'ylab ko'rmaydilar. MakDonals eng zo'r gamburgerni qila olmas, biroq u qanday sotishni va qanday yetkazib berishni yaxshi biladi". Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovation g'oyalari va ishlanmalar tez amaliyotga tadbiriq etilishi bilan qimmatli. Ularni amaliyotga mulk egasiga ishlovchi texnokratlar yoki investor-ishbilarmonlar joriy etadi. G'oyalari va ishlanmalarni sotish ham san'at. Bu san'atdan bexabar yoki uni egallashni istamaydigan ixtirochilar nochor ahvolda yashayveradilar. Shuning uchun R.Kiyosaki xususiy tadbirkorlik, ya'ni biznes bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Bunday ko'nikma uning o'zida ham bo'lmagan, ammo u umr bo'yi biznesga, moliyaviy savodga o'rgangan. Buni har bir kishi qilishi mumkin, ammo undan: 1) pul oqimini boshqarish; 2) tizimlarni boshqarish; 3) odamlarni boshqarish ko'nikmasi talab etiladi.

Pulning sizga xizmat qilishi, istaganingizdek daromad keltirishi uchun uning oqimini, keldi-ketdi sirlarini bilishingiz zarur. Mablag' qayerdan keladi? qancha keladi va nimalarga sarflaganda daromad keltiradi? aktivga aylanadi? degan savol moliyaviy savodxon o'yidan ketmaydi. Uning butun diqqati pulni aktivga aylantirib, daromad topishda. Aktiv shunchaki mulk emas, u daromad keltiradigan, pulga pul qo'shadigan manba. Aktiv shuning uchun aktivki, u pulni, savdo-sotiq, investitsiya, ixtirolar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali, harakatga keltiradi. Moliyaviy savodxon qo'lida pul o'zini ham o'zgalarni ham ishlatish quroli, u pullarining daromad topishidan, harakatidan quvonadi, moliyaviy savodsiz esa uni yig'ishga intiladi. U yiqqanini yo'qotishdan, tavakkal va bankrot bo'lishdan qo'rqadi. Hayotda, ayniqsa, biznesda tavakkal qilmay betakror narsalar yaratish, kashfiyot qilish mushkul, hayotiy maqsad qanchalik ulug'vor va yirik bo'lsa, tavakkal ham shunga muvofiq bo'lmog'i zarur. Hayot biznes kutilmagan hodisalarga, tasodiflarga to'laligi bilan maftunkor, yirik maqsadlarga ega kishilar bu tasodiflarga duch keladi,

ularni o'z istaklariga imtisol etish texnologiyasini yaratadi. Noodatiy qarorlar qabul qilish ularni yirik tashkilotchi va moliyaviy savodxonga aylantiradi. Ularga pul hashamatli uylarda yashash, qimmatbaho mashinalar minish, dabdabali to'ylar, yubileyar o'tkazish, mulk to'plash uchungina emas, balki avvalo, kishilarni, g'oyalarni, iqtidorlarni harakatga keltirish kuchiga ega bo'lgani uchun kerak. Tadbirkor yashirmaydi, bunday investitsiya unga daromad keltirishi bilan qiziqarli, biroq bu tartibni, hayot tarzini u emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yaratgan...

Tizimlarni boshqarishga tadbirkor avvalo, o'z-o'zini boshqarishni kiritadi. Inson serhis mavjudot, u o'z ehtirolari va qiziqishlaridan uzoq ketolmaydi. Uni goh mehr goh qahr, goh quvonch goh o'kinch, goh dadillik g'oh sustkashlik chulg'ab oladi. Ushbu xislatlarning qay biri unga o'z hukmini o'tkazishini goho topish qiyin. Boy-badavlat kishi o'z instinktlarini idora qilib, ularni mudom hayotiy maqsadiga yo'naltirib turadi. Masalan, u pul tikishda oniy his-tuyg'ulari yoki kimningdir e'tirofini qozonish o'yidan emas, balki real voqelikka ijobiy, kreativ ta'sir maqsadidan kelib chiqadi. Agar tikilgan pul daromad keltirmasa, demak, boshqa kimdir mavjud imkoniyatdan o'ziga daromad topish uchun foydalanayapti. Shunday ekan, tadbirkor turli his-tuyg'ulariga, sentimentalizmga berilmasligi lozim. Bu o'rinda u qattiqqo'llik bilan ish faoliyatini olib borishi joiz. Moliyaviy jarayonlar his-tuyg'ular bilan emas, balki aniq raqamlar va hisob kitoblar orqali boshqariladi.

R.Kiyosaki odamlarni boshqarishga "men suyagingacha pul nima ekanligini bilaman va uni o'zimga xizmat qildir olaman", degan hayotiy prinsipidan kelib chiqib yondashadi. Odamlar, ayniqsa, demokratik qadriyatlar qaror topgan jamiyatda, pul yoki pullari orqali boshqariladi. Bunday jamiyatda kishilar ma'lum bir jamg'armalariga ega bo'ladi, ammo bu jamg'armalar ko'pincha passivdir, ya'ni jamg'arma egalari pullarini yo sandiqlarida saqlashadi yoki banklarga qo'yib, ular beradigan arzimasa foizlar bilan cheklanadilar. Banklarning o'zlari esa mijozlari pullaridan behad katta daromad orttiradilar. Buni moliyaviy savodsiz kishi bilmaydi. U nima uchun men ham banklar egalaridek pullarimdan katta daromad ko'rmasligim kerak, degan savolni o'ziga bermaydi. Masalan, bizda bank tizimi shunday qurilganki, u bir tomondan, davlatdan mablag' undiradi, ikkinchi tomondan esa mijozlaridan. Juda hayratli hol?! Davlatdan mablag' undiradigan bank hech qachon mijozlarining manfaatlari bilan qiziqmaydi, ularga xizmat qilishni asosiy faoliyatiga aylantirmaydi. Demak, pullarni banklarga qo'yish mijozlarni emas, balki bank egalarini boyitadi. Moliyaviy savodxon kishi bundan zarur xulosa chiqara oladi. R.Kiyosaki bunday puli bor odamlarni o'zining aktivlari manbaiga aylantirish san'atini kashf etadi. Sir emaski, pulini jalb qilgan zahotingiz kishilar sizni amringizni kutib yashaydi, aytganingizni qiladi, shartlaringizga ko'nadi, zarur bo'lsa, sizni bankrotdan himoya qilish uchun yana pullar tikadi, chunki ular pulini yo'qotishdan qo'rqadi. Kishida pulini, ayniqsa, katta jamg'armalarini yo'qotish instinkti hayotini yo'qotish instinktiga tengdir.

Qo'rquv barchaga xos xislat. Biznesda, tabirkorlikda u tavakkalni bug'adi. "Qo'rquv odamni qolipga solib qo'yadi va odam kambag'allik, nochorlik o'rasidan chiqolmay, aylanib yuraveradi". Ko'pincha, kishi pulidan ajrab qolish-

dan qo'rqadi, u bankrot bo'lganining yoki investitsiya o'zini oqlamasligining boisini o'rganib o'tirmaydi, kelgan daromadni hisob-kitob qilish bilan cheklanadi. Aslida, muvaffaqiyatsizlik kelgusi muvaffaqiyat boshi. Biznesda kishi sanoqli kunda millioner bo'lishi ham, sanoqli kunda yo'qsilga aylanishi ham mumkin. Muvaffaqiyatsizlik tushkunlik manbai emas, u hayot sabog'idir. Moliyaviy savodxon buni tabiiy hol sifatida qabul qiladi, u o'z imkoniyatini qayta sinab ko'rishdan, investitsiya kiritishdan qo'rqmaydi. Investitsiya, bevosita investorga daromad keltirmasa-da, u kiritilgan sohaga yoki boshqa birovga foyda keltirishi aniq. Buning o'zi mohiyatga ega. To'g'ri, yirik pul yutishni istagan jiddiy tavakkal qilishga majbur, agar kishida moliyaviy savod yetarli bo'lmasa, uning bank mijoz bo'lgani ma'qul. Har holda bank unga devident beradi-da. Pulni passiv holda saqlashdan ko'ra, uni bank orqali aktivga aylantirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti uchun ham foydali. Ayniqsa, madaniyat va san'at sohasiga investitsiya, pul tikish kishiga sharaf, obro' keltiradi, intellektual taraqqiyotga yordamlashadi. Pulning o'zining ishlashi sirlarini o'rganish, moliyaviy texnologiyasini kashf etish maroqli mashg'ulot. "Ko'pchilik pul yo'qotishdan shunchalik qo'rqadilarki, uni qanday yo'qotib qo'rganliklarini bilmay qoladilar. Ular hech qachon xavfga bormaydilar, ular hech qachon qo'rquvga qarshi bormaydilar. Ular katta uylar va mashinalar olishlari mumkin, biroq katta investitsiyalar qilishmaydi. 90 foiz amerikaliklarning moliyaviy tang ahvolda yashashlariga shu sababki, ular hech nima yo'qotmasliklari kafolatlangan yo'lnigina tanlaydilar. Ular g'oliblarday harakat qilmaydilar". Aynan shuning uchun ham pul topish, uning sizga ishlashi moliyaviy sirlarini o'rganish serzavq san'at!" Siz pulga emas, aksincha, pul sizga ishlashi kerak" degan formulaning falsafiy mohiyati shunda.

Kitobni yakunlayapmanu nega men umrimni, hayotimni puldor bo'lishga sarflashim kerak, puli ko'pning tashvishi ko'pligini bilaman-ku, degan eski tasavvur xayolimda uyg'ondi. Keyin angladimki, men mulkiy va intellektual raqobatlariga qurilgan dunyoda yashayapman. Buni bilmaslik, pulni pul topishga ishlatolmaslik meni puldorlarga mute qiladi. Men moliyaviy savodsizligim va aqliy tanballigim bois "boriga shukur" qilib yashashga majburman. Yo'q, men o'zgarayotgan dunyoni, hatto unda pul topish bosh qadriyatga aylanayotgan bo'lsada, insonparvar, oliyjanob, mehrlil qilish niyatini bir on ham unutilmayman. "Boriga shukur" emas, yo'qini bor qilib, keragini yaratib yashash hayot tarzini bo'lmog'i kerak. Pul topish, millionlab dollar ishlash aqlu idrokimiz va moliyaviy savodxonligimizning bir kurtagi xolos, bu kurtak insoniyat, el-yurt taraqqiyotiga yo'naltirilganida navqiron daraxtga aylanadi. Moliyaviy bilimlarimiz tufayli raqobatlaridan aktiv yaratsak (bilaman, jamiyatning barcha a'zolari ham bunday qilolmaydi, ammo unga qodir kishilar ko'pligiga shubham yo'q), topgan pulimiz, daromadimiz kuch bo'lib bizga xizmat qilsa, biz ezgu g'oyalarimizni tezroq amalga oshirish imkoniga ega bo'lamiz. Ularni ilm-fan, madaniyat va san'at, ta'lim-tarbiyaga sarflasak, yangi texnik ishlanmalarga, iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion loyihalarga yo'naltirsak, ham insoniylik, ham fuqarolik burchimizni bajaramiz. Pulni ishlashga majbur etishning moliyaviy texnologiyasini bilish, undan voqiflik esa topqir, o'tkir va quv aql o'yinlaridan biri xolos.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Markaryan E.S. Ocherki teorii kulturi. – Yerevan, Msiri, 1969.
2. Xrestomatiya po kulturologii. Uchebnoye posobiye. Pod red. A.A.Radugina. – Moskva: SENTER, 1998.
3. Bromley Y.V., Podolnii R.G. Sozdano chelovechestvom. – Moskva: Politizdat, 1984.
4. Berdiyayev N.A. Filosofiya neravenstva. O kulture. – Moskva: Ima-press, 1990.

HUVAYDONING “NA QILDIM SANGA MAN, YORIM...” G‘AZALI MATNI VA IJROSI XUSUSIDA AYRIM QAYDLAR

Annotatsiya. Maqolada Huvaydoning mumtoz ashulaga aylangan “Na qildim” so‘zlari bilan boshlanuvchi g‘azali matni to‘la sharhlangan va matndagi ayrim iboralarning etimologiyasiga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, asarning ashula varianti bilan asliyatdagi farqlarni tuzatish haqidagi mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil milliy taraqqiyot, madaniy meros, shoir Xuvaydo, judolik, hijron, chaqmoq, go‘zal ma‘shuqa, umid, majoziy ishq, musiqa olami.

Икромитдин ОСТОНАКУЛОВ,
доцент кафедры «Узбекский язык и литература» Государственного института
искусство и культуры Узбекистана, доктор исторических наук.

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О ТЕКСТЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИИ ГАЗЕЛИ ХУВАЙДО «ЧТО Я СДЕЛАЛ ТЕБЕ ХЛОХОГО, МИЛАЯ...»

Резюме. В данной статье дается обзор текст стихотворение Хувайдо «На қилдим...» (Я что сделал тебе плохого, милая?) и разъясняется этимология некоторых фраз его текста. А также даны комментарии о различиях между версией песни с оригиналом.

Ключевые слова: самостоятельное национальное развитие, культурное наследие, поэт Хувайдо, утрата, разлука, молния, прекрасная влюбленная надежда, символическая, любовь, мир музыки.

Ikromitdin OSTONAKULOV,
Associate professor of the chair of “Uzbek language and literature” state institute
arts and culture of Uzbekistan, doctor of historical sciences.

SOME REMARKS ABOUT THE TEXT AND USE OF THE HUVAYDO GAZEL “WHAT HAVE I DONE TO YOU, CHEER...”

Annatation. The article fully interprets the text of Huwaido's poems “Na qildim ...” (What have I done wrong to you, dear?) And explains the etymology of some phrases in its text. There are also comments on the differences between the version of the song and the original.

Keywords: Independent national development, cultural heritage, poet Xuvaydo, loss, lightning, beautiful lover, hope, figurative love, world of music.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasi muxbiri savollariga javob berib o‘tgan katta intervyusida jumladan, “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir” degan edi[1].

Betakror va noyob madaniy merosimizning katta qismini adabiy merosimiz tashkil etadi. Ularning aksariyati yangidan o‘rganish va qayta tadqiq etishga muhtojdir. Mutasavvif shoir Xojamnazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo (1704–1780) merosi shular jumlasiga kiradi.

Farg‘ona viloyatining Chimyon qishlog‘ida tug‘ilib, shu yerda umrguzaronlik qilib o‘tgan shoir Huvaydo naqshbandiya tariqati shayxlaridan bo‘lib, manbalarda uning o‘z qishlog‘ida maktab ochib, uzoq vaqt maktabdorlik qilgani, kosiblik bilan ham shug‘ullangani keltirib o‘tiladi. Shoirning otasi G‘oyibnazar so‘fi Qashqarda katta din va siyosat arbobi bo‘lib shuhrat topgan Ofoqxoja eshonning muridlaridan bo‘lgan, Chimyonda masjid va xonaqolar qurdirib, yurtdoshlariga tariqatdan saboqlar bergan. Huvaydo devonida keltirilgan bir naqlga ko‘ra, bo‘lajak shoirga “Xojamnazar” deb ism

qo‘yilishi ham Ofoqxoja shaxsi bilan bog‘liq. Huvaydo mumtoz she‘riyatning deyarli barcha janrlarida ijod qilgan. She‘rlari xalq orasida juda mashhur bo‘lgan. Huvaydo axloqiy-didaktik yo‘nalishdagi mazmunan teran, uslubiy go‘zal asarlari bilan adabiy maktab yarata olgan shoiridir. Huvaydo ijodi va dunyoqarashining shakllanishida Yassaviy, Navoiy, So‘fi Olloyor, Mashrab kabi ulug‘ shoirlarning tasavvufiy, falsafiy fikrlari ta‘siri katta bo‘lgan. Huvaydo majoziy va haqiqiy ishq haqidagi orifona, dunyoviy she‘rlaridan tashqari insondagi salbiy fe‘llarni, xulqiy tubanlikni qoralovchi didaktik asarlar ham yaratgan.

Huvaydo she‘rlari vafotidan so‘ng nabiralari tomonidan devon holiga keltirilgan. Unga shoirning 351 g‘azali, 28 ruboiysi, 41 to‘rtligi, 3 muxammasi, 1 musaddasi, 1 musammani, 1 mustazodi, 3 masnaviysi hamda axloqiy-didaktik mazmundagi “Rohati dil” manzumi kiritilgan. Devondagi ilk she‘rlarida islom shariatiga doir imon, ro‘za, namoz, zakot, haj, jannat va do‘zax bilan bog‘liq mavzular yoritilgan bo‘lsa, keyingi o‘rinlarda mag‘rurlik, manmanlikni tanqid qiluvchi, tavoze‘, qardoshlik va to‘g‘riso‘zlikni ulug‘lovchi hikmatlarga keng o‘rin berilgan (“Darig‘o, hayf, odam...”, “Kuygay”, “Kimga borib dod

etay...” va b.). Ayni kunlarda shoirning Chimyondagi maqbarasi ziyoratgoh joylardan hisoblanadi[2.28].

Shoirning taxallusi juda chiroyli, xayolni o‘ziga tortuvchi jozibali so‘z bo‘lib, **Huvaydo bo‘lish insonning** lomakondan vujud olamiga kelib, xalqqa oshkor bo‘lishini ifodalaydi. Tasavvufga ko‘ra tug‘ilish yo‘qdan bino bo‘lish emas, **balki baqo** olamidani fano olamiga kelishdir. Fano olamidani yana **baqo** olamiga o‘tish uchun odam dunyoga kelishi (huvaydo bo‘lishi), yashashi, amal daftariga sohib **bo‘lishi** darkor. Haziniy aytganidek:

Raboti ko‘hnaga kelgan hama musofirmiz,

Yo‘lovchimiz — ketamiz, jahon — chorroh guzari[3.239].

Adabiyotshunoslik va falsafa fanlarida Huvaydo ijodi tasavvufiy hamda axloqiy jihatdan bir muncha o‘rganilgan bo‘lsa ham mustaqillik yillarigacha uning naqshbandiya tariqati piri va shoiri sifatidagi qarashlari o‘rganilmagan edi. jiddiy e‘tibor berilmagan edi. Faylasuf olim Qodirqul Ro‘zmatzoda “Xojamnazar Huvaydo diniy-mistik qarashlarining XVII – XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidadagi o‘rni” mavzuida falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqladi.

Huvaydoning fikricha dini va millatidan qat‘iy nazar har qaysi xalq orasida yaxshi insonlar bor. Millatlarni millatlarga do‘st qiladiganlar har bir millatning yaxshi, oqil, insof-tavfiqli vakillaridir. Bu haqiqat Huvaydo she‘riyatida quyidagicha o‘z aksini topgan:

Agar hapkimni ko‘rsang, Xizr bo‘lg‘aymu deb tavof aylab,

Ki haftodu du millat xalqi birla oshno bo‘lg‘il [4.195].

Haftodu du millat — yetmish ikki millat xalqi bilan oshno bo‘lishga chaqirish — chinakam umuminsoniy tuyg‘u ifodasidir. Ushbu bayt Naqshbandiya tarikatining baynalmilal xususiyatlarini ham o‘zida mujassamlashtirgan.

Xojanazar Huvaydoning “Na qildim senga man yorim...” deb boshlanuvchi g‘azali bundan 250 yillar avval yozilgan bo‘lishiga qaramay, bugungi so‘zlashuv tilimizga g‘oyat yaqinligi, so‘z va iboralarining tushunarli uslubda, xalqona yo‘sinda bayon etilgani bilan e‘tiborni tortadi.

Mana shu oxanrabo hofizlar diqqatini o‘ziga jalb etib, umrboqiy ashulaning yaralishiga sababchi bo‘lgani sir emas. Xo‘jandlik hofiz va sozanda Ma‘rufxoja Bahodirov kuy bastalagan, buvaydalik Rasulqori Mamadaliyev tanbur jo‘rligida a‘lo darajada ijro etgan bu ashula radio to‘lqinlari orqali tungi dasturlarda tez-tez yangrab turadi (Oltiariqlik xonanda Solijon Mamatov ijrosi o‘ziga xosdir). Aruzning “Hajazi musammani solim” bahrida yozilgan bu g‘azal mazmunini hech qanday sharhu izohsiz ham anglash mumkin desak, biroz yanglishgan bo‘lamiz.

Majoziy ishq zamzamalari bilan to‘lib-toshgan bu g‘azalda oshiq-shoir yoridan ayriliq gina va tavallolarini shikastalik bilan bayon aylaydi. Ma‘shuqasidan ayriliq sabablarini tushuntirib berishini, rahm-shafqat qilishini so‘raydi. Bechora qalb o‘zi uchun “pari, laylivashi shirin” bo‘lgan sevgilisiga vaqtinchalik ayriliq uni benavo – kuchsiz, zoru notavon aylaganini izhor qiladi. Mahbubasidan qanday javob keladi – buning oshiqqa hech bir ahamiyati yo‘q. Go‘yo bulbul gulga o‘z rozini yig‘lab, kuyib izhor etadi, ammo guldan na sado, na javob, na itob bor.

Na qildim senga men, yorim, jamolingdin judo qilding?

Boshimg‘a gardi g‘amni, chun charog‘i osiyo qilding[5].

– Ey yorim, senga men ne yomonlik qildimki, jamolingni ko‘rish baxtidan judo qilding. Boshimga ayriliq

g‘ami gardini qo‘ndirding, sen uchun bu gard mitti va arzimas bo‘lsa-da, men uchun u charog‘i osiyo – ya‘ni, tegirmonning toshidek ulkan va og‘irdir. Tegirmon toshi gir aylanib donni qanday yanchsa, ayriliq g‘am gardi ham meni shu kabi ezib tashlamoqda, judolig g‘ami o‘y-xayolimdan nari ketmaydi.

G‘azalning keyingi baytlari sharhini davom ettiramiz.

Hamisha kuydurub sham‘i firoqing birla jonimni,

Meni – parvonani xokistarini ziru po qilding.

– Doimo firoqing quyoshining otashi bilan jonimni kuydirasan, parvona deb ataluvchi chibin kabi men sening taftingga yaqinlashishni istayman. Shu sababli xokistarimni - tuproq bo‘lgan ojiz jismimni yer bilan bitta qilding, o‘ldirding.

Judo aylar ekansan, ey pari, laylivashi Shirin,

Na deb avval o‘zingga men g‘aribni oshino qilding?

– Ey paridek latofatli, Layli kabi shirin xilqat, bir kun kelib o‘zingdan judo qilar ekansan, nega avval men g‘aribni o‘zingga oshno qilding?

Avval oshno bo‘lmaganimizda ayriliq ham bo‘lmas edi, afsus. Parvardigori olam Odam Atoni jannatda yaratib, o‘ziga oshno qilib, boshqa maxluqotlardan afzal qilib, masrur etib, keyin jannatdan va O‘zidan judo qilib, firoqqa solgani kabi, meni ham shu ahvolga solding.

Nigoro, bori g‘am birla faqiru notavon aylab,

Alifdek qomatimni “lom-alif” yanglig‘ duto qilding.

– Ko‘zim tushganda quvonadigan nigorim, bori g‘am, ya‘ni g‘am yuki bilan meni faqir va kuchsiz aylading, “Alif” harfidek tik qomatim “lom” va “alif” harflari birga yozilganda qanday holatda bo‘lsa, shunga o‘xshab qoldi, qomatimni duto, ya‘ni enkaytirib qo‘yding.

Judolig‘ osmonidan solib bir barqi olamso‘z,

Vujudim xirmanin o‘rtab, ado qilding, ado qilding.

– Sen judolig‘ osmonida menga itob qilding, bu itob menga osmonda kutilmaganda paydo bo‘ladigan olamni yondiruvchi chaqmoqdek (barqi olamso‘zdek) ta‘sir qildi, vujudim xashagini o‘rtab (yondirib) ado qilding. Ha, ado qilding! Shoir shu o‘rinda judolik osmoni ichra o‘z vujudi sarson kezganini tasavvur etar ekan, chaqmoq osmonda bo‘lishini nazarda tutib, undan tamsil, metafora sifatida foydalangan.

Ayo dilbar, Huvaydodek jafokashni eshiklarda,

Solib ko‘zdin asiru benavo, zoru gado qilding.

– Ey dilbar, menga “solib ko‘zdin” – avval qarab, keyin qaramay, ko‘zingga ilmay, Huvaydodek jafotortgan oshig‘ingni o‘zingga asir, ammo zor va gado qilding. Mening senga bundan ortiq murojaatim, izhori hasratim yo‘q. Buni she‘rga solib kuylashdan o‘zga taskinim yo‘qdir.

G‘azal baytlarining zohiriy ma‘nosi asosan shundan iborat, ammo uni mistik, tasavvufiy ma‘noda tushunadigan bo‘lsak, “Sen”, “pari”, “laylivashi shirin”, “nigoro”, “dilbar” undalmalari Yaratuvchiga qarata aytilayotgan bo‘lib chiqadi. Agar biz “Sen” deganda 99 “asmo‘i husno”ga – go‘zal ismlarga ega bo‘lgan Tangri taoloning “al-Jamil” (chiroyli), “an-Nozir” (ko‘rib turuvchi) sifatlariga qarata aytilgan deb faraz qilsak, unda bu g‘azalni munojot deb atashimizga to‘g‘ri keladi. Oshiqning murojaatlari o‘quvchi xayolini olis tarixga, olamning va undagi maxluqotlarning, Odam Ato va Momo Havvoning yaratilishi haqidagi rivoyatlarga tortib ketadi. Miysoq

kunidagi ahd-paymon, Odam Ato bilan Momo Havvoning jannatdan yer yuziga badarg'a qilinishi, Odam Atoning ayriliqqa bardosh bera olmay, "Ey rabbimiz, biz sening amringga itoat etmay, o'z nafsimizga, jonimizga zulm qilibmiz-da, deb nadomat qilishlari haqidagi qissalar yodimizga keladi.

G'azal mazmunidan Odamning foniy dunyodan yana oxirat olamiga, jannatga qaytishi uchun orada millionlab yillar borligi, bu yillar ayrilig'i orasida million million odam bolalari yashab, vafot etib tuproqqa aylanib, vaqt va zamon tegirmoniga tushib xokka aylanib, yana qayta tirilishga ko'z tikib yotishi haqidagi talqinlarni tasavvur etamiz. Garcha bu dunyo jannat oldida hech narsa bo'lmasa ham odam bolasi uning lazzatlaridan ayrilishni istamaydi, doimiy yashab qolishga esa ojiz va notavon, beimkon. Yaxshi va yomonga to'la dunyoda esa judolik sinovlari turli-tuman. Qudratining kichik bir namunasi bo'lmish ulkan Koinotni bor etgan Alloh uchun bu judolik arzimasdir, ammo gunohga muhtalo qilib yaratilgan ojiz odam uchun bu judolikka bardosh berish naqadar mushkil.

Odam bolasi Yaratganning rizosini topish uchun hayoti dunyoda mashaqqat chekib yashaydi, qarib-qartayib qaddi duto bo'ladi, nihoyat vujudi xirmani o'lim otashi bilan bir lahzada kuydirilib, xoki mazallatga aylantiriladi.

Forobiy tasnifiga ko'ra inson ruhi ikki qismdan, ya'ni hayvoniy ruh (badan va jon), insoniy ruhdan (latif jism) iborat. Odamning hayvoniy ruhi jismning fano bo'lishi bilan yo'q bo'ladi. Ammo odamning insoniy ruhi o'lmasdir. Mana shu insoniy ruh odam bolasi uchun o'z tilida Xudoga munajat qilishi va ibodat qilishi uchun xizmat qiladi. Insoniy ruh uchun Allohning o'ziga ibodat qilishdan o'zga taskin yo'q. Bunday taskin bandalar uchun eng katta davlat, eng buyuk imkon[6]. Huvaydo munajoti ham ayriliq alami va taskin harorati bilan yuzaga kelgan bandalik nolalaridir.

G'azalning ikkinchi baytidagi bir iboraga – "Charog'i osiyo"da e'tibor qaratamiz. Ayni shu ibora mazmuni juz'iy baxslarga, ayrim hollarda esa chalkash fikrlarning yoyilib ketishiga sabab bo'lmoqda. "Charog'i osiyo" jumlasidagi "osiyo" tegirmon ekanligi ma'lum, ammo "charog'" so'zi chiroq ma'nosida kelishi ham to'g'ridir. Unda "charog'i osiyo"ni to'g'ridan to'g'ri tegirmon toshi desak mantiqsizlik yuz beradi. Agar "charog'i osiyo"ni tegirmonning chirog'i desak, bayt ma'nosiga butunlay zid ma'noni aytgan bo'lamiz.

Bizningcha, bunda hofizlar talqinidagi "charog'i osiyo"

Huvaydo g'azalining asliyatida qanday yozilganligini aniqlash yordam berishi mumkin. Agar biz "charxi osiyo" deb o'qisak, tegirmonning toshi degan ma'noda to'g'ri yozgan bo'lamiz, ammo "charxi osiyo" tarzida yozsak, misra vazni buziladi.

Agarda misrani "**Boshimg'a gardi g'amni chun, ki charhi osiyo qilding**" tarzida yozar bo'lsak, mantiqan muallif maqsadiga muvofiq ish qilgan bo'lur edik. Agar kotiblar "h" harfi o'rniga g' (g'ayn) harfini yozgan bo'lsa, muxlislar tomonidan shu tarzda o'qilgan va keyinroq qo'shiq qilib aytilganda "charog'i" tarzida aytilish odat tusiga kirib ketgan bo'lib chiqadi.

Masalaning yana bir jiddiy tomoni shundaki, san'at ahli tomonidan ushbu bayt mazmunini sharhlashda qo'pol xatoga yo'l qo'yilmoqda. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida berilgan bir suhbatda (2019 yil, may) mashhur mug'anniy O'lmas Rasulov yuqoridagi baytni tushuntirishda qo'qonlik shoir Charxiy va Rasulqori Mamadaliyev o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat tafsilotini keltirib o'tadi. Go'yo o'sha suhbatda Charxiy "charog'i osiyo"ni tegirmonning chirog'i ekanligini aytib, qadimda tegirmonning chirog'iga un gardi qo'nib qolishi natijasida juda xira bo'lib qolar edi, deb tushuntirgan.

Albatta Charxiy "charog'i osiyo" iborasini tegirmon chirog'i deb to'g'ri aytgan, ammo g'azalda tegirmon toshi haqida gap ketayotganligiga e'tibor bermagan bo'lishi mumkin. Biz mutaxassislar bilan suhbat chog'ida charog' charx deb o'qilsa to'g'ri bo'lishi mumkin degan xulosaga keldik. Odatda dumaloq buyum charx ham deyiladi (Charxi tovoq yumaloq tovoq degani). Shuningdek tegirmon toshi ham doira shaklida bo'lishini hamma biladi. Binobarin "tegirmonning charxi"ni tegirmonning toshi deyish mumkin. Muxbir-suhbatdoshning xatosi shundaki, Huvaydo yashagan davrda elektr chirog'i hali kashf etilgan emas edi. Agar lampa chiroq o'rniga qora chiroq yoqilgan deb tasavvur etilsa, ochiq olov ustiga un gardi qo'na olmaydi, binobarin uning xira yoki ravshanligiga ta'sir ko'rsata olmaydi.

San'atkor charog'i osiyo tegirmonning toshi ekanligini mutlaqo bilmagan, muxbir esa noto'g'ri talqinni gazetxonga havola etgan. Mutaxassislar bilan muloqotda muxbir yoki jurnalist juda xushyor bo'lishi, suhbatdoshning fikrida xato ham bo'lishi mumkinligini e'tiborga olishi kerak ekan. Shuningdek, hofizlar matn tanlash va matnlar ma'nosini o'zlashtirishda adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar bilan doimiy tanishib borishlari lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri savollariga javoblari //Yangi O'zbekiston. – 2021. 17 -avgust.
2. Ro'zmatzoda Q. Xojamnazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlari. – Toshkent: Zilol buloq, 2019. – B. 178.
3. Avliyolar sultoni. Turonlik valiyalar /To'plab nashrga tayyorlovchi, izohlar va so'zboshi muallifi: I.Ostonaqulov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 256.
4. Ostonaqulov I. Tasavvuf sarchamani. –Toshkent: Qamar-media nashriyoti, 2020. – B. 600.
5. Huvaydo. Devon. Tuzatilgan 2-nashr /Eski o'zbek-arab yozuvidagi nusxadan tabdil qilib nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: Q.Ro'zmatzoda, Mas'ul muharrir: Hoji Ismatulloh Abdulloh. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. –B. 304.
6. Qarang: Umr va nafs //Nashrga tayyorlovchi, izohlar va so'zboshi muallifi: I.Ostonaqulov. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000. –B. 32.

MADANIY-MA'RIFIY FAOLIYATNI OPTIMALLASHTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy-ma'rifiy faoliyatda optimallashtirish masalalari haqida so'z boradi. San'at tushunchasi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, barkamol avlod tarbiyasidagi funksiyalari, madaniy-ma'rifiy faoliyatni optimallashtirishda uning roli va o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur maqolaning mazmunini tashkil etadi.

Tayanch so'zlar: madaniy-ma'rifiy faoliyat, optimallashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, san'at turlari, estetik ehtiyojlar, madaniy tadbirlar.

Вахобжон РУСТАМОВ,

Доцент кафедры «организация и управления учреждений культуры и искусства» ГИИКУЗ

ЗНАЧЕНИЕ ИСКУССТВА В ОПТИМИЗАЦИИ КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В этой статье рассматривается оптимизация культурной и образовательной деятельности. Содержание этой статьи касается концепции искусства, его места в развитии общества, его функций в образовании гармонично развитого поколения, его роли и места в оптимизации культурной и просветительской деятельности.

Ключевые слова: культурно-просветительская деятельность, оптимизация, социально-экономические реформы, виды искусства, эстетические потребности, культурные мероприятия.

Vahobjon RUSTAMOV,

assistant professor of the chair "Organization and Management of cultural and art institutions"

THE SENSE OF ART IN OPTIMIZING CULTURAL ENLIGHTENMENT ACTIVITY

Annotation. The present article deals with optimization cultural and educational activity. The content of this article includes information about the concept of art, its role in the development of society, its functions in the upbringing of a harmoniously developed generation, its role and place in the optimization of cultural and educational activities.

Keywords: cultural and educational activities, optimization, socio-economic reforms, arts, aesthetic needs, cultural activities.

Mamlakatimizda barcha sohada bo'lgani kabi madaniy-ma'rifiy ishlar faoliyatini samaradorligini oshirish madaniy hayotni optimallashtirish masalalariga ham jiddiy ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa madaniyat va san'at xodimlari oldida muhim va dolzarb vazifalar turganidan dalolat beradi. Xususan, madaniy-ma'rifiy faoliyatni rejali tashkil etish, san'at vositalaridan unumli foydalanish, madaniy tadbirlarni tashkil etishning optimal variantlari ustida ish olib borish, tadbirlarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalar va usullarni mahorat bilan qo'llay olish, insonlar ongiga ta'sir qilish, komil inson tarbiyasi jarayonlarida faol ishtirok etish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

"Madaniy-ma'rifiy faoliyatni maqsadli tashkil etish, uning dramatik asosini yaratish, sahnalashtirish, tomoshabinga tatbiq etish va tarbiyaviy asoslarga yo'naltirish, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalarni qo'llay olish, odob, axloq, jamiyat taraqqiyoti masalalariga ongli yondashish, ularni bilimli, ilmiy qilish, ma'naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalash"ga qaratilgan vazifalar asosida tadbirkorlik jarayonlarini amalga oshirish, madaniy-ma'rifiy faoliyatni optimallashtirish – tadbirlarni mahorat bilan tashkil etilishida tadbir tashkilotchilari zimmasida juda katta ma'suliyat yuklatilgan.

Madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, tadbirlar o'tkazish, insonlarning dam olishini uyushtirishda aniq

bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Dam oluvchilarning maqsadlarini oldindan bashorat qila olish, ularning istagini bajara olish, ehtiyojlarini qondirish kabi vazifalarni bajarish jarayonida madaniy tadbirlar tashkilotchilaridan alohida bilim, ko'nikma va mahorat talab etiladi.

Jamiyat taraqqiyotida madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish orqali insonlarni tarbiyalash, ularning ma'naviy va estetik ehtiyojlarini ta'minlash, har bir tadbirni tashkil etilishida uning pedagogik, ya'ni tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalar, ta'sir qiladigan usullaridan unumli foydalanish, tarbiyaviy tadbirlarni to'g'ri tashkil etishning o'ziga xosligi ilmiyilgini asoslash muhimdir. Madaniy-ma'rifiy ishlarda ijodiy va tashkiliy jarayonlar uyg'unligiga erishish, san'at turlaridan foydalanish orqali optimallashtirishga erishish masalalari hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatni optimallashtirish tushunchasini yoritishdan avval, "Optimallashtirish" degan tushunchaga izoh berish maqsadga muvofiqdir.

Optimallashtirish – (lot. optimus - eng maqbul (nailuchsheye) yechim (resheniye), qaror ma'nolarida ishlatiladi. Bu so'zning mazmunida ishlash hamda faoliyat yuritish uchun qulay va maqbul bo'lgan yo'l, usullar tushuniladi. Boshqalardan qaysidir jihati bilan afzallikka ega bo'lgan jihatlar, ma'qul tomonlar nazarda tutiladi.

Optimallashtirish tushunchasida ma'qul variant, tanlov, yechimda bir-biridan ustunlik darajasi nuqtai nazardan qaralib, afzal variantlarni tanlash, qo'llash, qaror qabul

¹ Sayfullayev B., Rustamov V. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – Toshkent: 2016. – B. 44.

qilish tushunchalari bilan uyg'unlashadi.

Optimallashtirishda ikkita mezon bo'lishi shart: birinchisi, kamida bitta mezonning mavjudligi, ikkinchisi esa ikkita solishtiriladigan variantning mavjudligi.

Agar ikkita shart bajarilsa, maqbul variant haqida gapirish mumkin bo'ladi. Bu kamida bitta kriteriyaning mavjudligi hamda kamida ikkita solishtirilgan variant mavjudligi (tanlov qilish kerakligi). Bu mezonlar tanlov imkonini beradi va tanlash uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.

Optimallashtirish tushunchasini tor va keng ma'noda qo'llash mumkin. Masalan, mamlakatimiz yoki butun dunyo uchun ma'qul variant bo'lsa u keng ma'noda aks etadi. Agar oilada biron-bir faoliyat tahlil qilinadigan bo'lsa, u tor ma'noda bo'lishi mumkin. Bunga juda ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Jumladan, paxta yetishtirishning klaster usulidan foydalanish o'zbekistonliklar uchun optimal yo'ldir. Unda o'zimizda yetishtirilayotgan paxta shu joyning o'zida tozalanib, qayta ishlanib, kerakli materiallarga aylantirilib, mahalliy aholi yoki jahon bozori uchun kerakli kiyimlarni tikish, sotish, eksport qilish mamlakatimizga faqat foyda keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zlarining har bir chiqishlarida, ma'ruzalarida u yoki bu faoliyatni optimallashtirish to'g'risida fikr bildiradilar. Bu so'zning zaminida ana shu faoliyatlardagi ish samaradorligini oshirish, ixchamlashtirish, qulaylashtirish, maqbul variantlarni izlash, topish, tanlash va qo'llash masalalari o'z aksini topgan.

Respublikamiz Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-apreldagi PQ 29-09-son qarorida: "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talabalarini inobatga olgan holda "optimallashtirish"² xususida fikr yuritiladi. Bu esa oliy ta'lim tizimida ham aniq ishlarni bajarish, innovatsiyalar qilish, o'qitishning yangi texnologiyalari, bilim berishning yangicha usul, vositalari haqida izlanishlarni amalga oshirish kerakligini ifodalaydi. Ayniqsa, o'quv rejasida berilgan sohaga aloqasi kam bo'lgan fanlarni optimallashtirish orqali mutaxassislik fanlarining soatlari ko'paytirilganligi, ta'lim tizimida malakali, yetuk kadrlarni tayyorlashda katta imkoniyatlar, qulayliklarni yaratdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ro'y berayotgan o'zgarishlar, xalqni rozi qilish yo'lidagi qilinayotgan barcha ishlarda madaniyat va san'at sohasining ham o'ziga xos o'rni va roli bor. San'at sohasi moddiy ishlab chiqarishda ishtirok etmasada, uning taraqqiyotida, unda faoliyat yuritayotgan insonlarning ma'naviy olami, tafakkurini, dunyoqarashini kengaytirishda, madaniy-ma'rifiy faoliyatida muhim o'rin egallaydi.

Maktab davrlaridanoq bolalarga musiqa, tasviriy san'at vositasi orqali dunyoni anglash o'rgatiladi. Adabiyot darslari esa o'quvchilarni ma'naviy olamini boyitadi, bilim darajasi, dunyoqarashini kengaytiradi. San'at sohasi bilan faqat o'quvchilargina emas, shu olamda yashayotgan har bir inson uning u yoki bu turi bilan o'zi bilib-bilmay ro'baro' bo'ladi. Biroq yumush bilan band paytida hirgoyi

qilish, zavqu-shavqqa to'lganda beixtiyot raqslarga tushib ketish yoki biron-bir zerikarli majlislarda o'tirganda har xil rasmlarni chizib o'tirish... Bu esa o'z navbatida, san'at – insonni do'sti, qo'llovchisi, tayanuvchisi, dardkashi, deb qarashimizga yo'l ochadi.

San'at insonni yaxshilikka, ezgulikka boshlovchi, ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, dunyoni anglashni o'rgatadigan faoliyatdir. Uning turlari juda xilma-xil bo'lib, har xil toifadagi insonlar o'zlarining bilish darajasida bu faoliyat bilan shug'ullanadilar. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda san'at turlarining ishtirokisiz hech qanday tadbirni tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at turlari ishtirok etgan tadbirlar madaniy, badiiy, adabiy, musiqiy, poetik, xoreografik va boshqa nomlar bilan atalib, tadbir mazmunidan kelib chiqqan holda qo'llaniladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan "Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati"da san'at tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: "San'at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli hisoblanadi. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. Ibtidoiy san'atning dastlabki izlari so'nggi paleolit davriga, taxminan miloddan avvalgi 40–20-ming yillikka borib taqaladi. U davrda hali san'at inson faoliyatining mustaqil shakli sifatida ajralib chiqmagan edi. Chunki ma'naviyat moddiy ishlab chiqarish bilan qorishiq holatda edi. Keyinchalik madaniyatning o'sishi natijasida san'at alohida soha sifatida asta-sekin ajrala bordi.

San'at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruhda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg'u, manfaat, ideallarini ifoda etgan.³

San'at turli ko'rinishlari bilan o'ziga xos badiiy-estetik qadriyatlarini to'plash, saqlash va boshqalarga uzatish xususiyatiga ega bo'lgan estetik tizimni tashkil etadi. San'at tasviriy san'at, me'morlik, rassomlik, haykaltaroshlik, musiqa, teatr, kino, sirk, badiiy adabiyot, xoreografiya va boshqalarni o'z ichiga oladi. San'atning turlari o'z predmeti, tasvir vositalari va ifoda imkoniyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatda san'atning yuqorida biz sanab o'tgan turlaridan boshqa bir qancha shakllardan ham unumli foydalanish mumkin. Masalan, rejissorlik san'ati, aktyorlik san'ati, bezak san'ati, arxitektura, dizayn (san'at turi sifatida), sirk, dorbozlik, tasviriy san'at va boshqalar shular jumlasidandir. San'at turlaridan o'rinli va maqsadli foydalanish tadbirning mazmunini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi hamda 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda adabiyotning o'rni nechog'lik yuksak ekanini ko'rsatadi. Mazkur hujjat mazmunida "optimallashtirish" atamasi ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ro'y berayotgan ijobiy hodisalarni, yangiliklarni anglatadi. Biroq adabiyot ta'limida amalga oshirilayotgan **optimallashtirish** ba'zan

² Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida Prezident Sh.Mirziyoyevning Qarori // Xalq so'zi. – 2017. –21-aprel.

³ Madaniyat va san'at atamali izohli lug'ati /Tahrirchi: B.Sayfullayev. –Toshkent: 2016. –B. 456.

o'zini oqlamayapti. Til va adabiyot masalasi millat taqdiriga bevosita daxldor. Keyingi yillarda davlat tilida ish yuritish bo'yicha qator muammolar vujudga kelayotgani shu kabi sabablarga bog'liq.

O'qituvchi qaysi fandan dars bermasin, fikrini o'quvchilarga aniq, ravon bayon eta olishi, tushunarli, ta'sirchan nutqqa ega, yozma savodxonligi yuqori bo'lishi lozim. Afsuski, hozir aksariyat o'qituvchilar faoliyatida nutq va yozma savodxonlik bilan bog'liq qator muammolarga duch kelinmoqda. Bu pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining barcha fakultetlari namunaviy o'quv rejasiga ona tili va adabiyot fanlarini kiritish, o'qituvchi nutq madaniyati fanini asosiy fan sifatida o'qitishga, ajratilgan soatlarni ko'paytirishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda⁴. Demak, ta'lim tizimida optimallashtirish muhim strategik masala sifatida qarashni taqozo etadi.

Madaniy-ma'rifiy faoliyatda **optimallashtirish** tushunchasi madaniy tadbirlarni maqsadli tashkil etish, insonlarning mazmunli dam olishini tashkil etish, ma'naviy bilimlarini oshirish, dam olishning qulay, arzon va har tomonlama yaxshi tomonlarini qamrab olish kabi tushunchalari uyg'unligida ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bunda har ikkala tomonga, ya'ni dam olishni tashkil etuvchi va dam oluvchilarga nisbatan ham optimallashtirish tushunchasini qo'llash mumkin.

Masalan, dam olishni maqsad qilib qo'ygan odam eng avvalo, qulay shart-sharoitlarga ega bo'lgan, narx-navosi cho'ntagiga to'g'ri keladigan variantlarni qidiradi.

Dam olishni tashkil etuvchi shaxs esa dam oluvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, ko'ngil ochar dasturlarni tayyorlash, dam olish joyini reklama qilish, eng yaxshi shifokorlar, eng malakali oshpazlar, san'atkorlarni jalb qilish ishlari haqida bosh qotiradi. Bunda dam oluvchi mijoz, dam olishni tashkillashtiruvchi esa tadbirkorga aylanishi kerak bo'ladi.

Ikkala tomon ham o'ziga qulay bo'lgan qarorni qabul qiladi va bir to'xtamga keladi. Xususan, dam oluvchi o'ziga qulay narx-navo, shart-sharoitlarga e'tibor bergan holda mazmunli hordiq olishni, tadbir tashkilotchisi esa dam olishni uyushtirish orqali aniq daromadga ega bo'lishni rejalashtiradi. Ikkala tomon ham o'ziga qulay, optimal variantni tanlaydi.

Muhtaram yurtboshimizning sayi-harakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini

qondirishga qaratilgan bir qancha dastur va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida (2017-yil 7-fevral, PF-4947-son) Farmoni, "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2017-yil 31-may, PQ -3022-sonli) Qarori, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" gi (2017-yil 28-iyul, PQ-3160-sonli) Qarori va boshqa hujjatlarda insonlarning ma'naviy jihatdan boyitish, ularni maroqli madaniy dam olishlarini tashkil etish, mazmunli hordiq chiqarish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish borasida muhim vazifalar belgilangan.

Davlatimiz rahbarining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli qarorida "yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish"⁵ masalalariga alohida e'tibor berib, bu boradi qilishimiz lozim bo'lgan ishlar haqida yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar berib o'tdilar. Shuningdek, Prezidentimizning 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishidagi ma'ruzasi ham ushbu faoliyatni yanada yaxshilash, takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ma'naviy-ma'rifiy sohada oldimizda qilishimiz lozim bo'lgan ishlar talaygina. Bu faoliyatning zaminida insonlarning ma'naviy, estetik ehtiyojlarini qondirish, "ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"⁶ yotishi ayni haqiqatdir. Insonlarning dam olishini tashkil etish, mazmunli umr kechirish, bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishga jalb qilish – madaniy tadbirlar tashkilotchilari zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, optimallashtirish tushunchasini juda ko'p sohalarga nisbatan ishlatish mumkin. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda ham bu tushuncha keng mazmun kasb etadi. Madaniy tadbirlarni tashkil etish ham insonlar tarbiyasidagi optimal, tarbiya uchun qulay vositadir, desak to'g'ri bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: Prezident Sh.Mirziyoyevning Qarori //Xalq so'zi. –2017. 21-aprel.
2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha: Prezident Sh.Mirziyoyevning videosektor yig'ilishidagi ma'ruzasi //Yangi O'zbekiston. –2021. 20-yanvar.
3. Madaniyat va san'at atamallari izohli lug'ati // Tahrirchi: B.Sayfullayev. – Toshkent: 2016. –B. 456.
4. Sayfullayev B., Rustamov V. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – Toshkent: 2016. –B. 44.
5. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida: Prezident Sh.Mirziyoyevning Qarori //Xalq so'zi. –2017. 29-iyul.

Internet ma'lumotlari:

Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha: Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi.

⁴ Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi farmoyishi. Internet ma'lumotlaridan.

⁵ Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qarori //Xalq so'zi. –2017. 29-iyul.

⁶ Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari. Prezident Sh.Mirziyoyevning videosektor yig'ilishidagi ma'ruzasi //Yangi O'zbekiston. –2021. 20-yanvar.

HOFIZLIK SAN’ATIDA OHANGLAR VA BEZOVCHI SO‘Z BIRIKMALARINING MUHIM AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek ashula va qo‘shiqdagi matnida uchramasada, asar ijrosi jarayonida bog‘lovchi sifatida qatnashuvchi “aylanay”, “o‘rgilay”, “dodey”, “joney” kabi ohanglar, so‘zlar hamda unli harf birikmalarining asar ijrosi jarayonidagi muhim ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ohang, hang, daromad, miyonxat, avj, suporish, avji turk, katta ashula, baxshichilik, folklor, maqom.

Махаммадали МИРАБДУЛЛАЕВ,

и.о. доцент кафедры “Музыкальное образование” Наманганского государственного университета

ВАЖНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТОНОВ И ДЕКОРАТИВНОЙ ЛЕКСИКИ В ИСКУССТВЕ ПЕНИЯ

Аннотация. В данной статье речь ведется о том, что хотя в текстах узбекских песен и стихах при исполнении не встречаются такие слова, как “айланай”, “оргилай”, “додей”, “джоней”, обсуждается важность мелодий, слов и фонетических сочетаний в исполнении произведения, которые присутствуют в процессе исполнения.

Ключевые слова: мелодия, мотив, напев, вступления, разработка, кульминация, аудж (высота звука), сипориш, авжи турк, катта ашула, бахшист, фольклор, маком.

Maxamadali MIRABDULLAEV,

Acting Associate docent of the chair of “Music Education” Namangan State University.

THE IMPORTANCE OF TONES AND DECORATIVE VOCABULARY IN THE SINGING

Abstract. Although the texts of Uzbek songs and poems are not found in this article, it discusses the importance of melodies, words, and phonetic combinations in the performance of the work, such as “aylanay”, “o‘rgilay”, “dodey”, “joney” which are present in the process of performance.

Keywords: tones, hang, income, miyonchat, audj, suporish, audji turk, great songs, bahshichi, folklor, makom.

Nihoyatda boy va o‘zining rang-barang ko‘rinishlarga ega bo‘lgan o‘zbek milliy musiqa merosi ko‘hna va ulug‘vor bo‘lib, uning ildizi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Dunyo musiqa madaniyatida o‘zining munosib o‘rni borligi bilan ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu milliy madaniy meros xalqimizning o‘zligini anglatuvchi qadriyat sifatida ijtimoiy hayot ijod sarchashmalari asosida yuzaga kelganligi bilan yanada qadrlidir. Xalq og‘zaki kasbiy musiqa ijodi an‘analarning yuzaga kelishi, davrlar osha gullab yashnashi, badiiy tafakkur taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan tortib, milliy-ma‘naviy madaniyat rivojining turli davrlarida ham o‘zining yuksak namunalari asosida nafaqat aholining ma‘naviy-ruhiy madaniyatini tarbiyalashda, balki odob-axloq me‘yorlarini tarbiyalashda ham asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy musiqa va maqom san‘atiga bo‘lgan yuksak e‘tibor O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan odilona siyosatda ustivor ahamiyat kasb etmoqda. 2017-yil 17-noyabrda “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3391-sonli Qarori barcha ommaviy axborot vositalari va internet sahifalari orqali keng jamoatchilikka e‘lon qilindi. Shundan so‘ng Toshkentda Respublika maqom markazi hamda barcha viloyatlarda maqom ansambllari tashkil etildi. 2018-yil sentabr oyida Shahrisabz shahrida “Xalqaro maqom san‘ati anjumani” o‘tkazildi. Anjumanga dunyoning 200 ga yaqin

mamlakatlaridan olimlar, san‘atkorlar tashrif buyurdi.

Qolaversa, mamlakatimiz rahbarining bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish beshita ustivor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab bergan bo‘lsa, yuqorida tilga olingan o‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori [1.1], 2019-yil 21-noyabrda “Maqom san‘atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 940-sonli Qarorlari, 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli Farmoniga asosan Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti tashkil etilishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Mamlakatimiz hududidan topilgan turli arxeologik topilmalar og‘zaki an‘anadagi kasbiy musiqa ijodining ildizlari juda uzoq davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Eng qadimgi quldorlik davrlari Xorazm, So‘g‘diyona, Yunon-Baqtriya, Kushon podsholigi davrlarida o‘zbek milliy musiqa madaniyatini gullab-yashnaganligi va u aholining ijtimoiy, siyosiy hayotida muhim rol o‘ynaganligini ko‘rishimiz mumkin [2.188-191].

Bunda xalq og‘zaki poetik ijodining dastlabki kurtaklarida ajdodlarimizning tabiat haqidagi qadimiy tasavvurlari, ularning tabiatdagi yovuz kuchlarga qarshi kurashlari ifoda etilgan bo‘lsa, keyinchalik insonning ma‘naviy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish vositasiga aylandi. Vaqtlar o‘tishi bilan qadimiy xalq og‘zaki musiqa ijodi kasbiy ko‘rinish shakllarini o‘zida ifoda eta boshladi. Islomgacha va islom dinining O‘rta Osiyoga yoyilishi davrida, O‘rta asrlarda, Temuriylar saltanati davrida, Turkiston o‘lkasi sifatidagi hayotida, Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarining har birida o‘ziga xos og‘zaki ijodning turli shakllari va yuksak namunalari paydo bo‘ldi. Ayniqsa, bayramona qo‘shiq, ommaviy xalq tomosha san‘ati, dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik usulidagi qo‘shiq va musiqa asarlari yaratilganligi xalqimizning ijodkorlik xususiyatlariga tobe ekanligidan dalolatdir. Buning natijasi o‘laroq, musiqa san‘atida kasbiy ijrochilikning ashula, katta ashula, maqom kabi janrlari paydo bo‘ldi va rivojlandi. Keyingi davrlarga kelib, xalq musiqa ijodining milliy an‘anaviy yakkaxon xonandalik ijrochiligi rivojlandi. Ayniqsa, xonandalik va cholg‘uda professional ijrochilik mahorati o‘sdi va turli mahorat maktablariga asos solindi.

XVI asr oxiri XVII asr boshlarida Shayboniylar hukmdori Ubaydulloxon Hirotdan Hofiz Axiy Garaviyni Buxoroga chaqirtirib keladi va Garaviy Buxoroda maqom ijrochilari maktabini tashkil qiladi. O‘sha davrning yirik sozandasi, musiqa tarixchisi va nazariyotchilaridan biri Darvish Ali Changiy bo‘ldi. U O‘n ikki bo‘limdan iborat “Risoliy musiqiy” asarini yaratdi. Mazkur risolada maqomlar, ularning sho‘balari, usullariga va musiqa nazariyasiga keng to‘xtaydi.

XVIII asr ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro maqomlari “Shashmaqom” deb yuritila boshladi. XIX asr ikkinchi yarmida Xorazm taxtiga o‘tirgan Muhammad Rahimxon Soniy yetuk shoir, bastakor, sozanda, hofiz bo‘lganligi, uning tomonidan yaratilgan “Feruz I”, “Feruz II”, “Feruz III” ijrolari xalq ichida mashhur bo‘lib ketganligi aytiladi. Hattoki, Xorazm maqomlarini asrash maqsadida maxsus Farmoni Oliy chiqaradi. “Bizkim, mamlakatning oliy hoqoni Muhammad Rahimxon Soniy quyidagi Farmoni Oliyga imzo chekdik. Xorazm maqomlari xalqning dahlsiz mulki deb e‘lon qilinsin. Ushbu Farmoni Oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan yoinki, uni buzib ijro etgan kishilar qattiq jazolansin”, Muhammad Rahimxon Soniy 1292-hijriy jumodil avval. Qo‘qon xonligida esa XVIII asr yarimlarida Umarxon hukmdorligi davrida Toshkent-Farg‘ona maqomlari Shashmaqom negizida ustoz sozanda va xonandalar tomonidan ijod qilindi.

Qadimgi davrdan shu kunga qadar o‘zbek an‘anaviy musiqasiga tegishli maqomlarni ham og‘izdan-og‘izga, ustozdan-shogirdga, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan mumtoz musiqa sifatida an‘anadagi professional (kasbiy) musiqa iborasi ishlatilib kelinmoqda. An‘anaviy professional musiqa ijrochilik madaniyatining juda ham rivojlanganligi tufayli uzoq o‘tmishdan boshlab, o‘zbek-tojik xalqlarining mumtoz musiqa ijrochiligi hisoblangan “Shashmaqom” hamda Toshkent-Farg‘ona va Xorazm maqomlari mohir ijrochilar tomonidan ijro etilmoqda. Yosh xonanda-ashulachi ustozga shogird tutinib, yillar davomida ijrochilik san‘atini sir-asrorlarini o‘rganadi, o‘zlashtiradi, asarlarni yod oladi, keyin ustoz hamda tinglovchilar oldida

imtihon topshirib, xalq oldida o‘z san‘atini namoyon etadi. Nazarimizda, an‘anaviy xonandalik deganda, ashula, katta ashula hamda bastakorlik ijodidagi musiqa asarlarini kiritish, maqomlarni mumtoz musiqa san‘ati sifatida e‘tirof etish, maqomni o‘z nomi bilan “maqom” deb nomlash tavsiya etiladi.

Har qanday fanning asosini uning nazariy qismi, ya‘ni nazariy g‘oyalari tashkil qiladi. An‘anaviy xonandalik haqida professor Soyibjon Begmatov tomonidan yaratilgan “Hofizlik san‘ati”, Fattohxon Mamadaliyev tomonidan yaratilgan “Farg‘ona ashulachilik an‘analari” singari bir qator adabiyotlarda qimmatli ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Shunga qaramay, ashula ijrochiligi san‘atida bevosita asar ijrosi paytida uchraydigan “hang”lar, bog‘lovchi so‘zlar harf birikmalarining nima uchun ishlatilishi, ularning ko‘rinishlari turlari yoki qaysi qismida ishlatilishi kerakligi to‘g‘risidagi masalalar deyarli o‘rganilmagan. Ana shu nuqtai nazarni e‘tiborga olganda mazkur maqolada yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan masalalarni tahliliga bag‘ishladik.

Ko‘p asrlar davomida an‘anaviy usulda og‘zaki tarzda ustozdan shogirdga o‘tib rivojlanib kelayotgan maqom, ashula, katta ashulalarning deyarli barchasida albatta, hanglar, bog‘lovchi so‘zlar, unli birikmalar uchraydi. Hangning lug‘aviy ma‘nosiga kelsak “ohang” so‘zi negizidan olingan bo‘lib, ashula va boshqa kasbiy janrning turli qismlarida uchrab kelishini ta‘kidlab o‘tish joizdir. So‘zimizni isbotlash uchun qator misollar keltirib o‘tamiz. Jumladan, mashhur bastakor Imomjon Ikromov ashula yo‘liga moslagan “Munjo‘t” asari Hazrat Navoiyning “kelmadi” radifli g‘azali bilan aytiladi. Ya‘ni:

Kecha kelgumdur debon, ul sarvi gulro‘ kelmadi,

Ko‘zlarimg‘a kecha tong otguncha uyqu kelmadi [2.56].

Ushbu g‘azalni ashula qilib ijro qilinayotgan jarayonni tahlil qilib ko‘ramiz. Dastlab asar mustaqil, ya‘ni kuy qismi bilan boshlanadi. Ortidan “o”, “oy”, “oo”, “sadoq‘angmaney” kabi so‘z va unilardan iborat hang kuylangandan so‘ng, g‘azalning asosiy matini kuylashga o‘tiladi. Ashulaning avj qismida ham ana shu holat takrorlanadi. O‘z-o‘zidan ushbu ma‘no anglatmaydigan so‘zlalar hamda harf birikmalari nima uchun kerak? Qanday vazifani bajaradi?, degan savollar tug‘ilishi tabiiy. Ushbu savolga javob berish uchun hanglar tuzilishini hamda ashula yoki qo‘shiqni qaysi qismida uchrashiga qarab, quyidagicha guruhlariga ajratgan holda o‘rganishimiz mazkur mavzuni yanada mukammal tushunishga yordam beradi.

Birinchidan, ma‘lum bir ma‘noni anglatadigan so‘zlardan tuzilgan hanglar. Misol uchun: “jonim”, “yorim”, “tasadduq”, “o‘rgulay”, “aylanay”, “bo‘yingdan”, “qad-dingdan” shunga o‘xshash yorni erkalash ma‘nosidagi so‘zlar;

Ikinchidan, biron ma‘noni anglatmaydigan “o”, “a”, “axa”, “xey”, “oy”, “jon”, “xoy”, “oy”, “yey”, “imo” singari harf birikmalaridan iborat bo‘lib, ashula yoki maqomdagi she‘r va g‘azallarining misralar oralig‘ida keladigan qo‘shimcha ko‘rinishidagi hanglardir.

Endi hanglarni asarning qaysi qismida uchrashiga qarab, ularni quyidagicha guruhlariga ajratishimiz mumkin bo‘ladi:

Shu ma‘noda, hanglarni qanday vazifa bajarishini tahlil qilib ko‘ramiz. Hanglar asar boshida kelgan paytda

bamisoli debocha, kichik uvertyura vajifasini bajaradi. Shuningdek, xonanda o'z ovozi asar ijrosiga asta sozlab oladi.

Misol tariqasida "Abdurahmon begi" ashulasini olib ko'ramiz:

ABDURAHMONBEGI

ABDURAHMONBEGI

"Aylanamaney yorey, o'rgilamaney, yorey,

Umr, davlatlaring bo'lsin ziyodayoy, voy dodey" [3.55]

Ushbu misralar Muqumiyning aylading radiffi g'azalida umuman uchramaydi. Bizga ma'lumki, mumtoz ashulalarning kirish qismi "daromad" deb ataladi. Yuqorida biz ko'rib turgan "aylanaman" deb boshlanuvchi hanglar ushbu asarda mustaqil vazifani bajaradi.

Ushbu satrlar Muqimiy g'azalida umuman uchramaydi. Shunga qaramay, ashula yuqoridagi satrlar bilan boshlanib, go'yo kichik muqaddima ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Endi "Yovvoyi tanovor" ashulasida ham shu kabi kichik-kichik tahlil jarayonlarini o'tkazamiz:

Asl yoring bo'lsa, xo'p toza bo'lsa,

Labini ochmay mehri bilinsa [4.66].

Biroq, ashulaning aytim ijrosida aynan shu satrlar kuylanganda "ey", "yey", "yorey" kabi qo'shimchalar bilan bezab ijro qilinadi. Ya'ni, "Asil yoring – ey bo'lsa yoray, Labini ochmay mehri bilinsa-yey, ha do'st yoray". Aytish joizki, hanglar she'r yoki g'azal matnida uchramasada, biroq, asarni kuy-ohang ijrosida uning ta'sir kuchini oshirish, unga bezak berish, ko'proq diqqat-e'tiborni jalb etish, urg'u berish maqsadida ijrochi xonandalar tomonidan qo'llaniladi. Shuningdek, ashula matnida uchramaydigan qo'shimchalar ashuladagi jummalarni to'ldiradi hamda ashulada nola qilishga imkoniyat yaratadi. Shu tarzda ashulaga bezak beriladi.

Asarning o'rta va avj qisimlarida esa xonanda kerakli yuqori pardalarga ovozi yetishi yoki yetmay qolishini

go'yo oldindan chamalab olingan aniq bir pardani ma'lum cho'zimda ushlab turadi. Maqomlarda uchraydigan "Zebopari", "Avji turk" kabi avjlarda ham mazkur holat namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Buzruk maqomining birinchi sho'basiga kiruvchi "Nasrulloiy" asarida hanglar o'ziga xos tarzda ishlatilgan bo'lib, goh yuqoriga, goh pastga qarab harakatlanib, bamisoli asar ichidagi alohida kichik asar singari ijro qilinadi.

Hanglar musiqiy jummalarni to'ldiruvchi va bog'lovchi vazifalarini bajaradi. Misol qilib, Muqimiy g'azali bilan aytiladigan "Ey chehrasi tobonim" ashulasini ham ko'rib chiqishimiz mumkin.

Ey chehrasi tobonim

Oshiqlar hayronim.

Yo'q toqati hijronim.

Vasl ila da'vo aylang [5.87]

G'azal matni kuylanayotgan paytda, "tobonim" so'zi, "tobonim-o" deb "o" unli tovushi qo'shib kuylanadi. Agarda "o" tovushi qo'shilmay kuylansa, tobonim so'zi unsiz "m" harfi bilan tugallanganligi bois, ashula qatori to'xtab qoladi. Chunki, "m" harfini talaffuz qilganimizda kishining labi bir-biriga tegib, to'liq yopiladi. "O" harfini qo'shishimiz hisobiga jumla davom etadi. Bundan ko'rinadiki, ashula va maqomlarda jumlar, "m", "b", "p" va boshqa undosh harflar bilan tugallanganda "o", "ye", "i" singari unli tovushlar qo'shiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan misolda so'z va birikmalar nafaqat og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa janrlarida, balki xalq qo'shiqlari, terma va yallalarning barchasida uchraydi. Xalq ichida mashhur bo'lgan "Ey voh sanam" ashulasini olib ko'ramiz.

EY, VOY, SANAM

Sochim uchi qo'ng'iroq

Yor menga qilma firoq.

Gar menga qilsang firoq,

Boray desam yo'l yiroq. [6.36]

Kuylash aytim paytida mazkur asar quyidagi ko‘rinishni o‘z ichiga oladi.

*Sochim uchi qo‘ng‘iroq , o‘zim aylanay,
Yor menga qilma firog‘ey ey voh sanam.
Gar menga qilsang firog‘ey, o‘zim aylanay.
Boray desam yo‘l yirog‘ey, ey voh sanam.*

Namangan davlat universiteti “Musiqqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishi bakalavriyat bosqichi talabalariga “An’anaviy xonandalik” dars mashg‘uloti jarayonida aynan “Ey voh sanam” ashulasi matni doskaga yozildi. Keyin esa, asar kuyini talabalarga pioninada ijro qilib, eshitirildi. So‘ngra ulardan qo‘shiqni mustaqil ravishda ijro etishlarini so‘ralganda ko‘pchilik talabalar matnda mavjud bo‘lmagan bog‘lovchi so‘zlarni, harflarni, hanglarni ishlatmaganliklari bois, ashulani ijrosi to‘liq chiqmadi.

Faqatgina avvaldan ashula ijrochiligi bilan shug‘ullangan talabalargina ashulani to‘g‘ri ijro eta olishdi. Demak, talabalarga har bir ashula yoki maqomni o‘rgatish jarayonida mazkur asarda uchraydigan hanglar, bog‘lovchi so‘z birikmalari haqida o‘qituvchi tomonidan albatta alohida tushuncha berilishi shart ekan degan

xulosaga kelindi. Aks holda o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan vazifaga erisha olmaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, bu masala metodik va boshqa o‘quv adabiyotlarida deyarli yoritilmagan. Lekin shunga qaramay hofizlar, xonandalar asar ijrosi jarayonida ustozlaridan olgan bilimlarga tayanib asar uchun zarur bo‘lgan hanglarni yoki bog‘lovchilarni tanlab ijroda foydalanishadi.

Aytish joizki, o‘zbek mumtoz musiqqa ijrochilik san’atida uchraydigan bu kabi ijro bezaklari dunyoning deyarli barcha xalqlari orasida uchrasada, biroq, uning naqadar ahamiyatini o‘zbek xonandalik san’atida ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, hanglar xonandalik asarlarini nafaqat bezash, ta’sir kuchini oshirishda, balki o‘zbek mumtoz musiqasining o‘ziga xos betakror jilolarining ustoz-shogird an’anasiga muvofiq singdiriladigan dard va nolalarni amaliy mashg‘ulotlar jarayonida chuqur o‘zlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ritmni his qilish, nafasdan to‘g‘ri foydalanish, ovozlarni o‘z o‘rnida qo‘llash kabi an’anaviy ijrochilikdagi o‘ziga xos muhim jarayonlarni ijro amaliyotida qo‘llashda muhim o‘rin egallaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” qarori / “Xalq so‘zi” gazetasi. – T.: 2017-yil 18-noyabr.
2. Koyama M., Xayasi T., Turg‘unov B., Ilyosov J. Dalvarzintepa Shahrisoni. – Yaponiya. Soka universiteti. –1996. –B.191.
3. Mannopov S. Hofizlik san’ati. –Toshkent: Musiqqa, 2005. – B. 228.
4. O‘zbek xalq muzikasi. J.1. /Tahrirchi: I.Akbarov. –Toshkent: badiiy adabiyot, 1955. – B. 515.
5. O‘zbek xalq muzikasi. J.2 /Tahrirchi: I.Akbarov. –Toshkent: Badiiy adabiyot, 1957. – B. 568.
6. O‘zbek xalq muzikasi: Buxoro maqomlari. J.42 /Tahrirchi: I.Akbarov. –Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. – B. 864.
7. Ergasheva D. Saraxbor. –Toshkent: Akademnashr, 2017. – B. 126.

NAY CHOLG‘USINI O‘RGATISH USLUBI

Annotatsiya. O‘zbek milliy cholg‘ulari rang-barang bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos jihatlariga ega. Ijrochi, ya‘ni ushbu cholg‘uni ijro etishni o‘rganmoqchi bo‘lgan talabgor ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma‘naviy jihatdan unga mos bo‘lishi kerak. Va aksincha, o‘rganilmoqchi bo‘lgan cholg‘u har tomonlama nomzodning talablariga mos bo‘lishi lozim. O‘zbek milliy cholg‘ulari ichida nay cholg‘usining ham o‘ziga yarasha injiqliklari va o‘ziga xos qulayliklari bor. Nay cholg‘usining mohir sozandasi bo‘lib yetishishi uchun esa nomzodlarni tanlashda alohida e‘tibor berish talab etiladi. Maqolada nay cholg‘usi ijrochiligi uchun nomzod tanlashda e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan eng muhim jihatlar va nay ijrochiligini o‘rgatish borasida bir nechta uslubiy ko‘rsatmalar haqida ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: nay, cholg‘u, ustoz, o‘quvchi, ijro apparati, ijro nafasi, lablar, til, asar.

Юсуфжон ВАХИДОВ,
преподаватель кафедры «Инструментальное исполнительство», ГИИКУЗ

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ИГРЕ НА ФЛЕЙТЕ

Аннотация. Узбекские национальные музыкальные инструменты красочны, каждый из них имеет свои особенности. Исполнитель, человек, который хочет научиться играть на этом инструменте, должен подходить этому как физически, так и умственно и духовно. И наоборот, инструмент, который он хочет изучить, должен все торонне соответствовать требованиям кандидата. В узбекском национальном музыкальном инструменте най также является уникальным. У него тоже есть свои прихоти и удобства. Для того, чтобы исполнитель стал мастером-музыкантом необходимо уделить особое внимание отбору кандидатов. В данной статье дается информация о наиболее важных аспектах, которые следует учитывать при выборе кандидата на исполнителя най и некоторые методические рекомендации по обучению игре на нае.

Ключевые слова: най, инструмент, учитель, ученик, исполнение, дыхание исполнения, губы, язык, произведение.

Yusufjon VAKHIDOV,
teacher of the Department of Instrumental Performance, UzSIAC

METHODS OF TEACHING TO PLAY THE FLUTE

Abstract. Uzbek national musical instruments are colorful, each of them has its own characteristics. And the performer, that is, the aspiring person who wants to learn to play this instrument, must fit him both physically, mentally and spiritually. Conversely, the tool he wants to learn must still meet the candidate's requirements. In the Uzbek national musical instrument, the nay is also very pleasant. It also has its own whims and amenities. In order for the nay performer to become a master musician, special attention must be paid to the selection of candidates. This article will provide information about the most important aspects that should be taken into account when choosing a candidate for the nay performers, and several methodological recommendations for learning to play the nay.

Keywords: nay, instrument, teacher, student, performance, performance breath, lips, tongue, work.

Butun dunyo musiqiy pedagogika amaliyotida musiqiy cholg‘ularni ijro etishga qiziquvchi talabgorlarning qobiliyati, albatta, sinab ko‘riladi. Va bu sinovning bir nechta uslublari farqlanadi. Eng avvalo, nomzodning eshitish qobiliyati, ohangni eslab qolishi hamda usulni qay darajada sezishi aniqlanadi. Nay cholg‘u ijrochiligini o‘rganmoqchi bo‘lgan nomzodlarning jismoniy holatiga ham e‘tibor berish muhim sanaladi. Ya‘ni ular jismonan to‘liq rivojlangan, nafas yo‘llari, o‘pkalari sog‘lom, tishlari, jag‘lari, lab va chakka mushaklari benuqson rivojlangan, barmoqlari va tana tuzilishi me‘yorda bo‘lishi zarur. Chunki nay cholg‘usida asarlarni ijro etishda ijrochidan ko‘proq jismoniy kuch talab etiladi. Shuning uchun ham nay cholg‘usini o‘rganishni istagan talabgorlar 10–12 yoshga kirgan bo‘lishiga e‘tibor berish kerak.

Nomzodlar jismoniy sog‘lom, tana tuzilishi normal rivojlangan bo‘lishi bilan birgalikda damli cholg‘ularning har biriga alohida tanlanadi. Masalan, bariton, trombon va tuba cholg‘ulariga tanlanadiganlarning lablari to‘la va go‘shtli, eng asosiysi burun va yuqori lab qirrasida orasidagi maydonchasi keng bo‘lishi lozim. Chunki mazkur cholg‘ularning mundshtuklari katta va mundshtuk kosachalari boshqalarga qaraganda ancha keng. Ularga faqat qalin lablar mos rezonator hisoblanadi. Bunday nomzodlarni klarnet, saksofon va fagotlarda o‘qish uchun ham tavsiya qilish mumkin. Chunki bu cholg‘ular trostlarining plastinkalari keng bo‘lib, unda qalin lablar

nafasni chiqarmasdan ushlab turuvchi va boshqaruvchi, ya‘ni o‘ziga xos muhofazalovchi yostiqcha vazifasini bajaradi [1, B-13].

Damli cholg‘ularni chalishga ishtiyoqi yuqori bo‘lgan nomzodlar orasida yuqori old tishlari qiyshiq o‘sganlarni esa fleyta va tilli – trostli damli cholg‘ularni o‘rganishga tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Pastki old tishlari qiyshiq rivojlangan nomzodlar damli cholg‘ularni o‘rganishi tavsiya etilmaydi. Buning sababi cholg‘uni o‘zlashtirishda noqulayliklarni keltirib chiqaradi, bu esa asar ijrosida seziladi. Qolaversa, salomatlik jihatdan ham salbiy ta‘sir qilish ehtimoli yuqori, ya‘ni doimiy mashg‘ulotlar vaqtida pastki old tishlar istaymizmi yo‘qmi doimiy zo‘riqadi. Agar tishlar bir tekis joylashgan bo‘lsa bu yuklama barcha tishlarga, milklarga birdek tarqaladi hamda jarayonda barcha tishlar bir vaqtda ishtirok eta oladi va bu yuklanish sezilmaydi. Notekis joylashgan tishlarda esa mashg‘ulot yoki ijro jarayonidagi yuklama ayrim tishlarga tushadi. Tishlar bir tekis joylashmagani uchun yuklama birdek tarqalmaydi va tishlar zo‘riqa boshlaydi. Bu zo‘riqish tabiiyki milklarga, milklardagi mahalliy qon aylanish tizimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oqibatda, yuz-jag‘ tizimida, xususan, tishlarda patologik holatlarni rivojlanish ehtimoli yuqori. Shuning uchun ham bunday rivojlanishdagi nomzodlarga damli cholg‘ular ijrosini o‘rganish tavsiya etilmaydi. Nay cholg‘usini chalish jarayonida eng muhimi,

sozanda hech qanday zo'riqishni his qilmasligi lozim. Ya'ni tana a'zolarining hech bir qismi zo'riqishsiz, kuchanishsiz tabiiy vaziyati ijrochining asosi qilib olinishi lozim. [2, B. 24]

Nay cholg'usi ijrochiligida lablar ichkaridan bosim bilan kelayotgan nafas oqimi nay teshigiga yo'naltirib beradi. Lablarning harakatida lab va uning atrofidagi bir qancha mushaklar ishtirok etadi. Bundan tashqari, tilning ham alohida o'rni bo'lib, u juda ko'p shtrixlarni amalga oshirib berishda asosiy rol o'ynaydi. Til harakatlarining ahamiyati lab hamda nafas vazifalari ahamiyatidan kam emas. U tovush hosil qilish vaqtida tavaqa vazifasini bajaradi va til zarbini hosil qiladi. Nay cholg'usida tovushning balandligi, kuchi, tembri va davomiyligini ta'minlash uchun nafaqat til zarbi yoki lab mushaklarining ishi, balki ijrochilik nafasi ham eng muhim omillardan biri sanaladi. Boisi, musiqiy tovushning paydo bo'lishida til birinchi zarbni berib, tovush hosil qilsa, uning davomiyligini, ya'ni cho'zimini nafasning uzluksiz oqimi ta'minlaydi.

Ijrochilik nafasi ongli ravishda og'iz burchaklari orqali olinadi. Nafas olinishida tez, chiqarilishida esa tejamkorlik bilan asta-sekin sarflanadi. Ijrochilik nafasini og'iz orqali olgan paytda u til chekkalariga tegib o'tsa yoki tomoqni qisgan holda olinsa shovqinli, xissillagan tovush hosil bo'ladi va u barchaga halaqit beradi. Bunday kamchiliklardan juda ehtiyot bo'lish zarur [1, B. 34].

Nay cholg'usi ijrochiligini o'rgatish jarayonida o'quvchiga nay ixtisosligi bo'yicha bilimlarining boshlang'ich asoslarini o'rgatish, ularni musiqa dunyosiga olib kirish, o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalarining yuksak namunalari bilan tanishtirish, bahramand qilish, shu orqali estetik bilimlar targ'ibotini yo'lga qo'yish muhim sanaladi. Darslar rang-barang, qiziqarli va mazmunli bo'lishi bilan bir qatorda, o'quvchining musiqiy dunyoqarashini kengaytirishi, ma'naviy va ijodiy qiyofasini shakllantirishi, har bir asarni namoyishkorona ijro etish ko'nikmasini oshirib borishi muhim. Dars jarayonida o'quvchilar ijrochilik malaka va ko'nikmalarni shakllantirishlari bilan bir qatorda nay cholg'usining tarixiy manbalari, har bir asarning rivoyati, nay cholg'usining mohir sozandalari, bastakorlar va nay yasovchi ustalar haqidagi bilimlarga ham ega bo'lishlari lozim.

O'quvchilarning nay cholg'usida ijrochilik darajalari bo'yicha egallagan malaka, bilim va ko'nikmalari ta'lim mazmuniga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, amaliy faoliyatlar va nazariy bilimlar majmuasidan tashkil topgan va ular quyidagilardan iborat:

- nay cholg'usining barcha xususiyatlarini bilish va boshqa milliy cholg'ularining tovush tembrlarini farqlash;
- turli janr va texnik murakkablikdagi asarlar namunalarini ohang va badiiy jihatdan mukammal, mazmunan anglagan va his etgan holda ijro eta olish;
- yakka va ansamblda jo'rnavoz bo'la olishi, musiqiy asarni notadan o'qiy olish;
- xalq musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'lgan holda ijro etilajak asarga tavsif berish;
- ijrochilik turlarini ijro sadolaridan, ijro uslubidan musiqa janrlarini bilish va farqlay olish;

– Farg'ona – Toshkent, Samarqand – Buxoro, Surxondaryo – Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslubidagi xalq kuvi namunalarini ijro eta olish;

– o'zbek xalq ommaviy va kasbiy musiqa janrlarining mahalliy uslub variantlarini tinglab farqlay olish;

– Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona – Toshkent maqomlaridan, o'zbek bastakorlarining asarlaridan namunalarini ijro eta olish;

– O'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan o'quvchilarning mazkur fanni o'zlashtirishlari uchun foydalanish, yangi informatsion, pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda ustoz-shogird an'anasidan keng foydalanish ham juda muhim sanaladi, shu bilan birga darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, sintezatorlar hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalanish ham kutilgan natijani beradi.

Nay cholg'usida texnik ijrochilik mahoratini rivojlantirishda milliy pardalar asosida tuzilgan gamma, arpedjio, turli mashq va mashqlarni muntazam ravishda o'rganib borish katta ahamiyatga egadir. Bular ustida ishlashda ijrochilikning sifatiga, mayin xarakatiga va uning yumshoq ijrosiga, tovushning nafisligiga, ritmi aniq his etishiga, musiqiy ohang (intonatsiya) aniqliligiga va sadolanayotgan milliy ohangning sifatiga e'tibor berish zarur [3, B. 21].

Ba'zan o'quvchi asarlarni o'zlashtirishi qiyin bo'ladi. Bunday vaqtda o'quv materialini chetlab o'tmasdan, qiyinchiliklarni yengishga yordam berib, ko'nikma hosil qilish, o'zlashtirishga ko'maklashish yaxshi natijalarga olib keladi. Doimiy ravishda yengil asarlar ustida ishlash esa o'quvchining murakkab texnik ijrochilik rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi, ya'ni ma'lum darajada uning umumiy musiqiy ijrochilik rivojlanishini cheklab qo'yishi mumkin. Shuning uchun bosqichma-bosqich murakkabroq asarlarga murojaat etib borish, eng maqbul uslub sanaladi va bunda har bir o'quvchining asosiy imkoniyatiga qarab ustoz aniq vazifa berishi, uning bajarilishini muntazam tekshirib borishi muhim o'rin tutadi.

Tovushni to'lqinlatib (vibratsiya) ijro etish uslubi ham nay sozandaning ijrochilik maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tovush to'lqinlanishini ijro etayotganda mushaklarning ortiqcha zo'riqishiga yo'l qo'ymaslik, tovush to'lqinlanishini hosil qilish malakasini o'zlashtirishdagi muhim omildir. [4, B. 45]

Musiqa asarini o'rganishga kirishishdan avval o'rganilayotgan asarni tahlil etish yuzasidan o'tkaziladigan muntazam mashg'ulotlar o'quvchining ijrochilik kamolotida katta rol o'ynaydi. Masalan, yangi asarni o'rganishdan avval o'quvchini musiqa asarining kelib chiqish tarixi yoki afsonasi, ijrochilari, kalit oldi belgilari, qaysi tonallikda yozilganligi, asarning musiqiy bezaklari, uning dinamik belgilari bilan tanishtiriladi. Musiqa asarining murakkab joylari o'quvchiga tushuntiriladi. Dars jarayonida doyra yoki boshqa milliy sozlar bilan jo'rnavozlikda asarni ijro etish o'quvchilarni ansambl bolishda o'rgatib boradi. Shu bilan birga, doyra usulini sezish ko'nikmasini hosil qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Matyoqubov B.J. Damli va zarbli cholg'ularda chalishni o'rgatish uslubiyati. –Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasining tahrir – nashriyot bo'limi, 2008. –B.109.
2. Melkomini V.L. Nachalnaya shkola obucheniya igre na goboye i na blokflayte. –Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 2002. – B. 127.
3. Petrov P., Matyoqubov B. Cholg'ushunoslik va cholg'ulashtirish. –Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – B. 110.
4. Chernix A. Sovetskoye duxovoye instrumentalnoye iskusstvo: Spravochnik. –Moskva: 1989. –319 s.
5. Omonullaev D.F va boshq. Birinchi sinfda musiqa darslari: o'quv uslubiy qo'llanma. –Toshkent: G'.G'ulom" nashriyoti, 1987. – B. 130.
6. Omonullaev D.F va boshqalar. Ikkinchi sinfda musiqa darslari: o'quv uslubiy qo'llanma. –Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1988. – B. 28.
7. Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. –Toshkent: Fan, 2010. – B. 147.

SAHNA SAN'ATIDA IBRAT NAMUNASI VA UNING TALABALAR KASBIY TARBIYASIGA MA'NAVY TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek teatri san'atining ma'naviy-estetik ahamiyati, teatrning tarbiyaviy omillari, bo'lajak aktyorlarni tarbiyalash jarayonida sahna san'atining ibrat namunasi haqida ma'lumot berilgan. Aktyorlarni tayyorlash jarayoni, yosh aktyorlarning ustoz-shogird an'analari asosida professional teatrdagi tajriba almashishi tahlil etilib, mazkur mexanizmi yanada takomillashtirish yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: teatr, sahna, ibrat namunasi, madaniyat, ma'naviyat, tarbiya, estetik tarbiya, aktyor, rejissor.

Садакат ЭРМАТОВА,

Узбекский государственный институт искусств и культуры Преподаватель кафедры "Фольклор и этнография"

ПРИМЕР ПРИМЕРА В СЦЕНИЧЕСКОМ ИСКУССТВЕ И ЕГО ДУХОВНОЕ ВЛИЯНИЕ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье представлена информация о духовном и эстетическом значении искусства узбекского театра, воспитательных факторах театра, на примере исполнительского искусства в процессе воспитания будущих актеров. В статье анализируется процесс подготовки актеров, обмена опытом молодых актеров в профессиональном театре на основе педагогических традиций, а также разрабатываются методические рекомендации по дальнейшему совершенствованию этого процесса. Ключевые слова: театр, сцена, образец для подражания, культура, духовность, образование, эстетическое воспитание, актер, режиссер.

Ключевые слова: театр, сцена, образец для подражания, культура, духовность, образование, эстетическое воспитание, актер, режиссер.

Sadakat ERMATOVA,

Uzbek State Institute of Arts and Culture Lecturer of the Department "Folklore and Ethnography"

AN EXAMPLE OF AN EXAMPLE IN THE PERFORMING ARTS AND ITS SPIRITUAL INFLUENCE ON THE PROFESSIONAL EDUCATION OF STUDENTS

Abstract. The article provides information on the spiritual and aesthetic significance of the art of the Uzbek theater, the educational factors of the theater, using the example of performing arts in the process of educating future actors. The article analyzes the process of training actors, exchange of experience of young actors in professional theater on the basis of pedagogical traditions, and also develops methodological recommendations for further improving this process.

Keywords: theater, stage, role model, culture, spirituality, education, aesthetic education, actor, director.

Yangi O'zbekistonning madaniy-ma'rifiy taraqqiy etishida san'at janrlari qatorida teatr, jumladan, sahna san'atining ahamiyati beqiyosdir. U boy tariximiz, shonli o'tmishimiz, moddiy va nomoddiy madaniy merosimizning asl boqiyliqi, navqironligini ta'minlashdagi birlamchi ma'naviy vositadir.

Sahna san'ati tarix va kelajakni o'zida aks ettiradigan yagona jonli ko'zgu hisoblanadi. Bu jarayonda ilm-ma'rifat, ijod va mahoratning badiiy uyg'unligi asosida tomoshabinga aniq va to'g'ri dalillarni badiiy obrazlarda yetkazishni ta'minlaydi.

Rivojlanayotgan O'zbekiston madaniy sharoitida har bir sohaning taraqqiyot manbai sifatida ilm-ma'rifat, ilmiy-tadqiqot ishlari birlamchi bo'lib, shonli tarix haqiqatini sahnaviy badiiy haqiqat orqali namoyish etish, har bir badiiy asarning sahnaviy talqinini ilmiy faraz va natijalarga asoslangan holda sahnalashtirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos taraqqiyotida muhim strategiyani tatbiq etib kelayotgan Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar va uning yorqin samarasida ilm-fan, ilmiy-tadqiqot, ma'rifat, ta'lim va tarbiya masalalariga alohida e'tibor berilmoqda, tashkil etish masalalari ijobiy qaror topmoqda.

Bu islohotlar zamirida ko'hna tarixni jonlantirish, otaboblarimiz ma'naviy merosini yanada keng targ'ib etish, ular tomonidan amalga oshirilgan buyuk ishlarni namuna sifatida

ko'rsatish, bir so'z bilan aytganda ibrat namunasi shakllantirish, o'tmishdan faxrlanish va kelajakka ishonch masalalari o'rin olgan.

Bizni havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi.¹

O'zbek teatri qadimdan ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotchisi sanalib, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, keyinchalik Mannon Uyg'ur, Toshxo'ja Xo'jayevlar mehnati asosida professional darajaga ko'tarilib hozirda ma'naviyat maskaniga aylangan.

Yillar davomida sahnadan tushmasdan tomoshabinlarga ma'naviy-estetik ta'sir ko'rsatib kelgan "Padarkush", "Baxtsiz kuyov", "O'tkan kunlar", "Advokatlik osonmi", "Qiyomat qarzi", "Shoh Edip", "Gamlet", "Otello", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Imon", "Oltin devor", "Parvona" kabi spektakllarning asl mohiyatiga e'tibor qaratilganda, ularning tarbiyaviy ahamiyati yuqori ekanligini anglash mumkin. Har bir personaj tomoshabin

¹ Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 3-avgustda mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi: 2017-yil, 4-avgust.

uchun ibrat namunasi bo'lib, ideal qahramonga aylangan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Teatrlar repertuaridagi asarlarning maqsad va g'oyasida insoniy fazilatlar ulug'lansa, milliylik aks ettirilsa insonda g'urur va iftixor tuyg'usi ortib borishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, bo'lajak aktyorlarga talabalik davrida sahnaning muqaddas ekanligini uqitirib borish, ularni ushbu sohaning asoschilari, buyuk darg'alari faoliyati bilan keng tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Sohaning mas'uliyati va mashaqqatini anglatish orqali ustoz ijodkorlarga nisbatan hurmatni, kasbiga bo'lgan fidoyilikni shakllantirishga erishiladi.

Aktyor teatrning asosiy figurasidir. Aktyorsiz teatr degan tushunchaning – o'zi yo'q. Shuningdek, dramaturg, rejissor, rassom, kompozitor va teatrning barcha komponentlari o'z san'atlarini faqat aktyor orqali namoyish eta oladilar. Agarda aktyorlik ijodi bo'lmasa, ularning birgalikda ijod qilishlari ham yo'qoladi. Teatrda barcha san'atkor aktyor uchun, aktyor ijro etayotgan obrazning tomoshabiniga to'laqonli, rang-barang, estetik tomondan go'zal, chiroyli bo'lib yetib borishi uchun ijod qiladi. Aktyor esa ularning san'atini tomoshabiniga yetkazish uchun ijod qiladi. Shunday obyektiv va dialektik birdamlikning natijasida teatr sahnasida sog'lom ijodiy atmosfera yuzaga keladi.²

Abror Hidoyatov – “Otello”, Shukur Burxonov – “Sulaymon ota”, Olim Xo'jayev – “Alisher Navoiy”, Zaynab Sadriyeva – Farmonbibi, Muhammadali Abduqunduzov – Bobur, O'lmas Alixo'jayev – Otabel, Gulchehra Jamilova – Kumush, Gulchehra Sa'dullayeva – Zaynab shu kabi betakror iste'dod sohiblari tomonidan yaratilgan obrazlarning ma'naviy jihatlarini yanada chuqur tahlil qilib, asl mohiyatini bo'lajak aktyorlarga tushuntirish orqali ulardagi mavjud iste'dod va mahoratni yanada oshirilishiga erishiladi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talabadan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarni muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqta nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Bu borada O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidagi J.Mahmudov, H.Mahmudova, M.Abdullayeva, X.Sa'diyev, N.Qobulov, M.Yusupova, X.Mirpo'latov, M.Rashidov, F.Yusupov, V.Yusupova kabi pedagoglarning o'ziga xos mahorati, metodikasi, har bir iqtidor sohibiga bo'lgan individual yondashuvi, tinimsiz mehnat va mashaqqati tufayli nafaqat mamlakatimiz, balki qardosh xalqlar teatr sahnalarida ham buyuk aktyorlar, betakror iste'dodlar faoliyat olib bormoqda.

Birgina iste'dodli aktyorni tarbiyalash, uning noyob iste'dodini yuzaga chiqarish faqat mutaxassislik fani o'qituvchisiga bog'liq

emas, balki sahna nutqi, vokal, plastika, sahna harakati, sahna jangi, raqs kabi bir qancha fanlarning omuxtalashuvida paydo bo'ladi. Shuningdek, bo'lajak aktyorlarni tarbiyalashda bakalavr tizimidagi 4 yillik davr ham ramziy bo'lib, aslida bu jarayon o'nlab yillarni qamrab oladi. Demak, bo'lajak aktyorning iste'dodini yuzaga chiqarishda fan va amaliyot integratsiyasi ham muhim jarayondir.

Yosh aktyor teatrga ishga qabul qilinar ekan, albatta kattalar maslahati va tajribasiga, ibrat namunasiga ehtiyoj sezadi. Chunki o'quv jarayoni va professional sahna o'rtasida mantiqiy uzviylik va jiddiy farq mavjud. Bu borada yosh aktyor xato qilishi, xatolarni to'g'irlashi yoki bu jarayonda ishdan mahrum bo'lishi mumkin.

Aktyorning bor mahoratini shakllantirish, uni bir qolipga tushib qolishining oldini olish bevosita kattalarga, ya'ni ustoz san'atkorlarga bog'liq. Bu borada O'zbek teatri tamal toshini qo'ygan otaxon rejissor Mannon Uyg'ur o'zining o'rinni va muddaoli fikrini quyidagicha bildirgan, “... Teatrimizning ishida yuz bergan eng muhim, katta kamchiliklardan biri – yosh avlod bilan lozim darajada ish olib borilmasligidir. Bizda har qanday postanovka tayyorlanganda asosiy rollarni faqat nom chiqargan katta masterlargagina berib, o'rta darajali va yosh artistlarga ahamiyat bermaslik yuz berib kelmoqda. Shuning natijasida... bir talay qobiliyatli va ishga chanqagan o'rta darajali va yosh artistlar ko'p vaqt... o'z mahoratlarini o'stirish va ko'rsatish imkoniyatidan mahrum qolib kelmoqdalar.³

Hozirda O'zbek milliy akademik drama teatrida yosh aktyorlarni to'g'ri yo'naltirish va tarbiyalash borasida “ustozshogird” an'analari keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu borada tajribali ustoz aktyorlarga yosh aktyorlar birlashtirilgan. Hattoki, ularning grim xonalari ham bitta bo'lib, nafaqat ijodiy tajriba, balki hayotiy tajribada ham ibrat namunasi shakllanishiga e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda talabalar uchun xalqaro miqyosda o'tkaziladigan bir qator tanlovlarda milliylikimiz aks etgan sahna asarlari bilan ishtirok etish, o'z qarashlarini ishonch va shijoat bilan bildira olish, millat ori va g'ururini oshirish uchun kurashish, o'zga millatlarda o'ziga nisbatan salbiy munosabatlar shakllanishining oldini olishga intilish millat mavqeini yanada oshiradi, eng muhimi talabalarning tajriba orttirishiga erishiladi.

Bo'lajak aktyorlarning va yosh aktyorlarning iste'dodini to'g'ri tarbiyalash, bu borada ibrat namunasini yanada ko'paytirish maqsadida quyidagi tavsiyalar beriladi:

– bo'lajak aktyorlarni o'qishga qabul qilinish imtihonida ularning iste'dodi birlamchi baholanib, ularning sohaga bo'lgan muhabbati va bilimdonligi yuzasidan nazariy jarayonlarni yanada kuchaytirish;

– buyuk aktyorlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan video filmlar, ular ijrosidagi badiiy va hujjatli filmlar namoyishini tashkil etish;

– o'quv jarayonlarini professional teatrlarda, tajribali aktyorlar bilan hamkorlikda tashkil etish;

– malakaviy amaliyotlarni bevosita professional teatrlarda o'tash;

– tajribali aktyorlar ishtirokida davra suhbatlari, uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish;

– talabalar sahnasiga mo'ljallangan milliy va xalqaro festivallarni tashkil etish va unda talabalar ishtirokini ta'minlash;

– teatr tarixi va nazariyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 3-avgustda mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi” gazetasi: 2017-yil, 4-avgust.

2. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

² Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 105.

³ Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 5.



V BO'LIM

**YOSH
TADQIQOTCHI**

MADANIYAT RAVNAQI – YURT TARAQQIYOTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “madaniyat” tushunchasining zamonaviy mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayotda tutgan o‘rni, madaniyatning tarbiyaviy funksiyasi, mafkura va ma’naviy jarayonlar yoritilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida madaniyat amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, qonunlar, qarorlar, dasturlar va ularning ijrosi tahlil qilingan. Madaniyat sohasiga e’tibor qaratilishi mamlakat ravnaqi, taraqqiyoti rivojiga ta’siri tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, ma’naviyat, mafkura, tarbiyaviy funksiya, bunyodkorlik g‘oyasi, yurt taraqqiyoti.

Боситхон УМАРХОДЖАЕВ,
самостоятельный исследователь ГИИКУЗ

КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ – РАЗВИТИЕ СТРАНЫ

Аннотация. В данной статье освещаются современные суть и содержание понятия «культура», ее роль в социально-политической и духовной жизни, воспитательная функция культуры, а также идеология и духовные процессы.

Кроме того, проведен анализ реформ, осуществляемых в сфере культуры Республики Узбекистан, включая законы, постановления, программы и их исполнение. Исследовано воздействие внимания, уделяемого отраслям культуры на прогресс и процветание страны, сделаны научные выводы.

Ключевые слова: культура, духовность, идеология, воспитательная функция, созидательная идея, процветание страны.

Bositxon UMARXODJAEV,
independent researcher Department of UzSIAC

CULTURAL DEVELOPMENT – DEVELOPMENT OF THE COUNTRY

Abstract. This article highlights the modern essence and content of the concept of “culture”, its role in socio-political and spiritual life, the educational function of culture, as well as ideology and spiritual processes.

In addition, an analysis of the reforms carried out in the field of culture of the Republic of Uzbekistan, including laws, regulations, programs and their implementation, was carried out. The influence of attention paid to the branches of culture on the progress and prosperity of the country has been investigated, scientific conclusions have been drawn.

Keywords: culture, spirituality, ideology, educational function, creative idea, prosperity of the country.

Har bir davlat madaniy jarayonlarga alohida e’tibor berishi, yurt fuqarolarining ma’naviy dunyoqarashi, ma’rifiy islohotlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at, ma’naviy, ma’rifiy sohalarida islohotlar olib borilmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘p millatli xalqimiz o‘rtasida hamjihatlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash, milliy qadriyat, an’ana va urf-odatlarini keng targ‘ib qilish, badiiy ijod va kitobxonlik madaniyatini faol qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Yangi O‘zbekistonda – yangicha dunyoqarash” shiori ostida keng ko‘lamli targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Madaniyatning barcha sohalarini rivojlantirish uchun muhim qarorlar, dasturlar ishlab chiqilmoqda. Avvalo, madaniyat tushunchasi va uning etimologik xususiyatlari, jamiyatdagi o‘rni, ajdodlarimizning madaniyat haqida fikrlari, yurt taraqqiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinmog‘i lozim.

Madaniyat tushunchasining etimologik kelib chiqishi antik davrga borib taqaladi. Bu termini qadimgi Afina va Rim yozma manbalarida uchratish mumkin. “Ko‘pchilik olimlarni bu so‘z lotin tilidan ya’ni “cultura”, (ishlov berish, parvarishlash, ekib o‘stirish so‘zlaridan) kelib chiqqanligi shubhalantirmaydi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda madaniyat so‘zining uch asosiy ma’nosi ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, birinchisi – ekib o‘stirish, ishlov berish, parvarishlash. Ikkinchisi – tarbiya, ta’lim olish, uchinchisi – ilohiy kuchlarga, tangriga ibodat qilish, sig‘inish deb ko‘rsatilgan. Qolaversa, bunday turkumlashda

to‘rtinchi ma’no ham mavjud, ya’ni dehqonchilik bilan shug‘ullanish, ziroatchilik. Bunday tushunish o‘z ma’nosi bilan birinchi ta’rifga yaqin bo‘lganligi uchun ajratib ko‘rsatilmagan. Birinchi ta’rifda insonning tabiat, ekologiya bilan bevosita bog‘likligi ta’kidlanib, madaniyat bunyodkorlik, yaratuvchilik komponentlari doirasida tushuniladi. Ikkinchisida esa shaxsning intellektual-ma’naviy komilligini ta’minlash maqsadlari ilgari surilib ta’lim-tarbiya vositasida insonning umumiy ma’lumot darajalarini oshirish mo‘ljallansa, uchinchisi ibodat, topinish, sig‘inish va u bilan bog‘liq diniy marosimlar mavzuni o‘zida aks ettiradi” [10 S. 3-4].

Madaniyat so‘zi nihoyatda keng ma’noni anglatadi. Inson dunyoga kelishi bilan bu tushuncha unga hamroh bo‘ladi va butun umr unga yo‘ldosh bo‘lib qoladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘z jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuyi; biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma’lum davrda qo‘lga kiritgan yutuqlari darajasi; o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik, ma’rifat; madaniyatli shaxs talabalariga javob beruvchi sharoit, o‘simlik yoki ekinning turlarini o‘tkazish, o‘stirish, yetishtirish kabi ma’nolarni anglatadi [8 B. 521]. Ko‘rinadiki, madaniyat tushunchasi kishilik jamiyati hayotining har bir sohasini qamrab oladi va har bir shaxsning doimiy yo‘ldoshiga aylanadi.

Kishilar butun umri davomida madaniyat tushunchasiga murojaat qiladi va bu tushuncha anglatadigan qonun-qoidalariga amal qilgandagina tom ma’nodagi madaniyatli insonga aylanadi. Agar bu tushunchaning bironta bandiga

amal qilmagan bo'lsa, u tabiiy kemtik shaxsga aylanishi mumkin. Shuning uchun ham kishilar bir-biriga baho berishda madaniyat so'zi anglatadigan yuqoridagi ma'nolarga tayanadi.

“O'zbekiston milliy entsiklopediyasi”da madaniyat tushunchasi yanada kengroq izohlanadi. Unda madaniyat-jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi ekanligiga ishora qilinadi. Demak, bu tushuncha kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi [7 B. 372-373].

Madaniyat so'zi asli arab tilida “madinatun”, ya'ni “shaharlik” ma'nosini bildiradi. O'rta asr davrida Arabiston yarim orolida yashovchi arab qabilalari ikki guruhga ajralgan edi. Birinchi guruh badaviylar deb atalgan bo'lib, sahroda ko'chmanchilik asosida hayot kechirgan. Biroq ular ham ma'lum ko'rinishdagi madaniyatga ega bo'lgan. Ikkinchi guruh arablari asosan shaharlarda istiqomat qilganliklari uchun ular “madaniylar”, ya'ni shaharliklar deb atalgan. Madaniylik - shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan qo'llangan. Ma'lumki, shahar xayoti ancha jadal kechadi. Shaharga odamlar turli maqsadlarga kelib-ketadi va o'zaro muloqot qilganlar. Ayniqsa, ko'chmanchilarni shaharliklarning kiyinish, so'zlashish madaniyati qiziqtirib, qo'yadi va ulardan bunday madaniyatni o'rganishga harakat qilganlar.

Ajdodlarimiz shahar turmush tarzini kishilik jamiyatining yetuklik shakli sifatida talqin qiladi. Negaki har bir inson o'z hayotida doimiy ravishda yetuklikka intiladi. Allomalarimiz madaniyatli mamlakatni xalqi teng, ozod va farovon yashaydigan har bir inson o'zi sevadigan kasb-hunar bilan shug'ullanadigan hudud sifatida tushunishgan. Inson tom ma'noda ozod yashashga, yetuk axloq egasi bo'lishga intiladi, insonparvarlik g'oyalari ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezonini deb tushunadi. Bu kabi o'ziga xos xususiyatlarni Farobiyning “Fozil odamlar shahri” nomli asarida ham uchraydi.

Ilm olish madaniyatli bo'lishning yana bir omillaridan biri hisoblanadi. Bunday fikrni ilgari surgan allomalar ma'rifatparvar, deb ataladi. Ularning fikricha, qachonki xalq ma'rifatli bo'lsa, shundagina u madaniyatli bo'lmaydi, o'zida bo'lmagan ijobiy xislatlarni boshqaga ham o'rgata olmaydi – bu tabiiy.

Jadidlar ana shunday ma'rifatparvarlarning davomchilari bo'lib qoldilar va ularning qarashlari yangi sharoitda davom ettirdilar. Insonlarni madaniyatli bo'lishga da'vat etdilar. O'zlarining badiiy asarlari bilan madaniyatli bo'lishlik kishini qanchalik ulug'lashi, madaniyatsizlik esa kishini tubanlikka tashlashini ko'rsatib berdilar. Bunday badiiy asarlar quruq da'vatgina bo'lib qolmay, haqiqiy hayot maktabiga aylandi.

Yigirmanchi asr o'zbek adabiyoti rivojida o'ziga xos ko'tarilish davri bo'ldi. Ana shu davrda yaratilgan asarlar ham xalqimiz madaniyatini yuksak darajada rivojlanishga olib keldi. Adabiyotda taqlid qilsa arziqli namunali madaniyatli qahramonlar paydo bo'ldi. Xalqimizning madaniy darajasi yanada yuksaldi. Bashang kiyingan kishi emas, balki ichki dunyosi boy, ilmi, muomalali, e'tiborli insonni madaniyatli inson sifatida e'tirof etildi.

Yana shuni ta'qidlash lozimki, madaniyat umuminsoniy hodisa hisoblanadi. Faqat bir xalq o'z qobig'ida madaniyat yaratishi mumkin emas. Ma'lum bir xalq o'z milliy madaniyatining asosiy qismini yaratishi mumkin. Unga jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning

ta'miri bo'ladi. U keyinchalik butun ommaga ta'mir qiladi. Ayniqsa, bu sohada san'atva adabiyot durdonalari, me'moriy obidalar, maqomlar, fan yutuqlari va boshqalar barchaga teshgishli bo'lgan madaniyat hisoblanadi.

Madaniyat moddiy va ma'naviy kabi turlarga bo'linadi. Moddiy madaniyatga mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari kiradi. Ma'naviy madaniyatga ong, bilim, axloq, ta'lim-tarbiya, huquq, falsafa, etika, estetika, fan, san'at, adabiyot, mifologiya, din va boshqalar mansurblanadi.

Jamiyatlar almashishi bilan madaniyat o'zgaradi. Ammo bu madaniyat taraqqiyoti uzilib qolganligini anglatmaydi. Yangi zamon madaniyati yaratilayotganda albatta, o'tmishdagi moddiy merosga murojaat qilinadi va uning zamirida madaniyat voqeligi anglashiladi, uni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritiladi. Lekin moddiy taraqqiyot bir xilda kechmaydi. Har qanday jamiyatda ilg'or madaniyat bor ekan, unga qarama qarshi bo'lgan yolg'on, tajovuzkor madaniyat ham bo'lishi tabiiy. Hozir ayniqsa, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimizga “ommaviy madaniyat” hamla qilmoqda. Shunday ekan, biz ham azaliy qadriyatimiz hisoblangan milliy va diniy qadriyatimizni qalqon qilishimiz lozim. Shundagina biz xalqimizni, yoshlarimizni yolg'on madaniyatdan asragan bo'lamiz.

Yurtimiz istiqolga erishgach jamiyatimizning barcha sohasida bo'lgani kabi madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, so'nggi besh yillikda madaniyatimizni taraqqiy etishi uchun barcha sharoitlarni yaratish, soha rivojini ta'minlashda davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bir qator farmonlari va qarorlari e'lon qilindi, ular hayotda tatbiq etilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustda e'lon qilingan PQ-3920-son “O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori madaniyatimizni rivojlantirish sohasidagi muhim me'yoriy hujjat bo'lib qoldi. Qarorda mamlakatimizni madaniyat va san'atni qo'llab-quvvatlash, milliy madaniy va ma'naviy merosni saqlash hamda ko'paytirish, xalqimizni milliy va jahon madaniyatning eng yaxshi namunalarini bilan tanishtirish, moddiy texnik bazani yaxshilash va xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilganligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, ushbu sohada madaniyat va san'atni yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator jiddiy muammolar va kamchiliklar mavjudligiga e'tibor qaratildi.

Prezidentimizning ko'rsatmalaridan kelib chiqib madaniyat va san'at xodimlari mavjud muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish sohasida g'ayrat bilan mehnat qilmoqda. Madaniyat va san'at muassasalari har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, ta'sir doirasi kengayib bormoqda. Madaniyat va san'atning yoshlarning tarbiyasidagi mavqei yanada kuchaytirilmoqda. Madaniyat va san'at muassasalarining moliyaviy, iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilash yuzasidan tadbirlar qo'llanmoqda. Yoshlarimizni “Ommaviy madaniyat” xurujidan asrashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ular kelajakda o'zining ijobiy mevasini beradi. Umuman olganda, milliy madaniyatimiz va san'atimiz keng rivojlanishi yo'lga o'tdi. Bu jarayon o'zining keng va farovon yo'lini topib oldi.

Xorijiy davlatlarda qabul qilingan “Madaniyat to‘g‘risida”gi qonun endi O‘zbekiston Respublikasida ham qabul qilinishi bo‘yicha ishlar boshlandi. Biroq bu qonun O‘zbekiston Respublikasi Senati muhokamasida 2021-yil 6-yanvar kuni “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun nomi bilan qabul qilindi. 2021-yil 20-yanvar kuni bu Qonun Prezident tomonidan imzolandi[6]. Ushbu Qonun Respublikada madaniy faoliyat sohalarida yagona davlat siyosatini belgilaydi. Chunonchi, madaniy faoliyat – insoniyatning ma’naviy-estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Shubhasiz, ma’naviy-estetik ehtiyojlar madaniyat sohasiga tegishli bo‘lgan san’at asarlari, madaniy boyliklar, amaliy san’at asarlarining mazmun-mohiyatidan olingan taassurot va tasavvurlar orqali o‘z yechimini topadi. Shu bois, aholining ma’naviy-estetik ehtiyojlarini qondira olishi uchun qulay sharoit yaratish, xususan, madaniy tadbir o‘tkazish, ijodkorlarni va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va shu kabilar aynan madaniyat tashkilotlarining vazifasidir. Yana bir muhim jihat, qonun loyihasiga Madaniyat markazlariga doir modda kiritilgan bo‘lib, unga ko‘ra sohada xalq ijodiyotini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, yangi iste’dodlarni kashf qilish, ommaviy bayramlar, tomoshalar hamda xalq sayillarini tashkil etish masalalarida tizimli faoliyat yuritish belgilab qo‘yilgan.

2021-yil 19-yanvarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan vedoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasida “... agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”, deb ta’kidlangan [1 B. 3].

Milliy madaniyatning shakllantirishda tarixiy merosimiz, milliy va umuminsoniy an’analarimizning o‘rni muhim va ahamiyatga ega hisoblanadi. Necha yuz yillar davomida shakllangan asl insoniy qadriyatlarimiz o‘rnini turli buzg‘unchi g‘oyalardan iborat “madaniyat” egallab olishiga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim.

Madaniyat – bu insonning tinimsiz barkamol shaxs sifatida shakllanishi va takomillashuvi jarayonidir. Azaldan olamda “madaniyatli inson”, aniqrog‘i “ijod etuvchi inson”

mavjud edi. Inson tabiatning birlamchi, sof mahsuli bo‘lib qolmaydi. Chunki u jamiyatda yashashi va faoliyat ko‘rsatishi, uchun sof tabiat qo‘ynidan chiqib, tashqi muhit ijtimoiy shart-sharoitlar, ma’naviyat va mafkura vositasida tarbiyalanib kamolga yetadi.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mam-lakatda ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish va ma’naviyat, mafkura masalasiga alohida e’tibor qaratdi. “Afsuski, hali oramizda milliy g‘oya va ma’naviyatning mohiyatini to‘liq anglab yetmagan, “ma’naviyat o‘zi kerakmi-yo‘qmi?”, deb yurganlar ham bor. Milliy g‘oya deganda, eski sovet mafkurasini hayoliga keltirib, “labiga uchuq toshadiganlar” ham yo‘q emas”[1 B. 4]. Aslida mafkura va ma’naviyat madaniyatning qonuniyatlari orasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, jamiyatda madaniyatning tarbiyaviy funksiyasi amaliyoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. “Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz” [1 B. 4].

O‘zbekistonda milliy g‘oyaning insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik g‘oyasi jamiyatda madaniyatning tarbiyaviy funksiyasini shakllantirish uchun kerak.

Yuqoridagi Qonunning davomi sifatida 2021-yil 26-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[5] qabul qilindi. Shu vaqtga qadar, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmagan edi.

Xullas, mamlakatimizda madaniyat sohalarida yangicha dunyoqarash asosida madaniy faoliyatni shakllantiradigan tizim ishlashini yo‘lga qo‘yish vaqti kelganligini ko‘rsatadi. Endi bu tizimni yo‘lga qo‘yishda madaniyatshunoslik va ma’naviyatshunoslik yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi. Uning nazariy jihatlarini o‘rganadigan mutaxassisliklar va kadrlarni tayyorlash mexanizmi yaratildi. Avvallari bunday mexanizm yo‘q edi. Shuningdek, madaniyat tushunchasining ilmiy-kontseptual masalalar qatorida turishi, bevosita davlat tomonidan tashkil qilingan strukturaviy ishlarni amalga oshirish imkonini berdi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi Shavkat Mirziyoyevning ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan vedoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasini // “O‘zbekiston tarixi” jurnali. 1-son, 2021-yil. B.3-23.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son Qaror, 2018- yil 26-avgust.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-j., –T.: 1996, Ma’naviy yuksalish yo‘lida, –T.: 1996.
4. Xayrullaev M.M., Shorahmedov D.A. Madaniyat va meros, –T.: 1973.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-martdagi Qarori // <https://lex.uz>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 20-yanvardagi Qonun // <https://lex.uz>.
7. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti. 2003.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashtiyoti. 2017.
9. Adams, Laura L. "What Is Culture? Schemas and Spectacles in Uzbekistan." *Anthropology of East Europe Review* 16 (2): 65–71, 1998.
10. Chuchin-Rusov A.E. Kulturno –istoricheskiy protsess: forma i soderjanie // *Voprosy filosofii*. 1996. № 4, – S. 3-4.

Ziyoda HIKMATILLAYEVA,
O‘zDSMI “Kino TV va radio san’ati” fakulteti, KT: “Vokal ijrochiligi” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

MUSIQANING BOLALAR TARBIYASIDAGI PSIXOLOGIK TA’SIRI NATIJALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqaning Yoshi katta kishilar va bolalar ongiga psixologik ta’siri hamda uning foydali tomonlari, psixologlarning tavsiyalari va buyuk mutafakkir olimlarning shu sohaga bo‘lgan qarashlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ruhiyat, ong, ijodkorlik, musiqa, musiqashunoslik, qobiliyat, tarbiya.

Зияда ХИКМАТИЛЛАЕВА,
студентка 4 курса факультета «Искусство кино, телевидения и радио»,
направления ПП: «Вокальное искусство» ГИИКУз

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЭФФЕКТЫ МУЗЫКИ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологическое влияние музыки на сознание людей и освещаются дети и ее преимущество, рекомендации психологов и взгляды великих мыслителей в этой области.

Ключевые слова: психология, сознание, творчество, музыка, музыковедение, способности, образование.

Ziyoda KHIKMATILLAYEVA,
UzDSMI “Cinema TV and radio art” faculty, VT: “Vocal performance” department, 4th year student

THE PSYCHOLOGICAL EFFECTS OF MUSIC ON THE UPBRINGING OF CHILDREN

Abstract. This article discusses the psychological effects of music on the minds of people and children and its benefits, the recommendations of psychologists and the views of great thinkers in this field.

Key words: psychology, consciousness, creativity, music, musicology, abilities, education.

Barchamizga ma’lumki, so‘nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan bir qancha musiqa va san’at maktablari musiqa cholg‘ulari, sport anjomlari bilan ta’minlanmoqda. Bu sa’y-harakatlar mamlakatimiz yoshlariga ko‘rsatilayotgan e’tiborning mahsulidir.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart sanasida bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida “Yoshlarga oid beshta tashabbus tajribasi” e’lon qilindi. Ana shu besh tashabbusning birinchisi yoshlarning aynan musiqa, san’at va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga qaratilganligi bilan juda ahamiyatli bo‘ldi.

Prezidentimiz yoshlarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash masalalarida: “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” deb ta’kidlaydi.¹

Demak, o‘tgan asrlarda Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Muso al-Xorazmiy kabi bobolarimiz ham musiqaga alohida e’tibor qaratganlar. Bu kishilar Sharq musiqa nazariyasining asoschilari hisoblanadi. Ayniqsa, Abu Ali Ibn Sinoning tibbiyotga oid bir qancha risolalarida musiqaga alohida to‘xtalib o‘tilgan. U o‘z faoliyati davomida musiqani juda ham yuksak gadrlagan. U musiqaga “Insonning ruhiyatini davolovchi katta kuch”² deb ta’rif bergan. Davo izlab kelgan ruhiy xastaligi bor bemorlarni musiqa bilan davolagan. Qolaversa, ko‘plab psixologlar insonning qaysi janrda ko‘proq musiqa tinglashiga qarab uning ruhiyatini aniqlaganlar.

¹ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 22.

² Рахимов С.Р. Психолого-психологические взгляды Абу Али ибн Сины. – Ташкент: Ўқитувчи, 1979. – В.94.

Nafaqat Sharqda, balki Yevropada ham XV-XVI asrlarda musiqaning barcha jabhalari jadal rivojlanishini boshlagan. O‘sha davrlarda yashab o‘tgan ko‘pgina musiqachilar hayoti va ijodiga nazar solsak, o‘z-o‘zidan ularning psixologiyasini ham bir-biridan tubdan farq qilishini kuzatishimiz mumkin. Bu albatta, ularning sermahsul ijodlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Avstryalik buyuk kompozitor V.A.Motsartning hayot va ijod yo‘liga qaraydigan bo‘lsak, u tabiatdan juda ham quvnoq bo‘lgan. Shu bois, bu uning asarlarida ham yorqin xarakter o‘z ifodasini topganni kuzatishimiz mumkin. Aksincha, yana bir yorqin ijodkor L.A.Betxovenning faoliyatiga nazar soladigan bo‘lsak, asosan, uning mahzun kayfiyatda kuylar yaratganiga guvoh bo‘lamiz. Bu ham uning ruhiy holatiga borib taqaladi. Xuddi shunday Motsartning hayotiga ham musiqa juda katta ta’sir o‘tkazgan. Qarangki, musiqa shunday bir ruhiy holatni shakllantiruvchi kuch sifatida insonning psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq ekan.

Yoshlarni har taraflama barkamol qilib voyaga yetkazishda musiqaning roli beqiyos. Musiqa bilan shug‘ullanuvchi bolalarning ongiga musiqa ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Tabiatdan bunday bolalar o‘ta nozik did sohibi hamda tabiat hodisalariga o‘ta ta’sirchan holda tarbiyalanadi. Musiqa bolalarning dunyoqarashini o‘stirishga yordam beradi hamda dunyoviy ilmlarni tushunishga o‘rgatadi. Musiqani har qanday inson tinglay oladi, hatto u musiqachi bo‘lmasa ham. Ammo hamma ham tushuna olmaydi. Musiqaning tilini faqat musiqachigina tushunadi. Tinglash bilan tushunish orasida juda katta farq bor. Musiqani tushunish bu – o‘zaro aqliy va shu bilan birga ruhiy holat bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon.

Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino o‘zining ilmiy asarlarida musiqaga, uning ruhiy-hissiy ta’siri masalasiga Nafosat tarbiyasiga keng to‘xtalib: “bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish

uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqa nisbatan iste'dodi hosil qilinadi, birinchisi – jismga, ikkinchisi esa qalbga mansubdir³, – deydi alloma. Ibn Sino avvalo, musiqani kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida tushunadi. Fikr va tuyg'ularni izhor etishda so'zli nutqni birlamchi, mutanosib kuylashni esa undan ham mukammalroq bosqich sifatida baholaydi. “Agar kuy nazm va mutanosiblik bilan bezalgan bo'lsa, u qalbga kuchliroq ta'sir qiladi” deya ta'rif beradi alloma. Demak, allomaning fikricha musiqa oddiy so'zlashish, ya'ni nutqdan ko'ra insonlarga ruhiy taraflama kuchli ta'sir etar ekan. Darhaqiqat, musiqa insonlarni ongini ham, qalbini ham boshqaradi, degan fikrimizga allomaning qarashlari misol bo'la oladi. Ibn Sino musiqa yordamida bolalardagi turli hissiyotlarni shakllantirishning ahamiyatini alohida ta'kidlagan va u o'zining “Tib qonunlari” asarida bolalarga bolalik chog'idan ularda musiqiy hissiyotlarni tarkib toptirish zarurligini uqtiradi.

Musiqaning psixologik xususiyatlari Forobiyning “Musiqaga doir katta kitob”, “Musiq ritmlari haqida kitob”, Ibn Sinoning “Donishnoma”, “Musiq ilmi haqida risola” va boshqa asarlarida, Faxriddin ar-Roziyning “Imlar xazinasi” qomusida, Urmaviyning “Davrlar kitobi”, al-Husayniyning “Musiq ilmi va amaliyoti qonunlari”, Kavkabi Buxoriyning “Musiq haqida risola”, Abdurahmon Jomiyning “Musiq haqida risola”, Abdulxaq Dehlayviyning “Eshitish masalasi tadqiqoti” va boshqa qator ilmiy asarlarda tahlil qilingan. Jumladan, “Forobiy ijrochilik va bastakorlik orqali tinglovchilarga hissiy ta'sir etishning shu qadar yuksak darajalariga erishganki, bu borada uning soz chalib, kuy ijro etib, odamlarni sarosimaga solganligi, goho jo'shqin kishilarni xomush ahvolga tushirganligini, ba'zan esa ziyraklarni uxlatib, shinavandalarni hayratda qoldirganligi ma'lum”.

Musiqiy hissiyotlar eng avvalo, bolalarda mehr-oqibat, qadriyat, dunyoqarash tushunchalarini kengaytiradi va rivojlantiradi. Ularda hayotga bo'lgan estetik nazarlari va qarashlarini kuchaytirish bilan bir qatorda dunyoni kengroq anglashga yordam beradi. Ko'rinib turibdiki, musiqa bolalarga yashash tarzini go'zallashtirish hamda ichki dunyosini boyitish uchun o'ta zarur unsur hisoblanadi. Demak, musiqa bilan shug'ullangan insonlar o'zi anglagan yoki anglamagan holda ichki ko'nikmalarini hayotga tatbiq etadilar.

“Qobusnoma” asarida Kaykovus “...agar hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamma vaqt o'zingni toza tut, sendan yoqimli hid kelib tursin, shirinso'z bo'l, qo'pol so'z, qovog'i soliq bo'lmagin. Hamma vaqt og'ir yo'l (maqom)larni chalaverma va hamma vaqt yengil yo'llarni ham chalaverma, chunki yo'lni bir xilda chalmaslik kerak, negaki, odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir-biriga muvofiq emas, chunki xalq xilma-xildir”,⁴ deydi. Bu yerda musiqa kuchli emotsional ta'sir vositasi sifatida ijtimoiy munosabatlar tizimida musiqa amaliyotining muhim o'rni haqidagi qarashlari ifodalangan.

Kuzatishlarimizdan ayonki, musiqa bilan shug'ullanuvchi kishilar, xushfe'l yumshoq tabiatli, go'zallikka intiluvchan, noyob did sohibi, so'zlashish odobi o'ta nozik go'zal muomalaga ega bo'ladi. Musiqaga mo'jiza, deb ta'rif berishimiz mumkin.

O'rni kelganda e'tibor berish kerakki, musiqa san'atida musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liqdir. Ayniqsa, ommaviy ijrochilikda diqqat juda muhim.

³ Ibn Sino. Tibbiyot fani qonuni. –Toshkent: O'qituvchi, 1960. –B. 54.

Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish: o'quv qo'llanma. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. –B.19.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lib, shaxs shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shunday ekan, o'sib kelayotgan yoshlar buning mazmunini chuqurroq anglashi kerak. Buning uchun esa ularni musiqa bo'lgan qiziqishlarini har tomonlama oshirish lozim. Bolalalik chog'idan musiqa bilan hamohang holda ulg'aytirish borasidagi say'i-harakatlar ularni kelajakda jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga katta ko'mak bo'lib xizmat qiladi.

Diqqat – ma'lum paytda faoliyatning bir narsaga qaratilishidir. Namoyishdan avval dirijorning ko'tarilgan qo'llari, auftakt, yakkaxon va jo'rnavor o'rtasidagi ishora va harakatlar – bularning hammasi musiqa terminologiyasida diqqat, deb ataladi. Asosan ikki tur: ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat mavjud. Lekin yana bir o'ziga xos turni ham ajratish mumkin – u ixtiyoriy diqqatdan keyin kelib, uzoq muddat davom etishi bilan xarakterlanadi. Bu ancha tig'iz va samarali aqliy faoliyat bo'lib, barcha turdagi mehnatga yuqori samaradorlik bag'ishlaydi. Zamonaviy psixologiyada diqqat tarkibida uning sifat xususiyatlari o'rganiladi. Bunga diqqat barqarorligi, ko'chishi, taqsimlanishi va hajmi kiradi. Shuningdek, bu sanoqqa diqqat parokandaligini, buzilishini ham kiritish mumkin. Diqqat – bu o'quv jarayonidagi eng muhim tarkibiy bo'laklardan biridir. Barcha buyuk musiqachilar favqulodda diqqat egasi bo'lgan. Masalan, Motsart ko'pchilik bo'lgan xonada hamda begona ovozlarga eshitilib turganda ham xotirjamlik bilan musiqa yoza olgan. Polshalik pianinochi va kompozitor I.Gofman maqsadga muvofiq yagona ish uslubi haqidagi savolga: diqqatni jamlash – omad alifbosidagi birinchi harf, deb javob bergan. Rus kompozitori va pianinochisi N.Metner bo'lsa: “Ish boshlashdan avval yaxshilab diqqatni jamlash hamda nima va qanday qilishni bilish zarur, shunda musiqachi kamroq toliqadi va charchaydi”,- degan edi. I.Gofmanning ta'kidlashicha, shunday degan: “Ish to'la aqliy diqqat jamligida bajarilgandagina serunum bo'ladi”. Biroq “shu narsani esda tutish kerakki, mashg'ulotlarda miqdoriy tomon faqat sifat tomoni bilan qo'shilgandagina ma'no kasb etadi”. E'tiborlilik, diqqatni jamlash qancha muddat ishlash kerak, degan savolga chek qo'yadi. I.Gofman har yarim soatdan so'ng tanaffus qilishni va hech qachon tanaffussiz bir yoki ikki soat ishlamaslikni tavsiya qilgan. L.Barenboym tomonidan musiqachilar uchun diqqatni takomillashtirish mashqlari taklif etilgan edi. S.Stanislavskiyning ta'kidlashicha, aktyor diqqati, agar u o'zining kundalik ishida iloji boricha e'tiborli va intizomli bo'lsa, o'z professional ishiga tushunib va mas'uliyat bilan yondashsa, maxsus mashqlarsiz ham takomillashishi mumkin. Shuningdek, barcha musiqachilar diqqatning shakllanishida o'zini tashqaridan turib eshita olish qobiliyati g'oyat muhim hisoblanishini e'tirof etgan. Shuning uchun ham musiqachining chalayotgan narsasini nazorat qila olishi, o'zini tashqaridan eshita olishi – musiqa san'atining asoslaridan biridir. Musiqachining diqqati turlicha: keng va tor, kech qoluvchi va ilgarilab ketuvchi bo'lishi mumkin. Harakatlarning avtomatlashuvi diqqatning jamlanishiga yordam beradi.

Musiqa san'atidagi asosiy faoliyatlardan biri musiqa ijrochiligidir. Zo'r ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg'ularini his etamiz yoki yunonlar aytganidek, “katarsis” – ichki, ruhiy poklanish va yangilanish jarayonini boshdan kechiramiz. Ijrochi – bastakor, kompozitor va tinglovchini bog'lab turuvchi halqadir. Musiqiy ijrochilik san'atidagi farqlar musiqiy cholg'uning o'ziga xos xususiyatiga, yakkaxon va ommaviy ijrochilik shakli, musiqiy asarning janri va shakliy xususiyatiga hamda ijodiy individuallik,

ijrochining professional tayyorgarlik va mahorat darajasiga bog'liq. Ijrochi uchun tinglovchi psixologiyasini tushunish va his etish, estetika talablari va auditoriya kayfiyatini to'g'ri anglash, muallif fikrini mohirlik bilan etkazib berish, auditoriyani o'z irodasiga bo'ysundirish, tinglovchida go'zal estetik hissiyotlarni uyg'otish, ijodiy kayfiyat juda muhimdir. Musiqani tinglab idrok etishni ham xuddi musiqa yozish va ijro etish kabi musiqa san'atidagi asosiy faoliyat turi, deb hisoblash lozim. Qolaversa, tinglovchisiz musiqa san'ati o'z ma'nosini yo'qotadi va yashashdan to'xtaydi. Musiqa tinglash va uni idrok etish musiqa faoliyatining shunday turiki, u bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi. Aytishlaricha, musiqani barcha eshitadi, biroq uni hamma ham tinglab idrok eta olmaydi. Musiqani tinglash jarayonida idrok etish darajasi tinglovchining umumiy madaniyati va musiqiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq, unga to'g'ri proporsionaldir. Musiqiy asarning to'liq va chuqur idrok etilishi kompozitor va ijrochining mahorat darajasini belgilaydi. Ana shu tarzda, tinglash jarayoni tinglovchining tarbiyasi, individual qobiliyatlari va tayyorgarligi bilan ajralmas holat, deb xulosa qilish mumkin. Musiqiy ta'lim-tarbiya psixologiyasidir. Musiqa psixologiyasining mazkur tarmog'i psixologiya yo'riqlariga asoslanadi, o'quvchilar bilan ishlashning aniq usullarini topishga yordam beradi. Bu tarmoq o'quvchilarning tabiiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltiruvchi va musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga imkon beruvchi musiqa pedagogikasiga uzviy bog'liqdir. Musiqani eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritmi aniqlash, tekshirish kabi an'anaviy usullar bilan bir qatorda musiqa psixologiyasida musiqiy zehn, iste'dod, qobiliyatlarni aniqlash, asarni o'rganish va uning ustida ishlash, konsertda chiqish uchun tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilar va konsert jamoasi bilan o'zaro munosabatlar va boshqalar yuzasidan testlar ishlab chiqilgan. Tarixdan bilamizki, sharqda keng tarqalgan "ustoz-shogird" maktabi an'anasiga ko'ra, "shogird" nafaqat ustozning o'qituvchining sabog'ini olgan, balki uning uyida yashab, musiqa san'ati sirlarini oilaviy-maishiy psixologiya bilan birgalikda egallagan. Keyin esa ma'lum bir kamolot darajasiga yetgach, o'zi ham shunga o'xshash "ustozlar maktabi"ni tashkil etgan. Bu maktab vakillari ko'pincha katta uyushma sifatida birlashib, ommaviy-madaniy tadbirlar va boshqa bayramlarni o'tkazishgan. Musiqashunoslik va musiqiy ma'rifiy faoliyat musiqa san'atini o'rganish va targ'ib etishga yo'naltirilgan. Musiqa tarixchilari, tanqidchilari, nazariyotchilari, targ'ibotchilari, musiqa ma'rifati bilan shug'ullanuvchilar musiqa haqidagi fanlarni o'rganishadi, tahlil qilishadi, boyitishadi, rivojlantirishadi. Shuningdek, klub, istirohat bog'lari, dam olish uylari, radio, televideniye, matbuot va boshqa joylarda omma o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borishadi. Mustahkam poydevorga tayanadigan musiqiy ijrochilik va ijodkorlik san'atni mukammallashtiradi.

Musiqiy ma'rifat esa tinglovchilar auditoriyasini san'at, jahon musiqa madaniyatining durdonalari va yutuqlari bilan tanishtiradi. Musiqa psixologiyasida musiqashunosning intellektual va fikrlash faoliyatini

hamda bastakor, kompozitor, ijrochi, tinglovchi o'zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganishga muhim o'rin ajratiladi. Musiqa san'atining texnik ta'minoti va texnik jihozlanishi psixologiyasi ham yana bir faoliyat turi bo'lib, zamonaviy musiqa san'atini usiz tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqa san'atining texnik ta'minoti hamda texnik jihozlash sohasidagi mutaxassislar maxsus texnik bilimlar bilan bir qatorda musiqiy bilim, musiqa cholg'ularini yasash, ta'mirlash, sozlash, musiqa yozish va eshitish moslamalari bilan ishlashda kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalardan, musiqaviy spektakllar, konsertlar, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar postanovkasi va rejissurasidan xabardor bo'lishi kerak. Zamonaviy musiqa san'ati texnikaga, yangi texnologiyalarga tobora ko'proq tayanib bormoqda. Bu texnika bilan ham, ijodiy, ijrochilik, tinglovchilik faoliyati bilan ham bog'lanib ketadigan mutlaqo boshqa bir psixologiyadir.

Funksional musiqa psixologiyasi. Amaliy maqsadda musiqadan foydalanishni funksional musiqa deb ataluvchi yo'nalishda ko'ramiz. Uning yordamida kundalik maishiy hayotga estetika baxsh etiladi, ayniqsa, ishlab chiqarish sohasida bu turdagi musiqa mehnat samaradorligini oshirish uchun mehnat jarayonining jadal sur'atlarda olib borilishini ta'minlaydi. Mehnat jarayonida musiqadan foydalanish ish kuni davomida asabiy-ruhiy holatlarning xususiyatlari bilan bog'liq o'z qonuniyatlariga ega. Bunda mehnat jarayoni uchun kerakli ritmi o'rnatish, ish samaradorligini oshirish, ortib boradigan charchoqni chiqarish kabi ishlab chiqarish muammolarini hal etishga ko'maklashuvchi musiqani tanlash katta ahamiyatga ega. Musiqiy psixoterapiya psixologiyasi. Sog'lomlashtirish maqsadida foydalaniladigan musiqa musiqiy psixoterapiyada o'rganiladi. Buning uchun tinglash va ijod qilishga mo'ljallangan musiqa tavsiya etiladi. Bizda musiqa psixologiyasining mazkur sohasi deyarli o'rganilmagan, negaki u ham meditsina, ham musiqa sohalari bo'yicha jiddiy bilimga ega bo'lishni taqozo etadi. Biroq buyuk mutaffakir olim Ibn Sino tadqiqotlarida bu sohadagi izlanishlarni ko'rishimiz mumkin. Musiqaning inson salomatligi, emotsional holatiga ta'sir etish imkoniyati, musiqani tinglash va ijro etish jarayonidagi chuqur musiqiy kechinmalarning ijobiy ta'siri tibbiyotda ham, musiqada ham ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim asosdir.

Xulosa qilib aytishimiz joizki, musiqaning psixologik ta'sir natijalari, bolalarni musiqaga olib kirish hamda qiziqtirish, ongini o'stirish, musiqa tinglayotganda diqqatni bir joyga jamlash, musiqani, ritmi his etish, musiqaga ijobiy yondashish kabi muammolarning yechimini topib beruvchi musiqashunoslar uchun zarur bo'lgan unsur ekan. Bu muammolar bilan shug'ullanuvchi fan esa musiqa psixologiyasi deyiladi. Musiqa psixologiyasi fani nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy mamlakatlarda ham juda muhim fan sifatida o'rganilishini kuzatishimiz mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan ta'riflarning barchasi, yoshlarning musiqaga bo'lgan qiziqishlarini yanada o'stirishga xizmat qilishiga ishonamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 455.
2. Yo'ldosheva S.H. O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limning rivojlanishi: o'quv qo'llanma. –Toshkent: O'qituvchi, 1985. –B.21.
3. Raximov S.R. Psixologo-psixologicheskiye vzglyadi Abu Ali ibn Sini. –Tashkent: O'qituvchi, 1979. -S.94.
4. Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish: o'quv qo'llanma. –Tashkent: O'qituvchi, 1983. –B. 283.
5. Sharipova G.M. Tojiyeva G.T. Musiqa metodikasi: o'quv qo'llanma. –Toshkent; 2012. –B. 320.
6. Matyoqub O. Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish. o'quv qo'llanma. –Toshkent: O'qituvchi, 1983. –B.19.
7. V.I.Petrushkinning V.I.Muzikalnaya psixologiya. –Moskva: 1997. –122 s.
9. Abu Ali ibn Sino. Tibbiyot fani qonuni. –Toshkent: O'qituvchi, 1960. –B.54.

MADANIYATSHUNOSLIK ILM SOHASI SIFATIDA

Annotatsiya. Bugungi kunda madaniyatshunoslikning ilm sohasi sifatida mamlakatimizdagi o'rni ahamiyatlidir. Madaniyatshunoslik ijtimoiy-falsafiy fan sifatida yoshlarda keng mushohada madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: madaniyatshunoslik, ilm, soha, madaniyat, etimologiya, taraqqiyot, sivilizatsiya, nazariya, renessans, xalq madaniyati.

КУЛЬТУРОЛОГИЯ КАК СФЕРА НАУКИ

Аннотация. Сегодня велика роль культурологии как области науки в нашей стране. Культурология как социально-философская наука предполагает формирование у молодежи культуры широкой наблюдательности.

Ключевые слова: культурология, наука, поле, культура, этимология, развитие, цивилизация, теория, ренессанс, народная культура.

CULTURAL STUDIES AS A SCIENCE

Abstract. Today the role of culturology as a field of science in our country is great. Culturology as a social and philosophical science presupposes the formation of a culture of broad observation among young people.

Keywords: Culturology, science, field, culture, etymology, development, civilization, theory, renaissance, folk culture.

Har bir ilm sohasining o'ziga xos tushunchalari, tadqiqot obyektlari va usullari mavjud. Ular orqali biz ilm sohasining maqsadi, vazifalari va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini bilib olamiz. Madaniyatshunoslik fanini o'rganishda esa eng avvalo, madaniyat so'zining atamasini bilib olishimiz lozim. Madaniyat so'zining ma'nosini lotincha "culture" so'zidan yuzaga kelgan, degan fikrlar ko'p uchraydi. Masalan, "Madaniyat va jamiyat" kitobining mualliflari "madaniyat (культура) so'zi tor ma'noda lotincha ekib o'stirish, ishlov berish degan tushunchani anglatadi" deb ta'rif berishadi. Haqiqatdan ham rus tilidagi adabiyotlar va o'quv qo'llanmalarida madaniyat so'zi shunday talqin qilinadi. Lekin biz lotincha "culture" so'zini emas, aksincha, "madaniyat" so'zining etimologiyasi va ma'nosini bilishimiz kerak. O'zbek tadqiqotchilarining ayrimlari madaniyat so'zi "ma'dan" degan so'zdan kelib chiqqanligi, shu bois, u "ma'dan", ya'ni kon, boylik degan fikrni bildiradi. Bu fikrda ma'lum bir ma'no bor, ammo u madaniyat so'zining o'zagi emas. Bizning fikrimizcha, madaniyat so'zining etimologiyasini anglashda Alisher Navoiyning quyidagi misrasi yordam beradi. Shoir "Xamsatul-mutahayyirin" asarida Muhammad alayhissalomning Madina shahridan ekanligiga ishora qilib deydi:

*Yuz na't anga kim xulki karim o'ldi fani,
Ya'niki karam koni rasuli madaniy.*

Bu o'rinda biz Alisher Navoiyning madaniy madaniyat so'zining Makka (arabcha-madinat) bilan bog'liq ekaniga ishora qilayotganini payqaymiz. Demak, madaniyat so'zi arablar orqali kirib kelgan, uning etimologik ma'nosi esa musulmonlar uchun muqaddas hisoblanadigan shahar – Madina nomidan kelib chiqqan, desak mubohlag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda aytish kerakki, "культура" so'zining "культ", ya'ni diniy ibodat, sig'inish so'zidan kelib chiqqanini rus faylasuflari N.Berdiyayev va V.Rozanov ham qayt etib o'tishgan. So'zning etimologiyasini aniqlash hali o'rganayotgan mavzu yoki fanning mohiyatini, maqsadi va vazifalarini bilishga asos bo'lmaydi, chunki tarixiy rivojlanish jarayonlari har bir so'zda o'z ta'sirini qoldiradi, hatto

uning ilk ma'nosini butunlay o'zgartirib yuborish mumkin.

Hozirgi paytda madaniyat, madaniy so'zlari qo'llanilmaydigan soha, faoliyat turi yo'q. Ilm, fan, maorifning ahvoriga qarab, biz davr madaniyati haqida fikr yuritamiz. Masalan, kishining so'zi, muomalasi, xulqi uning axloqiy madaniyati qay darajada ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, yashash tarzi – turmush madaniyatini, zarur kitobni topib o'qiy olishi – o'qish madaniyatini, o'zining burch va huquqlarini bilishi – huquqiy madaniyatini, ijtimoiy hayotdagi faoliyat hamda faolligi – siyosiy madaniyatini anglatadi. Amerikalik tadqiqotchilar Alfred Kreter va Klayd Klakxonning ta'kidlashlaricha, madaniyat atamasini ilmga tarixchi, etnograf E.Taylor 1871-yili kiritgan. O'sha paytda madaniyatning 7 ta ta'rifi bo'lgan. E.Taylor keying 30 yil ichida, ya'ni 1950-yillarga kelib uning soni 150 dan oshadi. 70-yillarga kelib u 250 taga yetadi, hozirgi kunda esa madaniyat atamasining ta'rifi 500 dan ziyod hisoblanadi.

Madaniyatshunoslikda olib borilgan ilmiy izlanishlar va erishilgan yutuqlar nuqtai nazaridan kelib chiqib madaniyatning quyidagi xususiyatlarini alohida ko'rsatishimiz mumkin.

1. Madaniyat – uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi.

2. Madaniyat – ilm, fan, maorif, ma'rifat, huquq, siyosiy va maishiy xizmat ko'rsatish darajasini aks ettiruvchi ijtimoiy taraqqiyot belgisi.

3. Madaniyat – kishilar va jamiyat rioya qiladigan shaxsiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlar majmui.

4. Madaniyat – kishining insoniy fazilatlarini va ijodiy xislatlarining ifodasi.

Ushbu belgilarning negizida inson – jamiyat – tabiat tizimi o'rtasidagi munosabatlar yotadi. Mazkur o'zaro bog'liqlik tizimida esa inson faoliyati asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Madaniyatshunoslik fani inson faoliyatining mohiyatidan kelib chiqib, uni hayotiy yoki g'ayrihayotiy, insoniy yoki g'ayriinsoniy, qisqa qilib aytganda, madaniy yoki g'ayrimadaniy yo'nalishlarga ajratadi. Demak inson faoliyatining mohiyatini, u yaratgan narsalarning ijtimoiy

taraqqiyotiga xizmat qilishiga ko'ra qimmatini aniqlash va baholash madaniyatshunoslikning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Madaniyatshunoslikning tadqiqot obyekti inson faoliyati va inson faoliyati jarayonida yaratilgan boyliklar hisoblanadi. Madaniyat esa yuqorida aytilganidek, inson faoliyati va jamiyat hayotining barcha sohaları bilan chambarchas bog'liq. Madaniyatshunoslik mana shu bog'liqlikning o'ziga xos yo'nalishlarini, ichki qonunlarini o'rganadi. Inson faoliyatining mahsuli, ma'naviy boylik sifatida qaraladi. Madaniyatshunoslik mana shu boylikni kishi va jamiyat ehtiyojlari nuqtai nazaridan baholaydi, uning haqiqiy qimmatini ochib beradi. Madaniyatshunoslikning tadqiqot usullariga tarixiy (ретроспектив) tadrijiy (эволюцион) yondashish, tahlil va umumlashtirish (analiz va sintez), kuzatish, suhbat, savol-javob kabilar kiradi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda. Madaniyat sohasini rivojlantirish uchun yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilda esa madaniyat sohasida tub burilish yasaldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. 20-yanvar kuni "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Qonun 8 bob 53 moddadan iborat bo'lib, madaniy faoliyatning qay tartibda olib borilishi va madaniyat tashkilotlarining ishlash mexanizmlari batafsil yoritilgan. Madaniyat vazirligi tomonidan tartibga solinadigan va rivojlantirish belgilangan jihatlar ham aniq qilib yozilgan. Jumladan, madaniyatshunoslikni, teatrshunoslikni, san'atshunoslikni, musiqashunoslikni va madaniy faoliyat sohasidagi boshqa ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish, oliy ta'lim tashkilotlarida hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanishini takomillashtirish yuzasidan choralar ko'radi.

Madaniyat va san'at sohasida malakali, yetuk kadrlarni tayyorlash juda muhim. Aynan ular ilm bilan shug'ullanib soha rivojiga o'z hissalarini qo'shadilar. Madaniyatshunoslik hozir yetarli ilmiy-nazariy asoslarga, tadqiqot usullariga ega bo'lgan bir paytda madaniyat va taraqqiyotning umumnazariy, falsafiy muammolarini tadqiq etuvchi ilm sohasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Tariximizdan ma'lumki, Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida ham Sohibqiron Amir Temur bobomiz xorijiy mamlakatlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga harakat qilgan. Ko'plab mamlakatlardan elchilar tashrif buyurgan va ular maxsus bog'larda kutib olingan. Temuriylar sulolasining jahon sivilizatsiyasidagi o'rni beqiyos. Bu borada ko'plab mamlakat olimlari va tarixchilari Amir Temur va uning sulolasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida o'z qo'lyozmalarida yozib qoldirishgan.

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy milliy malaniyati va san'atini rivojlanishi bevosita hozirgi zamon globallashuv jarayoni bilan bog'liq holda yuz bermoqda. Shu bilan birga, an'anaviy milliy madaniyatimizning funksional va tashkiliy jarayonlarini asl mazmun-mohiyati

bilan saqlash imkoniyati ham cheklanib bormoqda. Shu bois, respublika madaniyat va san'atning barcha tarmoqlarida transformatsion jarayonlar va innovatsion g'oyalarning huquqiy, tashkiliy asoslarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

O'zining qadimiy va an'anaviy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy merosimiz durdonalarini asrab-avaylash, o'zbek xalqi madaniyati va san'atining tarkibiy qismi bo'lgan qadimiy an'analarimiz, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boylik-xalq qo'shiqlari, cholg'ularu, tomoshalar, dostonlar, maqomlar, raqslar, milliy marosimlarni bugungi kun talabidan o'rganish, unga katta hurmat bilan munosabatda bo'lish, kelgusi avlodlarga bekami-ko'st yetkazish mustaqillik yillarida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bugun O'zbekiston yer yuzidagi ko'plab mamlakatlar bilan turli sohalaridagi aloqalarini kamol toptiryapti, xalqaro barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash, hamkorlikning barcha shakllarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning bilan bir qatorda mamlakatimiz hududida faoliyat yuritayotgan 130 dan ortiq milliy madaniy markazlar faoliyatlarini yordamida mamlakatimiz hududida yashayotgan har bir millat va elatlarning milliy an'ana va urf-odatlariga ham hurmat bilan qaralmoqda. Jamiyatimizda millatlararo do'stlikni, milliy madaniyatimizni, urf-odat, an'ana va marosimlarni asrash hamda unga tahdid bo'ladigan hurujlarga qarshi kurashish uchun shu yurtida yashayotgan xar qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy milliy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimiz merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va yurtimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur. Chunki, ma'naviy kamol topgan insonlargina rivojlangan jamiyatni barpo etishga o'z xissasini qo'sha olishga qodir bo'ladi. Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Yangilanayotgan O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri jamiyatda – millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni kuchaytirish kabi muhim masalalarda ko'rishimiz mumkin va bu islohotlar mamlakatimizning yorqin kelajagi uchun xizmat qiladi.

Yurtimizda xalqimiz madaniyatini yuksaltirish, san'atni yanada ravnaq toptirish borasida yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Bularni dildan his qilib, teran idrok etishimiz joiz. Zotan, asrlarga tatigulik bunday ibratli ishlar bilan har qancha g'ururlansak arziydi. Bizdan talab etiladigani esa milliy madaniyatimizning yanada ravnaq topishi uchun fidokorona xizmat qilishdir. Chunki milliy madaniyati yuksak xalq jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ofurov G., Hakimov N., Aliyev B. Madaniyat va jamiyat. T.: 1993. 13-bet.
2. H. Boboyev, T. Hamroyev, V. Alimasov "Madaniyatshunoslik" (o'quv qo'llanma). – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2001. – B. 8-9.
3. "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida" O'zbekiston respublikasining Qonuni O'RQ –668 20.01.2021. lex.uz.



V I BO' LIM

KO'NGIL SO'ZLARI

BUYUK REJISSOR SHUHRAT ABBOSOV

(xotirasiga bag'ishlanadi)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek kino san'atining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan rejissor Shuhrat Abbosov ijodi haqida fikr yuritiladi. Buyuk rejissorning san'at sohasiga kirib kelishi va ijodiy faoliyatini boshlanishi ko'rib o'tilgan. Sh. Abbosov film yaratishda o'ziga xos uslubga va yondashuvga ega ijodkor ekanligiga urg'u berilgan. Bundan tashqari, maqolada rejissor tomonidan yaratilgan filmlarga birma-bir to'xtab o'tilgan. O'zbek kino san'ati oltin fondiga aylangan "Mahallada duv-duv gap" va "Sen yetim emassan" kabi filmlar chuqur tahlilga tortilgan. Shuningdek, Sh. Abbosovning ijod bilan pedagogik faoliyatni birga olib borganligi haqida aytib o'tilgan. Uning xizmatlari davlat miqyosida e'tirof etilganligi va nafaqat kino san'ati ahli orasida, balki xalq orasida hurmatga sazovor bo'lganligi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: kino san'ati, film, rejissor, muallif, asar, badiiy, ramz, insoniylik, milliylik, aktyor.

Нодира КАСИМОВА,

старший преподаватель кафедры "Кино, телевидения и радио режиссуры" ГИИКУз

ВЕЛИКИЙ РЕЖИССЁР ШУХРАТ АББАСОВ

(посвящается памяти)

Аннотация. В данной статье рассказывается о творчестве режиссера Шухрата Аббасова, внесшего большой вклад в развитие узбекского кино. В нем говорится, как великий режиссер начал свою творческую карьеру в сфере искусства. Было отмечено, что Ш. Аббасов – творческая личность с неповторимым стилем и подходом в создании фильма. Кроме того, в статье рассказывается о фильмах, созданных режиссером. В то же время глубоко проанализированы такие фильмы, как «Об этом говорит вся махалля» и «Ты – не сирота», ставшие золотым фондом узбекского кино. В статье также упоминается, что Ш. Аббасов совмещал творческую и педагогическую деятельность. Было отмечено, что заслуги великого режиссера получили признание на национальном уровне и уважение не только в среде кинематографистов, но и в народе.

Ключевые слова: киноискусство, фильм, режиссёр, автор, произведение, художественный, символ, человечность, национальность, актёр.

Nodira KASIMOVA,

Senior lecturer of film and television and radio directing in UzSIAC

THE GREAT DIRECTOR SHUHRAT ABBOSOV

(dedicated to memory)

Abstrakt. This article is about the work of director Shukhrat Abbasov, who made a great contribution to the development of Uzbek cinema. It says how the great director began his creative career in the field of art. It was noted that S. Abbasov is a creative person with a unique style and approach in the creation of the film. In addition, the article talks about films created by the director. At the same time, films such as "The whole mahalla speaks about this" and "You are not an orphan", which became the gold fund of Uzbek cinema, were deeply analyzed. The article also mentions that Sh. Abbasov combined creative and pedagogical activities. It was noted that the merits of the great director received recognition at the national level and respect not only among filmmakers, but also among the people.

Keywords: the cinema, short films, director, author, work of art, feature, symbol, humanity, nationality, actor.

Kino san'ati jamiyatning ijtimoiy hayotida salmoqli o'ringa ega. Insonlarning ma'naviyati yuksalishiga qaysidir ma'noda ta'sir ko'rsatadi. "San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l topish mumkin", deb yoziladi I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida [1.B. 146]. Demak, kino san'atining inson ongi va tafakkuri, jamiyat hayotiga bo'lgan ta'siri beqiyosdir.

Kino san'ati sentetik san'at turi bo'lib o'zida deyarli barcha san'at turlarini qamrab olgan. Kino san'atida tasviriy san'at, musiqa, adabiyot kabi san'at turlari elementlarini ko'rishimiz mumkin. Kino san'ati boshqa san'at turlaridan keyin paydo bo'lishiga qaramay, jamiyat madaniy hayotining ajralmas qismiga aylandi.

Kinoning inson ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatishining sababi shundaki, muxlislar biror kinoni tomosha qilish orqali ruhiy poklanadi. Filmida hikoya etilgan voqea-hodisa ta'sirida tomoshabin yo kulib, yo yig'lab ruhiy yengillikka

erishadi. Katarsiz holatini faqat chinakam san'at asarini ko'ribgina erishish mumkin.

O'zbek kinosining shoh asarlari haqida gap ketar ekan, "Sen yetim emassan", "Mahallada duv-duv gap" kabi o'zbek xalqining bolajonligi, ochiq-qo'lligi va soddaligi aks etgan filmlar ko'z oldimizga keladi. Bunday o'lmas asrlarni yaratish har kimning ham qo'lidan kelavermasligi sir emas. Haqiqiy san'at asarini dunyoga keltirish katta mahoratni, Xudo tomonidan beriladigan iste'dodni talab etadi. Ana shunday xislatlarni o'zida mujassam etadigan shaxslar esa yuz yilda bir keladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek kinematografiyasiga ulkan hissa qo'shgan Shuhrat Solixovich Abbosov yaqin kunlarga kino muxlislarini o'z ijodi bilan maftun qilib kelgan rejissorlardan biri edi.

U 1931-yili 16-yanvarda Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Abbosovlar oilasi

Rossiyaga ko'chib ketadi va Shuhrat olti yoshga to'lganida O'zbekistonga qaytib kelishadi. Ota-onasining ilmga bo'lgan hurmati sabablimi, Shuhrat Abbosov yoshligidan bilimga chanqoq bo'ladi. O'rta maktabni tamomlab, 1946-yili Toshkent tibbiyot texnikumiga o'qishga kiradi. Ammo bolalik davridan drama to'garagiga qatnashib, katta-kichik rollarni ijro etib yurgani uchun sahna san'atiga bo'lgan muhabbati ustunlik qilgan. Shu bois, san'at sirlarini o'rganishga qat'iy kirishadi.


1949-yili A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr san'ati instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)ning "Rejissura" bo'limiga o'qishga kiradi. U ijodiy faoliyatini Toshkent viloyatidagi M.Uyg'ur nomidagi Yangiyo'l musiqali drama teatrida rejissor sifatida boshlaydi. Yosh mutaxassis bo'lishiga qaramay, ushbu teatrdan 1954-1956-yillarda bosh rejissor lavozimida ishlaydi. Uning yorqin iqtidori, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchanligi o'z natijasini namoyon qila boshlaydi. 1956-yili Shuhrat Abbosov "Mosfilm" qoshidagi "Oliy rejissorlik" kursiga o'qishga yuboriladi.

Shuhrat Abbosov 1958-1991-yillar davomida "O'zbek-film" kinostudiyasida samarali ijod qiladi. 1982-1986-yillarda esa u kinostudiyaga rahbarlik qiladi. Shuhrat Abbosov 1996-2001-yillarda O'zbekiston kinochilar uyushmasining birinchi o'rinbosari lavozimida ishlaydi.

Rejissor 60 yildan ortiq davom etgan ijodiy faoliyati davomida o'zbek milliy teatr va kino san'ati ravnaqiga ulkan hissa qo'shdi. Sh.Abbosov tomonidan sahnalashtirilgan B.Rahmonning "Yurak sirlari", K.Yashinning "Nurxon", Hamzaning "Maysaraning ishi", A.Qahorning "Og'riq tishlar" kabi spektakllar va "Mahallada duv-duv gap", "Sen yetim emassan", "Qalbingda quyosh", "Toshkent – non shahri", "Muhabbat mojarosi", "Abu Rayhon Beruniy", "Olovli yo'llar", "Otamdan qolgan dalalar" nomli filmlar O'zbekiston san'atining "oltin fondi"dagi durdonalar hisoblanadi.

Shuhrat Abbosov kino olamiga 1958-yilda "Vasisualiy Loxankin" nomli qisqa metrajli filmi bilan kirib keladi. Ushbu film syujeti I. Ilfa va E. Petrovalar qalamiga mansub "Otin buzoq" nomli romandan olingan parcha asosiga qurilgan. Ushbu filmning ikkinchi rejissori Georgiy Daneliya syomka jarayonini eslar ekan shunday deydi: "Film 600 metrlik plyonkaga ikki kun ichida suratga olingan edi. Mablag' tanqisligi sababli bosh qahramonlar roli MXAT maktabi talabalari Jenya Yevstineyev va Galya Volchoklar tomonidan tekinga ijro etib berilgan edi" [2.C. 4]. Film o'rtasidagi sahna eng oxirida suratga olingan. Unda qahramon divandan sakrab turib, stol yoniga borib, kartochkani yirtib, yana divanga yotishi kerak edi. Shuhrat Abbosov plyonka zo'rg'a bitta dublga yetadigan holatda bo'lganligi sababli aktyordan tez harakat qilishni talab etadi. Ammo Yevstigneyev "Motor" buyrug'idan keyin divandan sekin turib boradi, kartochkani yirtib sekin divanga yotadi va "yordam beringlar" deb pichirlaydi, shu mahal plyonka tugaydi. Keyinchalik film montajidan so'ng aynan shu sahna kulguli va haqqoniy chiqqani ma'lum bo'ladi. Kurs rahbari mashhur rejissor Mixail Romm filmning mohirona ishlanganligini ta'kidlab o'tadi.

Shuhrat Abbosov ilk marotaba 1960-yilda to'liq metrajli filmga qo'l uradi. O.Ramazanov va B.Restlar ssenariysi asosidagi "Mahallada duv-duv gap" filmi olamda



Shuhrat Abbosov

duv-duv gap bo'ldi, desak mublag'a bo'lmaydi. Filmning har bir epizodi qahramonlar tomonidan aytilgan har bir jumla xalq og'ziga tushadi. Filmning xalq ko'nglidan joy olishiga, albatta, X.Isxoqova, X.Umarov, T.Todjiyev, L.Sarimsoqova, M.Yakubova R.Xamroyev, S.Xo'jayev kabi aktyorlar ijrosi ham sababchi bo'lgan. Ammo o'zbek kinosida bungacha hali milliylikka sug'orilgan komediya janridagi film mavjud emas edi, deiyish mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, komediya eng murakkab va sirpanchiq janr yo'li hisoblanadi. Hamma ham bu yo'ldan talofatsiz o'ta olmaydi[3.C.4]. Bu janrda film yaratish o'ta murakkab bo'lib, yuksak zakovat va salohiyatni talab etadi. Shuhrat Abbosov ilk katta film ustida ishlagan bo'lishiga qaramay, "Mahallada duv-duv gap" haqiqiy shoh asar, deb topildi.

Filmda rejissorlik topilmalarini har bir sahnada kuzatishimiz mumkin. Har bir kadr kompozitsion jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lib, undagi aktyorlar xatti-harakati mohirona qo'yilgan. Har bir qahramon obrazi ustida sinchkovlik bilan ishlanganligi, rejissorning aktyorlar ijrosiga jiddiy e'tibor qaratganligi sezilib turadi.

Film hayotni, insoniyatni sevadigan, ular haqida qayg'uradigan muallif tomonidan olinganligi butun asarning tamoyilini belgilab bergan[4.C.18]. Shuhrat Abbosov "Mahallada duv-duv gap" komediyasini tasvirga olar ekan, filmda o'zbek xalqiga xos urf-odatlarini aks ettirishga harakat qilgan. U o'zbek millatining mentalitetini ustamonlik bilan ochib bergan. Tomoshabin e'tiboriga Maryam Yakubova ijro etgan obraz orqali to'y-hashamni sevuvchi, boshqaruvchi ayol, ammo, o'ta ko'ngli ochiq va sodda ona qiyofasi tortiq qilinadi. Lutfixonim Sarimsoqova yaratgan obraz orqali esa farzandi uchun jonini berishga tayyor ona timsoli gavdalanadi.

To'y sahnasidagi noz-ne'matlarning pul ko'rinishiga

aylanib qolishi rejissorning tasvir kuchini oshirib berishdagi uddabronligidan dalolat beradi. “Mahallada duv-duv gap” filmi orqali Shuhrat Abbosov tomoshabinlar qalbidan o‘chmas joy oldi. Yarim asrdan ko‘p vaqt o‘tsada, o‘zbek xalqi hech bir bayramni bu filmsiz tasavvur qila olmaydi.

1962-yilda yozuvchi Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” nomli romani asosida Shuhrat Abbosov “Sen yetim emassan” filmi suratga oldi. Film protatipi Toshkentlik temirchi Shoahmaed Shomahmudov va uning turmush o‘rtog‘i Baxri Akramovalar oilasi hisoblanib, ular ikkinchi jahon urushi vaqtida sobiq Sovet ittifoqi davlatlaridan O‘zbekistonga keltirilgan turli xil millat vakili bo‘lmish 14 nafar bolani asrab olgan hazrati insonlar sifatida el og‘ziga tushgan.

Bunday insonlar haqida asar yaratar ekan, rejissor o‘z zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Shuhrat Abbosov drama janridagi ushbu filmni ulkan mahorat bilan yaratdi. “Sen yetim emassan” filmida bolalar ijrosidagi sahnalar ko‘p bo‘lib, rejissorning tasvirga olish ishini murakkablashtiradi. Ammo ushbu asarni tomosha qilar ekansiz, bolalar qatnashgan sahnalar haqqoniy, ishonarli chiqqanligining guvohi bo‘lasiz. Undan tashqari, Shuhrat Abbosov har qanday rejissor ham uddasidan chiqqa olmaydigan ishni amalga oshirgan. Filmida bolalarni yirik planlarda tasvirga olgan. Rejissorlar yirik planda har qanday aktyorni ham aks ettirishdan ba‘zan hayiqadilar. Chunki butun ekranda aktyorning yuzi namoyon bo‘lsa, uning ijrosi naqadar sof yoki soxtaligini uning ko‘zlari oshkora qilib qo‘yadi.

“Sen yetim emassan” filmidagi bolalar ijrosi shu qadar tabiiy va ta‘sirchanki, hech bir tomoshabin ular uchun achinish va sevinish hissini tuymay qolmaydi. Bu esa film rejissorining betakror mahoratidan darak beradi. Shuhrat Abbosov tasvirga olish jarayonida bolalar bilan til topishgan va ularni asar voqeasiga jalb qila olgan. Sir emaski, bolalar hurmatini qozonish va ularni biron bir harakatni amalga oshirishga undash o‘ta mushkul vazifadir. Chunki bolalar darrov insonni yaxshi-yomonga ajratib oladi va ularning fikrini o‘zgartirish oson emas. Shuhrat Abbosov esa bolalar qalbidan joy egallay olgan. Bu esa “Sen yetim emassan” filmining muxlislar yuragining tubidan joy olishiga sabab bo‘ldi.

Nafaqat sobiq Ittifoq mamlakatlari kinosida, balki butun dunyo ekranida o‘zbek xalqining bolajonligi, bag‘ri kengligi, mehribonligi namoyish etildi. Og‘ir paytlarda bir o‘zbek oilasining millati, dini, tilidan qat‘iy nazar 14 nafar bolani o‘z bag‘riga olishi, ularni o‘z farzandlaridek ko‘rib,

g‘amxorlik qilishi yer yuzida yashovchi hech bir insonni e‘tiborsiz qoldirmaydi. Bu filmni tomosha qilgan har bir odam o‘zbek xalqiga, jumladan, Shoahmad Shomahmudov va Bahri Akramovalar oilasiga ta‘zim qiladi. Asar so‘nggida mehridaryo ota-onaning o‘z farzandi urushdan uyga qaytib keladi. Yigit o‘zi bilan bir nemis bolani olib keladi. Germaniya tomonidan boshlangan urushning til bilan ta‘riflab bo‘lmas darajadagi talofatiga qaramasdan, ota-ona bu bolani ham o‘z bag‘riga oladi. Fashistlarga bo‘lgan kuchli nafrat ham bir go‘dakning nigohi ta‘siri ostida muhabbatga aylanadi. Dushman tomonning farzandini ko‘ksiga bosish ulkan insoniylik xislatidan dalolat beradi.

Shuhrat Abbosov “Sen yetim emassan” filmi orqali butun olamga o‘zbek millatini, o‘zbek kinosida namoyon qila oldi. Ushbu film 1963-yilda Frankfurt-Mayneda bo‘lib o‘tgan xalqaro kinofestivalda sovrin bilan taqdirlandi.

Rejissor ijodiy faoliyati davomida yaratgan “Toshkent – non shahri” (1967) 1968-yilda Olmaota kinofestivalida eng yaxshi rejissorlik ishi va tasviriy san‘at ko‘rinishlari uchun sovringa sazovor bo‘ladi. Undan tashqari, rejissorning “Muhabbat mojarosi” (1971) 1972-yilda Tbilisi shahrida eng yaxshi rejissor mukofoti “Abu Rayhon Beruniy” (1974) Kishenyovdagi asosiy sovrin bilan taqdirlandi.

Umuman olganda, Shuhrat Abbosovning kino asarlari umuminsoniy g‘oyalarga yo‘g‘rilgan falsafiy kino olamiga yo‘l ochdi. Uning filmlari tomoshabin hissiyotini zabt etib, ramziylik darajasida birlashtirdi [5.C.167].

Shuhrat Abbosov kinoda qator filmlar yaratish bilan bir qatorda, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida talabalarga saboq berib, o‘z bilim va ko‘nikmalarini shogirdlariga o‘rgatdi. Uning qo‘lida tahsil olgan bir qator shogirdlar hayotda va san‘at sohasida o‘z yo‘llarini topgan. U shaxs va pedagog sifatida har bir talabaga o‘zini anglashga va mahoratini oshirishga ulkan hissa qo‘shgan.

Rejissorning sermazmun va serqirra ijodi “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni, Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Shuhrat Abbosov “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofatlandi [7. – B. 292].

O‘zbek kinosida o‘chmas iz qoldirgan va shoh asarlarni meros qilib qoldirgan Shuhrat Abbosov Salixovich 2018-yilning 25-aprel kuni vafot etdi. Ammo uning yaratgan filmlari muxlislar qalbidan mangu yashaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. Daneliya G. Bezobidniy passajir: «bayki» kinorejissora». Glava «lishniye podrobnosti».
3. Malyukova Larisa. Kino-bref. Zаметki o sovremennom korotkometrajnom kino. – Iskustvo kino. Moskva. 2004, №10, oktabr.
4. Nosirova A. Kinorejissor Shuxrat Abbasov. – Toshkent: Nafosat, 2009.
5. Abul-Kasimova X., Teshabayev D., Mirzamuxamedova M. Kino Uzbekistana. – Toshkent: Gafur Gulyam, 1985.
6. Shokirov O‘. O‘zbek san‘atkorlari. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

Anvar QOBILOV,
O‘zDSMI “Tahririyat va nashriyot” bo‘limi boshlig‘i, jurnalist.

SAID AHMAD IJODIDA HAJV SAN‘ATINING TUTGAN O‘RNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Said Ahmad ijodiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, “Qoplon” hikoyasi tahlil qilingan holda xushomadgo‘ylik, laganbordorlik kabi salbiy illatlar keltirib chiqarilishi mumkin bo‘lsin holatlar haqida mulohaza yuritilgan. Said Ahmadning serqirra ijodiga yorqin jilo berib turadigan hajvning jamiyatda insonlar hayotida tutgan o‘rni yuzasidan turfa fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: hajv, satira, intermediya, komediya, yumorist, sentimentallik, hozirjavoblik hazil-askiya.

Анвар ҚОБИЛОВ,
заведующий отделом “Редакция и издательство” ГИИКУЗ, журналист.

ВАЖНОСТЬ И ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИСКУССТВА-ХАДЖВ В ТВОРЧЕСТВЕ САИДА АХМАДА

Аннотация. В данной статье дается краткий обзор творчества Саида Ахмада. Также при анализе рассказа “Тигр” обсуждается возможность негативных последствий, таких как лесть, лень. Существуют разные мнения о важности комедии в жизни людей в обществе.

Ключевые слова: юмор, сатира, интерлюдия, комедия, юмор, sentimentalность, остроумный юмор.

Anvar QOBILOV,
Head of the Department of “Editorial and Publishing” UzSIAC, journalist.

THE IMPORTANCE AND CHARACTERISTICS OF THE ART OF PILGRIMAGE IN THE WORK OF SAID AHMAD

Abstract. This article gives a brief overview of Said Ahmad's work. Also, the analysis of the story of “Tiger” discusses the possibility of negative consequences, such as flattery, laziness. There are various opinions on the importance of comedy in the lives of people in society.

Keywords: humor, satire, interlude, comedy, humor, sentimentality, witty humor.

Barchamizga ma‘lumki, ulkan iste‘dod sohibi bo‘lgan ijodkorlarning butun umri davomida qilgan ijodi emas, balki har bir asari o‘nlab, yuzlab olimlar tomonidan batafsil tadqiq qilinadi, sinchiklab o‘rganiladi. Agar har bitta ijodiy, ilmiy ishlar umumlashtirilgan holda jamlansa, juda go‘zal, ajoyib tafakkurning chamanzori vujudga keladi. Buning natijasida esa ana shu chamanzordagi bir-biriga mutlaqo o‘xshamagan har bitta “o‘simlik” o‘zining tarovati bilan ko‘ngillarga orom berib, ijodkor bo‘stonining turfaligini namoyon etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boylıklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san‘atimiz ham albatta bo‘ladi”¹.

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Farobiy, ibn Sino, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdurauf

¹ Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “Ilm-fan yutuqlari Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilsin” mavzusida mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvdagi nutq. 2016-yil 30-dekabr. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B.169.

³ “Toshkent” entsiklopediyasi. 2009-yil.

Fitrat va yana ko‘plab bobolarimizning serqirra ijodi, hayoti hamda faoliyati bir necha yillar, asrlardan buyon tadqiq etilmoqda, bundan keyin ham o‘rganilaveradi. Bu bilan o‘sha iste‘dod sohiblarining ijodi haqida aytiladigan fikrlar qolmadi, degan muammo kelib chiqmaydi. Aksincha, fikr fikrni uyg‘otadi deganlaridek, ijodkorlarning uslubi, mahoratining yangi-yangi qirralari ochilaveradi. “Ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, arxeologiya, sharqshunoslik, O‘zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, san‘atshunoslik va boshqa sohalarda ham salmoqli natijalarga erishilmoqda”².

Haqiqiy iste‘dodli shaxslarning ijodiy merosi ummonga o‘xshaydi. Unga sho‘ng‘igan g‘avvos, nasibasiga yarasha duru-gavharlarni terib chiqaveradi, ular esa mutlaqo tugamaydi. Sevimli adibimiz Said Ahmadning ijodi ham ana shunday ummonlardan biridir. “Said Ahmad istiqloq yillarida ham hayotdagi o‘zgarishlar haqida ko‘plab maqola, badiialar yozdi, quvnoq yumoristik, jo‘shqin lirik hikoyalar yaratdi. “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Kuyov” komediyalari hozirgi O‘zbek milliy akademik teatrida, “Kelinlar qo‘zg‘oloni” dunyoning ko‘plab mamlakatlarida sahnalashtirilgan”³.

Adib Said Ahmad o‘zbek adabiyotida mohir hikoyanavis, o‘tkir hajvchi, xalqimiz sevib o‘qiydigan asarlar muallifidir. Uning qalamiga mansub asarlar hamisha sevib mutolaa qilingan va hozir ham keng omma tomonidan muntazam o‘qiladi. Negaki yozuvchi ijodida kulgining ko‘lami benihoya keng va rang-barangdir. U har

gal tanlab olingan voqeaning oqimiga, qahramonlarning saviyasiga, o'zining niyatiga mos ravishda kulgining shakllarini qo'llaydi. O'zini haqiqiy barkamol kishi sifatida hisoblaydigan kishilar o'zgalarga kulgu bo'lishni istamaydi, ammo kulgini sevishadi va qadrlashadi. Kulgini misli bir oftobga qiyoslashadi. Chunki, u inson yuzidan qahr-g'azabni olib tashlaydi. Kishi chehrasini ochib yuboradi, ko'nglini yoritadi, ma'naviy oziqa beradi. Kulgi insoniyatga qadimdan hamroh. Uning yoshi muhabbat, mehr-oqibat umridan kam bo'lmasa kerak. Kulgi inson uchun hayotiy zaruratdir, uning kishi umrini uzaytirishini tabiblar allaqachon isbotlashgan.

Kulgi faqat borliqqa, ijtimoiy hayotga yaqinligi, voqelikning ruhini bera olishi, jamiyatning tomir urishini sezishga imkon berishi bilangina emas, balki xalqning kayfiyati, orzu-umidlari va imkoniyatlarini davrning ilg'or g'oyalarini aks ettirishda ham namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotida alohida o'ringa ega bo'lgan, hajv taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, hajviyalar, intermediyalar, komediyalar yozib, uni rivojlantirgan Said Ahmad mohir yumorist sifatida tanilgan. Shunga qaramay, uning nasriy asarlarida ham yumor o'ziga xos mavqega ega ekanlini e'tirof etish lozim.

“Said Ahmad ijodida didaktika bilan lirizm, qiziqchilik bilan sentimentallik aql bovar qilmas darajada birlashib ketadi. Ajoyib tomoni shundaki, Said Ahmad prozasining mana shu uslubiy xususiyatlari bir-biriga xalal bermasdan, bir-birini to'ldirib, bo'rttirib, ta'kidlab keladi va ... kezi kelganda ko'p o'rinlarda bir-birini aybini yopib ketadi... Sentimental hissiyotlar haddan oshayozgan joylarda o'rta kutilmaganda qodiriyona beg'ubor va o'tkir oltin kulgi aralashadi va u g'alati bir tarzda sentimentallikning zahrini yo'qotadi”⁴.

Shu bois, Said Ahmad bobomizning asarlarini o'qib, turfa xil qiyofalar, insonlar ruhiyati, har xil voqea-hodisalarga duch kelamiz. Har o'qiganimizda haliga qadar ahamiyatini yo'qotmaganidan hayratlanamiz. Masalan, birgina “Qoplon” hikoyasida o'quvchi saboq chiqarishi uchun kerakli jihatlar mavjud bo'lib, unda kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbordorlik, o'z manfaati yo'lida andisha mulohazaga bormay, surbetlaricha ish tutish, odamlarning amal kursisiga qarab muomila qilish kabi yaramas illatlar tanqid ostiga olingan. Manfaatparast, xushomadgo'y shaxsning o'z foydasini ko'zlab, tovlanishlari hamda asl qiyofasi-yu, dilidagi maqsadi o'rtasidagi nomuvofiqlik o'qigan kishida kinoyali kulgu uyg'otadi. Ijodkorning o'zi ham ayrim nuqsonlar ustidan kinoya-kesatiqsiz do'stona, hayrixohlik bilan kuladi. Ayni kulgu satirik kulgu, hikoya esa satirik asarning yaxshi namunasi hisoblanadi. Satira – so'zi yunoncha “turli, aralash”, degan ma'nolarni anglatib, badiiy asarda kishilardagi yoki ma'lum bir jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni keskin tanqid qilish, masxaralab, bartaraf



SAID AHMAD

etish maqsadida qo'llaniladi. Voqea-hodisalarning, jamiyatdagi insonlarning nuqsonsiz bo'lishini istagan holda zukkolik, topqirlik, hozirjavoblik hazil-askiya bilan munosabat bildiradi. Said Ahmad ijodining o'ziga xosligini bu kulgilarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Kulgi adibning bosh quroli hisoblanadi.

Hikoyadagi Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi rahbarlar pinjiga kirishning “nozik yo'llar”ini biladigan, hech bir isilohasiz laganbardorligini oshkora ko'rsatib, xo'jayinning polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan ablah shaxslar qiyofasini ko'rsatib beradi. Tillaev hamda uning xotini Quronboyning kimligini anglamay, ularga qilib yurgan xizmatini o'zlaricha yaxshilikka yo'yishadi. To'g'ri, janob Tillaev boshida Qurbonboyga e'tibor qaratmaydi. Lekin keyinchalik ixlos qilib, unga ko'p yordamlar qiladi. Pahbarlikdan ketganidan so'ng na Qurbonboy, na uning iti qoplon qoladi. Said Ahmad qoplon obrazidan mohirona foydalangan.

“Badiiy matnlarda insonlar va ularning xarakteri hayvonlar, parrandalar, jonivorlar, hasharotlar, daraxtlar, o'simliklar, shuningdek tabiiy resurslarga qiyos etiladi va natijada nutqqa obrazlilik, emotsiya kiritiladi: Eshak farosatsizlik; vahshiy hayvonlardan sher, arslon kuchlilik; it qopog'onlik; ko'ppak xushomadgo'y, laganbardorlik; tulki ayyorlik ramzi hisoblanadi va ularning atamaları ham badiiy adabiyotda ko'pincha salbiy ma'no kasb etib, zolim boylar va ularning malaylari xarakterini ochishda faol ishtirok etadi”⁵.

Yangi rahbarning uyiga mehmon bo'lib borganida, uy sohibi qoplonni maqtanadi. Qurbonboyning surbetligi shuqadar kuchliki, Tillaevni yangi boshliqnikida ko'rib qolganida hatto, uyalmaydi ham. Direktorining charm to'nini artib turaveradi. Hatto it eski xo'jayinini tanib, dumini likillatib erkananadi. Tillaev esa Qurbonboyga ishora qilib, bu it unga tanishligini aytadi. Demak, “it” deb, Qurbonboyini nazarda tutadi. Yozuvchi bu bilan

⁴ A Ibrohim G'afurov, “Prozaning shoiri” ijodiy ocherk. – T.: “G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1981-yil. – B. 11.

⁵ J. Lapasov, “Badiiy matn va lisoniy tahlil”. – T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 1995-yil. – B. 76

⁶ Ibrohim G'afurov, “Prozaning shoiri” ijodiy ocherk. – T.: “G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1981-yil. – B. 11.

Qurbonboylar kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarni jamiyatda, insonlar orasida o'rni bo'lishi kerak emas, degan g'oyani ilgari suradi.

“Said Ahmadning hikoyalarda obraz yaratish printsiplaridan biri shundaki, u o'z qahramonining xarakterini har tomonlama va tugal ochishni maqsad qilib qo'ymaydi. Uning hikoyalarda qahramonlar xarakterining yetakchi bir xislati, ko'ngilning yetakchi bir istagi bilan ko'zga tashlanadilar. Yozuvchi xarakterining shu yetakchi xususiyatini lo'nda va ixcham qilib gavdalandiradi”⁶. Muallif hikoya qahramonining qon-qoniga singib ketgan manfaatparastlik, xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilikning qay vaziyatda qanday bo'lishini ishonarli tarzda ifoda etadi.

Hikoyani o'qir ekanmiz, Qurbonboyning er kishiga nomunosib harakatlaridan noqulay holatga tushamiz. Muallif qahramonlarning nutqi, xatti-harakati, bir-biriga munosabati orqali ularning ichki olamiga diqqatni qaratadi. Tizginsiz o'ylar, hayotning achchiq va beistisno xulosalari befarq qoldirmaydi. Buyuk ma'naviyat sohiblarini ulg'aytirgan xalqda laganbardorlarning borligi kishini qattiq o'ylantiradi. Asarda tavsiflangan illatlar hozir jamiyatimizda yo'q, Qurbonboy kabi kimsalarni ko'rmaganman, deb kim ayta oladi. Asar o'quvchini o'ylashga, goho ijodkor o'ylariyu saboqlaridan hayratlanishga undaydi. Ijodkor qalbining tub-tubida cho'kib yotgan dardlari, yig'ilib-yig'ilib madda bog'lagan og'riqli yaralarini yorib, go'yo muhtaram o'quvchim, o'zingizga bir razm soling, siz ham mana shunday kaslar toifasiga kirib qolmang!, deya kishini ogohlikka chorlaydi, chuqur o'ylab, mulohazaga qilishga undaydi.

Bizning fikrimizcha, vijdonli, imon-e'tiqodli, halol mehnat qiladigan, o'z ishini mukammal biladigan, vatanparvar kishilar xushomadgo'y, laganbardor, maddoh kimsalarni yoqtirmaydi. Ayniqsa, biror amaldorning

amalga oshirayotgan faoliyatidan norozi bo'lib, kuyunib, o'z dardini aytayotgan fuqaroning yoniga kelib, xudbinlarcha o'sha amaldor, ya'ni boshlig'ini oqlab barcha aybni himoyasiz jabrdiydaning o'ziga yuklab yuboradigan pastkashlarning qilmishlari yanada achinarli. Bunday “xislat”larga ega shaxslar jamiyat taraqqiyotiga to'siq, desak mubolag'a bo'lmaydi. Boisi, ana shunday shaxslar tufayli biqiq bir muhit paydo bo'ladi. Butun boshli avlodlar qanot yozolmay qoladi, buzuq havodan nafas olib ulg'ayishga majbur bo'lishadi. Bilamizki, maddohlikka muhtalo bo'lgan jamiyat bemor odamga o'xshaydi. Bemorni muolaja qilayotgan shifokor esa avvalo, tanadagi kasallik o'chog'ini topishga urinadi. Chunki u vaqtinchalik og'riq qoldirish bilan ish bitmasligini, aks holda uning hamma urinishlari befoyda bo'lishi mumkinligini juda yaxshi biladi-da. Kasallik o'chog'i bartaraf qilinsa, vaqt o'tishi bilan uning asoratlari ham yo'qoladi. Kishilardagi mavjud illat va nuqsonlarni, xato-kamchiliklarini ko'ra-bila turib, ularni oqlaydigan, yoqlaydigan, ma'qullaydigan laganbardor, tilyog'lamalarni yonimizga yo'latmasak, ehtimol, jamiyatimiz yanada rivojlanib, taraqqiyotimiz muntazam takomillashib, tezlashib boraveradi.

“Kishiga hayot va insoniylikning mohiyatini anglatish qalbiga ezgulik urug'ini ekish demakdir. Kimning qalbida ezgulik urug'i ko'karar ekan, har bir a'moli xalqi va vatani ravnaqiga yo'naltirilgan bo'ladi. Ruhi shunday fazilat bilai yo'g'rilgan shaxslar hayotda o'tishgan va hayotda mavjud. Shundaylarni xotirlash, ulariing fidoyiligini xalqqa yegkazish istiqloq qadriga yetishga juda katta dasturilamaldir”⁷. Said Ahmad yaratgan obrazlarning betakrorligi kulgi orqali yanada jozibali, yorqinroq ko'rinadi. Said Ahmad kulgisi qalbimizda ko'pincha olijanob, pokiza tuyg'ularni qo'zg'ab, yaxshilikka undaydi. Uning hajviyoti chuqur mohiyatga, jozibaga ega. Hajv – Said Ahmadning serqirra ijodiga yorqin jilo berib turadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // <http://uza.uz/>. – 03.08.2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. “Ilm-fan yutuqlari Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilsin” mavzusida mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvdagi nutq. 2016-yil 30-dekabr. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – B. 169.
3. “Toshkent” entsiklopediyasi. 2009-yil.
4. Ibrohim G'afurov, “Prozaning shoiri” ijodiy ocherk. – T.: “G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1981-yil. – 11 B.
5. J. Lapasov, “Badiiy matn va lisoniy tahlil”. – T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 1995-yil. – B.76
6. Ibrohim G'afurov, “Prozaning shoiri” ijodiy ocherk. – T.: “G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1981-yil. – B. 11.
7. Hakimjon Karimov, “Istiqloq davri adabiyoti”. Darslik. – T.: “Yangi nashr” nashriyoti, 2010-yil.

⁷ Hakimjon Karimov, “Istiqloq davri adabiyoti”. Darslik. – T.: “Yangi nashr” nashriyoti, 2010-yil.

SAN‘ATGA BAXSHIDA UMR

(O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, professor Jo‘ra SHUKUROV hayoti va ijodiga bag‘ishlanadi)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti professori Jo‘ra Shukurovning ibratli hayoti va namunali ijodiy faoliyati xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada ustoz-muallimning ibratli ijod yo‘li haqidagi xotiralar bilan ilmiy mushohada qilinadi.

Kalit so‘zlar: san‘at, musiqa, dirijor, kompozitor, filarmoniya, kuy, ijro, ansambl.

Нигора АРЗИМУРОДОВА,
преподаватель кафедры “Национальное пение” ГИИКУз

ЖИЗНЬ ОТДАНАЯ ИСКУССТВУ

(Посвящается жизни и творчестве деятеля искусств Республики Узбекистан, профессора Джура ШУКУРОВА)

Аннотация. В статье рассказывается об образцовой жизни и творческой деятельности художника Республики Узбекистан, профессора государственного института искусств и культуры Узбекистана Джуракула Шукурова. В статье также научно наследуется образцовый творческий путь наставника учителя.

Ключевые слова: искусство, музыка, дирижер, композитор, а капелла, мелодия, перформанс, филармония, ансамбль.

Nigora Arzimurodova
kair “National songs” teacher in UzSIAC

LIFE DEVOTED TO ARTS

(Dedicated to the life and work of the artist of the Republic of Uzbekistan, Professor Jura SHUKUROV)

Abstract. The article tells about the exemplary life and exemplary creative activity of the artist of the Republic of Uzbekistan, professor of the Uzbek State Institute of Arts and Culture Dzhurakul Shukurov. The article is also accompanied by scientific observation with memories of the teacher's exemplary creative path.

Keywords: art, chorus, conductor, composer, capella, melody, performance, philharmonic, ensemble.

San‘at ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ma‘naviy madaniyatning tarkibiy qismi, dunyoni ma‘naviy anglashning muhim turidir. San‘at shunday bir olamki, unda barcha ham “san‘atkor” yoki “ijodkor” maqomiga ega bo‘lavermaydi. Chunki san‘at – bu ilohiy kuchdir. Ba‘zi san‘atkor va san‘atshunoslar san‘atni “voqelikning aks ettirilishi” deb hisoblasalar, boshqalari “san‘atkorning sof shaxsiy ijodiy mahsuli”, deb biladilar. Ayni shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi Jo‘ra Shukurovning san‘at sohasida qo‘lga kiritgan ulkan ilmiy-ijodiy yutuqlari va ibratli hayoti haqida fikr yuritishni joiz bildik.

Eng avvalo, aytish lozimki, J.Shukurov qobiliyat va noyob iste‘dod sohibi, mohir pedagog, mehnatsevar va jonkuyar muallimdir. Qolaversa, san‘at olamida “asl san‘atkor”, “serqirra ijodkor” kabi oliy maqomga ega bo‘lgan go‘zal qalb egasi, san‘at sohasida o‘zining ijodiy maktabini yarata olgan ulug‘ inson.

1992-yili mamlakatimiz Oliy Majlisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi tasdiqlandi. Abdulla Oripov she‘ri, Mutal Burxonov musiqasi xor jamoalari ijrosidagi yozuvi esa musiqa muallifining tavsiyasiga binoan aynan Jo‘ra Shukurov rahbarligi va dirijorligi ostida magnit tasmasiga yozib olingan. Bu orqali ustoz san‘atkorning Respublika professional musiqa san‘atida tutgan o‘rni va darajasini anglash mumkin.

Jo‘ra Shukurov 1949-yilda Buxoro shahrida tug‘ilgan. 1964-yili Buxoro shahridagi “ip-yigiruv” fabrikasida qizlar xorini tashkil etgan va unga rahbarlik qilgan. Ta‘kidlash lozimki, shu yildan boshlab uning ijodiy faoliyati boshlangan



Jo‘ra Shukurov

1964-yili mamlakatda xor san‘atini rivojlantirish bo‘yicha hukumat tomonidan maxsus qaror qabul qilingan. Shu ishni amalga oshirish bo‘yicha soha mutaxassislari bilan bir qatorda ba‘zi iste‘dodli talabalarga ham topshiriqlar berilgan. Taqdir taqozosi bilan mana shu ro‘yxatda Buxoro davlat musiqa bilim yurti (hozirgi Buxoro san‘at kolleji) “Xor dirijorligi” bo‘limining 2-bosqichda tahsil olib turgan Jo‘ra Shukurov ham bo‘lgan. 1967-yili bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirgan Jo‘ra Shukurov Toshkent davlat konservatoriyasining “Xor dirijorligi” fakultetiga o‘qishga

qabul qilinadi va bir paytning o'zida Konservatoriya qoshidagi opera studiyasining xor jamoasiga artist sifatida ishga qabul qilinadi. 1968-yildan shu xor jamoasida xormeyster yordamchisi sifatida faoliyat yurita boshlaydi. 1969-yili 3-kurs talabasi Jo'ra Shukurovni kasb-hunar bilim yurtlari Respublika madaniyat uyi rahbariyati o'zlarining tizimidagi talabalaridan milliy xor jamoasi tuzib, unga rahbarlik qilishni taklif etadi. Kasb-hunar bilim yurtlarining o'zbek yigit-qizlaridan xor jamoasi tuzib, 1970-yili mamlakat kasaba uyushmalari va Kasb hunar bilim yurtlari davlat qo'mitalari tomonidan o'tkazilgan Respublika ko'rik tanlovida 3-o'rinni, milliy xor jamoalari orasida esa 1-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ladi. Shuning natijasi o'laroq, Jo'ra Shukurov 1972-yilning yanvar oyida Muhiddin Qori-Yoqubov nomidagi o'zbek davlat filarmoniyasi qoshidagi "Xor kapella" jamoasiga bosh xormeyster lavozimiga ishga tayinlanadi. 1972-yilning mart oyida O'zbekistonda bo'lib o'tgan Gruziya adabiyoti va san'ati kunlarida, jamoaning erkaklar xori bilan dirijyor-xormeyster sifatida qatnashishga muayassar bo'ladi. 1972–1973-yillar armiya safida xizmatni o'tash davrida ham Chita viloyatining Sretensk shahridagi Harbiy shaharchaning umumta'lim maktabida bolalar xorini tashkil qiladi. Viloyat miqyosidagi ko'rik tanlovda mazkur bolalar xori bilan ishtirok etib, 2-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ladi. Xizmat burchini bajarib bo'lgach, ota-onasi bag'riga qaytadi va tug'ilib o'sgan hududida ishlashga qaror qiladi. Buxoro davlat musiqa bilim yurtida o'qituvchi, 1974-yildan boshlab viloyat rahbariyatining topshirig'iga binoan Buxoro musiqali drama va komediya teatrida o'rindoshlik asosida bosh xormeyster va dirijor hamda Buxoro davlat pedagogika bilim yurtida (maktabgacha ta'lim yo'nalishi) qizlar xorining rahbari, Buxoroda bo'lib o'tgan barcha tadbirlarda, jamoatchilik asosida musiqa rahbari va bosh dirijor sifatida faoliyat olib boradi. 1974–1977-yillar davomida O'zbekiston maorif vazirligi tomonidan o'tkazilgan pedagogika bilim yurtlarining Respublika ko'rik tanlovlarida Buxoro maktabgacha ta'lim bilim yurtining qizlar xori bilan ishtirok etib, 1975-yili 2-o'rinni, 1976–1977-yillarda esa 1-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ladi. Toshkentda malakali dirijor-xormeyster mutaxassislar yetishmasligi va Muhiddin Qori-Yoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasi jamoasi va rahbariyatining (jamoah rahbari Xurshid Vohidov) talablariga muvofiq O'zbekiston Madaniyat Vazirligining 1977-yilning 6-oktabr oyidagi buyrug'iga asosan "Xor kapella" jamoasiga dirijyor lavozimiga ishga ko'chiriladi. 1977–1986-yillar davomida o'zbek xor kapellasining dirijori vazifasida ishlab, sobiq ittifoqning Moskva va Leningrad (Peterburg) shaharlari, Rossiya va Ukraina, Belorusiya, Moldaviya, Latviya, Litva, Estoniya, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston hamda Tojikiston Respublikalari bo'ylab gastrol safarlarida bo'lib, o'zbek milliy xor san'ati bilan bir qatorda, rus, yevropa va g'arb kompozitorlari asarlarini ham otashin targ'ibotchisiga aylanadi.

1979-yili Ozarbayjonda, 1981-yili Tojikistonda, 1980-yili Ozarbayjon adabiyoti va san'atining O'zbekistonda va 1981–1998-yillari esa Tojik adabiyoti va san'atining O'zbekistonda bo'lib o'tgan kunlarida ham dirijor sifatida faol ishtirok etadi.

1986-yili O'zbekiston davlat teleradio qo'mitasi rahbariyatining taklifiga binoan, Jo'ra Shukurov taniqli kompozitor Mustafo Bafoyev rahbarligidagi Doni Zokirov nomidagi xalq cholg'ulari orkestrining dirijori vazifasida ishga qabul qilingan. 1988-yildan shu tashkilotda Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamosining bosh dirijori, 1993-yildan jamoaning badiiy rahbari va bosh dirijori hamda "O'zteleradiokompaniyasi" badiiy jamoalarining badiiy rahbari vazifasida faoliyat olib bordi. Uning rahbarligi ostida O'zbekiston radiosining oltin fondiga Doni Zokirov nomidagi xalq cholg'ular orkestri bilan 152 ta asarlarni, Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi bilan esa 700 dan ortiq kompozitorlar tomonidan yaratilgan turli hajmdagi asarlarini yozib olishga muvaffaq bo'ladi.

1988–2005-yillar davomida O'zbekiston televideniya orqali "Xor kuylaridan konsert" rukni asosida tayyorlangan 156 ta ko'rsatuvning, jumladan, Ikrom Akbarov, Sayfi Jalil, Mardon Nasimov, Botir Umedjonov, Mustafo Bafoyev, Farhod Alimov, Habibulla Rahimov kabi bir qator taniqli o'zbek kompozitorlarining televideniy yubiley konsertlarida ham ssenariy muallifi, boshlovchisi va dirijori sifatida faoliyat olib borgan.

1989-yildan 2010-yilgacha hukumatimiz tomonidan bo'lib o'tgan "Navro'z" va "Mustaqillik" bayramlarida, "Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi" va "Amir Temurning 650 yilligi", Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, Bahovuddin Naqshband, al Farg'oniy, al Xorazmiy kabi bir qator allomalarimizning, Amir Temur saltanatidagi Ispaniya elchisi Klavixoning Samarqand shahrida bo'lib o'tgan 650 yilligiga kabi yubiley tadbirlarida, Respublika miqyosida o'tkazilgan turli spartakiada va chempionatlarda, universiadalarda, Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan "Sharq taronalari" festivallarining ochilish konsert dasturlarida (1997-yildan 2007-yilgacha muntazam) bosh xormeyster sifatida faoliyat olib bordi.

1995-yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Respublika hunarmandlarining birinchi festivali"da musiqa rahbari va bosh dirijor, 1998-yili O'zbekistonda bo'lib o'tgan Tojikiston adabiyoti va san'ati kunlarida Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi bilan ishtirok etgani mamlakatlar rahbariyati tomonidan alohida e'tirof etilgan va shu yilning o'zida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Jo'ra Shukurov "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi" yuksak unvoni bilan taqdirlangan.

O'sha davrlarda uning talqinida O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlarining asarlari respublikamizdagi taniqli xonandalar: O'zbekiston Respublikasi xalq artistlari Muayassar Razzoqova, Maryam Sattorova, Matluba Dadaboyeva, O'zbekiston Respublikasi xalq hofizlari Mahmud Tojiboyev, Beknazar Do'smurodov, Soyibjon Niyozov, Orolmirza Safarov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar Gulbahor Erqulova, Nasiba Sattorova, Rustam Abdullayev, xushovoz xonandalar Erkin Rahimov va Nigora Arzimuradovlar tomonidan ijro etilib, O'zbekiston radiosi oltin fondiga muhrlangan va O'zbekiston televideniya orqali namoyish etilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan ustoz san'atkorlar Jo'ra Shukurovni qaysidir ma'noda o'zlarining ustozlari sifatida e'tirof etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbek milliy xor ijrochiligiga kompozitor Mutal Burxonov asos solgan bo'lsa, O'zbekiston xalq artisti Botir Umidjonov unga qasr qurdi, Jo'ra Shukurov esa bu qasrni milliy bezaklar bilan boyitdi – degan edi, marhum musiqashunos olim, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor A.Jabborov.

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti laureati, professor, kompozitor Mustafo Bafoev Jo'ra Shukurov haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: “agar Jo'ra Shukurov xor san'atida qolib ketmasdan, simfonik orkestr dirijorligi mutaxassisligi bo'yicha ketganda, jahonshumul bo'lar edi. Chunki xudo unga shunday katta iste'dod va imkoniyat bergan. O'zbekiston kompozitorlarining xor ijrosi uchun yaratgan barcha yirik asarlarini, jumladan, mening ham simfoniyalarim, oratoriyalarim, kantata va poemakantalarim, boringki ovoz uchun yaratgan asarlarimning deyarli barchasi Jo'ra Shukurov talqinida ijro etilgan. U ko'plab kompozitorlarning asarlarini magnit tasmasiga olishga, kerak bo'lsa ba'zi-bir asarlarga katta o'zgartirishlar kiritib (albatta, mualliflar roziligi bilan) yordam bergan. J.Shukurov professional dirijor-xormeysterlar orasida yana o'zining nafaqat Yevropa va jahon xor musiqasi san'atining mukammal o'zlashtirgani bilan balki xalq musiqa merosining bilimdoni sifatida hamda zukko va topqirliqlik bilan ham alohida ajralib turadi.

Darhaqiqat, 1980-yili Tojikistonda bo'lib o'tgan “O'zbekiston adabiyoti va san'ati kunlari”ning ochilish konsertida shunday voqea yuz bergan. Konsert Sulaymon Yudakovning xor va simfonik orkestri uchun yaratilgan bir asari bilan boshlanishi kerak. Tomosha zalida ikkala mamlakatning birinchi rahbarlaridan o'tirishibdi. Sahnada Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi, O'zbekiston davlat xor kapellasi va Alisher Navoiy nomidagi Katta akademik opera va balet teatrining xor jamoasi, jami 150dan ortiq xonandalar ijroga saf tortib turishibdi. Pastda simfonik orkestrning dirijorlik pultida xalq artisti (marhum) Dilbar Abdurahmonova o'zining qo'l harakati bilan ijro boshladi va pardani ochishga ishora qildi. Biroq... Parda na avtomatik tarzda va na qo'l bilan ochilmayapti. Ijro etilishi lozim bo'lgan asarning musiqiy daromad qismi yakunlanib, xor o'z ijrosini boshlash vaqti kelishi bilan Jo'ra Shukurov oyoq uchida xor jamoasining oldiga chiqib, ijroni boshlatib yubordi va o'zi parda ortidan turib, orkestr ijrosiga binoan jamoani boshqarib turdi. Asar ijrosining tugatilayotgan bir paytda parda ishlab ketdi va ochila boshladi. Shunda Jo'ra Shukurov asta-sekinlik bilan parda bilan baravar kulisga tomon chiqib ketdi. Va asarning qolganini sahnadagilar Dildbar Abdurahmonovanning dirijorligi asosida yakunlashdi. Ko'ribsizki, tomoshabinlar nazdida ssenariyda xuddi shunday bo'lishi lozimdek tuyuldi. Mana sizga topqirlik va o'z ishiga bo'lgan sadoqat. Vaholanki, o'sha paytda sahnada 5-6 ta professional xormeysterlar ham bor edi.

1996-yil Toshkent davlat konservatoriyasining katta zalida Xor musiqasi festivalining final konserti boshlangan. Konsertni Jo'ra Shukurov rahbarligidagi Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi yakunlashi belgilangan. Jamoa sahnaga chiqdi va birinchi hamda ikkinchi asarlar ijrosi taqdim etilib, navbat uchinchi asarga

keldi. Bobur ruboiysi va Botir Umedjonov musiqasi bilan “Men ne qilay” hamda Abdulla Ansoriy ruboiysi va Jo'ra Shukurov musiqasi bilan “Bildim” asarlari e'lon qilindi, deya eslaydi yakkaxon xonanda Erkin Rahimov (hozirda “Vokal” kafedrasida dotsenti, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist). Asarning daromad (kirish) qismi ijro etilib, navbat menga kelgan bir paytda birdaniga chiroq o'chdi. Zim-ziyo qorong'ulik. Shunda oq ko'ylak va qora kostyum-shimda bo'lgan ustoz Jo'ra Shukurov pidjak yengini epcillik bilan shimarib olib, oq ko'ylak yengining sharpasi bilan jamoa ijrosini boshqara boshlab, ijroni davom ettirishga da'vat etdi. Shu asnodda konsertda barcha asarlar ijro etilib kelinayapti va ba'zi bir asarlar esa tomoshabinlarning talablariga muvofiq qayta-qayta ijro etildi. Konsert dasturining oxirgi asarining ijro boshlanganda chiroq berildi. Shunda ustoz bosh va ko'z ishoralari bilan jamoa ijrosini boshqarib turib, tomoshabinga bildirmay epcillik bilan pidjak yenglarini o'z holiga tushurib oldi. Konsert tugagach tomoshabinlar o'rnidan turgan holda uzoq muddat qarsaklar bilan o'z minnatdorchiliklarini bildirishgani hech esimdan chiqmaydi. Shunda ustozning haqiqiy ustaligi, zukko va topqirliklariga qoyil qolganmiz.

Nafaqat mamlakatimizda, balki butun Markaziy Osiyo davlatlari tan olgan zabardast dirijor-xormeyster, Respublika milliy xor san'ati rivojiga benazir hissa qo'shgan yirik mutaxassis, ayni vaqtda O'zDSMI “Milliy qo'shiqchilik” kafedrasida faoliyat olib bormoqda, bu yaxshi. Biroq bunday noyob sohadan chiqqan yetuk ustozlardan nafaqat milliy qo'shiqchilik, balki xormeysterlar tayyorlaydigan yo'nalishlarda faoliyatlarini olib borib, o'zlaridan keyin shu soha ravnaqi uchun zarur bo'lgan shogirdlar tayyorlasa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi...

Jo'ra Shukurov bunday ulkan ijodiy ishlar bilan bir qatorda, oliy ta'lim muassasida o'rindoshlik asosida pedagogik faoliyatini ham olib borgan. 2002-yildan Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida dotsent vazifasini bajaruvchi, 2008-yildan esa professor lavozimlarida ishlab keldi. 2010-yildan institut rahbariyatining taklifiga binoan “Milliy qo'shiqchilik” kafedrasining mudiri sifatida, 2012-yildan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti “Xalq ijodiyoti va an'anaviy qo'shiqchilik” kafedrasining professor vazifasini bajaruvchi lavozimlarida ishlay boshlaydi.

Aytish joizki, 2010-yilning o'zidayoq “Milliy qo'shiqchilik” kafedrasida qoshida “Ustoz va shogird” an'anasini yo'lga qo'yish maqsadida professor-o'qituvchilar va iste'dodli talabalardan “Sayqal” ansamblini tashkil etgan. Mazkur ansambl hozirgi kungacha o'z ijodiy faoliyatini davom ettirib, Jo'ra Shukurov rahbarligida tashkil etilgan turli tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. 2014-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Xor dirijorligi” kafedrasining mudiri va professori vazifasida ishladi. 2015-yildan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti “Xalq ijodiyoti va an'anaviy qo'shiqchilik” kafedrasining mudiri va professori lavozimlarida faoliyat olib bordi.

2016-yildan hozirgi kunga qadar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti “Milliy qo'shiqchilik” kafedrasining professori sifatida mehnat qilib kelmoqda.

Ustozning pedagogik faoliyati davomida ijodiy ishlaridan tashqari, bir qator ilmiy, ilmiy uslubiy va nazariy ishlarni ham amalga oshirganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, Jo'ra Shukurovning Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari uchun yaratilgan bir qator ilmiy-uslubiy ishlarini keltirish mumkin. 2006-yilda yaratilgan "Dirijorlik" [3.152]. nomli o'quv qo'llanmasi, 2009-yilda yaratilgan "Ommaviy bayramlarda musiqiy bezak" nomli o'quv qo'llanmasi, 2011-yilda yaratilgan "Jamoajirochiligi va uslubiyoti" [2]. nomli o'quv qo'llanmalarini, 2010-yilda bolalar xor jamoalari uchun "Birgalashib kuylaylik" [4]. nomli to'plamni yaratdi.

Oliy ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini rivojlantirish bo'yicha o'quv adabiyotlar yaratish borasida Jo'ra Shukurovning 2019-yili nashrdan chiqqan "Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti" [1.216]. fanidan darsligi ayni muddao bo'ldi. Bu darslik nafaqat O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari uchun, balki barcha oliy ta'lim muassasalari musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalari foydalanishlari mumkin bo'ladi [1.3].

Mazkur o'quv uslubiy adabiyotlar muallifning yillar davomida to'plagan yuksak metodikasining mevasi bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur o'quv qo'llanmalardan Madaniyat vazirligi tasarrufidagi barcha oliy ta'lim muassasalari, bolalar san'at va musiqa maktablarining o'qituvchilari unumli foydalanib kelishmoqda. "Dirijorlik" o'quv qo'llanmasi o'zbek lotin alifbosida nashr etilgan. Bunda muallif bir qator o'zbek xalq qo'shiqlaridan "Chalgin" [3.26], "Farg'onacha yor yor" [3.27] asarlarini xotin-qizlar xoriga moslashtirgan bo'lsa, kompozitorlar tomonidan yaratilgan "Toshkentim" (A.Berlin musiqasi) [3.30] asarini bolalar xori uchun qayta ishlagan. Shuningdek, o'zbek xalq qo'shiqlaridan "Yallama yorim" qo'shig'ini ham xor uchun moslashtirganligini ko'ramiz. [3.119].

Bulardan tashqari, 30 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubiy, ilmiy-ommabop maqolalari nafaqat mamlakatimizda, balki Hindiston va Rossiya mamlakatlarining yuqori impaktfaktorli jurnallarida ham chop etilgan.

Jo'ra Shukurov bastakorlikka da'vogarlik qilmagan holda, qalb ehtiyoji sifatida bir qator musiqiy asarlarning ham muallifidir. Alisher Navoiy g'azali bilan "Jismi bemorim fido", Furqat g'azali bilan "Qilsangchi xanda", Abdulla Ansoriy ruboiysi bilan "Bildim", Mahmud Toir she'ri bilan "Qaylardan so'roqlayin yor", Zulfiya Mo'minova she'ri bilan "Ey, dilim", Tursuntosh Jabborova she'ri bilan "Sening tovoningga qolmayin", Faxriyor she'ri bilan "Yaldo tunim", H.Axmedova she'ri bilan "Yor-yor", Barot Isroil she'ri bilan "O'zbekiston" qo'shiqlari, shuningdek, "Amir Temur va Hofiz" radio spektakliga yozilgan musiqa hamda xor jamoasi ijrosiga moslashtirgan bir qator xalq qo'shiqlari O'zbekiston radiosi fondidan munosib joy olgan bo'lib, vaqti-vaqti bilan radio to'lqinlari orqali tinglovchilarga havola etilib kelinmoqda.

Jo'ra Shukurov hofizlik borasidagi iste'dodlari xususidagi xotiralarini quyidagicha eslaydi: "1969-1970-yillar bo'lsa kerak, Buxoro davlat pedagogika instituti "Musiqqa" fakultetining katta o'qituvchisi, akamiz Mahmud Baqoyevich Rahmatovning nikoh to'yi. Kelin-kuyov davraga chiqishdan oldin barcha mehmonlar kelib bo'lishgan (ularning aksariyati san'atkorlar). Yoshligimni

inobatga olib davra ochilguncha mehmonlarga ashula aytib turishimni iltimos qilishdi. O'sha paytlarda Orifxon Hotamov bilan Hakimjon Fayziyevlarning hamnafaslikda ijro etgan bir qator ashulalari plastinka bo'lib chiqqan edi, shundan ayrimlarini yodlab olgan edim. Alisher Navoiy g'azali bilan aytilgan "Qoshi yosinmu deyin", Boborahim Mashrab g'azali bilan aytilgan "Derlar" ashularini baholi qudrat ijro qilib berdim. Bu ashulalar Buxoroda yangilik ekan shekilli davradagi bir qator xonandalar mendan shu ashulalarni o'rgatishimni so'rashdi. Ha, darvoqe bir xonanda (nomini aytishim shart emas – J.Sh.), yonimga kelib qo'limga o'zining torini tutqazdida, shu tor bilan ham bir "Munojot" ashulasini aytib berishni iltimos qilib, davrani o'zining e'tiboriga qaratdi. Bu xonandaning ovozi Tenor altino ekanligini bilar edim va torni soziga e'tibor bersam "do" notasiga emas, balki, ancha baland sozlangan, ya'ni xonanda o'zining ovozigacha moslab sozlagan ekan. Mening ovozim esa "bas-bariton", ya'ni tabiiyki uning ovozidan ancha past va quyuq edi. Shunda torning ochiq pardasidan keyingi birinchi barmoq pardasi "mi" bo'lishini taxmin qilib, iltimosini bajargan edim. Buyog'i endi o'zingizga ma'lum..."

"1975-yili Buxoro musiqa bilim yurtida dars berib yurgan paytlarim ikki talabamiz: Davron Mahmudov va Manzura Hamidovalarning visol to'y oqshomlarida o'tiribmiz. Mening bilim yurtida o'qib yurgan paytlardagi kursdoshim, olloh rahmat qilgan bo'lsin Shavkat Murodov kelib to'yni ikkita qo'shiq bilan boshlab berishimni taklif qildi. Men esa unga hazillashib, "menku aytaman, biroq mendan keyin sen ashula ayta olarmikansan" deb hazillashdim, shunda u "albatta, aytaman", dedi. Hazildan-hazil Kamoliddin Rahimov ijodiga mansub "Aytishim shartmidi oshiqligimni" ashulasini ijro etdim. Bu ashulaga qandaydir ilhom kelganmidi, bilmadim kichik bir avj ham qo'shib aytganman. Ashulaning ijrosi tugadi. Men torni Shavkatning qo'lga topshirib davradagi joyimga borib o'tirdim. Davrada anchagina xonandalar bor edi. Biroq hech qaysi biri ashula aytishga chiqmayapti. Keyin Shavkatga "nima qilayapsizlar, to'y soviyaptiku" desam, "Sendan keyin endi, qaysi bir ijodkor ashula aytadi", degan edi.

Endi Jo'ra Shukurovning shu kunlarda ham hukumatimiz tomonidan o'tkazilib kelinayotgan turli madaniy tadbirlarda yetakchi mutaxassis sifatida faol ishtirok etib kelayotganligi hech kimga sir emas.

2019-yilning sentyabr oyida Qo'qon shahrida bo'lib o'tgan "Xalqaro hunarmandlar festivali"ning ochilish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish ishlari olib borilgan bir paytda Jo'ra Shukurov ham faol ishtirok etdi. Kompozitor Mustafo Bafoyev tomonidan yaratilgan "Yetti pir" oratoriyasining Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi va Davlat xor kapellalari bilan birgalikdagi ijro taqdimoti ham O'zbekiston davlat konservatoriyasining katta zalida bevosita Jo'ra Shukurov dirijorligi asosida bo'lib o'tdi.

Jo'ra Shukurov tomonidan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va O'zbekiston davlat konservatoriyasi professor-o'qituvchilarining ko'plab o'quv qo'llanma, darsliklariga mas'ul muharrirlik qilgan va taqrizlar yozgan hamda bir necha yillardan buyon O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi

o'quv adabiyotlarni nashr etish Muvofiqlashtiruvchi Kengashining jamoatchilik asosida eksperti sifatida ham faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda Jo'ra Shukurovning shogirdlari orasida 2 nafar "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar", 2 nafar "Do'stlik ordeni" sohiblari, 1 nafar "Fidokorona mehnatlari uchun" ordeni sohibi, 1 nafar "Shuhrat" medali sohibi, 1 nafar "Mard o'g'lon" g'olibi, 1 nafar Davlat mukofoti sovrindori kabi yuksak unvonlarga ega bo'lgan shogirdlari Respublikamizning turli teatrlarida, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi teleradio kanallarida, Respublika va viloyat madaniyat boshqarmalarida, madaniyat va san'atga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari hamda madaniyat markazlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston xalq hofizi, "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida professori Beknazar Do'stmurodov:

Jo'ra akani bilganimga o'ttiz yildan oshdi. O'zbekiston teleradiokompaniyasining badiiy jamoalarida birga ishlar edik. Jo'ra aka "Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasining badiiy rahbari va bosh dirijori bo'lishi bilan bir qatorda badiiy jamoalarning badiiy rahbari sifatida ham faoliyat yuritardi. Ishga juda mas'uliyat bilan yondashadigan va o'z sohasiga vafodor hamda sodiq inson bo'lganligi uchun boshqalardan ham shuni talab qilar edi. O'rgatadigan asarni, qanday murakkablikdagi asar bo'lmasin, uni Jo'ra aka ijrochilarga juda tez va osongina, qiynalmay o'rgatardilar. Masalan, kompozitor Mustafobafoyevning "Nodirabegim" nomli bir telebaletini bir hafta ichida katta jamoaga o'rgatib, magnit tasmasiga yozdirishga erishgan. Shunda bu kishining san'atiga, bilimiga, ustozlik mahorati va qobiliyatiga barchamiz qoyil qolganmiz.

Yana shuni ham aytishim kerakki, Jo'ra aka nafaqat xormeyster, balki xalq musiqa merosining bilimdoni sifatida ham ustozlar tomonidan alohida e'tirof etilgan. Bir kuni menga ustozim, O'zbekiston xalq xofizi Orifxon Hotamov ashula o'rgatib turgan edilar. Jo'ra aka kelib, ustoz, sizni Mashrab g'azali bilan aytiladigan "Sani Layli Ra'nadek ajoyib dilrabo derlar", degan nihoyat darajadagi go'zal bir qo'shig'ingiz bor edi, deya xirgoyi qilib eslatdilar. Shunda Orifxon aka "Ha, bu odam ko'p narsani biladi", dedilar va shu ashulani qidirib, topib bizga o'rgatgan edilar.

Jo'ra Shukurov o'zlari ham yaxshigina ovoz sohibi. O'zbek milliy cholg'u sozlarini deyarli barchasini maromiga yetkazib ijro etadi. Ustoz maqomni yaxshi biladi va milliy xor dirijorligini ustasi hisoblanadi.

O'zbekiston xalq hofizi, "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida professor v.b. Orolmirzo Safarov: O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor Jo'ra aka Shukurovni sal kam 30 yildan beri taniyman. Ilk bor u kishi bilan 1993-yil O'zbekiston radiosida ko'rishganmiz. Keyinchalik 1999-yilda men ta'lim olayotgan Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining davlat attestatsiya komissiyasiga rais bo'lgan. O'sha paytda men "Xalq musiqasi" yo'nalishining sirtqi bo'limini tamomlayotgan edim. 2010-yilda Jo'ra aka bizga kafedra mudiri etib tayinlandi. U kishi nafaqat xor, balki, o'zbek milliy qo'shiqchilik yo'nalishini ham chuqur bilimdoni sifatida tahlil qilish qobiliyatiga ega inson. Ustoz uzoq

yillar xor jamoasida rahbar bo'lib ishlagan. Shu yillar ichida nafaqat bir qator o'zbek xalq qo'shiqlarini, hattoki "Buxoro Shashmaqomi"dagi ayrim namunalarni ham ko'p ovozli ijroga moslashtirib yozdirgan asarlari O'zbekiston radiosi oltin fondidan munosib joy olgan. Jo'ra aka O'zbekiston xalq artisti Botir Umidjonovning eng ajoyib va suyakli shogirdlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ustoz Botir Umidjonov nafaqaga chiqayotib jamoa taqdirini shu insonga ishonib topshirganlar. Ustozning farzandlari Jahongir Shukurov ham otaning yo'lidan ketib, kompozitorlik va dirijorlik sohasida tahsil oldi.

Jo'ra aka nohaqlikni ko'rsa g'azabi keladigan inson. U kishi shu qadar kamtarki, hamisha kulib shunday deydilar: "Men professor lavozimini bajaruvchi maqomga ega bo'lganimga mana qariyb, 13 yil bo'ldi". Va nihoyat ustozning mehnatlari e'tiborga olinib, mehnatning ortidan rohat ko'radigan kunlar kelib u kishi professor unvoniga ham sazovor bo'ldi. Jo'ra akani juda kuchli tashkilotchi deb bilaman. Institutimizda bo'ladigan barcha tadbirlarni jonini jabborga berib tayyorlaydilar, hatto rejissorlik ham qiladilar. Ustozning bundan keyingi faoliyatlariga ham omad tilayman. Oilasini, shogirdlarini baxtiga sog'salomat bo'lsin.

"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida dosenti Hikmat Rajabov: Men u insonni Buxoro davlat musiqa bilim yurtiga o'qishga kirganimdan buyon bilaman. U kishi 3-kursda "Xor dirijorligi" bo'limida o'qir edilar. Ikki yil birga o'qigan davrimizda u kishi xor bilan birga orkestrga dirijorlik qilganlarida men qo'shiq kuylaganman.

Jo'ra Shukurov milliy sozlardan doirani va rubobni, yevropa damli cholg'ularini ham yaxshi chaladi. Xor san'ati bilan birga "Shashmaqom"ni ham yaxshi biladi. Xalq yo'lidagi ashulalarni, bastakorlar qo'shiqlarini bilimdoni hisoblanadi. Shu bilan birga o'zlari ham juda yaxshi ashulachi.

Doni Zokirov nomli "Xalq cholg'ulari" orkestriga ishga kelganimda, u kishi menga juda ko'p yordam bergan. Katta jamoa bilan ishlash uslublarini Jo'ra akadan o'rganganman. Ularni rahbarlik maktablarini olish menga nasib qilgan. Jo'ra aka mohir san'atkorliklari bilan birga dehqonchilikni ham yaxshi tushunadilar. Uylarini atrofini gulzorga aylantirgan. U kishi san'atning barcha janrlarini yaxshi biladi. Jo'ra akaning san'at hamda ijod yo'llarida omad va muvaffaqiyatlar tilayman. Oilasi, farzandlari qolaversa, barcha yaqin insonlari-yu, shogirdlari baxtiga sog'-omon bo'lsinlar (H.Rajabov bilan bo'lgan suhbatdan).

"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida professori v.b., O'zbekiston xalq artisti O'lmas Rasulov(marhum): ham yevropa, ham xalq musiqa merosini bu darajada mukammal biladigan va milliy musiqamizga shunchalik jonkuyarlik bilan yondashib, ish tutadigan Jo'ra akaga o'xshagan mutaxassislar kamdan kam uchraydi.

Men ushbu maqolada ustozim Jo'ra Shukurov haqida bilgan taassurotlarimni qalamga olishni niyat qilgan edim. O'zbekistonda Respublikasi san'at arbobi, professor Jo'ra Shukurovni 2000-yildan buyon taniyman. 1998-yil Yunus Rajabiy nomidagi "Maqom ansambli"ga ishga kirdim va 2000-yil ba'zi bir sabablarga ko'ra ansabdan ketishga qaror qildim va Badiiy jamoalar direktori, marhum Bozorboy Safarovning oldilariga mayus holda ariza yozib kirdim. Shunda u kishi "Sen maqomda emas,

xor jamoasida ishlangan u yerda xuddi o'zingga o'xshagan juda kamtar va samimiy insonlar ishlaydi. Qancha ijod qilaman, desang senga yordam beramiz", deb turgan paytida Jo'ra Shukurov eshikdan kirib keldilar. Shunda direktor "Shu qizni jamoangizga ishga oling. Buni juda yaxshi ovozi bor, dedilar. Shunda Jo'ra aka: "Albatta, bu qizni so'zsiz ishga olamiz. Ovozini ham odobini ham bilamiz", dedilar menga yuzlanib, "lekin ertaga xor jamoasida ishlayotganingga afsuslanmaysanmi? Sen milliy qo'shiqlar aytib yurgansan. Yaxshilab o'ylab ko'rgan keyin afsuslanmagin. Faqat bir oydan keyin kelib, qaroringni aytasan", dedilar. Men bir oydan so'ng xor jamoasida ishlash istagimni bildirdim. Ustoz Jo'ra aka esa "shu kundan boshlab, 1-soprano guruhida kuylaysan, deb menga yuzlandi, men: "bunday baland ovozim yo'q, eplolmayman" dedim. U kishi o'sha kundan boshlab men bilan ovoz mashqlarini boshladilar. O'zim bilmagan ovoz imkoniyatlarimni ustoz oldindan sezgan ekan.

10 yil ustoz rahbarligidagi jamoada ishladim. Shu yillar ichida juda ko'plab qo'shiqlar yozdirdim. Ijodiy faoliyatimni eng gullagan davri shu jamoada bo'ldi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Ustoz kimni ovoziga qaysi asar tushishi kabi siru-sanoatni ham yaxshi biladigan, oldindan ko'ra oladigan, iste'dod sohibi.

2004-yili bastakor Doni Zokirovning xotira kechasiga tayyorgarlik ko'rilayotgan bir paytda Xalq cholg'ulari orkestrining badiiy rahbari va bosh dirijori Hikmat Rajabov menga bir qo'shiqni ijro etishimni tavsiya qilib turganida, Jo'ra Shukurov kirib keldi va Hikmat akaga: "Nigoraga bu qo'shiqni emas "Gulchi bog'bon qo'shig'i"

asarini bersangiz, ham o'zi yig'laydi, ham boshqalarni yig'latadi", dedi. Ikkkala qo'shiqni ham eshitib ko'rsam, ustoz tavsiya qilgan "Yor ishqida" qo'shig'i juda chiroyli ekan. Asarni ustozning o'zlari milliy bezaklarini, nola-qochirimlarini joy-joyiga qo'yib o'rgatdilar. Hozirda radioning oltin fondida 60 dan ziyod qo'shiqlarim bo'lsa, men uchun eng aziz asar mana shu "Yor ishqida" qo'shig'i, deb hisoblayman. Har qanday vaziyatda ham meni hamisha qo'llab-quvvatlab kelgan. Hozirda ustoz bilan institutda birga ishlayotganimdan faxrlanaman. Umrlari uzoq bo'lsin.

Biz maqolamiz avvalida san'at ilohiy kuch deya ta'kidlagan edik. Darhaqiqat, san'atning ilohiyligi shundaki, unda inson faqat va faqat "ijod" nomli mashg'ulot bilan band bo'lmog'i lozim. Agar inson ijoddan uzoqlashsa, demak, u san'atdan ham uzoqlashadi. San'atkor mana shu ijod hamda mehnat tufayli kamolotga yetadi. Insonga erishgan muvaffaqiyatlarning "1 foizi iqtidor orqali bo'lsa, 99 foizi mehnat bilandir!", degan naql bejizga emas, albatta.

Oллоh bergan iste'dod va halol mehnat ortidan 72 bahorni nishonlagan Jo'raqul Shukurovning tavallud ayyomlari bilan chin dildan muborakbod etamiz. Hamisha sog'lik, omonlikda, bag'ri butunlikda ijod qilishda davom etaversinlar. San'at olamiga endi kirib kelayotgan yosh ijodkorlar esa ustoz Jo'ra Shukurovdan o'rnak olgan holda vatanni, oilani, ijodni hamisha muqaddas deb bilishni o'rganib olsa albatta, murodigaga yetadi. Chunki Jo'ra Shukurovning hayot hamda ijod yo'llari nafaqat yosh avlod, balki barchamiz uchun chin ma'noda namuna hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shukurov J. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubi. –Toshkent: Turon-Iqbol, 2019. –B. 216.
2. Shukurov J. Jamoa ijrochiligi va uslubi. –Toshkent: Yangi nashr, 2012. –B. 142.
3. Shukurov J. Dirijyorlik: o'quv qo'llanma. –Toshkent: Istiqlol, 2006. –B. 152.
4. Shukurov J. Birgalashib kuylaylik. –Toshkent: Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik hamda axborot markazi, 2010. –B. 80.
5. Shukurov J. Xor san'ati: yutuq va muammolar // O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. – T.: 2018. –B.5.

Shahlo HAMIDOVA,
O‘zDSMI “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasida katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

TANQIDCHI, DRAMATURG, PEDAGOG...

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli teatrshunos olim Toir Islomovning ilmiy ishlari xususida fikr yuritiladi. Uning teatr nazariyotchisi, teatr tanqidchisi, tarjimon hamda pedagog sifatida olib borgan izlanishlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: taqriz, teatr, tahlil, spektakl, tanqid.

Шахло ХАМИДОВА,
старший преподаватель кафедры “Искусствоведение и культурология” ГИИКУЗ,
самостоятельный изыскатель

КРИТИК, ДРАМАТУРГ, ПЕДАГОГ...

Аннотация. В данной статье рассказывается о научной деятельности известного театроведа Таира Исламова. Анализируются его исследования как теоретика театра, театрального критика, переводчика и педагога.

Ключевые слова: обзор, театр, анализ, спектакль, критика.

Shakhlo KHAMIDOVA,
Senior lecturer of chair of Art and Cultural Studies, UzSIAC, independent researcher

CRITIC, PLAYWRIGHT, TEACHER ...

Abstract. This scientific article describes the scientific work of the famous theater critic Toir Islamov. His research as a theater theorist, theater critic, translator and teacher are analyzed.

Keywords: review, theater, analysis, performance, criticism.

Toir Islomov 1938-yili 22-fevralda Toshkent shah-
rining “Hastimom” (Hazrati imom) mavzesi “Xalim-
ko‘p” mahallasida tavallud topgan. Uning qalbida
san’atga bo‘lgan muhabbat o‘rta maktabda o‘qib yurgan
kezlaridayoq paydo bo‘lgan edi. Chunki T.Islomovning
akasi atoqli rejissor O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
artist Hoshim Islomov ukasini ko‘plab spektakllarga
olib borar, spektakldan so‘ng uning fikri bilan qiziqardi.
Ukasining spektaklni his qilishini, qo‘yilgan asar bo‘yicha
bildirayotgan fikrlari, aktyor ijrosi rejissor topilmalarini
anglay olishini ko‘rgan Hoshim Islomov unga, albatta,
teatrshunos bo‘lishi kerakligini ta’kidlar edi. Shu tariqa
T.Islomov 1957-yili Toshkent teatr va rassomlik san’ati
institutining “Teatrshunoslik” bo‘limiga hujjatlarini
topshiradi va o‘qishga kiradi. Hoshim Ismoilov
adashmagan edi. T.Islomov institutda teatr san’atiga
o‘ta qiziquvchan, sinchkov talaba bo‘lib tahsil oldi.
1962-yilning o‘qishni tamomlagach, shu yilning o‘zida
institutdagi ustozlarining maslahati bilan San’atshunoslik
ilmiy-tadqiqot institutida kichik ilmiy xodim bo‘lib ish
boshlaydi. Bu dargohda aspirant, ilmiy xodim sifatida
9 yil faoliyat yuritadi. 1971-yili Ozarbayjon fanlar
akademiyasining San’at va arxitektura instituti “O‘zbek
dramaturgiyasida tarixiy mavzu va uning sahnaviy
ifodasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya
qiladi.

1971-1974-yillari T.Islomov O‘zbekiston Madaniyat
ishlari vazirligi Teatr va musiqali muassasalar Bosh
boshqarmasi hamda repertuar muharririyatida mas’ul
vazifalarda ishlaydi. 1974-yildan 2012-yilga qadar O‘zbe-
kiston davlat san’at (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at
va madaniyat instituti) institutining “San’atshunoslik”
kafedrasida “Badiiy tahlil (tanqid)”, “MDH xalqlari



teatri tarixi” fanlaridan dars berib kelgan. 2012-yildan to
umrining so‘ngiga qadar Toshkent madaniyat kollejida
yoshlarga “Teatr tarixi” fanidan saboq bergan.

Toir Islomov faoliyatida tashkilotchilik, teatr tanqid-
chiligi, dramaturgiya va pedagoglikka xos jihatlar uyg‘un
tarzda namoyon bo‘lgan. U Madaniyat ishlari vazirligida
ishlar ekan, teatrlar repertuarini yangilash, professional
darajasini oshirish yo‘lida samarali tashkilotchilik

tadbirlarini amalga oshiradi, institutda esa qator yillar davomida “Drama teatri va kino aktyorligi” fakultetida dekan, “Teatrshunoslik” (hozirgi “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”) kafedra mudiri vazifalarida faoliyat ko’rsatdi. Dekan sifatida aktyorlik yo’nalishi talabalarini ijodiy imkoniyatlarini to’g’ri baholashga, ularga ijod qilish uchun sharoit yaratishga harakat qildi. 1998-yili yoshlarni tarbiyalashdagi munosib ishtiroki uchun “O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni berilgan.

San’at, xususan, teatr san’ati faqat o’zigagina xos jihatlari bilan boshqa san’atlardan ajralib turadi. Uning o’zida mujassam etgan sintetiklik xususiyati mazkur asarlar tahlili va tanqidi jarayonlarini anchagina murakkablashtiradi. Teatr san’ati dramaturgiyasini, rejissurasini, aktyorlik ijrosi, undagi holatlarni, yuz-ko’z imo-ishoralarni, ritmlari, terminologiyasini bilmagan holda u xususida so’z yuritish anchayin qiyin. Hatto ko’p yillardan buyon matbuot sohasida ishlayotgan, ko’plab mavzularda qalam tebratgan professional san’atshunos jurnalistlar ham teatr san’ati xususida izlanish olib borishga hamisha jazm etavermaydi. Sababi inson ichki kechinmalarining go’zal ifodasini undanda nafisroq ta’rifda shakl toptirishni har kim ham uddalayvermaydi.

T.Islomovning munaqqidligi va tadqiqotchilik faoliyatida o’zbek teatrlarining eng yaxshi va umrboqiy tajribalari umumlantirilgan. San’atshunoslik institutida u juda teran va mukammal professional tadqiqotchilik maktabini o’tagan. Chop etilgan ilk maqolalaridan biri – Shukur Burxonovning “Yuliy Sezar”dagi Brut roliga bag’ishlangan. “Ulkan aktyorning ulkan obrazi” sarlavhali maqolada uning san’at asariga yuqori estetik mezonlar bilan yondashish ko’nikmalari yaqqol namayon bo’lgan. 1985-yili ancha shov-shuvga sabab bo’lgan “Sahnada zamon va shaxslar talqini ko’ngildagidekmi?” maqolasi e’lon qilinadi. Unda o’sha davrda respublika teatri sahnasida qo’yilgan tarixiy dramalar va ularning sahnaviy talqinlari xususida fikr yuritiladi. U ahvolni qayd etish bilan cheklanuvchi odatdagi maqolalardan emasligi sababli e’tiborsiz qolmadi. Dramaturg Uyg’unning “Zebiniso” asari tahlil etilar ekan, “Pyesada tarixiy shart-sharoit umumiy tarzda haqiqatga yaqinlashib keladi va shu bilan pyesaning ilmiy asoslari, hujjatli manbalari tugaydi. Badiiy to’qimalar, ijodiy fantaziya esa afsuski, uydirma darajasiga borib yetadi”. P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” asari bo’yicha ham shunga o’xshash salbiy fikr bayon etilib, akademik teatrlarning pyesalarni sayoz holda qabul qilishi va ularga prinsipal g’oyaviy, badiiy munosabatlarni bildirmasligi kishini afsuslantiradi”, – degan xulosa chiqariladi.

Bosh teatrimiz sha’niga aytilgan bu e’tirozli mulohazalar bir jihatdan favquloddaligi bilan ko’zga tashlansa-da, lekin maqolani kuchi bunda emas, balki “Mirzo Ulug’bek”, “Alisher Navoiy” kabi shoh asarlar tahlili misolida, yuqoridagi spektakllar ijodiy chekinish ekanini asoslab berilishida edi. Shu bois maqola 1985-yili chiqqan teatr maqolalarining eng yaxshisi sifatida

“Guliston” jurnali tahririyatining mukofoti bilan taqdirlandi.

San’at asarlari tahlili bir qadar murakkab jarayondir. Bunda san’atshunosdan san’at tarixi, nazariyasi, zamonaviy muamolari haqida chuqur bilimlarga ega bo’lish talab etiladi. Shuningdek, san’at asarlari tahlilida nafaqat badiiy estetika, san’at estetikasi, obraz va obrazlilik xususida, balki uzoq tarix va bugungi kun ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot taraqqiyoti tendensiyalari haqida ham chuqur bilimlarga ega bo’lish ham juda muhim hisoblanadi. Qolaversa, har bir san’at turi, janr xususiyatlari tahlilda munosabat mezonlarini belgilaydi. Inchunun, tahlil etiladigan obyekt tadqiqida qanday bo’yoqlardan foydalanish, qay darajada foydalanish normalarini belgilashga xizmat qiladi.

T.Islomovning “Guliston”, “O’zbekiston san’ati”, “Nafosat”, “Teatr” jurnallari va gazetalarida e’lon qilingan maqola va taqrizlari Istiqlol davri o’zbek teatri va dramaturgiyasi jarayoni va muammolarini anglashda muhim manba hisoblanadi. U “Ijodkor ma’suliyati” maqolasida teatr san’atimiz rivojining tub yo’llaridan biri – hamon eskicha ishlashda davom etayotgan teatrlarni isloh qilib yangi sharoitga moslashtirishda, deb bong urdi. Dramaturgiya rivoji masalasi uning diqqat markazida turgan muammolardan biri: “Dramaturgiyamizning ba’zi masalalari”, “O’zbek teatri mustaqillik yillarida”, “Istiqlol va teatr” (H.Ikromov bilan hamkorlikda yozilgan) kabi maqolalarida T.Islomov yangi davr va yangi ijodiy tendensiyalarni tahlil etadi, yangi ijodiy yutuqlarni ochishga harakat qiladi. Bundan tashqari, uning “Piri koinot”, “Uch kunlik dunyo”, “Boshi berk ko’cha”, “Toshxon qissasi” taqrizlari yangi izlanishlarni izohlash va umumlantirishga qaratilganligi bilan e’tiborlidir.

1998-yili G.G’ulom nomidagi adabiyot va san’ati nashriyoti tomonidan chop etilgan “Tarix va sahna” kitobi T. Islomovning tadqiqotchilik salohiyatini yaqqol ko’rsatuvchi monografik asar bo’lib, teatrshunoslik faniga ko’shilgan muhim hissa hisoblanadi. Bu o’zbek dramaturgiyasida tarixiy – biografik janr va uning sahnaviy talqini masalasini ilmiy sharhlanishi bilan T.Islomov tomonidan ochilgan yangilik edi. Risoladagi konsepsion yondashuv realistik san’atning yuqori talablari mezonni asosiga qurilganligi bilan ahamiyatli edi. Unda “Alisher Navoiy”, “Mirzo Ulug’bek”, “Muqanna”, “Jaloliddin Manguberdi” kabi asarlarning umrboqiyliги ularning chinakam tarixiyliги va ayni zamonda tamoshabin ma’naviy ehtiyoj yuzasidan ilmiy tahlil etilganligi bilan belgilangan.

T.Islomov nafaqat teatr nazariyotchisi tanqidchi sifatida tanilgan, balki uning tarjimasidagi Isqirt satang” (Y.Eminov), “Halokat” (F.Dyurrenmat), “Qalbi olov” (N.Miroshnichenko), “Jonginam, jonimni ol” (A.Nesin), “Ashirboy” (G.Abdumo’minov) kabi pyesalar Toshkent, Samarqand, Xorazm va qo’shni Qirg’iziston teatrlarida qo’yilgan. Qolaversa, T.Islomov muvaffaqiyatli sahnalashtirilgan bir qator pardali dramatik asarlarning muallifidir.

T.Islomov 1974-yildan boshlab, 25 yil mobaynida televideniye va radio ko'rsatuv va eshittirishlarning muallifi, boshlovchisi sifatida ham faoliyat ko'rsatgan. U o'z chiqishlarida o'sha davr teatrining yutuq va kamchiliklari haqida mukammal darajada fikr bildirgan. Bundan tashqari, zamonaviy dramaturgiyada erishilgan natijalar, yosh dramaturglar tomonidan yozilgan asarlarning dolzarb mavzuda ekanligini tahlil etish hamda buni xalqqa tanitish ham ushbu dastur va eshittirishlarning asosi bo'lgan.

Toir Islomovning teatr tarixi va nazariyasini puxta bilishi teatr pedagogika sohasida ham islohiy tadbirlarni amalga oshirishda asqatmoqda. U "Jahon teatri tarixi" (Rus teatri tarixi) darsligini ham muallifi hisoblanadi. Ayni damda ushbu darslik san'at yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun rus teatri o'rganishda asosiy adabiyotlardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu darslikda T.Islomov rus teatrining ilk davridan boshlab, XX asrga qadar bosib o'tgan tarixiy davrini hamda rus dramaturgiyasining rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk dramaturglar, rejissorlar, aktyorlar va teatr nazariyotchilarining o'ziga xos qirralarini ochib bergan.

T.Islomov San'atshunoslik yo'nalishiga oid bir qator fanlarning dasturlarini tuzishda uni amaliyotga joriy etishda yetakchilardan biri bo'lgan.

Biror spektaklga bag'ishlagan maqolasining o'zi murakkab bir badiiy asar darajasiga yetgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Muayyan asar teatrshunos qalamga olganidek professional ijod mahsuli bo'lmasligi, spek-

taklning ayrim elementlarini ijodkorning o'zi ham tasavvuriga keltirmagan bo'lishi mumkin. Ammo teatrshunos sinchkov va topqir bo'lsa, spektaklning yangi qirralarini ham asar muallifidan go'zalroq bayon etishi mumkin.

T.Islomov shunday teatrshunoslardan edi. U ko'pchilik anglamagan jihatlarni ko'rardi. Aktyor yoki rejissor e'tibor qaratmagan qirralarni tahlil etib berar edi. U ko'plab spektakllarning muhokamasida muntazam ishtirok etib kelgan. Uning yangi sahnalashtirilgan sahna asari haqida bildirgan fikrlari, taklif va mulohazalari aktyor hamda rejissorlar uchun qimmatli edi. Teatrlarning yangi spektakllarini muhokama qilishda kamchiliklarni dadil aytib, aniq maslahatlar berish har kimning qo'lidan kelavermaydi. T.Islomov asosli tarzda kamchiliklarni aytib oluvchi munaqqidlardan biri bo'lgan. Shunday xususiyatlari uchun "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasining "2001-yilning eng faol tanqidchisi" yillik professional mukofoti bilan taqdirlangan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Toir Islomovning ijodiy bisotida o'nlab risolalar va yuzlab maqolalar bor. Uning dramaturg sifatida yaratgan sahna asarlarida ham o'z o'y-kechinmalari, hayotiy xulosalari aks etib turadi. Har bir ijod namunasida insonning falsafasi, yurak tafti mujassam.

Ustoz Toir Islomov san'at ahli qalbida tanqidchi, dramaturg, pedagog sifatida bir umrga iz qoldirdi. Uning ulkan ilmiy merosi bugungi kun teatr tanqidchiligini o'rganishda, uni tadqiq etishda ulkan manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Islomov T. Tarix va sahna. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – B. 320.
2. Tulyaxodjayeva M. Rejissura uzbekskogo dramaticheskogo teatra. –Tashkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. –290 s.
3. Tursunov T. Turg'un Azizov. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 402.
4. Rizayev O. Nabi Rahimov. –Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. – B. 298.
5. Tursunov T. Sahna va zamon. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 416.



“Ipak yo‘li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivali ishtirochilari bo‘lgan Shota Rusaveli nomidagi Gruzija davlat teatr va kino universiteti rektori Georgiy Shalutashvili, “Gruziyafilm” aksiyadorlik jamiyati direktori, Gruzija teatr va kino universiteti asistent-professori Georgiy Xaribava, Gruzija teatr va kino universiteti professori David Djaninidze, B.Beyshenaliyeva nomidagi Qirg‘iziston davlat madaniyat va san‘at universiteti rektori Mamasharip Chotonov, Turkiyaning



Baxsheshexer universiteti Kino, televideniye bo‘limi boshlig‘i Nilay Ulusoylardan iborat delegatsiya a‘zolari joriy yilning 30-sentabr kuni O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutiga tashrif buyurdi. Ular institutdagi ta‘lim jarayonlari bilan tanishdi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo‘ldoshev mehmonlarga bu yerda nazariy va amliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun yaratilgan sharoitlar haqida so‘zlab berdi.

Tashrif doirasida oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro kelishuvlarni imzolash jarayonlari bo‘lib o‘tdi.

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to‘rt marta nashr etiladi

Nashrga tayyorlovchilar:

G‘ani Xudoyev,
Faxriddin Abduvohidov,
Nasiba Turg‘unova,
Muqaddam Sodiqova,
Zilola Ergasheva,
Maksim Savochnik,
Anvar Qobilov,
To‘xtaxon Qo‘ziyeva.

Sahifalovchi-dizayner:

Abdug‘ani Sodiqov

Bosishga ruxsat etildi: 19.07.2021 y. Ofset bosma usulda bosildi.

«Times New Roman» garniturasida. Bichimi 60×841/8.

Shartli bosma tabog‘i 12,25.

Buyurtma raqami № 2. Adadi: 160 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
Yalang‘och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal «Donishmand ziyosi» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30.



O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo‘ldoshev poytaxtimizda bo‘lib o‘tayotgan “Ipak yo‘li durdonasi” Toshkent xalqaro kinofestivalida ishtirok etayotgan Turkiyalik taniqli rejissor Huseyin Ozdeni qabul qildi.

Huseyin Ozden ilgari ham bir necha bor O‘zbekistonda bo‘lgan. Mamlakatimizdagi buyuk zotlar, ulug‘ allomalarimiz hayoti va ijodi bilan tanishgan.

Taniqli kinorejissor xalqaro kinofestivalda she‘riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy haqidagi hujjatli filmi bilan ishtirok etmoqda. Uchrashuvda Navoiy asarlarining noyob jihatlariga e‘tibor qaratildi. Turkiyalik mehmon Alisher Navoiy hujjatli filmining yaratilishi, uning o‘ziga xos jihatlariga haqida so‘zlab berdi.

Alisher Navoiy haqidagi hujjatli filmni yaratishdan maqsadi ham shoir hayoti, ijodi orqali xalqimiz madaniyati bilan tomoshabinlarni yaqindan tanishtirishdan iborat.

Rejissor ushbu filmni yaratishda 30 dan ortiq o‘zbekistonlik, 10 dan ziyod turkiyalik olimlar ishtirokida O‘zbekiston bilan hamkorlikda ishladi. Suhbat davomida buyuk ajdodlarimiz, allomalarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar, ularning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga e‘tibor qaratildi.

Shuningdek, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda Huseyin Ozden o‘rtasida tarixiy filmlar yaratish, ma’lumotlar almanishuvi, ta’lim jarayonlarida o‘zaro hamkorlik bo‘yicha fikrlashib olindi.



2021-yil 15-19-sentabr kunlari Tojikiston Respublikasi Dushanbe shahrida “Evropa standartlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali madaniyat va san’at mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv jarayonini takomillashtirish” nomli xalqaro konferensiya o‘tkazildi. Ushbu anjumanda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasini mudiri Temur Rashidov va “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasini mudiri Baxtiyor Salaydinov ishtirok etdi.